

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

JISER

International
multidisciplinary
scientific journal



- ✓ Academic journal, an academic or scholarly periodical
- ✓ Scientific journal, an academic journal focusing on science
- ✓ Medical journal, an academic journal focusing on medicine
- ✓ Law review, a professional journal focusing on legal interpretation





*“JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND
EDUCATIONAL RESEARCH”*

VOLUME 2, ISSUE 2
(30- January)

Ushbu to'plamda "**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH** " ilmiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o'rin olgan.

Mazkur jurnalda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda yo'nalishlar bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktab o'qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ	
SO'Z BOSHI	
FILOLOGIYA	
<i>Nabiyeva Shaxzoda Rustamovna</i> ADABIYOTNI O'RGATISHDA O'QITUVCHINING O'RNI	9
<i>Sulaymonova Nozima Nodirjon qizi, Ahmadjonova Sevaraxon Shuhrat qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA TARBIYALASHDA BADIY ADABIYOTNING AHAMIYATI	12
<i>Alijonova Marxabaxon Qaxramon qizi</i> NATIVE LANGUAGE AND ITS SKILLS PLAY AN CRUCIAL ROLE DURING LEARNING ADDITIONAL FOREIGN LANGUAGE CANNOT BE UNDERESTIMATED	16
<i>Davlatov Nuriddin</i> "MIROT UL-MAMOLIK" ASARINING O'RTA OSIYO XALQLARI TARIXINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI	18
<i>Enazarova Dilfuza Abdurahmonovna</i> ONA TILI O'QITISHNING AHAMIYATI	21
<i>Shaptakova Adolatxon Shuxratovna</i> INGILIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z YASALISH HODISASI VA LEKSIK DERIVATSIYA	23
<i>Komilova Feruza Pirnafasovna</i> ONA TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN VA O'QUVCHILARNING TAFAKKURINI YUKSALTIRADIGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	26
<i>Maftuna Ashirova O'tkir qizi</i> HOW TO CREATE CREATIVE LESSONS FOR CHILDREN- SOME BENEFITS TO INCREASE THEIR INTERESTS IN EDUCATION	29
<i>Kodirova Gulshan</i> THE DESCRIPTION OF NATURE IN ENGLISH AND UZBEK POEMS	31
<i>Otajonova Ozoda O'rinboyevna</i> O'ZBEK TILI FANI, VA UNI O'RGANISH BO'LIMLARI	35
<i>Sevara Tangrbergenova, Shuhrat Abdullayev</i> FE'LGA QO'SHILIB QO'LLANILADIGAN -(a)r+-mi+-siz SHAKLINING BADIY MATNDA VA AYRIM TURKIY TILLARDA QO'LLANILISHI	37
<i>Boboqulova Gulhayo Ismoilovna, Nasrullayeva Tozagul Suxrobovna</i> SIMULTANEOUS INTERPRETATION AND ITS FEATURES (ON THE BASIS OF CORPORA)	40
<i>Tojixalov Humoyun Abduxamidovich</i> THE WAYS OF TEACHING ENGLISH VOCABULARY TO PUPILS IN PRIMARY SCHOOL	42
<i>Allayorov Xudoyor Birodar O'g'li</i> TECHNOLOGY INTEGRATION IN THE CLASSROOM	44
<i>Махкамова Шахноза Туйчибаевна, Боймуродова Лобар Турсунбой кизи</i> СЎЗ ЖОЗИБАСИ ВА АДИБ МАҲОРАТИ	46
<i>Hojmatova Xurshida</i> TURKIY XALQLARNING YOZUV TARIXI	48
<i>А. Шаяусупова, Р.Хайдарова</i> МЕТОД ПРОЕКТОВ И ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	50
<i>Г.Б.Махмудов, Д.Ю.Абдуназарова</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ НЕЧЁТКОЙ ЛОГИКИ	53
<i>Ахмедов Ойбек Сапорбаевич, Мирзохидова Нозима Улугбек кизи</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА ОТ СЎЗ ТУРКУМИ ЯСАЛИШНИ ТИПОЛОГИК ЎРГАНИШ	57
<i>Турсуналиева Муслимабону Абдувосит кизи</i> "ЮСУФ ВА ЗУЛАЙХО" ДОСТОНИНИНГ ҲАМД ҚИСМИНИНГ БЕРИЛИШИ (ОГАХИЙ ТАРЖИМАСИ ҚЎЛЁЗМАЛАРИ АСОСИДА)	60
<i>Xidiraliev Husain Rozmatovich</i> CHET TILINI O'RGANISHDA "INTERFERENTSIYA" TUSHUNCHASING O'RNI	64
<i>Nazarova Nigina Otabel qizi, Jabbarov Azim Atakhanovich</i> APOLIPOPROTEIN L1 GENE (APOL1) G1 AND G2 RENAL-RISK ALLELES (RRAS) WITH SYSTEMIC LUPUS ERYTHEMATOSUS WITH LUPUS NEPHRITIS	67
<i>Babajanova Shahnoza</i> CHINGIZ AYTAMATOV ASARLARIDA INSON OBRAZI	69
<i>Khudoyberganova Nodirakhon Olimjon qizi</i>	71

CHARACTERISTIC FEATURES OF THE USE OF ZOONYMS IN PHRASEOLOGICAL UNITS OF THE RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES	
G'ulomova Shoxsanamxon G'ayratjon qizi BOOK IS SPRING OF BRILLIANCE	73
Najmiyeva Pulotoy Tilavmurodovna HEIAN DAVRI ADABIYOTINING HIGUCHI ICHIO ASARLARIDAGI TA'SIRI	75
Jo'rayeva Nilufar Shuxrat qizi LES PARTICULARITÉS DE L'ENSEIGNEMENT DES LANGUES ÉTRANGÈRES	78
Absalomova Aziza Bakhodir qizi THE USE OF MODERN METHODS AND THE ROLE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN ENGLISH LESSONS	81
Gaipova Narqiza Mamaraimovna ИЛФОР ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЖИХАТЛАРИ (ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА)	84
И.Набихонов, А.А.Закиров ГИДРОНИМЫ ДЖИЗАКА	87
Узакова Зарифа Шарибековна ПРАКТИЧЕСКИЙ ХАРАКТЕР ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В УЗБЕКСКОЙ ШКОЛЕ	89
М.И.Исмоилова ЎЗБЕК ТИЛИДА ПОСЕССИВЛИК КАТЕГОРИЯСИ	92
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	
Omonov Sherali REKLAMANI PSIXOLOGIK TASIRI VA UNING SABABLARI	95
Ёқутхон Уринбаевна Каримжанова, Анваржонов Азимжон Анваржон ўғли ШАХСНИНГ ЭМОЦИОНАЛ ҲОЛАТЛАРИНИ АНИҚЛАШДА ПРОФАЙЛИНГ АҲАМИЯТИ	98
Феруза Ражабова ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИДА МУМТОЗ МУСИҚАНИНГ ЎРНИ	101
Abduraimova Shahlo Abdimannabovna PEDAGOG-TARBIYACHI FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUV	104
Бегматова Нилуфар Эргешевна ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ	106
Do'smurodova Feruza Xudayberdi qizi, Ramazonov Olim Ixtiyor O'g'li QORAQALPOQ XALQ SHOIRI ZABARDAST IJODKORLARIMIZDAN BO'LGAN BERDAQ IJODINI O'RGANISH JARAYONINING TARBIYAVIY AXAMIYATI	109
Ro'ziyoyeva Farog'at BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ OG'ZAKI IJODINING TARBIYAVIY AHAMIYATI	112
Ziyayev Imomali Nigmatullayevich PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA MUTAXASSISLIK FANLARI UCHUN ELEKTRON O'QUV MAJMUALARINI YARATISH HAMDA TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH	114
Suyumov J.Yu, Madraximov U.Q OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASIDA ELEKTRON O'QUV QO'LLANMA VA ELEKTRON DARSLIK YARATISH MUAMMOLARI	116
Karimova Ra'no Ravshanovna MAKTAB PSIXOLOGLARI FAOLIYATI VA UNING MAKTABDAGI MAVQEYI	118
Kulmuhamedova Malika Miralimovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	120
Davronova Xafiza Akbar qizi, Xatamov Axtam QAVARIQ VA LIPSHITS-GO'LDER SHARTINI QANOATLANTIRUVCHI FUNKSIYALARNI CHEKLI ORALIQLARDA INTEGRAL METRIKADA ENG YAXSHI SPLAYN YAQINLASHTIRISHLARINING QUYI BAHOLARI HAQIDA	123
Байёшанов Абдулла Мустафаевич ҚАДРИЯТЛАР –ЖАМИЯТ МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИ НЕГИЗИ	126
Olimjonova Gulshanoy Kosimjon qizi BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING MILLIY QADRIYATLAR HAQIDAGI TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH	129
Radjarova Muhabbat Erkayevna BOSHLANG'ICH SINFLAR DARSLARIDA AKT FAN FOYDALANISH	132
Shamshiyeva Barno Nigmatxodjayevna FAN- TA'LIM TARRAQIYOTIDA INOVVATSION YONDASHUV	134
O'rinboeva Zuhra O'QUVCHILARDA KOMPYUTER O'YINLARIGA TOBELIK VA ULARNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK	137

USULLARI	
Абдурахимов Анвар Абдуваҳоб ўғли ЁШЛАРДА ХУЛҚ ОҒИШИ ВА ТАРБИЯ БУЗИЛИШНИНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ БЎЙИЧА ПРОФИЛАКТИК ТАРДБИРЛАРНИНГ АЙРИМ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ	139
Рашианова Раъно Хандамовна ИНСТИТУЦИОНАЛ ВА СПОНТАН ДИСКУРСДА МУРОЖААТНИНГ СТАНДАРТ УСУЛЛАРИ	142
Юлдашева Шохиста Тоғжалиевна БОЛА ШАХСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚўЛЛАШНИНГ САМАРАЛИ ЖИҲАТЛАРИ	147
Азиза Шаносупова, Севара Мирсамадова ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В СИСТЕМЕ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ	150
Жандуллаева Э. Х КОНЦЕПТУАЛИЗАЦИЯ КАК ОСНОВА НАУЧНОГО ТЕКСТА	153
Сакаева Найля Рустемовна ЭТАПЫ РАБОТЫ НАД ТЕКСТОМ	155
Abdullayeva Dilorom Atabaevna, Ametova Nodira Zakirovna KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA BILISH JARAYONLARINING RIVOJLANISHI	158
Allanazarov J, Qudaybergenova Gulmira Rustem qizi OLIIY O'QUV YURLARIDA FUNKSIYALARNI INTERPOLYATSIYALASHNI O'QITISH METODIKASINI ISHLAB CHIQUIS	160
Маълянова Шарафотхон Тўлқиновна ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ, СПОРТ СОҒЛОМЛАШТИРИШ ЖАРАЁНЛАРИДА МАЪНАВИЙ АХЛОҚИЙ ТАРБИЯНИНГ ЎРНИ	162
Shinnazarov Sabirbay Tolibaevich MAKTABDA INFORMATIKA DARSIDA OB'YEKTGA YO'NALTIRILGAN DASTURLASHTIRISHNI O'ZLASHTIRISHNING METODIKASINI ISHLAB CHIQUIS	165
Latipova Xurshida Abdullayevna, Abdreyimova Aziza MOTIV VA MOTIVATSIYANING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	168
Қодирова Озода Қўлдашевна ЎЗБЕК ТИЛИ ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯВИЙЛИГИ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ	170
Парпиев Азизбек Валижонович ЕНГИЛ АТЛЕТИКА ДАРСЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ	173
Сайдуллаева Саидахон Рахмоновна, Атабаева Гулсорахон Расулжановна Парпиева(Позилова)Мухаёхон Султановна БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАТЕМАТИК САВОДХОНЛИГИНИ ОШИРИШ УСУЛЛАРИ	176
Мирсолихова Хуршида ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАЪЛИМИ РИВОЖЛАНИШИДАГИ АЙРИМ МУАММО ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ ХАҚИДА	179
Мирсолихова Хуршида Мирзафаровна МУЗЫКА КАК КАРТИНА МИРА И ФЕНОМЕН КУЛЬТУРЫ	181
Qosimova Dildora Khayriddinovna USING MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE	184
Qutlijeva Inobat Xushnudovna INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH	187
Safarova Kimyoxon Boqijanovna KIMYO FANINI O'QITISHDA KREATIV METODLARDAN FOYDALANISH	189
Yuldashev Gayratjon Zokirjonovich PROBLEMS OF TEACHING ENGLISH AND WAYS TO SOLVE THEM	191
Shirinboyev Xudoynazarbek Tolib o'g'li ABDULLA ORIPOVGA O'XSHASAM DEYMAN!	193
Eshtayeva Dildora Kaxarovna PRAGMATIK XUSUSIYATLARNING TARJIMADAGI AHAMIYATI VA RO'LI	196
Eshtayeva Dildora Kaxarovna PRAGMATIK MA'NO TURLARI	198
Hamroqulova Dilshoda JEK LONDONNING "HAYOTGA MUHABBAT" ASARININIG MAKTAB DARSLIGIDA O'RGANILISHI	200
Seralieva Gulmeray Salamatovna	202

VATAN VA MILLATNI MADH ETGAN BUYUK IJODKOR <i>Xonjonova Muxabbat Faxritdinovna</i> <i>Mo'tinova Gulbahor Mahmudovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGI	204
<i>Ильясова Гулнора Сабиrowна</i> <i>Атаджанова Наргиза Султанбаевна</i> ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОЦЕССА НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	206
<i>Тухтаназарова Насиба Абдурасуловна</i> <i>Абдурахимов Бахтиер Файзиевич</i> АНАЛИЗ РЕГИОНАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ И ИХ ПОСЛЕДСТВИЙ	208
<i>Якунов Ахмет Айтмуратович</i> САЛМЕН ЭПИОН КАМАЛ ЎҒЛИ (1884-1952)	210
<i>Tursunaliyeva Muxlisaxon Dilmurodjon qizi</i> OILADA SOG'LOM MUHIT VA UNI BOLA TARBIYASIGA TA'SIRI	213
<i>Fozilova Madina Shokirovna</i> WORD FORMATION IN THE MODERN ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES: COMPOUNDING AS A MAIN TYPE.	215
<i>Hamroqulov Oxunjon</i> МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA ILM-FAN VA TABIAT MARKAZINING AHAMIYATI	218
<i>Kamolova Gulnoz Muzaffarovna</i> ONA TILI VA ADABIYOT FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	220
<i>Maxmudhodjayeva Feruza Abdusalilovna</i> МАКТАБГАЧА TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK-INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	223
<i>Qosimov G'affor</i> INKLYUZIV TA'LIM TAMOYILLARI	226
<i>Sotvoldiyeva Sevara Jakbaraliyevna</i> ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR DIQQATINI JALB QILISHNING AHAMIYATI	228
<i>To'raqulova Feruza Safarovna</i> TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISH VA O'QUVCHILAR BILIMINI ZAMON TALABI ASOSIDA BAHOLASH	230
<i>Икромова Санобар Икром кизи</i> ИНТЕРФАОЛ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ	232
<i>Мамарахмонова Дилбархон</i> ШУКУР ХОЛМИРЗАЕВ ҲИКОЯЛАРИДА ИНСОН РУҲИЯТИ ТАСВИРИ	234
<i>Boltaboyeva Xurramoy Xikmatillayevna</i> BIOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIKA VA AXBORAT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	236
<i>Matajonova Gulida Voxobjonovna</i> FIZIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI	238
<i>Nurmuhammadiyeva Vasila Vafogul qizi</i> ILK O'SPIRINLIK DAVRIDAGI YOSHLARNING SHAXSIY XUSUSIYATLARI VA MUAMMOLARI	240
<i>Otaboyev Olloyor Sobirjon ogli</i> PROBLEMS IN TEACHING ENGLISH AND THEIR SOLUTIONS	242
<i>Bahromov Sunnatilla Hamidjon o'g'li</i> INSON QADRINING TURLARI	244
<i>Мирзаниёз Ражабий Хамидзода</i> “АРБАИН” ЛАРДА КЎТАРИЛГАН ОДОБ-АХЛОҚ МАВЗУСИ	248
<i>Якунов Ахмет Айтмуратович</i> <i>Наўбетов Айтбай Темирбаевич</i> <i>Жумашиев Асқар</i> УЛАМОЛАРНИНГ ҚУВФИГА УЧРАШИ ВА МАСЖИД МАДРАСАЛАРНИНГ ЁПИЛИШИ	252

FILOLOGIYA

ADABIYOTNI O`RGATISHDA O`QITUVCHINING O`RNI.

Nabiyeva Shaxzoda Rustamovna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar

4-umumiy o`rta ta`lim maktabi ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Annoatasiya: *Ushbu maqolada ona tili va adabiyot o`qituvchisi bo`lish sirlari haqida ayrim ma`lumotlar keltirilgan.*

Kalit so`zlar: *o`z kasbini sevmog`i, pedagogik faoliyatga qobiliyati bor, ijodkor, ishbilarmon, bolajon, vatanparvar, talabchan.*

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko`tarilgan barcha tadbir-u amallar respublikamizning aqliy salohiyatini oshirishga qaratilgan ekan, bu eng avvalo, o`qituvchi kasbiga bo`lgan munosabatni tub jihatdan o`zgartirishni, uning ma`naviy - axloqiy va aqliy kamolotini oshirish lozimligini taqozo etadi.

Demak, bu fikrlarni ilmiy-nazariy tahlil qilish, shunday xulosalarga olib keladi: Birinchidan-ona tili va adabiyot o`qituvchisi o`z kasbini sevmog`i, pedagogik faoliyatga qobiliyati bor, ijodkor, ishbilarmon, bolajon bo`lmog`i;

Ikkinchidan – milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yaxshi anglaydigan va mukammal egallagan, diniy va dunyoviy bilimlardan ogoh, ma`naviy-axloqiy barkamol inson sifatida obro`- e`tiborga ega bo`lmog`i;

Uchinchidan – iymon-e`tiqodi butun, har qanday oqimlarga va ko`rinishlarga o`zining qat`iy munosabatini bildiradi oladigan, eng muhimi O`zbekistonning mustaqil davlat sifatida maydonga chiqishiga ishonadigan va boshqalarni ham ishontira oladigan bo`lishi;

To`rtinchidan - ona tili va adabiyot o`qituvchisi vatanparvarlik g`oyasi bilan sug`orilgan bo`lmog`i va o`z tarbiyachilarini ham ana shu yo`lda fidokorlikka undamog`i;

Beshinchidan – pedagogik kasbiga doir bilimlarni, ya`ni psixologik, pedagogik mahoratni, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallagan bo`lishi;

Oltinchidan – bolalarni sevisish, ular ruhiyatini yaxshi bilishi, shuningdek, ularning yoshi va individual xususiyatini hisobga olgan holda, ular bilan muomalaga kirisha olishi;

Yettinchidan - ona tili va adabiyot o`qituvchisi erkin va ijodiy fikrlay olishi, talabchan, adolatli bo`lmog`i;

Sakkizinchidan - ona tili va adabiyot o`qituvchisi odobli, iboli va hayo sohibi bo`lish bilan birga, o`z tarbiyachilarini ham ana shunday sifatlar bilan qurollantirishga harakat qilmog`i;

To`qqizinchidan - ona tili va adabiyot o`qituvchisi o`z so`ziga va qilayotgan ishiga bolalarni ishontira oladigan, obro`-e`tiborli shaxs bo`lmog`i;

O`ninchidan-ona tili va adabiyot o`qituvchisi o`tkir suxandon, mantiqiy fikrlovchi, o`qituvchilarga berilishi lozim bo`lgan ma`lumotni izchil va ketmaketlik prinsipi asosida yetkazishi;

O`n birinchidan - ona tili va adabiyot o`qituvchisi madaniyatli, estetik didli bo`lishi bilan o`zining tarbiyalanuvchilari uchun ibrat bo`lib qolmog`i lozim;

O`n ikkinchidan – ona tili va adabiyot o`qituvchisi zamon bilan hamnafas tarzda barcha sohada bo`layotgan yangiliklardan boxabar va axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishi kerak.

Agar o`qituvchi ana shunday sifatlarni o`zida mujassam qila olsa, Kadrlar tayyorlash milliy modelida qayd etilgan, qo`yilgan talablarga to`liq javob bera oladi deyish mumkin. O`qituvchilik kasbini egallash uchun, albatta, tabiiy qobiliyatlar bilan birga, jismoniy, ruhiy xislatlar ham shakllangan bo`lmog`i darkor. Aks holda o`qituvchilik kasbini tanlagan bunday shaxslardan na jamiyatga, na o`zgalarga hech qanday manfaat bo`lmasligi turgan gap.

Pedagogik faoliyatning mazmuni, asosan, yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga tarbiya berish uchun layoqatli, talab doirasida barcha aqliy va axloqiy salohiyatga ega bo`lgan, maxsus tayyorgarlikdan o`tgan shaxslarning alohida faoliyatiga aytiladi. Aniqroq qilib aytganda, o`qituvchilarning mehnat faoliyati komil insonni tarbiyalashga qaratilgan murakkab va ziddiyatli va uzoq davom etadigan jarayondir.

Badiiy adabiyot o`z holicha inson hayotiga bevosita kerak emasday bo`lib tuyulsa-da, amalda insonning odamiylik martabasiga yuksalishi uchun xizmat qiladigan ma`naviy sifatlarni shakllantirishda muhim o`rin tutadi. Chunki badiiy adabiyotda inson ruhiyati aks etadi. Binobarin, o`z ahlida ezgu ruhiy sifatlarni qaror topdirmoqchi bo`lgan millat ta`lim muassasalarida adabiyot o`qitishni imkon qadar samarali yo`sinda tashkil qilishga e`tibor qaratadi. Negaki, adabiyot yordamida bilvosita shakllantirilgan ma`naviy sifatlari inson ruhiyatining ezgu bo`lishiga olib keladi. ezgu ma`naviy fazilatlar esa, shaxs takomilining, binobarin, jamiyat taraqqiyotining omilidir.

Ayniqsa, inson omilining salmog`i ortib, bir odamning qo`lidan ulkan yaxshiliklar ham, tengsiz yovuzliklar ham kelishi mumkinligi yoshlarga imkon qadar ko`proq ezgu sifatlarni singdirish kerakligini taqozo etadi. Binobarin, adabiyot o`qitish metodikasi fanining predmeti muhim ijtimoiy salmoq kasb etadi. Badiiy asar o`qishga doimiy ehtiyoj, adabiyotdan xabardorlik, o`qiganlarni tushunish va tahlil qila olish hamda bu xususda istasa og`zaki, istasa yozma shaklda ravon fikr bayon qila bilish millat ahli intellektual rivojidan dalolat bo`ladi. Shuning uchun ham adabiyot o`qitishni samarali yo`lga qo`yish o`quvchilarning o`zlashtirishini yaxshilashga qaratilgan didaktik tadbirgina bo`lmay, yoshlarda ezgu ma`naviy sifatlari tarkib toptirishga yo`naltirilgan umumilliy ahamiyatga ega yumushdir.

Mustaqillik arafasida va undan so`ng yaratilgan adabiyot darsliklarida asosiy e`tibor o`quvchilarga o`zbek adabiyotining naqadar boy va jozibali ekanini anglatishga qaratildi. SHuningdek, bir milliy adabiyot namunalariga mehnatkashlar adabiyotil, saroy adabiyotil va diniy mistik adabiyotl tarzida qarama-qarshi qo`yib yondashish an`anasi barham topdi. Ko`p asrlik o`zbek adabiyotiga umumiy badiiy boylik va millat ma`naviyatini shakllantirishda baravariga qatnashishi mumkin estetik imkoniyat tarzida yondashildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Зуннунов А., Ҳотамов Н., Иброҳимов А., Эсонов Ж.
Адабиёт ўқитиш методикаси. -Т.: Ўқитувчи, 1992.
2. Йўлдошев Қ., Мадаев О., Абдураззоқов А.
3. Адабиёт ўқитиш методикаси. -Т.: Университет, 1994

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA
TARBIYALASHDA BADIY ADABIYOTNING AHAMIYATI****Sulaymonova Nozima Nodirjon qizi***Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi***Ahmadjonova Sevaraxon Shuhrat qizi***Farg'ona davlat universiteti**Maktabgacha ta'lim yo'nalish talabasi*

Annotatsiya: *Maktabgacha ta'lim – ta'lim tizimining ilk bo'g'ini, barkamol shaxs shakllanishi uchun – ilk poydevor. Kelajagimiz egalari bo'lgan bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir, chunki unda jamiyatning barcha a'zolari ishtirok etadilar. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga xususan, maktabgacha ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bolalarga bilim va tarbiya berishning asosiy manbalardan biri kitobdir. Kitob kichiktoylar fikricha hamma narsaga javob beruvchi vosita sifatida tan olinadi. Bolalarga atalgan kitoblarning maqsadi ularga tabiat ato etgan his-tuyg'ularni o'stirishdan iborat. Bunday kitoblarning bilvosita ta'siri bolalarning aqliga emas balki ularning his-tuyg'ulariga qaratilmog'i kerak. Badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashda ta'sirchan qurol sifatida xizmat qiladi, bola nutqining rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga o'qib beriladigan matn tili badiiy jihatdan puxta, tushunarli, aniq va ravon, bolaning so'z boyligini oshirishga yordam beradigan bo'lishi zarur.*

Tayanch so'z va iboralar: *badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi, badiiy til, matn tili, tasviriy vosita, badiiylik, she'riy obraz, xarakter.*

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish, ularda kitoblarga nisbatan mehr-muhabbatni oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Davlat talablari asosida va yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilib, samarali tarzda olib borilmoqda. Aynan to'rtinchi tashabbus esa yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan. Kelajak avlodning bolalik chog'idan kitobga mehr uyg'otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo'llarining faravon bo'lishida mustahkam zamin yaratadi. Komil inson bo'lib shakllanishida asosiy o'rin tutadi. Badiiy adabiyot bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ta'sirchan vositasi bo'lib, u ular nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan hissa qo'shadi. Badiiy adabiyot she'riy obrazlar orqali bolaga jamiyat, tabiat hayoti, insoniy his-tuyg'ular va munosabatlarni tushunishga yordam beradi, emotsiyani boyitadi. Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik his-tuyg'ularini – hamdarlik, yaxshilik, kichiklar, ota-onalar va oilaning katta a'zolariga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish kabi hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalar badiiy asarlardan estetik va axloqiy tasavvur oladilar. Bolalar adabiyoti deganda yozuvchilar tomonidan ularga mo'ljallab yozilgan maxsus asarlarni tushunamiz.

Shuningdek, katta yoshdagilarga atalgan, biroq bolalar ma'naviyatini boyitadigan, ularga ma'rifiy - estetik zavq berishi mumkin bo'lgan asarlar ham bolalar kitobxonligini tashkil etadi. Shunga ko'ra, bolalarga atalgan badiiy asarlar ularning xarakter xususiyatlarini to'la namoyon qilishi bilan bir qatorda pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy aloqada bo'lishi, demakki, muayyan ma'rifiy estetik g'oyani ilgari surish lozim. Bolalar adabiyotining yana bir muhim xususiyati uning pedagogika bilan mahkam bog'langanligidadir. Bolalar adabiyoti talablari bilan birga pedagogika talablariga ham alohida e'tibor berilishi lozim. Ana shu talablar asosida yaratilgan g'oyaviy - badiiy yuksak asarlar bolalar uchun eng qimmatli kitoblar hisoblanadi. Zero pedagogika bilan bolalar adabiyotining maqsad va vazifalari mushtarak: yosh avlodga chinakam aqliy - axloqiy estetik va jismoniy tarbiya berishdir. Bolalar yozuvchilari bolalarga mos, ularni qiziqtiradigan va ulkan ishlarga ruhlantiradigan asarlar yozib, yorqin, kuchli badiiy obrazlar yaratib, yosh avlodning ongi, xarakteri va irodasini o'stirib chiniqtirishda va har qanday qiyinchiliklarni yenga oladigan, mehnatsevar kishilar qilib tarbiyalashda xalqqa, davlatimizga katta yordam berishlari zarur. Hozirgi zamon bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari katta badiiy kuchi, boy, ravon, obrazli va ifodali tili bilan ajralib turadi. Shu sababli bunday asarlar kitobxonning sevimli do'stiga, hamrohiga aylanib qoladi. Ma'lumki badiiy asar o'quvchilarni estetik did va tushunchasini shakllantiradi, shoir ijodiga havas hissini oshiradi. Bolalar uchun ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar uning g'oyaviy mazmunini tushunishga yordam berishi bilan birga kitobxonning nutqini o'stiradi, boyitadi, xalq tilining kuchi, boyligi va go'zalligini bilib olishga imkon beradi. Ona tiliga muhabbatini oshiradi.

Badiiy adabiyotning ajralmas bo'g'ini hisoblangan xalq og'zaki ijodi namunlarini o'rganish bola dunyoqarashining kengayishiga yaxshi ta'sir etadi. Insoniyatning tarixiy-hayotiy tajribalari shuni tasdiqlaydiki, xalq orasida inson fazilatlarini azaldan ikki ma'noda: ijobiy fazilatlar va salbiy illatlar ma'nosida keng qo'llangan. Har ikkalasi ham butunlay boshqa-boshqa tushunchalar bo'lsa-da, ular inson faoliyati va axloqida muntazam ravishda alohida-alohida namoyon bo'lib boradi. O'zbek bolalar adabiyotini o'rganish bevosita o'zbek xalq og'zaki ijodini o'rganishdan boshlanishi bejiz emas. Chunki folklor – adabiyotning ibtidosidir. Folklor asarlarida xalqning ma'naviy olami aks etadi.

Bilamizki, maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar qiziqqon va intiluvchan bo'ladilar, so'z va iboralarni osonlik bilan eslab qolishga va ularni o'z kundalik hayotda qo'llashga intiladilar. Bola so'z va iboralar ma'nosini hamma vaqt ham to'la anglay olmasada, lekin lug'at boyligini huddi shu yoshda to'play boshlaydi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar uchun yoziladigan kitoblarning tili, ayniqsa, benuqson bo'lishi zarur. Bu yoshdagi bolalar kitoblarida ishtirok etuvchilar - odamlar, so'zlovchi parrandalar, hayvonlar, hasharotlar, gullar, shuningdek, kundalik hayotimizda uchrab turuvchi predmetlardir. Bu hol esa bolalarning olam sirlarini bilishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Ko'rinib turibdiki, bolalarga tezda tushuniladigan, ularning, badiiy nutqini o'stiradigan, takror tovushli so'zlarni ohangdor qilib ayta bilishga yordam beradigan kitoblar g'oyat muhim. Ayni shu yoshda bolada kitobga, badiiy adabiyotga mehr tuyg'usini uyg'otish qaysidir ma'noda uni komil inson bo'lib yetishishiga ko'makchi bo'ladi. Zero, bolalar badiiy asarlarni o'qiganida yoki kichik yoshlarida esa ularni

yaqinlaridan eshitganida unda asar qahramonlariga qayg'urish, yaqinlari va atrofidagi insonlarning kayfiyatini payqay olish, insonparvarlik his-tuyg'ulari, birovning dardiga sherik bo'lish, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko'rsatish, halollik, yovuzlikdan qochish, oilasiga, xalqiga yordam qo'lini uzatish kabi insoniy fazilatlarining ilk belgilari rivojlanadi. Vaholanki, bolaligidanoq bunday ijobiy fazilatlar bilan tanishib, yillar davomida uni o'z ongiga singdirib, mustahkamlab borayotgan bola kelajakda ham turli sinovlarga duch kelganda doimo to'g'ri yo'ldan boradi, yaxshi insonlar bilan yondosh bo'ladi.

M.Gorkiy "Adabiyot-bolalarga maqolasida" bolalar kitobini bunday xarakterlaydi: "Bolalar uchun sodda va ayni vaqtda yuksak mahorat bilan yozilgan, o'yinlar, hisoblashlar, qiziqtirishlar uchun material beradigan she'rlar kerak. Hozirgi zamon bolalar kitoblari ustalarining she'rlari bilan bir qatorda, xalq og'zaki ijodining yaxshi namunalaridan tuzilgan bir necha to'plam nashr etish zarur". Badiiy asarning bola tarbiyasidagi yana bir o'rni kitob mutolaa qilish yoki asarni o'qib berayotgan insonni tinglash bolalarda sabrlilik, bardoshlilik ko'nikmasini rivojlantiradi. Ko'pincha bolalarda biror bir voqea- hodisani bayon etishda keraksiz so'zlardan takror va takror foydalanishiga duch kelamiz, aynan shu holatda ham badiiy asar bolaning lug'at boyligini oshirishda amaliy yordam beradi, ravon nutq rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bolaning lug'atida avvallari ishlatmagan so'zlar paydo bo'lib ular bola nutqiga joziba qo'sha boshlaydi va kelajakda notiqlik qobiliyatini rivojlantirishga ilk qadam vazifasini o'taydi. Badiiy asar mutolaasidagi yana bir bola tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillardan biri shaxsiy fikrni bildirish ko'nikmasini shakllantirishdir. Albatta agar o'qilgan adabiyot obrazlari haqida, asarning asl mohiyati uning bizga bermoqchi bo'lgan sabog'i nima degan savollarga bola o'zi javoblar topishi kerak bo'lsa baxs munozaralarda ishtirok etib haqiqat tagiga yetishi lozim bo'ladi. Badiiy asarlar bir so'z bilan aytganda bolaning betakror o'qituvchisidir. Asarlardagi beozor hazillar, qiziqarli jumlar, sanoqli she'rlar bolaga pedagogik ta'sir ko'rsatishning samarali vositasidir, dangasalik, qo'rqqoqlik, o'jarlik, injiqlik, faqatgina o'zini o'ylash kabi salbiy xislatlarga qarshi yaxshigina "malham" bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, yuksak saviyali kitob, unga mos ishlangan rasmlar bilan ham bolalar xulqini, didini, ularning dunyoqarashini shakllantirish, kishilar bilan munosabatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, bolalar uchun yozilgan asarlar atrofdagi muhitni, hayotni bilishga va uni sevisishga, bolaning zehni, ongini yuksaltirishga yordam beradi, ularning lug'at boyligini oshiradi va nutqini o'stiradi. Jamiyki bolalar uchun yozilgan badiiy asarlar bola qalbiga kirib borib doimo uni yaxshilik sari yetaklaydi va bu bolaning kelajakda ham el-yurt uchun nafi tegadigan, aqlli, dono, yaxshi inson bo'lishiga eng yaxshi ko'makdosh bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Abdulla Suyumov, Mamasoli Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. -Toshkent: "O'qituvchi", 1995
2. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va A. Avloniy ijodi. – Toshkent: "Fan", 2004
3. Matchanov S. Kitob o'qishni bilasizmi? - Toshkent: "O'qituvchi".
4. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. -Toshkent.: "O'qituvchi", 2002.
5. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti (darslik) . –Toshkent: "O'qituvchi", 2011.
6. Qodirova F.R, Toshpo'latova Sh.Q, Kayumova N.M, A'zamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Toshkent: "Adabiyot uchqunlari" – 2019. – B. 169
7. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. -T.1986.

**NATIVE LANGUAGE AND ITS SKILLS PLAY AN CRUCIAL ROLE
DURING LEARNING ADDITIONAL FOREIGN LANGUAGE CANNOT BE
UNDERESTIMATED**

Alijonova Marxabxon Qaxramon qizi

*Student of philology faculty, Uzbekistan State World
Languages University Tashkent, Uzbekistan*

Annotation: *This article is dedicated to the importance of native language for learning another additional language. Additionally, influences of native language on word recognition in a second language are written in this material. The main aim of the article is to emphasize the importance of native language skills and presents the easy and beneficial ways, methods to learn additional language with the help of native language skills.*

Key words: *foreign and native languages, sociolinguistic, bilingualism, psycholinguistic, dialect, competence, improvement.*

...our native language is like a second skin, so much a part of us we resist the idea that it is constantly changing, constantly being renewed.

Casey Miller

Learning foreign languages has become more important over the last decades. Due to internationalisation and globalisation it has become important for everybody to master more languages than one's mother tongue. Language studies that used to be available only to a select group of pupils are now considered to be of importance to all pupils. We are thus witnessing a change of focus in the teaching and learning of languages towards making foreign languages more accessible, an issue. Although the use of mother tongue was banned by the supporters of the direct method at the end of the nineteenth century, the positive role of the mother tongue has recurrently been acknowledged as a rich resource which, if used judiciously, can assist second language learning and teaching. In this article, clearly expressed that interpretation to the target dialect which emphasizes a as of late instructed dialect thing may be a implies to fortify basic, conceptual and sociolinguistic contrasts between the local and target dialects. In his see, indeed in spite of the fact that this movement isn't communicative, it points at progressing exactness of the recently learned structures. Essentially, this investigate pointed at examining the impact of interpretation from L1 to L2 on the exact utilize of the structures. Improvement in language learning hypothesis has brought almost modern perspectives on the shared relationship between mother tongue and remote language learning. Customarily the way of with respect to this relationship has been based on psycholinguistic speculations, primarily concerned with creating perspectives as analogies of dialect securing in mother tongue and remote language.

-The great foreign learner is able of utilizing the advantage of knowledge and understanding accomplished, both in mother tongue and foreign languages, to advance create competencies within the to begin with dialect as well as in other dialects. A great

number of pupils, be that as it may, are incapable to do this unless this can be made an express issue.

-Creating learner independence through self-directed learning seems to work better in open learning circumstances, where the instructor pulls back from controlling the learning - here respected as both exercises and outcome - than in ordinary settings. Open learning circumstances loan themselves better to explicating how understudies go approximately learning a dialect. They open up for the learners' generation, based on their possess learning projects and personal potential, instead of attempting to live up to external demands and expectations, and they provide instructors the vital space to examine learning forms.

From English:

The assignment of improving pupils generally dialect competence is common to all the dialect courses. The points and approaches of all the language syllabuses are therefore seen as being interrelated. To begin with language and remote dialect educating are in this way based on a shared see of dialect, in which outside dialect learning isn't only viewed as abilities preparing but too as an instructive prepare, including socialisation and the improvement of dialect mindfulness and social awareness. The syllabus in English is based on the language-learning foundations laid when understudies learn their to begin with dialect, on involvement pupils have as of now picked up through contact with other dialects and cultures both at school and somewhere else, and on content competence which pupils have procured through learning their to begin with language.

From German and French:

Learning German/French is one of the school's arrangements for enhancing the pupils' by and large dialect competence. Instructing of their first dialect and outside dialects is based on the same see of language, in which is centered upon not just aptitudes but too common education, mingling, and the development of dialect and social awareness. The course in German builds on the establishments for language learning which understudies have created within the learning of their mother tongue and of English, the involvement they have as of now acquired through contacts with other dialects and societies both in school and somewhere else, and on the content competence which they have acquired through their consider of Norwegian and English.

REFERENCES:

1. Anne Brit Fenner, Tarid Trebbi and Laila Aase „Mother tongue and foreign language teaching and learning -a joint project".
2. Wolfgang Butzkamm „Native language skills as a foundation for foreign language learning ".
3. <https://w.w.w.researchgate.net>.
4. Annie Tremblay, Mirjam Broersma „Effects of the native language on the learning of fundamental frequency in second language speech segmentation".

“MIROT UL-MAMOLIK” ASARINING O’RTA OSIYO XALQLARI TARIXINI O’RGANISHDAGI AHAMIYATI**Davlatov Nuriddin***Samdu tadqiqotchisi,**Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O’zbekiston*

«Mir’ot ul-mamolik» asari Turkiya, Hindiston, Afg’oniston, O’rta Osiyo va Eron mamlakatlarida XVI asrning o’rtalarida yuz bergan siyosiy vaziyat, o’zaro diplomatik, savdo va iqtisodiy munosabatlar masalasiga oid qimmatli tarixiy materiallarni o’zida mujassamlashtirgan asar hisoblanadi. Bu asarning yana bir zo’r ahamiyati shundaki, asarda ikki mustamlakachi mamlakat – Portugaliya bilan Turkiyaning XVI asarda Arabiston va ayniqsa Hindistonni o’z ta’sir doirasiga olish yo’lida olib borgan bosqinchilik siyosati haqida bir muncha muhim ma’lumotlar bor. «Mir’ot ul-mamolik» asari muallifi Seydi Ali Rais ko’p janglarda qatnashib shuhrat qozongan mashhur dengizchi, zabardast turk admirallaridan biri edi. Shu sababdan ham bu asarda muallifning ruhi dunyoqarashi sezilib turadi. «Mir’ot ul-mamolik» asari o’sha zamon O’rta Sharq feodal davlatlari hisoblangan Turkiya, Hindiston, Afg’oniston, O’rta Osiyo va Erondagi siyosiy vaziyatni yaxshi bilgan, o’zaro feodal kurashlari, o’rta asr dengiz floti, suv janglarining o’ziga xos tomonlari, quruqlikdagi harbiy feodal kuchlarining muvozanati, davlatlar o’rtasidagi diplomatik va harbiy munosabatlardan xabardor bo’lgan kishi tomonidan yozilganligi tufayli nihoyatda muhim asarlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari Seydi Ali Raisning o’z davrining mashhur geografi bo’lganligi asarning ahamiyatini yanada oshiradi¹.

«Mir’ot ul mamolik»ning yana bir zo’r ahamiyati shundaki, bu asarda ikki mustamlakachi mamlakat - Portugaliya bilan Turkiyaning XVI asrda Arabiston va ayniqsa Hindistonni o’z ta’sir doirasiga olish yo’lida olib borgan bosqinchilik siyosati haqida birmuncha muhim ma’lumotlar bor. Shuning uchun ham shu masala hususida qisqacha to’xtalib o’tish lozim. Seydi Ali Rais Misr kapudani qilib tayinlanib, Portugaliyaning Suvaysh kaialidagi kuchli flotiga qarshi yuboriladi. Seydi Ali turk flotinnng mag’lubiyati bilan tamom bo’lgan bu harbiy dengiz kampaniyasidan so’ng, Turkiya flotining omon qolgan kemalari bilan Gujarat va Shimoliy Hindistonga boradi va keyin u yerdan O’rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon bo’ylab sayohat qiladi. Bizning diqqatimizni jalb qilgan «Mir’ot ul mamolik» kitobining zamirida ana shu safar yotadi. U o’z kitobida bu majburiy safarda ko’rgan kechirganlarini mufassal bayon qilish bilan birga, o’zi bosib o’tgan O’rta Sharq davlatlarining siyosiy vaziyati, feodal munosabatlari va ayrim tarixiy solnoma mualliflari diqqatidan uzoqda qolgan ijtimoiy hayot masalalarini yoritib, tarix fani xazinasini bir muncha boyitdi. Uning bu safari Zahiriddin Boburning o’g’li Humoyun podshohning (1530—1656) Shimoliy Hindistondagi davlatlar ustidan hukmronlik qilgan davriga to’g’ri keladi. Seydi Ali Rais o’z asarida Xumoyun podshoh hukmronlik qilgan davrdagi Hindiston tarixini yoritib ayrim hollarda esa o’zi shohid bo’lgan hodisalarga mufassal to’xtaladi.

¹ Seydi Ali Rais. «Mir’ot ul-mamolik». Toshkent. 1993. 6-bet.

Tarixiy voqealarni bayon etish jihatidan Seydi Ali Raisning bu kitobi Gulbadan bəgimning «Humoyunnoma» asarini maʼlum darajada toʻlatadi. Seydi Ali Rais keltirgan tarixiy voqealarni oʻsha zamonda Hindistonda Bobur qizi Gulbadan bəgim tomonidan yozilgan “Humoyunnoma” dagi maʼlumotlar bilan taqqoslab koʻrilsa, Seydi Ali maʼlumotlarining nihoyat ishonchli va qimmatli ekanligi yaqqol koʻrinadi². Seydi Ali Rais koʻrgan yoki eshitgan tarixiy faktlarni chuqur zehn bilan toʻgʻri va obʻektiv bayon qiladi. Masalan, u Sind viloyatining hokimi shoh Xusayn mirzoning Humoyunga qarshi yuritgan tashqi siyosati va Humoyun podshoh panohiga oʻzini tortgan Iso Tarxon munosabatiga toʻxtaydi. Maʼlumki, Sind viloyatining hokimi bilan Xumoyun podshoh oʻrtasida boʻlgan munosabat masalasiga Gulbadan bəgim ham toʻxtab oʻtgan edi. Lekin “Humoyunnoma”da keltirilgan voqealar, xronologik jihatdan ancha ilgari yillarni oʻz ichiga oladi. Gulbadan bəgimning yozishicha. Humoyun podshoh oʻzaro feodal kurashlar natijasida yengilib, Shimoliy Hindistondagi Dehli va Agra singari mashhur shaharlarni Sherxonga topshirib qoʻyadi va oʻzi Sind viloyatining yerlariga koʻz tutadi. Lekin shoh Xusaynning bu davrdagi siyosiy va iqtisodiy mavqeyiga hali putur yetmagan boʻlib, u Humoyun podshohning “Sind viloyati chegaralaridan joy berish” haqidagi talabini rad qila olish darajasida kuchli edi.

Gulbadan bəgimning soʻzlariga qaraganda, shu davrda Humoyun Sind viloyati hokimining moddiy yordamiga juda muhtoj edi. Shu sababdan u 100 ta tuya evaziga Sindni tashlab Qandahor tomonga ketishga rozilik beradi. Lekin Seydi Ali kitobida keltirilgan bu maʼlumotlar va biz yuqorida bayon qilgan voqealar Humoyun podshohning Hindistonda taxt uchun olib borgan kurashining ikkinchi etapini, yaʼni Humoyunning Dehlida oʻz ukalarining taxt uchun kurashini bartaraf qilib, Shershox oilasi qulidan hokimiyatni tortib olib, siyosiy vaziyatini tiklab olgan vaqtga toʻgʻri keladi. Shunday qilib, Seydi Ali keltirgan faktlar Xumoyun podshoh davri tarixini sistemaga solish, oʻsha davrdagi Hindistonning ichki ahvolini toʻgʻri anglashga keng imkoniyat beradi. Seydi Ali Rais kitobining yana bir muhim tarixiy ahamiyati shundaki, Seydi Ali Rais Gujarot, Sind, Lohur va Agrada boʻlib, oʻsha oʻlkalarda yuz bergan muhim tarixiy voqealarning shohidi boʻldi. Seydi Ali Rais qaysi viloyatdan oʻtmasin, oʻsha yer hokimining maxsus ijozatisiz bir qadam ham boshqa tomonga jila olmaganligini hikoya qiladi. Bundan koʻrinishicha, Shimoliy Hindiston garchi Boburning katta oʻgʻli Humoyun podshoh qoʻlida boʻlsa ham, uning taʼsir doirasidagi feodal knyazliklar oʻz viloyatlarini mustaqil idora qilganlar.

Seydi Ali oʻz davrining yetuk kishisi, isteʼdodli sarkarda boʻlgani tufayli, qaysi viloyatga bormasin. viloyat hokimlari undan oʻz maqsadlarida foydalanmoqchi boʻladilar. Katta maosh, zoʻr martaba va lavozimlar berib, uni oʻz viloyatlarida butunlay olib qolishga harakat qiladilar. Seydi Ali Rais Xumoyun va uning saroyidagi kishilarning fan va madaniyat arboblari boʻlgan katta xurmatlari masalasiga toʻxtab, Humoyun podshohning adabiyotga munosabati haqida ayrim fikrlar bayon qiladi. Seydi Ali Rais Dehlidan yoʻlga chiqib, Lohurga, keyin mashhur Qobul yoʻli bilan Peshovar, Lamgʻonga keladi. Undan keyin Andarob, Badaxshon, Toliqon va Hisoni Shodmon orqali Movarounnahr viloyatiga oʻtadi. Seydi Ali Rais oʻz asarida Movarounnahrning oʻsha zamondagi ahvoriga ham toʻxtab

² Azimjonova S. Seydi Ali Rais va uning “Mirotul mamolik” asari haqida. Toshkent. 1963. 30 bet.

anchagina mufassal ma'lumotlar keltiradi va bu bilan O'rta Osiyo tarixini ko'p faktik materiallar bilan boyitadi. Shu tufayli «Mir'ot ul mamolik»ning Samarqand, Buxoro va Xorazm feodal davlatlarining ichki kurashlariga bag'ishlangan qismlari ham diqqatga sazovordir. Seydi Ali Rais Toshkent xoni Navro'z Axmad Baroqxonning Shahrisabz, Samarqand va Buxoro³ uchun olib borgan kurashlariga to'xtab, Baroqxon huzurida Istanbuldan yordam sifatida yuborilgan 300 turk askari⁴ borligini aytadi. Bu fakt bir tomondan Turkiya sultonining Baroqxon bilan harbiy ittifoqi mavjudligini bildirsa, ikkinchi tomondan, O'rta Sharq feodal davlatlari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar darajasini aniqlashga yordam beradi.

Seydi Ali Raisning bu muhim asari kamchiliklardan ham holi emas. Muallif Turkiya feodal davlatining eng yuqori zodagonlar tabaqasiga mansub shaxs edi. Shu sabasli u butun umrini davlat arboblari orasida, podshohlar huzurida o'tkazdi. U o'z kitobida O'rta va Yaqin Sharqdagi feodal davlatlarining ichki va tashqi siyosatlarini, o'zaro munosabatlari, saroy hayoti, ayrim yirik davlat arboblari dunyoqarashlari kabi masalalarga mufassal to'xtaydi. Lekin kitobning biron joyida ham Hindiston, Afg'oniston, Movarounnahr, Ozarbayjon, Eron va boshqa yerlardagi mehnatkash xalq hayotini ochib beradigan materiallarni uchratmaymiz. Albatta, bu narsalar uning fikridan yiroq, uning dunyoqarashiga zid bo'lgan masalalar edi⁵. Sinfijiy jamiyat sharoitida yozilgan har qanday asar mana shunday ruhda bo'lib, hukmron sinfnin maqsad va manfaatlarini ifoda qilgan. Seydi Alining bu asari ham mana shu ramkadan chiqolmagan. Shunga qaramay, «Mir'ot ul-mamolik» o'rta asrning tarix, adabiyot, geografiya va etnografiya fani xazinasiga katta hissa qo'shgan asardir.

ADABIYOTLAR:

1. Seydi Ali Rais. «Mir'ot ul-mamolik». Toshkent. "O'zfanakadnashr" 1993.
2. Azimjonova S. Seydi Ali Rais va uning "Mirotul mamolik" asari haqida. Toshkent. 1963.
3. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. T. "O'qituvchi" 2001.
4. Davlatov N. «Mir'ot ul-mamolik» asari va unda Navro'z Ahmadxon siyosiy faoliyatining yoritilishi. // "Tarixshunoslik – manbashunoslikning dolzarb muammolari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2017.

³ Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. T. "O'qituvchi" 2001. 305 bet.

⁴ Davlatov N. «Mir'ot ul-mamolik» asari va unda Navro'z Ahmadxon siyosiy faoliyatining yoritilishi. // "Tarixshunoslik – manbashunoslikning dolzarb muammolari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2017. 19 bet

⁵ Seydi Ali Rais. «Mir'ot ul-mamolik». Toshkent. 1993. 36-bet.

ONA TILI O'QITISHNING AHAMIYATI.

Enazarova Dilfuza Abdurahmonovna

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani

6-umumta'lim maktabi Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili va uni o'qitish , ona tili boshqa fanlarni o'rganish vositasi sifatida va bolaning shakllanishida ona tilining ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *davlat tili , yangi tahrirdagi Qonun , boshqa fanlarni o'rganish vositasi, aloqa vositasi , ona tili ta'limi mazmuni , ma'naviyat belgisi.*

Har bir fan o'z o'rganish ob'jektiga, maqsad va vazifalariga ega bo'lib, o'ziga xos alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek tili o'qitish metodikasi ham o'quvchilarga ona tilidan bilim va malaka berish yo'llarini o'rgatadi. O'quvchilarga o'zbek tili grammatikasi, leksika va fonetikasi haqida ma'lumot berish va bu jarayonda olingan bilimlarni amalda tadbiiq etishni o'rgatish o'zbek tili o'qitishning muhim vazifalaridandir. O'quvchilar amalda xatosiz yoza olsalar, ifodali o'qiy olsalar, adabiy tilda so'zlay olsalargina ularning ona tilida olgan bilimlari haqiqiy va mustahkam hisoblanadi. O'quvchilarga shuningdek, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z fikrlarini aniq va tushunarli bayon etishni o'rgatish ahamiyatlidir, aks holda o'quvchilar savodsiz bo'lib koladi.

Eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan har bir inson o'zbek tilini bilishi kerak, chunki u o'zbek bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'iy nazar kishilar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishadi va muloqotda bo'ladi.

O'z ona tilini bilmagan kishi, "ona", "vatan" kabi tushunchalarning mohiyatiga tushunmaydi, bu kishi hech qachon "men o'zbekman" deb faxrlana olmaydi. O'z ona tilini bilmagan xalq nafaqat kelajagini barpo etadi, balki o'z tarixini ham bila olmaydi. O'tmishsiz esa kelajak bo'lmaydi. Bir olim shunday degan ekan: "Agar xalqni yo'q qilmoqchi bo'lsang, uning tilini yo'qotgin". Demak, o'z tiliga ega bo'lmagan, ona tilini bilmagan xalq hech qachon xalq bo'la olmaydi. O'quvchilar ona tilini qunt bilan o'rganish orqali fan asoslarini ongli o'zlashtirib, fikr doirasini kengaytirib umumtaraqqiyot darajasini uzluksiz oshira boradilar. Ular qayerda ishlamasin, qayerda o'qimasin, baribir o'zbek tiliga murojaat qiladilar. Ona tili barcha bilimlarni o'rganishda eng muhim vositadir, u insonning ijtimoiy hayotida uchraydigan barcha ishlar uchun zarurdir. Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir. Jamiyat tarixi, tarbiyaviy va boshqa gumanitar fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi.

Ona tili bolaning umumiy taraqqiyotida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham ahamiyatlidir. Ona tili, ayniqsa, uning yozma shakli butun madaniyatimiz boyliklarini, fan-texnika yutuqlarini avaylab saqlovchi va avloddan avlodga yetkazuvchi yagona xazinadir, ya'ni u orqali biz milliy qadriyatlarimiz haqida ma'lumot olishimiz, bugungi fan taraqqiyoti natijasida vujudga kelayotgan yangiliklar bilan tanishishimiz mumkin.

Demak, adabiyot ham, tarix ham, madaniyat ham-hamma meros ona tilida o'rganiladi. Bundan tashqari, ona tilini chuqur va to'la o'rganmay turib boshqa bir chet tilini puxta o'rganish mumkin emas, chunki o'z ona tilini bilmagan inson o'zgarlar tiliga tushuna olmaydi. Chet tilini o'rganishda esa ona tiliga qiyoslab o'rganish katta samara beradi. Demak, biz o'zbek tili vositasida boshqa chet tillarini o'rganish imkoniyatiga ham ega ekanmiz.

Yuksak ma'naviyatli va madaniyatli kishini, avvalo, uning og'zaki va yozma nutqi boshqalardan ajratib turadi. O'quvchilarning ijodiy kuchi va bilish qobiliyatini, mustaqil ishlash malakasini oshirishda ham ona tili alohida ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, ona tili o'qitish o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashda ham alohida o'rin tutadi. O'quvchilar maktabga kelgunlariga qadar ham ona tilidan foydalana olish ko'nikmasiga ma'lum darajada ega bo'ladilar. Maktab ona tili kursi esa bolalardagi ana shu ko'nikmalarni rivojlantiradi, takomillashtiradi va adabiy til normalari tomon yo'naltiradi. Ona tili orqali har bir o'quvchining nutq qobiliyati o'sib, so'z boyligi oshib boradi. O'quvchilar ilmiy, siyosiy, badiiy kitoblarni o'qish bilan o'z bilim saviyalarini oshirib boradilar. Bu, albatta, til orqali amalga oshadi. Grammatika o'qitish va nutq o'stirish bo'yicha olib borilgan ishlar o'quvchilarning fikrini tartibga soladi, ya'ni mantiqiy fikrlashga, bilimlarini yozma va og'zaki tarzda maqsadga muvofiq ravishda bayon etishga o'rgatadi. O'quvchi ona tilini o'rganib borib, dunyoni bilish va fikrni shakllantirishning eng qulay vositasi bilan qurollanadi. Shubhasiz, ona tili bilan jiddiy shug'ullangan kishi yuksak saviyali, madaniyatli bo'ladi, chunki ona tili, ayniqsa, o'quvchining aqliy mehnat malakalarini o'stiradi.

Xulosa aytish mumkinki, ona tilini o'quvchilarga o'qitish juda katta ahamiyatga ega:

1. Ona tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarga fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis, punktuasiya, uslubiyat kabi bir qator til bo'limlarining jihatlari haqida ma'lumot beriladi, ularning o'xshash va farqli tomonlarini faxmlashga o'rgatiladi, tilning jamiyat hayotidagi ahamiyati, taraqqiyoti haqida ma'lumot beriladi.

2. Ona tili o'qitish o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini o'stirishga yordam beradi.

3. Ona tili o'qitish orqali o'quvchilarga so'zlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish o'rgatiladi.

4. Ifodali o'qishga o'rgatiladi.

5. Ona tilini o'qitish o'quvchilarning savodxonligini o'stirishga yordam beradi. Ona tilini o'qitish kabi mas'uliyatli kabi vazifa pedagoglarning zimmasiga yuklatilgan ekan, bu mas'uliyatni his qilgan holda sidqidildan, jonkuyarlik bilan xizmat qilish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, "Shark" nashriyot matbaa konserni, 1997 yil.

2. Ibrohimov A., Sul'tonov X., Jo'rayev N. "Vatan tuyg'usi", Toshkent, "O'zbekiston", 1996 yil. 3. Musurmonova O. "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi", Toshkent, "O'qituvchi", 1996 yil.

INGILIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z YASALISH HODISASI VA LEKSIK
DERIVATSIYA**Shaptakova Adolatxon Shuxratovna***Samarkand Davlat Chet tillar instituti**Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti**sinxron tarjima yo'nalishi 1-kurs magistranti**Samarkand shahar 1-sonli IDUM ingliz tili fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida so'z yasash usullari, -en fe'l suffiksining qadimda va hozirgi zamon ingliz tilida qo'llanilishi, derivatsiya, ya'ni so'z yasalishi va buyuk tilshunos olim V.A.Zvegintsevning leksik-semantik derivatsiya to'g'risidagi qarashlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ingliz va o'zbek tillari, so'z yasalishi, derivatsiya, V.A.Zvegintsev.*

Ingliz tilida so'z yasashining semantik, fonetik, abbreviatsiya, affiksatsiya, konversiya, kompozitsiya kabi usullari mavjud. Bu usullar davriy nuqtai nazardan ikki guruhni tashkil qiladi:

1) tarixiy (diaxron) yasash: semantik, fonetik, abbreviatsiya, konversiya, kompozitsiya usullari;

2) zamonaviy (sinxron) yasash: affiksatsiya kabilardan iborat.

Semantik usul. So'zning bir turkumdan boshqa turkumga ko'chishi asosida yangi so'z yasashidir.

Fonetik usul. So'z tarkibida yuzaga keladigan fonetik o'zgarishlar asosida yangi ma'noli so'z yasashidir. Bu usul orqali so'z yasashida tilning tarixiy taraqqiyoti davomida so'z tarkibida tovush o'zgarishi natijasida yangi so'z hosil bo'ladi.

Affiksatsiya usuli. Bu usul bilan o'zakka so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shish orqali yangi so'z yasaladi. So'z yasovchi qo'shimchalar o'zakka qo'shib kelish o'rniga ko'ra ikki turli bo'ladi:

a) so'z yasovchi ort qo'shimchalar,

b) so'z yasovchi old qo'shimchalar o'zak oldidan qo'shib yangi so'z yasaydi.

Abbreviatsiya usuli. Murakkab so'z birikmalarini turli usullar yordamida qisqartirish orqali yangi so'z yasashidir.

Kompozitsiya usuli. Birdan ortiq mustaqil ma'noli o'zak morfemalarning tobelashgan holda qo'shiluvi, birikuvi orqali yangi so'z hosil qilinishidir. Bunday yasama so'zlar ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'onli o'zak morfemalar ishtirokida hosil bo'lsa ham, yaxlitligicha bitta lug'aviy ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Ular tuzilishiga ko'ra qo'shma so'zlar deyiladi. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo'shma so'zlar ot, sifat, ravish va qisman fe'llarda keng tarqalgan. Ularning qismlari har xil va bir xil so'z turkumlaridan tuzilishi mumkin.

Konversiya usuli - bu boshqa so'z turkumlaridan qo'shimchasiz so'zlar yasash.

Bundan tashqari, *En* fe'l suffiksi qadimgi davr ingliz tilida *an*, *-ian*, *-nian* formalarida qo'llanilgan. Masalan: *swetan*, *gladian* qadimgi davrda bu suffikslar ot va sifatlardan yasalgan. Hozirgi ingliz tilida *-en* suffiksi yangi fel so'zlarni yaratishda keng qo'llanilmoqda.

Masalan: *quienten-tinchlanmoq*, *broden-kengaymoq*, *lighten-yengillatmoq*, *fatten-semirmoq*.

Qadimgi davr ingliz tilida *ar*, *-ian*, *-nion* suffikslaridan ot va sifat so'zlarga biriktirib oson yangi fel so'zlarni yasash mumkin edi. Lekin hozirgi ingliz tilida bunday xususiyat yo'q. Hozir *-en* suffiksi faqat sifat so'zlarga qo'shilib fel yasaydi.

Hozirgi o'zbek tilida so'z yasashning asosan ikki usuli ajratiladi:

- 1) affiksasiya (yoki morfologik) usuli;
- 2) kompozisiya (yoki sintaktik) usuli;

O'zakka so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yangi leksik birlik hosil qilish affiksasiya usuli bilan so'z yasashdir. Masalan: *mevali daraxt*, *serhosil yer* kabi birikmalardagi mevali, serhosil yasama so'zlar bo'lib, ular meva o'zagiga *-li*, hosil o'zagiga *-ser* affikslarini qo'shish orqali yasalgan so'zlardir.

Ikki va undan ortiq so'z formalarining (ko'pincha mustaqil so'zlarning qo'shilib (yoki tizilib) bir so'zga aylanishi kompozisiya usuli bilan so'z yasashdir. Masalan: *belbog'*, *oshqazon*, *mehmondo'st*, *so'z boshi*, *bir yuz o'n*, *ahd qilmoq*, *bir oz va boshqalar*.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ingliz va o'zbek tillarida leksik derivatsiya hodisasini qisqacha ko'rib chiqsak.

Derivatsiya, ya'ni so'z yasalishi- asos va hosila struktura munosabatini taqozo etuvchi jarayon hisoblanadi. Ushbu xususiyat asosga xos qaysi leksik-semantik komponentning yasama so'z uchun ichki forma vazifasini o'tashini aniqlash imkonini beradi. So'z yasalishida bu tillararo mushtarak bo'lsa ham, asos so'zga xos leksik-semantik komponentlardan qay birining ichki forma sifatida tanlanishi har bir tilning milliy xususiyati, shuningdek, har bir shaxsning individual dunyoqarashi bilan bog'liq holda amalga oshadi.

V.A.Zvegintsevning kuzatishlarida bunday tafovut boychechak so'zining yasalishida asos bo'lgan ichki formaning qiyosi orqali qayd etiladi. Xususan, boychechak so'zi: ingliz tilida (snowdrop) «qorni teshib chiquvchi» kabilar ichki formaga ega bo'lishi uning tillararo tafovutlanishidan dalolat beradi.

Bundan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, narsaga xos u yoki bu belgining ichki forma sifatida xizmat qilishi derivatsion jarayonni voqelantiruvchi subyektning ilk tasavvuri bilan bog'liq bo'ladi hamda aynan ana shu belgi yangi yasalgan so'z uchun leksik-semantik tayanch sifatida xizmat qila oladi. Yasama so'z obyektiv ma'no kasb etgach, ichki forma uning tarkibiga singib ketadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2005
2. M.Mirzayev, C.Usmonov, I.Rasulov. O'zbek tili. T.,1978
3. O'zbek tili leksikologiyasi. T., 1981.
4. B.Mengliyev, O'. Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T., 2007
5. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili system leksikologiyasi asoslari. T., 1995.
6. Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. T., 1996
7. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Buxoro, 2001
8. S.Rahimov, B.Umurqulov, A.Eshonqulova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2001
9. S.Rahimov, B.Umurqulov. Hozirgi o'zbek tili. T., 2003.
10. Эйнштейн Г.А. «Глагол». 2011.
11. Троицкая Г.П. «Место конверсий в системе словообразования современного английского языка» Челябинск. 1979.
12. Смирницкий А.И «Значение слова и его семантика».М.1960.
13. [www. english language. com](http://www.english language. com).
14. www. using english. com.
15. www. learn english. ory.

ONA TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN VA O'QUVCHILARNING TAFAKKURINI YUKSALTIRADIGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Komilova Feruza Pirnafasovna

*Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
298-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ona tili darslarida qo'llaniladigan va o'quvchilarning tafakkurini yuksaltiradigan pedagogik texnologiyalar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ona tili, pedagogik texnologiyalar, o'qituvchi, metodlar, interaktiv.*

Shuni ta'kidlash kerakki, ona tili darslarida noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi.

Noan'anaviy darsning asosiy yo'nalishlari:

- o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish;
- o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;
- o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish;
- olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va hokozo.

Noan'anaviy darslarni esa interaktiv metodlar va o'yinlarsiz tasavvur etish qiyin, zero bular darsning o'zagini tashkil etadi. Masalan, murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun "Aqliy hujum", "Zakovat", "Zig-zag", "Interfaol", "O'yin dars", "Munozarali bahsli dars", "Sayohat dars", "Musobaqa dars", "FSMU", "Baliq skeleti", "Charxpalak" kabilarning o'quv jarayonida qo'llash alohida ahamiyatga ega. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda bir nechta interfaol metodlardan namunalar keltirib o'tamiz.

"Oq terakmi ko'k terak" o'yini. Bu o'yin bolalar sevib o'ynaydigan o'yinlardan biri bo'lib, uni ta'lim jarayonida ham qo'llash mumkin. Mazkur o'yin bolalarni tez fikrlashga, topqirlikka o'rgatadi. O'yindan leksikologiya, morfologiya bo'limlariga oid mavzularni o'rgatishda foydalanish mumkin. Omonim so'zlar mavzusi o'rganilgach, mavzuni mustahkamlash uchun shu o'yin o'tkaziladi. O'yin quyidagicha tartibda o'tkaziladi.

Sinf ikki guruhga bo'linadi. O'qituvchi oldindan omonim ya'ni shakldosh so'zlar yozilgan karton qog'ozlarni, ularning ma'nosi yozilgan karton qog'ozlarini, shuningdek, boshqa so'zlar yozilgan qog'ozlarni ham tayyorlab qo'yadi. O'yin qoidalari tushuntirilgach, o'yin boshlanadi. 1-guruhga omonim so'zlar yozilgan qog'ozlar beriladi. 2-guruhga esa shu so'zlarning ma'nosi va ayrim boshqa so'zlar yozilgan qog'ozlar beriladi. 1-guruh 1-raqamdagi ot so'zi yozilgan karton qog'ozni ko'taradi va 2-guruhga qarab "Oq terakmi ko'k terak?" – deydi. 2-guruh esa ot so'zining ma'nolari yozilgan va ularga aralash holda berilgan so'zlarni (o't-olov, o't-maysa, o't-harakat, o't-quyosh) ko'tarib "Bizdan sizga kim kerak?" – deb javob berishadi. 1-guruh a'zolari bu so'zlar ichidan o't-olov, o't-maysa, o't-

harakat so'zlarini ajrata bilishlari va ularni ushlab turgan bolalarning nomlarini aytishlari kerak. Masalan, "Sizdan bizga Begali, Abduqodir, Inomjonlar kerak"- deydi.

Agar o't so'zining ma'nolarini to'g'ri topishsa, o'sha so'zni ushlab turgan o'quvchilar 1-guruh tomon o'tadilar. Ular xatolikka yo'l qo'yishsa, so'zlarni tanlagan o'quvchilar 2-guruhga o'tadilar. Agar omonimlik so'zning ma'nosini qisman topishsa, ball to'liq berilmaydi. Shu bilan o'yinning 1-bosqichi yakunlanadi. 2-bosqichda 2-guruh o'quvchilariga yoz, tuz omonim so'zlari yozilgan qog'ozlar beriladi. O'yin yuqoridagi tartibda o'tkaziladi. O'yin tugagach, har ikki guruh to'plagan ballar aytilib, g'olib guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

"Oq terakmi, ko'k terak?" o'yinidan antonim so'zlar, uyadosh so'zlar, ibora mavzularini o'rgatishda ham foydalanish mumkin. Morfologiya bo'limida fe'l, ot, sifat, son, olmoshlarning ma'noviy guruhlari yuzasidan o'tkaziladigan mustahkamlash darslarida ham bu o'yin yaxshi samara beradi.

"O'z o'ringni top" o'yini. Bu o'yin o'quvchilarni sezgir, zukko va topqir bo'lishga odatlantiriladi. O'yinda ishtirok etish uchun o'quvchi mavzuni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Aks holda, o'yindan chiqib qoladi. Ana shuni o'quvchi his qilsa, unda ilmga qiziqish ham orta boradi.

Mazkur o'yindan tilning barcha sathlarini o'rganishda foydalanish mumkin. Jumladan, leksikologiya bo'limida ma'nodosh so'zlar mavzusi yuzasidan o'tkaziladigan mustahkamlash daqiqalarida shu o'yinni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. O'yin quyidagi tartibda o'tkaziladi. O'qituvchi bir necha ma'nodosh so'zlar guruhini tanlaydi. Masalan, yuz, bet, aft, bashara, chehra; quyosh, kun, oftob; avval, ilgari, oldin, burun; ataylab, atay, jo'rttaga, maxsus. Bulardan bosh so'zlar ajratib olinadi va 4 ta o'quvchiga beriladi. Demak, to'rtta o'quvchi bosh so'z yozilgan qog'ozni ushlab to'rt joyga turadi.

Qolgan so'zlar aralashtirilib qo'yiladi. Sinf o'quvchilari ham to'rt guruhga bo'linadi va har bir guruhga bitta bosh so'z birlashtiriladi.

Masalan, 1-guruh o'quvchilariga yuz so'zining, 2-guruhga avval so'zining, 3-guruhga quyosh so'zining 4-guruhga ataylab so'zining ma'nodoshlarini topshiriladi. 1-guruh o'quvchilari navbat bilan chiqib, aralash holdagi so'zlar ichidan bet, aft, bashara, chehra so'zlarini topib yuz so'zi yozilgan qog'ozni ushlab turgan o'quvchi yonidan, ya'ni "Bosh so'z" yonidan o'rin oladilar. Qolgan guruh a'zolari ham o'yinni shu tarzda davom ettiradilar. O'qituvchi guruhlarning topqirlikni qanday bajarganliklarini tekshiradi, o'z o'rinlarini to'g'ri topgan guruhlarga to'liq ball, o'rin topishda adashgan guruhlarga esa pastroq ball qo'yiladi. O'yinni biroz murakkablashtirish ham mumkin. Buning uchun ma'nodosh so'zlar ichiga ma'nodoshlik qatoriga mansub bo'lmagan so'zlar ham aralashtirib yuborilsa, o'quvchilarning kerakli so'zni topib olishi qisman murakkablashadi. Bu ish o'quvchilar bilimiga, iqtidoriga qarab belgilanadi.

Uyadosh so'zlar, shakldosh so'zlar, iboralar mavzusi bo'yicha ham bu o'yin shu tartibda o'tkaziladi.

Yuqoridagi ko'rib o'tgan interaktiv metodlar mavjud bilimlarni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga

zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika. Toshkent 2017-yil
2. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: 2005-yil
3. A.H. Nazirov. “O`qitishning yangi pedagogik texnologiyalari” Toshkent-2008

**HOW TO CREATE CREATIVE LESSONS FOR CHILDREN- SOME BENEFITS
TO INCREASE THEIR INTERESTS IN EDUCATION**

Maftuna Ashirova O'tkir qizi

Uzbekistan State World Languages University

Philology and Language Teaching: Faculty of English

Annotation: *This article gives information about how to create innovative class and some profits to grow interests of children. Additionally, there is some advice which help to make creative lessons which are arousing interest of pupils to education.*

Key words: *creative lesson, rules, interesting activities, no hesitation, improving knowledge, exploiting new methods.*

Introduction:

Creative pedagogical- creative and creating methods understood. "Create" - the meaning of the word, creative thinking, technical design, creativity, learning responsibility in the process, creativity, creative pedagogy. Today, creating creative lessons play significant role amongst young generation because teachers show own qualification via classes. Therefore, they try to improve ability and organize lesson with activities and various gifts for pupils. Inventive lessons help students to understand the main topic and they will not be bored during the lesson and they will not notice how time passes and moreover the teacher should inspire all the students and even academically poor pupil should be interested in the lesson. Sure, they can increase children's interests.

5 main stages for this option:

1. Structure the lesson more effectively.

First of all, teachers should take the lesson plan. When they first started the course last lesson by bringing students to conduct a short question and answer form of debate. It strengthens the memory of the past through the repetition of the lesson, the teacher students to stay in mind that their lessons percent increase further. These students better grasp the topic, and strengthen memory. After repeated theme, the plan threw the schedule full coverage of the new theme, and students more interested in preparing for interesting materials. So, by doing following methods, this course is organized effectively.

2. Assessment for learning.

To develop the pupils, they must first be evaluated. Because this system is useful for increasing children's knowledge and arousing interest. There are a number of features, principles, and strategies for assessing students. This method increases the student to attend classes and try to get a higher degree.

3. Attract attention.

The teacher should be addressed to the attention of their students to listen to the theme. So that they fully understand the contents of the subject. As for the teacher, hobbies, news, videos, and during the course of surprises to offer. The purpose of the attention and interest

of the students will be involved. After the completion of the survey on the subject, or to answer the challenge, such as the use of technologies appropriate.

4. Show students the right way to learn the subject easily.

It is important to inform students about topic strategies. In particular, they should be assisted by a teacher to study the available resources and show a study guide. This method increases the level of learning of students and does not waste time searching information on the internet.

5. Creating necessary timetable.

The teacher should create for himself each day a list of things he will use during the lesson, concepts and ideas that students need to learn. Basically, the teacher should set a time for each task when preparing a lesson plan. If there is a lot of time, additional engagement with the students should answer every question asked by the students. Only then can the teacher achieve his goal.

Most good students are not created to be good students beforehand. Their knowledge of the influence of some creative lessons and find his place in life increases. When it comes to school education, course and lesson of the child to participate in any mood to learn the most important role to play, but a good majority of children working in high positions in the future. Most importantly, the ability to place and manipulate any child can become a good reader. Although increasing students' interest in a lesson can lead some challenges, it has its benefits and affects their participation. In addition, their interest in learning increases. Surely, lack of interest is a global problem. This can be due to emotional difficulties, not understanding the topic of the lesson, sitting carelessly in class, and family issues. At times, this feeling is simply seen as boredom. But for life to go smoothly, it is inappropriate to spend it with different pleasures. Because such influences the psychology of the student and leads to the extinction of his interest in education. That is why parents should always monitor their children's attendance, their child's teaching status, and of course, the teacher's creative approach is an important factor for this. It is up to the teacher to ensure that students explore the topic in-depth if creative lessons can increase children's interest in life so that they can learn more and find ways to connect with everyday life as much as possible.

REFERENCES:

1. Educating the young generation Diana G., Oblinger and James L.
2. Effective teaching James Ko with Linda Bakkum
3. Creative lessons Herman A. Avila
4. www.emerging teach.com
5. A place called school John Goodlad.

THE DESCRIPTION OF NATURE IN ENGLISH AND UZBEK POEMS

Kodirova Gulshan

Termez State University Uzbekistan Student

Abstract: *This article analyzes the artistic aspects of the depiction of nature in the poems of the poetry in English and Uzbek languages. The brief explanation and analysis is given of two famous poems in both languages.*

Keywords: *lyrics, metaphors, poetic syntax, imagery, poetry of nature, verses.*

When we take the time to examine the beauty of the world around us, we are able to see parallels within our own lives. One who in tune with nature is in tune with the practice of living. Nature moves in a spiral as do our personal lives. It is important to spend time in nature because in this way we can become aware of its wisdom. If we ignore the beauty of nature and spend all our time in an urban jungle, our stress levels go up and we begin to feel as if we are made out of the concrete that we see all around us.

The power, ingenuity, and sheer beauty found in nature has always fascinated mankind. When we look at powerful ocean waves rolling in, we cannot help but feel small and powerless in comparison. Mighty trees in a vast forest inspire feelings of insignificance and awe. Animal mothers taking care of their young make us question the cruelty with which we sometimes treat one another. The truth is, nature can teach us many valuable lessons. It can also lead us to wonder, did this beautiful earth with all of its natural treasures come about by chance or was it created?

Nature is one of the great themes of poetry, and also provides poets with a storehouse of vivid and useful images. But what are the finest nature poems in the English language? Whether it's the Romantics like Wordsworth and Keats, the Victorians with their growing awareness of the natural world through geological and evolutionary scientific discovery, or more modern and contemporary poets writing about a landscape marked by suffering as well as beauty, English poets have often been drawn to the world of nature for inspiration. Throughout history, poets have written about the beauty of the seasons and our natural world. Today, with nature under global threat, it's important to treasure its wonderful fragile variety.

'Autumn Rain' is not one of D. H. Lawrence's most famous poems. He wrote a great deal of poetry, and whilst some of it falls short of the greatness we associate with his novels and short stories, 'Autumn Rain' shows his delicate control of poetic syntax and his inventiveness with imagery. Here is 'Autumn Rain' and a few words of analysis.

Autumn Rain

The plane leaves
fall black and wet
on the lawn;

the cloud sheaves

in heaven's fields set
 droop and are drawn
 in falling seeds of rain;

the seed of heaven
 on my face
 falling — I hear again

like echoes even
 that softly pace
 heaven's muffled floor,

the winds that tread
 out all the grain
 of tears, the store
 harvested

in the sheaves of pain
 caught up aloft:
 the sheaves of dead
 men that are slain

now winnowed soft
 on the floor of heaven;
 manna invisible
 of all the pain

here to us given;
 finely divisible
 falling as rain.

'Autumn Rain' was published in the magazine *The Egoist* in February 1917, but written the previous autumn. The First World War was raging, and this may lurk behind the reference to 'dead / men that are slain' and the unusual description of the skies as 'heaven's fields' – perhaps summoning the Elysian Fields, the abode of the dead in Greek mythology which was reserved for heroes who died nobly in battle.

The short lines and three-line stanzas of 'Autumn Rain' run on – the whole poem is one meandering sentence – and give the vague impression of falling raindrops on the page. The rhymes are uneven, although they begin more regular, with *leaves/wet/lawn* and *sheaves/set/drawn* and so on. Throughout, the emphasis is on falling, a word which, as 'fall' or 'falling', comes at us four times in this short poem.

The image of the rain in 'Autumn Rain' is complex: we begin with the falling leaves of the plane tree (it is autumn, after all) foreshadowing the falling of the droplets of rain; the rain itself is depicted in earthy terms, as 'seeds' falling from heaven (heaven itself has 'fields', remember), and then as tears ('the grain / of tears'), and then as 'sheaves of dead / men that are slain'. (Note that Lawrence writes 'men *that*' rather than the expected 'men who': the men have been reduced to things, bodies that have been slain.) The bodies of those dead men, probably those killed (or 'fallen', as [Laurence Binyon's poem](#) had it) in battle, are refined or 'winnowed soft' in heaven, with the men being almost reincarnated as the falling raindrops, those 'seeds' of heaven.

This image is a little too clever for its own good and risks being overly convoluted. But 'Autumn Rain' is nevertheless a fine poem, even if it tries to do too much with its central image. It hints at the dead of the Great War without directly becoming a 'war poem'. It is a grounded nature poem but also one which is open to the numinous or transcendent. Lawrence's poetry appeared in the earliest imagist anthologies earlier on in the First World War, and in 'Autumn Rain' we see an imagistic eye for detail.

Besides English poets, there are a lot of writers who based their lyrics on the topic of nature. One of the brightest examples is Abdulla Oripov.

Although the Hero of Uzbekistan Abdulla Oripov is not among us, he is a human creation is still in our focus. "It is a sign of a person's state of mind and mood

It takes a lot of talent. In this respect, Abdulla Oripov's talent is unparalleled"[1.

Kazakhboy Yuldosh. An open word. Page 658]. If we look at the work of the poet, we are struck by nature, witnessed the human psyche and, of course, imaginary waves in the blossom of nature we will see in the poet's poems, the lyrics of nature are so vividly expressed that the reader finds himself feels like living in the same landscape in the same environment:

Oh, how beautiful you are,
The first light that gives you is the sun.
Steam clouds pearl snows,

A head placed on a high peak. [2. Abdulla Oripov. Selected Works, Volume One, page 16].

The landscape (image of nature) depicted in the above verses is like a painting by an artist appears in front of the reader. The analogy given to the snow in verse 3 is the pearl. You can feel the snow glistening like a pearl. Not just an analogy. If we pay attention to the art of depiction, the clouds due to the height of the mountains to see the mountains on his shoulders and the first rays of the sun to reach him possible. The end of this poem is as follows:

Oh, you mountains, charming mountains,
You have captivated my young heart.
Youth, sing happiness,
You inspired my creativity

It is also understandable that his creativity in the beginning, the poet described natural landscapes without social motives - in an optimistic way. The poet's work is diverse and colorful in which life, creativity, human image and challenges and as well as imaginative images expressed in a way that is related to the composition of nature are given.

REFERENCES:

- 1) Harvey. Responsibilities towards nature and human nature in Spaces of hope. Edinburg, UP, 2000. p. 213-233
- 2) David. Creative Destruction on the Land in The enigma of capital and the crisis of capitalism. Profile Books, 2010. p. 184-215.
- 3) Dana. Ecocriticism, Literary Theory, and the Truth of Ecology. New Literary History, v. 30, n. 3, p. 577-602. 1999
- 4) Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T 2000. – 432 б.
- 5) Qo'ljonov M. Saylanma. Ikki jildlik. Birinchi jild. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti T.: 1982. – 384 б.
- 6) Averill, J. H. (1980). Wordsworth and the Poetry of Human Suffering. New York: Cornell University Press.
- 7) Guo, Q. Y. (1998). A Course in English Literature. Shijiangzhuang: He Bei Education Press

O‘ZBEK TILI FANI, VA UNI O‘RGANISH BO‘LIMLARI

Otajonova Ozoda O‘rinboyevna

Xorazm viloyati Urganch shahar

15- sonli maktab, o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiyasi: *Maqola o‘zbek tili fanini xalqining milliy adabiy tili, bo‘limlari fonetikasi va bo‘limlarini o‘rganish maqsadida yoritilgan bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilining asosiy hodisalari haqida izchil ma‘lumot berish maqsadida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *fonetik, leksik, grammatik, urug‘ tili, til vositalari, shevalar, dialektlar.*

O‘zbek tili o‘zbek millatining tili, o‘zbek milliy madaniyatining ko‘zguvidir. O‘zbek tili oltoy tillar oilasining turkiy guruhiga mansub bo‘lib, u chuvash, gagauz, bolqon turklari, ozarbayjon, turk, qaraim, qrim tatarlari, turkman, qozon tatarlari, truxmen, boshqird, qorachoy-bolqar, qo‘miq, no‘g‘oy, qoraqalpoq, qozoq, uyg‘ur, tuva, tofalar, yoqut, xakas, kamasin, shor, cho‘lim, qirg‘iz va boshqa tillar bilan fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari jihatidan bir qator umumiylikka ega.

Misol tariqasida o‘zbek va tuva tillarida 1 eksik birliklaridagi quyidagi o‘xshash holatlarini ko‘rsatish mumkin: kurt (tuva)-qurt (o‘zbek), adyg (tuva)-ayiq (o‘zbek), uzun(tuva)-uzun (o‘zbek), chylan(tuva)- ilon(o‘zbek), inek(tuva)-inak (o‘zbek dial.), qara-dorug(tuva)-qora to‘riq(o‘zbek) va b oshqalar. Shuningdek,

turkiy tillarning har biri boshqalaridan o‘ziga xos muhim fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O‘zbek tili o‘zbek xalqining tarixiy hayoti bilan bog‘liq holda rivojlanib,

taraqqiy etib, boyib keldi. Tilning urug‘ tilidan milliy tilgacha taraqqiyotining turli bosqichlarida uning vazifasi o‘zgarib, kengayib boradi. Jumladan, o‘zbek tili ham o‘z tarixi davomida bir necha davrni boshidan kechirdi. Tilshunos olimlar o‘zbek adabiy tili haqida fikr yuritganlarida, uning o‘zbek tili dialektlari, oddiy so‘zlashuv

tili va jargonlaridan tamoman farq qilishini, mazkur xalq vakillari uchun umumiy ekanligini ko‘rsatishib, adabiy til umumxalq tilining ishlangan, so‘z san’atkorlari tomonidan sayqallashtirilgan va ma‘lum bir me‘yorga solingan shakli ekanligini ta’kidlaydilar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘z tarixi davomida katta bir davrni bosib o‘tdi. Olimlar o‘zbek adabiy tilining tarixini uch davrga bo‘lishadi. Bular:

I. Qadimgi turkiy adabiy til.

II. Eski o‘zbek adabiy tili.

III. Hozirgi o‘zbek adabiy tili

Hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘zbek millatining milliy adabiy tilidir. O‘zbek milliy tili tarixan tarkib topgan ijtimoiy hodisa bo‘lib, o‘zbek millatiga xos hamma 5 til vositalarini, shu jumladan, barcha o‘zbek shevalarini va dialektlarini ham birlashtiradi. Tilda bo‘ladigan o‘zgarishlar inqilobiy yo‘l bilan emas, evolyutsion tarzda, asta-sekin yuz beradi. Bunda til leksikasining yangi so‘zlar hisobiga boyib borishi bilan birga undagi ayrim so‘zlarning iste‘moldan chiqib ketishi jarayoni ham kuzatiladi. O‘zbek tili ham avval urug‘ tili, qabila

tili va elat tili tarzida yashab rivojlanib keldi. Ma'lumki, millatlar kapitalistik munosabatlarning yuzaga k elishi bilan bog'liq holda tashkil topa boshlaydi. Millatlarning tashkil topishida uning asosiy elementlari-yagona madaniyat, yagona hudud bilan birga yagona til birligi-milliy til ham shakllanadi.

O'zbek adabiy tili leksikasi asosan quyidagi usullar vositasida rivojlandi:

1. O'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yangi so'zlar yaratish hisobiga. Yasama so'zlar tuzilishiga ko'ra sodda yoki qo'shma so'z bo'lib, turli tushunchalarni anglatadi: jangchi, quroldosh, limonzor, haydovchi, sinfdosh singari, shuningdek, -v(-ov), -chi, -chilik, -shunoslik, -kor kabi affikslar vositasida yasaladigan so'zlar ko'paydi.

Ichki imkoniyatlarga o'zbek tili dialektlari va shevalaridan so'z olish ham kiradi. Adabiy til leksikasida bo'lmagan so'zlar ayrim hollarda dialekt va shevalardan olinadi. Masalan: otar, qo'ton, yelvizak, simbag'az, murg'ak kabi.

O'zbek tili lug'at tarkibidagi juda ko'p so'zlarning ma'nosida semantik siljish ro'y berdi, ular yangi ma'nolarda qo'llana b oshladi: iymon, domla, murabbiy, tarbiyachi kabi.

2. Boshqa tillardan so'z va iboralarni o'zlashtirish:

a) so'zlar to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtiriladi: biznes, prezident, broker, kosmos va boshqalar;

b) kalka usuli bilan o'zlashtiriladi: родильный дом – tug'ruqxona, отделение связи – aloqa bo'limi, топливо – yoqilg'i, заочно – sirtqi kabi. O'zbek adabiy tilining fonetik tizimida ham sezilarli darajada o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, tovushlar birikuvining yangi qonuniyatlari (unli bilan unlining, undosh bilan undoshning, unli bilan undoshning birikuvi kabi) hamda ayrim yangi tovushlar paydo bo'ldi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm-unlilar ohangdoshligi qonuniyati deyarli yo'qoldi. Til oldi e fonemasi chuqur til orqa x tovushi bilan yonma-yon kela boshladi: sex, texnika, chex kabi. O'zbek tiliga xos bo'lmagan ikki unlining birikib kelish hodisasi yuz berdi: zoolog, kakao, aeroport kabi.

So'z o'zlashtirish tufayli bo'g'inning yangi turlari (so'z boshida va so'z oxirida ikki yoki uch undoshning qator kelishi) paydo bo'ldi: student, punkt, test, tekst, matn kabi.

“Hozirgi o'zbek adabiy tili” kursining maqsadi o'zbek milliy tilining yuqori shakli bo'lgan hozirgi o'zbek adabiy tilining asosiy hodisalari haqida izchil ma'lumot berish, ularning muhim xususiyatlarini ko'rsatib berish va taraqqiyot yo'llarini belgilashdan iborat.

ADABIYOTLAR:

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм.Т, Фан, 1966.
2. Шоабдурахмонов ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм.Т, Ўқитувчи, 1980.
3. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т, “Ўзбекистон”, 1992.
4. www.ziyounet.uz

FE`LGA QO`SHILIB QO`LLANILADIGAN $-(a)r+-mi+-siz$ SHAKLINING BADIY MATNDA VA AYRIM TURKIY TILLARDA QO`LLANILISHI

Sevara Tangrbergenova

QQDU magistranti f.f.n.

Shuhrat Abdullayev

QQDU o`qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada $-(a)r+-mi+-siz$ affikslar qo`shilmasining o`zbek badiiy adabiyotida hamda qardosh turkiy tillarda qo`llanilishi qiyoslandi.

Kalit so`zlar: sifatdosh affikslari, arxaiklashgan affikslar, badiiy uslub, so`roq yuklamasi, shaxs-son qo`shimchalari.

Qadimgi turkiy obidalarda sifatdosh affikslarining 75 xilda qo`llanilganligi tilshunoslarimiz tomonidan tadqiq qilingan. Vaqt o`tgani sari affikslar soni birmuncha kamayib borgan. Hozirgi o`zbek adabiy tilida sifatdoshlarning quyidagi shakllari mavjud: $-gan$, $-(a)r$, $-(u)vchi$, $-mish$, $-ajak$, $-asi/-gusi$.

$-gan$ affiksi to`la ma`noda sifatdosh bo`lib, hozirgi o`zbek tilidagi eng faol sifatdosh shakli hisoblanadi.

$-(a)r$ shakli mavjud darslik va adabiyotlarda umumzamon, doimiylik ma`nosini ifodalovchi (*aytar gap*, *ketar odam*) sifatdosh shakli sifatida qaraladi. Lekin bu shaklning kammahsulligi va uni olgan sifatdosh ko`proq sifatga yaqin turishi o`zbek tilshunoslari tomonidan e`tirof etilgan. Chunki «uning yordamida sifatdosh hosil bo`lishi o`zbek tilida juda kam uchraydi. Mazkur ko`rsatkich yordamida qo`llaniluvchi ayrim so`zlar fe`ldan ko`ra sifatlarga juda yaqin turadi: *oqar suv*, *so`nmas hayot* kabi. Hozirgi-kelasi zamon fe`lining *keladi*, *ishlaydi* va *keladigan*, *ishlaydigan* tipidagi shakli kelib chiqqach, bu shakl ($-(a)r$) yordamida yasaluvchi sifatdosh hozirgi zamon fe`liga aylangan» (“O`zbek tili grammatikasi”, I tom). Demak, $-(a)r$ shaklini arxaik sifatdosh shakli sifatida qarashga to`la asos bor [1].

$-(u)vchi$ affiksi qadimgi va eski turkiy tilda qo`llanilgan $-gusi$ affiksining o`zgargan shaklidir: $-gusi > -(gu)vchi/-(u)vchi$.

$-mish$, $-ajak$, $-asi/-gusi$ affikslari hozirda to`la arxaiklashgan affikslar hisoblanib, badiiy uslubda qo`llanilib kelinmoqda. $-ajak/-ajaq$ affikslari o`g`uz va qipchoq lahjalaridagi shevalarda ham faol qo`llaniladi.

Biz tilimizda ko`p qo`llanilayotgan $-gan$ affiksi yoki kam qo`llaniluvchi arxaiklashgan sifatdosh affikslarga diqqat qaratib o`tirmasdan, $-(a)r$ sifatdosh shakliga qo`shilib keladigan $-mi$ so`roq yuklamasi hamda shaxs-son qo`shimchalarining qo`shilib kelishini tadqiq qilamiz.

Hozirgi o`zbek tilida qo`llaniluvchi $-(a)r$ sifatdosh affiksi qadimdan qo`llanilib kelinmoqda. Bu affiksni qadimgi turkiy obidalarda quyidagi variantlarda ko`ramiz: $-r$, $-ur$, $-ür$, $-ir$, $-ar$, $-är$, $-yur$, $-yür$. Navoiy asarlarida $-r$, $-ar$, $-ur$ shakllarini ko`ramiz. Bu

affiksga so`roq yuklamasi bilan shaxs-son qo`shimchalari qo`shilishini Navoiy baytlarida uchratamiz:

*Firoq vaqtidir, ey ko`zlarki, emdi qon yig`lang,
Bilurmusizki, bukun ne kishidin ayrilasiz?*

Ushbu baytda *-ur* sifatdosh affiksiga *-mu* (hozirda arxaiklashgan) so`roq yuklamasidan keyin *-siz* II shaxs ko`plik qo`shimchasi hamda *-ki* yuklamasi qo`shilgan: *-ur+-mu+-siz+-ki*.

Navoiyning yana bir baytidan misol keltiramiz:

*Demangiz, ahhobkim, **qilmasmusen** bas yig`lamoq?
Kim manga tengri nasib etmish tuganmas yig`lamoq.*

Bu baytda *bas qilmoq* qo`shma fe`lini ko`ramiz. *Qilmasmusen* so`zi kelasi zamon gumon shaklidagi bo`lishsiz shakl hisoblanadi. Ya`ni birinchi baytdagi *bilurmusizki* so`zi bo`lishli, *qilmasmusen* so`zi bo`lishsiz savol shaklini ifodalaydi (*-mas+-mu+-sen*).

Badiiy adabiyotlarda kelasi zamon gumon shaklidagi bo`lishli savol shaklini uchratamiz.

Misollar: 1. *O`shanda siz menga... she`riyat tilsimini ochg`uvchi kalit **berurmisiz?*** 2. *Siz boshqa beklarning rizoligini olishda Bobur mirzoga **ko`mak berurmisiz?*** 3. *Minba`d sadoqat **saqlay olurmisiz?!*** 4. *Sohibqiron bobokalonimiz Amir Temur Jo`jixon avlodidan bo`lgan To`xtamishxonga qancha yaxshiliklar qilganini **bilurmisiz?*** 5. *Agar bunga ko`nmasangiz, Mahmudxon yuborgan qo`shin bilan **jang qilurmisiz?!*** 6. *Men hozir neki tilasam, **bajo keltirurmisiz?*** 7. *Men senga kitoblar sovg`a qilsam **o`qurmisiz?*** (Misollar P. Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidan olindi).

Ko`rinib turganidek, *-(u)r* (hozirda *-(a)r* ishlatiladi) kelasi zamon affiksiga *-mi* so`roq yuklamasi qo`shilib, izidan *-siz* II shaxs ko`plik shakli (hurmat ma`nosidagi sizlash) qo`shilgan. Yettinchi misolda II shaxs birlik (senlash) shakli qo`llanilgan (*o`qi+r+mi+sen*). Bu roman tarixiy janrda bo`lganligi uchun, muallif asarda tarixiy so`zlar, eskirgan so`zlar (arxaizmlar) va qo`shimchalarni qo`llagan. Hozirgi o`zbek tilida *-(a)r* affiksidan keyin *-mi* so`roq yuklamasi qo`llanilmaydi. Ya`ni *borarmisiz* emas *borasizmi* tarzida qo`llaniladi.

-gay istak mayli affiksi *-gay+-mi+-siz* shaklida qo`llanilib, *-ar+-mi+-siz* shakliga sinonim bo`la oladi: *Navro`z bayramigacha **ulgurgaymisiz?*** (P. Qodirov). *Siz saroyga shayxulislom bo`lib **borgaymisiz?*** (P. Qodirov)

-ar+-mi+-siz shaklining bo`lishsiz shakli *-mas+-mi+-siz* shakli hisoblanadi: *O`g`lingiz bularga qarshi necha barobar katta kuch bilan chiqqanini **bilmasmisiz?*** (P. Qodirov). Hozirgi o`zbek tilida bu shakl ham qo`llanilmaydi. Ya`ni *bilmasmisiz* emas *bilmasizmi* tarzida qo`llaniladi.

O`zbek she`riyatida ham bu shakllar qo`llaniladi. Xususan, XX asr o`zbek she`riyatida ham *-(a)r+-mi+-siz(-san)*, *-mas+-mi+-siz(-san)* shakllari qo`llanilganligini ko`ramiz. H. Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” poemasiidagi quyidagi satrlarga e`tibor beraylik:

*Sen meni **demasmisan?**
Oygulim emasmisan?*

Ko`rinib turganidek, *demasmisan* so`zida *-mas+-mi+-san* affikslar qo`shilmasi mavjud. E. Vohidovning “Ko`hinur” nomli she`rida bu affikslar qo`shilmasining bo`lishli shaklini ko`ramiz:

Sen zabunlar sanog`ini

O`ylarmisan, Ko`hinur?

Ming yillarning sabog`ini

So`ylarmisan, Ko`hinur?

Hozirgi o`zbek tilida bu affiksalar qo`shilmasi faqat badiiy adabiyotda qo`llanilishi bizga ma`lum. Lekin bu shakl ayrim qardosh turkiy tillarda hali ham qo`llanilmoqda. Hozirgi turk tilida sifatdoshdan keyin kelib, alohida yoziladigan *misiniz/musunuz* II shaxs ko`plik shakli mavjud. *-r* sifatdosh affiksining *misiniz* shakliga qo`shilib qo`llanilishini ko`ramiz: *Yüz yaşınıza kadar yaşamak ister misiniz?* (Qo`llanmadan). — *Yuz yoshgacha yashashni istaysizmi?*

Istarmisiz so`zi o`zbek she`riyatida uchrab turadi. Shams Tabriziy g`azalidan bayt keltiramiz (forsiydan Asqar Mahkam tarjimasini):

Ohan olar oyunagar, zaxm yetkazar unga sharar,

Istarmisiz bizni magar, sizni bu siz ko`rdim ravo.

Qadimgi turkiy tilda *-r* sifatdoshining *-yur/-yür* shaklli variantlarini hozirgi turk tilida *-yor* tarzida ham ishlatilib, unga *musunuz* shaxs-son qo`shimchasi qo`shilib kelishini ko`ramiz: *Peki, siz kiminle konuşuyorsunuz, biliyor musunuz?* (Qo`llanmadan). — *Xo`sh, kim bilan gaplashyapsiz, bilasizmi?*

-ar+-mi+-siz shakli turkman tilida *-er+-mi+-siñiz* shaklida qo`llanilishini ko`ramiz: *Yöne welin, siz ony maña rowa görermisiñiz?* (“Görogly”dan). — *Ammo siz buni uni menga ravo ko`rasizmi?*

“*siñiz*” shaxs-son qo`shimchasi hozirgi qozoq tilining ayrim shevalarida qo`llaniladi: *barasiñiz*. Lekin turk va turkman tillaridan farqli ravishda so`roq yuklamasi shaxs-son qo`shimchasidan keyin qo`shiladi: *barasiñiz ba?*

O`zbek tilshunoslari tomonidan turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasiga oid ko`pgina ilmiy ishlar qilinib, kitoblar chop etilgan. Bu kitoblardagi ma`lumotlardan foydalangan holda, ushbu maqolamizda hali tilshunolarimiz tomonidan umumlashtirilmagan ba`zi bir masalalarni yoritishga harakat qildik.

ADABIYOTLAR:

1. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. T. 2010. 298-b.

SIMULTANEOUS INTERPRETATION AND ITS FEATURES (ON THE BASIS OF CORPORA)**Boboqulova Gulhayo Ismoilovna***1st year master's degree from**Samarkand State Institute of Foreign Languages***Nasrullayeva Tozagul Suxrobovna***Teacher of Samarkand State Institute of Foreign Languages*

Abstract: *A number of articles discuss the current shortage of simultaneous translators, what to look for, such as translation, and the reasons for the types of production to be translated.*

Keywords: *translation, simultaneous interpretation, synchronous methods, synchronous reasons.*

Synchronos is Greek for one-time, periodic, meaning syn-together + chronos-time, period. Simultaneous interpretation is the process by which an interpreter must interpret what the speaker is saying while they are speaking. There is no delay between the commentary and what the audience receives. The interpreter may pause for more than a word or two behind the speaker. This type of interpretation is commonly used in reports made at the United Nations. Even simultaneous translation is often used in presidential speeches or at any major international conference. It is also the source language of the activity that produces the first and final translation based on the translation and the one-time exposure to the expression in the translation. The two most common methods of translation are simultaneous translation, which is done during exposure to the source language and is translated sequentially. The “language” of simultaneous events and gestures needs to be defined, especially by translators and interpreters. It should also be noted that G. Salomov, “Introduction to the Theory of Translation” It has been proved by relevant evidence that the language of the same period can be described independently of the time factor and linguistic changes. While many online educational programs began with the advent of web conferencing tools, people can learn in different places at the same time. For example, instant messaging or live chat, webinars, and video conferencing allow students and teachers to collaborate and learn in real time. And this is known as interpretation. This interpretation may also mean translating sign language into another language. An interpreter is therefore a person who translates the source language into the language to be translated. The interpreter performs this process simultaneously, i.e., in “real-time” or sequentially, i.e., when the speaker pauses after completing several sentences. There are also three styles that are widely used in the world. These are:

- Simultaneously
- in series
- whispered

Clearly, the interpreter's goal is to successfully convey any semantic element as well as the tone of the speaker's speech, as well as to record the intent of the speaker's message to the recipients. When it is necessary to interpret written speeches or lectures, it is understood that frequent use of pre-translated texts. Simultaneous translation is one of the most common types of translation in the world, and the interpreter must do his best within the time allowed by the speed of speech, while not disrupting the natural flow of the speaker. That means simultaneous interpretation.

Simultaneous interpreter is one of the most demanding professions in the world. With only a good knowledge of two languages, the nuances of correct interpretation in a stressful environment will not easily emerge. If there is an unknown term or phrase, there is no time to consult a dictionary. The translator translates with full confidence in his or her speaking skills. Therefore, improvisation is important in this work. When we talk about the importance of simultaneous interpretation, simultaneous translation helps to overcome language barriers around the world. No matter what language a representative or ambassador speaks, you can now easily track the speaker in real time using simultaneous translation. The reasons why simultaneous translation is important are as follows:

- Provides effective communication
- Communication completeness
- Saves time
- Simultaneous translation

Synchronous learning is a learning event in which a group of students is involved in learning at the same time. Before technology, which also allows for the creation of a synchronous learning environment, most online learning is done through asynchronous learning methods.

In conclusion, simultaneous interpretation, of course, requires a great deal of effort and effort. To do this, when we are translating simultaneously, it is important to know what the speaker is emphasizing and how the words are related, in other words, not to speak "street language". Also, when translating, interpreters should be able to save time and explain simultaneous translation to the listener with accurate information.

REFERENCES:

1. Nicholson, S. (2002). Socialization in the "virtual hallway": instant messaging in the asynchronous web-based distance education classroom. *The Internet and Higher Education*, 5(4), 363-372.
2. Foreman, Joel (July–August 2003), "Distance Learning and Synchronous Interaction", *The Technology Source Archives*, University of Carolina.
3. G'. Salomov, «Tarjima nazariyasiga kirish»
4. www.eng.m.wikipedia.org.

THE WAYS OF TEACHING ENGLISH VOCABULARY TO PUPILS IN PRIMARY SCHOOL

Tojixalov Humoyun Abduxamidovich

English teacher of the school 2 in Tashkent, Ohangaron

The young learners need to get English vocabulary from early ages. Because of their first time of getting English lesson, teacher must be patient in presenting vocabulary to them. In this Methodological recommendation, there are some interactive ways of teaching new words to beginner learners. These can be very helpful for English teachers.

To make the students becomes easier in learning English vocabulary it is better to give them new vocabulary less than ten. : “as few as eight to twelve new item maybe appropriate (eight for elementary, twelve for advanced) per sixty minutes lesson for truly productive learning to take place” (McCharty, 1990: 117). It is wise not to introduce more than ten. Words are often remembered in groups which have something in common.

According to the opinions above, it is important to introduce the young learner about language vocabulary earlier. And to make it successful, it is important to list the words in one group that have something in common, such as groups of foods, drinks, animals, day and others. The arrangement of a few word into one group make the students easier to remember the vocabulary with the meaning.

In order to help young learners learn vocabulary effectively, we need to employ a range of strategies. First, we need to think why the young learner wants to know the words we teach as they are much more likely to remember them if they need them or want to use them. One way to help young learners learn new words is to explore ways of recording vocabulary. Show learners some examples of picture dictionaries, words with sentences in English explaining what they mean and mind maps linking words and ideas. Discuss why these strategies are helpful. Encourage the learners to use these strategies when noting down new words.

Another interactiv way is "acting Out Verbs" . Teaching verbs and adjectives with a picture can be ambiguous. If you show a picture of a girl in a red shirt running to teach the verb ‘run’, students may get confused and forever associate ‘girl’ with ‘run’ or ‘red’ with ‘run’! Ideally, teachers will act out the vocabulary words which are verbs and/or show several videos of the verb in action. Once the students understand that the teacher is demonstrating an action, the students can practice conjugating the verbs in various sentences during the study phase. The activate phase could include a bag filled with cards with verbs on them. Students could reach into the bag and choose to either draw or mime the verb to his/her classmates as a game of Pictionary or charades.

Teaching Adjectives Using Opposites. For adjectives, use of contrast often helps. If a teacher is trying to show an adjective like ‘light’ she will have to contrast it with ‘heavy’ or ‘dark’. This contrast could be represented on slides or flashcards, but it is a good idea to have several versions to clarify what attribute is being illustrated. For example, when teaching an adjective like ‘old’, you may contrast an old car and a new car, placing an ‘X’

over the new car and circling the old one. But to be sure the students don't think it is to illustrate dirty versus clean or cheap versus expensive, you may have to have a few other contrasting pairs, like an old lady and a young lady or an old paper and a new paper. For the study phase, gap-fill exercises, whether oral or written, would be useful to verify if the students understand they are learning a descriptive word. The activate stage could include pair work where students describe a painting that their classmates have not seen. Each pair would read their descriptions aloud whilst the other pairs try to draw what they hear being described.

Another interesting way is the game " Odd one out". The rules of this game is the followings:

Write up four words on the board, one of which is the odd one out, e.g. cheeky, happy, curly, nice. 'Curly' is the odd the out because it describes physical appearance and the others all describe character. Get your learners to make their own examples and test each other.

Next game is called " Telephone" . It is also very helpful game for using learning process. In this game, teacher should Put learners in a circle. Whisper a word to the learner on your left. They whisper the word to the person on their left and so on. The last person to hear the word has to write it on the board – see if the word is the same or if it's changed! Change places to give everyone a go.

If we want our young learners to be effective learners of vocabulary, we have to invest in teaching them strategies that help them to remember the words and produce them when they need them. Using the strategies above will help them develop their vocabulary and increase the total number of words they know.

TECHNOLOGY INTEGRATION IN THE CLASSROOM

На первой ступени обучения учащихся готовят к пониманию и воспроизведению элементарной русской речи; у них формируют минимальную словарную и артикуляционную базу, вырабатывают первичные умения читать и писать по-русски, элементарные навыки диалогической и монологической речи, а также навыки общения на русском языке.

Вторая ступень обучения призвана заложить фундаменты знаний, речевых умений и навыков учащихся, сформировать базовые и коммуникативные умения.

Однако определённое сокращение часов в учебном плане вовсе не означает уменьшение объёма знаний, которые учащиеся должны получить или ограничение круга навыков и умений, которыми они должны овладеть.

Суть перестройки на этом этапе - рационализация учебного процесса, индивидуализация и дифференциация обучения. Результативность обучения русскому языку в конечном итоге определяется эффективностью использования учебного времени, организацией внеклассной и внешкольной работы, а также целенаправленным развитием навыков самообразования.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Андриянова В.и. Обучение русскому языку в школах Узбекистана на современном этапе. Т.: Укитувчи, 1997.
2. Баранников И.В. Методика начального обучения русскому языку в национальной школе. просвещение, 1989.
3. Буржунов г.г. Методика преподавания русского языка в начальной национальной школе. Просвещение, 1980.

ЎЗБЕК ТИЛИДА ПОСЕССИВЛИК КАТЕГОРИЯСИ

М.И.Исмоилова

Яшнобод тумани 156-мактаб

инглиз тили ўқитувчиси

Ўзбек тилида посессивлик категориясининг бадий адабиётда реализацияси инглиз тилидагидан ўзининг конвенционалиги, оддийлиги билан фарқланиб туради. Мисол учун, қаратқич келишиги таъсирида посессор келишик қўшимчасини, коррелят эса эгалик қўшимчасини олиши:

Орқа томондан мотоциклнинг гуриллаган товуши эшитилади. (Сараланган ҳикоялар. Б. 4)

Эгалик қўшимчасининг (1) эгалик олмоши билан ифодаланиши ва (2) эгалик олмошисиз коррелятга юкланган маъно ва қўшимча орқали ифодаланиши:

— *Бу киши сизнинг кимингиз (1) бўладир, бек ака?*

Отабек Раҳматнинг саволига жавоб бермай эшикка қаради. Ҳасаналини ҳужрадан узоқлатиб сўнгра жавоб берди:

— *Қулимиз. (2)*

Бу сўздан нима учундир Ҳомид ажабланган эди.

— *Қулингиз? (2)* (Қодирий А. б.7)

Тематик жихатдан эса посессивлик доирасида эгалик қўшимчаси, қаратқич келишиги воситасида посессорнинг мулкка эгалик қилиши ҳам ифодаланади:

Мажлис Зиё шоҳичининг уйида Отабекнинг меҳмондорчилиги учун йиғилган, юқорида исмлари ўткан зотлардан бошқа Ҳомид, Раҳмат ҳам Ҳасанали бор эдилар. (Қодирий А. б.86)

Бундан ташқари бу доирада яқинлик (қариндошлик, дўст ва биродарлик ва бқ.) муносабатлар ҳам англашилиб туради:

— *Кўб марталаб меҳмон бўлдим, — деди қутидор, — ул вақтда бобонгиз ҳам ҳаётда эдилар.* (Қодирий А. б.6)

Мутлақ эгалик конструкцияси ҳам борки, бунда аслида коррелят бўлган объект субъектга айланиб инверсия воситасида олмош билан ўрин алмашинади (1), ўзлик олмоши эса шахс сонни билдириб келиши ҳам билдириб келмаслиги ҳам мумкин (2):

Мен ҳам бир ой ичида ўз элимни ўрисники(1) билан бир қаторда кўрсам... аммо ўз элимга қайтиб кўрдимки, Шамайда ўйлаганларим, ошиққанларим ширин бир хаёл эмиш. (Қодирий А. б.7)

Воситасиз қаратқичлик ва эгалик конструкциялари энг оммабоп сўз бирикмалари ва сиёсий доирадаги сўз бирикмаларини ташкил қилади:

— *Мен унинг хон қизини олиш мақсади борлигини билмайман, — деди кулимсираб, — бироқ ул хон қизини олса арзимайдирган йигит эмас...* (Қодирий А. б.9)

Кишининг ўз танаси аъзолари, кийимлари ҳам, тақиб юрган тақинчоқлари ҳам эгалик конструкция билан қўлланилади:

Унинг **қора зулфи** нар ёстиқнинг турлик томонига тартибсиз суратда тўзғиб, **қуюқ жинггила кипрак** остидаги **тимқора кўзлари** бир нуқтага тикилган-да, нимадир бир нарсани кўрган каби... **қоп-қора камон**, ўтиб кеткан **нафис**, **қийиз қошлари** чимирилган-да, нимадир бир нарсадан чўчиган каби... (Қодирий А. б.13)

Посессивлик категориясининг предикатив лексемалари (эгалик қилмоқ, бор бўлмоқ, мавжуд бўлмоқ, эга бўлмоқ ва ҳк.) “бор бўлмоқ” конструкцияси орқали ифодаланиши маълум бўлди. Қайд этилган бошқа предикатив компонентлар қўлланилган бадий контекстлар топилмади.

Катта гиламни ҳам чиқар, уйингда меваларинг бор эдимми?

— **Бор.**

— **Бор** бўлса яхши. Бир оздан сўнг эт олиб киргузарман, варақи пишириб қўйингиз. (Қодирий А. б.14)

Ўзбек тилида атоқли исм, жой, номлари (шахс исми) билан ҳам эгалик қўшимчаси қўлланилиши аниқланди:

Эрта-индин кўзимга йўл кўринур,

Йўл босишлиқ кўнгилга бир умр кўринур...

*3-инчи ҳамал, Марғилон, **Кумушингиз** ёзди». (Қодирий А. б.164)*

Киноя ўрнида ўзбек тилида эгалик конструкциясида эгалик олмоши ҳам коррелят ҳам бирга келиши:

— *Қани ойи, кўрманани беринг-чи, мен **сизнинг қочқоқ келинингизни** тутиб келдим!* — деди ва йўлакка қараб: — *Тўхтанг, тўхтанг, илгари мен сўйинчимни ундириб олай.*

— *Бизнинг Марғилонда ҳам шундай **келинимиз** бор экан-ку, биз билмай юрган эканмиз-да, — деб теварагига қараб кулинди ва қўлини дуога очди. (Қодирий А. б.171)*

Эгалик қилиш ҳам дискрет бўлиши аниқланди:

*Йўлакдан Офтоб ойим кўринди. **Паранжиси бошида, чашманди қўлида** эди. Ҳасанали Ўзбек ойим билан танишдирди: (Қодирий А. б.170)*

Ўзбек тилида мақол ва идиомаларда ҳам посессивлик доирасидаги компонентлар кенг қўлланилади. Беозорликни, одамнинг ўзига тўғри бўлиб, бировга тили ва оғзи билан жабр етказмайдиганларга нисбатан қўлланиладиган мақол бунга мисол бўла олади:

— *Нега энди? **Ўзига** тўғри бўлса. Бировга **оғзи** тегмаса, **тили** тегмаса...*(Сараланган ҳикоялар. Б. 8)

Сифат отлашиб, қаратқич келишигини олиш ҳолати ҳам идиоматик маънода бўлиб (1), кейинги ўринда оғзаки услубда талаффуз хусусиятларига кўра ўзгаришга учрайдиган қаратқич келишигининг посессорда ифодаланиши ўзига хос (2):

— ***Ёмоннинг (1) кучи** мен япалоққа етибди-да!.. **Ҳ-аҳ, сағирри ҳаққи(2)** урсин-а!* (Сараланган ҳикоялар. Б. 18)

Кетма кет қаратқич келишиги воситасида боғланиб келган қуйидаги идиоматик маънодаги мисол ҳам диалектик талаффуз хусусиятларига кўра (1) посессорда қаратқич келишиги бирикишини тасдиқлайди:

— *Шу аёлди (1) майизини егунча тили ўйилиб тушин-а.* (Сараланган ҳикоялар. Б. 18)

Достону асар, эртақларда оммалашиб қолган паремик ифодада ҳам қаратқич келишиги борлигини кўриш мумкин:

— *Ёмоннинг кунни битди, биродарлар!..* (Сараланган ҳикоялар. Б. 25)

Яна бир қарғаш ва лаънатлашга хос иборада ҳам қаратқич келишигига юқори урғу берилган:

— *Савобингизнинг уйи куйсин, — деди Полвон. — Ваколлатимни қайтиб беринг!*(Сараланган ҳикоялар. Б. 31)

Кўчма маънода ифодаланган қуйидаги мисолда эса эгалик олмошисиз коррелят берилган:

Бўғзига тикилган аччиқ хўрсиникни ичига ютдию унинг тарашадек қотган жун чакмонига бетини буркади... (Сараланган ҳикоялар. Б. 33)

Яна бир қаратқич келишиги билан, лекин эгалик асосида шакллантирилган кинояли иборада ҳам позессивлик категориясининг доминант эканлигини кўриш мумкин:

— *Акангнинг сафари қариди, жўражон!*

— *Кетганинг рост бўлсин! Энди келиб овора бўлиб юрма!*

— *Келаси баҳор кутаверасан!* (Сараланган ҳикоялар. Б. 37)

Умуман олганда посессивлик категорияси ўзбек тилидаги бадий асарларда эгалик конструкциялари, ифодалари, қаратқичли конструкциялар, эгалик қилиш ва эгалик қилишга ҳаракат қилиш каби маъноли лексемаларда реализация қилиниши, талаффуз, идиоматик, лексик хусусиятларига кўра ўзига хос эканлиги маълум бўлади.

Фойдаланилган бадий адабиётлар рўйхати:

1. Сараланган ҳикоялар. Тошкент. 2001.
2. Қодирий А. Ўткан кунлар. <http://ziyouz.uz/uzbek-nasri/abdulla-qodiriy/abdulla-qodiriy-otkan-kunlar-roman>
3. Austen J. Pride and Prejudice. – LA., ASCII. – 234 p.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

REKLAMANI PSIXOLOGIK TASIRI VA UNING SABABLARI

Omonov Sherali

FarDU psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya : *Maqolada reklamalar va uning tasiri reklamalardagi asosiy maqsad va mohiyat tasir etish sabablari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *dastur , reklama , ong , madaniyat , soxa , ma'suliyat , jamoa.*

Reklama bizni har joyda o'rab turadi: televizorda, internetda, ko'chalarda turli videolarni ko'ramiz. Ularning ko'p turlari mavjud va ko'pincha ularning ongga ta'sir etuvchi tajovuzkor tabiatiga, eng dahshatli - odamning ongiga xosdir. Reklama psixologiyasi eng kichik tafsilotlarni hisoblab chiqadi, chunki uning yaratuvchilari tomonidan qo'yilgan maqsad mahsulotga bo'lgan ehtiyoj hissiyotini berish va imkon qadar ko'p nusxalarini sotishdir. Reklamachilar yaxshi narsalarni reklama qilish uchun foydalanadigan bir necha asosiy psixologik metodlar mavjud: xizmat yoki element. Tabiiyki, bu usullar uning tarqatilishiga bog'liq: televizor, internet yoki bosma media. Biroq, ularning barchasida umumiy xususiyatlar mavjud. Ehtiyojlarni o'zgartirish. Bu erda reklama psixologiyasi odamlarni ma'lum bir mahsulotni sotib olishda ko'proq qimmatli narsalar olishiga ishontirishga qaratilgan. Misol uchun, reklamani tarixida telefon modelini reklama qiluvchi telefon kompaniyasining sotib olishi yaqinlaringizning issiqligini sotib olish bilan taqqoslaganda ma'lum. U shunday tuyuldi: kim bilan gaplashayotganini va jilmayganini ko'rsatadigan telefonli ayol ko'rsatildi. Keyin u telefonni qo'yib yubordi va o'zini yumshoq adyolga o'raldi va baxtli va tinch yuz yaratdi. Keyin qora fonni ta'qib qilib, oq rang bilan bezatilgan: "Modelning nomi - sizning yaqinlaringizning iliqligini sezasiz". Shunday qilib, telefon bilan birga odam sotib olinadi va harorat kerak bo'ladi, ammo bu kerak emas. Haqiqatni buzish har qanday reklamani asosiy elementidir.

Madaniyat va an'analarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda. Tovarlarini odamlar uchun tushunarli va foydali qilish uchun ularning reklamasi tomoshabinlar uning yabanciyetini sezmaganda amalga oshiriladi. Misol uchun, bolalarning qishloqda o'ynashlari bilan oq, ularning buvisini ziyorat qiladigan sharbati bor. Ular daraxtdan mevalarni yuqtirishadi va buvisi ularni sharbat bilan muomala qiladi. Video madaniy elementlardan foydalanadi: buvisining ko'ylakida, uyning orqa tarafida o'ziga xos bezak. Bu elementlarning barchasi bizning madaniyatimizga xos bo'lib, ularni ko'rish, tomoshabinlar tovarlarni taniydigan tarzda qabul qiladi. Tovarlar va ijtimoiy mavqe o'rtasidagi munosabatlar. Ko'pincha reklama qilingan mavzularda reklama qilingan mavzuni sotib olgandan keyin ijtimoiy jihatdan o'zgartirildi: unga boshqa odamlardan hurmat ko'rsatish va ba'zan ibodat ham bor. Misol uchun, erkaklar uchun deodorant bir reklamada bu quyidagicha ko'rsatiladi: ayollar birinchi navbatda yigitga e'tibor bermaydilar, lekin u

mahsulotdan foydalangandan so'ng ular bilan birga bo'lishlarini so'rayaptilar. Tabiiyki, haqiqiy hayotda bunday bo'lmaydi va hech qanday mahsulot odamning ijtimoiy mavqeini o'zgartirishga qodir emas.

Reklamaga shaxsning ta'siri Reklamalar odamning ongini va befarqligini zararli ramkalar, yorqin ranglar va kutilmagan mavzular bilan agresif ravishda ta'sir qiladi. Reklama psixologiyasi mahsulotni tanib olish va ommaning ongida ma'lum bir biriktiruvchi aloqani o'rnatishga asoslangan. Bu muayyan vaziyatga tushib qolgan odam mahsulotni eslab qolishi uchun amalga oshiriladi. Masalan, yozgi mavsumdan oldin, ichimliklar ishlab chiqaruvchilari odatda e'lon qilinadi. Ularning asosiy massasi bir hikoyaga ega: bir kishi issiq havo bilan charchagan, keyin issiqlikdan "qutqaruvchi" sovuq ichimlikka ega.

Birlashma aloqalarini shakllantirishga qo'shimcha ravishda, reklama ham, odamning mahsulotga o'ta muhtojligi sababli stereotipli fikrlash tarzini shakllantiradi. Misol uchun, anti-sellulit kremlari va ularning reklama yaratilishidan oldin, kamroq odam bu ayol tanasining bu xususiyati muammo deb hisoblaydi. Ammo nozik ayollarning jasadlarini har joyda namoyish etish yangi stereotipni yaratdi: ko'pchilik erkaklar juda nozik ayollarni yoqtirmasligiga qaramay, selulit yomon, ortiqcha vazn yo'q.

Endi reklama faqat jurnallar, gazetalar, radio, televidenie va hatto internet bilan cheklanib qolmaydi. Aslini olib qaraganda, bizni o'rab turgan deyarli hamma narsada. Do'konlarda mahsulotlarning usuli, kartoshka chiplarining rangi va kattaligi, kiyim-kechak narxi, radioda aytilgan nozik so'zlar aks ettirilgan. Boshqa so'z bilan aytganda, mahsulotni jozibador qiladigan va diqqatimizni tortadigan barcha narsalar uni ommaga etkazishning kuchli omildir.

Reklama bizning hayotimizda shunday mustahkam bo'lib qoldi, ba'zida bizga tuz singari tuz bilan singib ketgan ko'rinadi. Va biz keyingi reklama fokuslarini olmaysiz, ularni bevosita darajadagi filtrlashni o'rgandik. Lekin reklama kompaniyalari uchun sarflanadigan ajoyib pullar aksincha. Fikrning psixologiyasi va reklama ta'siri, bizning hayotimiz va tanlovimizga samarali ta'sir qilishda davom .Reket psixologiyasi o'tgan asrning boshlarida iqtisodiy psixologiya sohasidagi mustaqil yo'nalish sifatida o'rganila boshladi. Hozirgi vaqtda u "iste'molchi psixologiyasi" ga kengroq yo'naltirilgan bo'lishi mumkin bo'lgan amaliy ijtimoiy-psixologik ilmning alohida bo'linmasiga aylantirildi. Barchamiz yangi va yangi tamoyillarni topish uchun faolroq o'rganmoqdamiz. Shunday qilib, psixologlar nuqtai nazaridan reklama kabi hodisaning mohiyati nima? Ko'rinib turganidek, ba'zi bir harakatlar uchun dasturiy potentsial iste'molchilar oddiy, aslida. Muayyan mahsulot tanlashda sizning qo'lingiz tasodifan emasligidan shubhalanmasligingiz mumkin. Reklama siz xohlaysizmi, xohlamasligingizdan qat'i nazar, o'z ishini qiladi. Albatta, biz yuqori sifatli reklama haqida gapiramiz. Iste'molchining reklama bilan bog'liq psixologiyasi juda oddiy - ko'pincha bizni boshqarishga ishonishdan bosh tortamiz. Ehtimol, ko'plab videolar bizga ishonarli emas, ammo zamonaviy reklama mantiqqa murojaat qilmaydi. Aksincha, reklamachilar sezgi va spontan tuyg'ularning kalitini qidirmoqdalar. Hayotimiz davomida biz, har qanday turli xil mahsulot va xizmatlarga ehtiyojni his etamiz. Muayyan faoliyatga turtki berish (bizning holatlarimizda - sotib olish) va bu turtki . Qanday qilib biz turtki beramiz? Avvalo, reklama

motivatsiyasi psixologiyasi deyarli har doim amerikalik A. Maslow tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyojlar modeliga asoslangan:

asosiy ehtiyojlar biologik asosda;

xavfsizlik hissi va yaqinlaringiz uchun qo'rquv yo'qligi;

ijtimoiy ehtiyojlar (birinchi navbatda - sevgi va mehrga muhtoj);

jamiyatda tan olinishi zarurligi;

o'z-o'zini anglash zaruriyati.

Ijtimoiy reklamalarning psixologiyasida eng aniq g'oyalar yuqori qadriyatlar haqida e'lon qilishdir. Deyarli barcha motivatsion modellar, ba'zilari esa uning salbiy tomonlarini namoyish qilishadi. Lekin har doim ham motivatsiya oshkora emas. Masalan, sug'urta reklamasi xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojni emas, balki jamiyatda tan olingan obrazni yoki o'zini o'zi anglash istagini ishlata olmaydi. Kerakli (samarali) turtki izlash psixologiyada reklamani o'rganish muammolaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Marketing psixologiyasi Fargona 2020 y maruza matni
2. Manejment va marketing psixologiyasi Maruza matni Farg'ona 2019 y
3. Mehnat va muhandislik psixologiyasi Farg'ona 2021 y
4. www. Ziyonet . uz

ШАХСНИНГ ЭМОЦИОНАЛ ҲОЛАТЛАРИНИ АНИҚЛАШДА ПРОФАЙЛИНГ АҲАМИЯТИ**Ёкутхон Уринбаевна Каримжанова***Фарғона Давлат Университети**Психология кафедраси ўқитувчиси,***Анваржонов Азимжон Анваржон ўғли***Фарғона Давлат Университети**Психология йўналиши 2-босқич талабаси.*

Профайлинг бу шахснинг новербал хатти-ҳаракатлари ва узига хос хусусиятларини баҳолаш орқали унинг ҳаракатларини ҳаққоний баҳолаш, башорат килиш методикаси ҳисобланади. Агар профайлинг методини фуқаролар билан суҳбатлашиш, уларнинг руҳий ҳолатини кузатиш сифатида таърифланадиган бўлса, бу метод икки бир-бирини тулдирувчи методдан, яъни руҳий кузатиш методи ва сўров (суҳбат) методидан ташкил топган бўлиб, шахс психодиагностикасининг тури ҳисобланади. Бу усулдан ички ишлар органлари фаолиятининг кўплаб йўналишларида, жумладан аҳоли кўп тупланадиган жамоат жойларида, курикланадиган ўта муҳим объектларда, жамоат транспортининг амалдаги барча турларида хавфсизликни таъминлашда фойдаланиш катта аҳамият касб этади.

Профайлинг ёки профайлин методи шахсларни психологик баҳолаш, кузатиш, уларнинг ҳулкидаги ўзгаришларни ташқи ифода ва хатти-ҳаракатлар асосида таҳлил килиш каби бир неча психологик усуллардан фойдаланган ҳолда олдиндан башорат килиш имконини берадиган шахс профайлинни яратиш усулидир. Ҳозирги кунда шахсларнинг профайлинни яратиш асосида кўплаб зўравонлик, кўп такрорланадиган қотиллик жиноятларини очишда кенг фойдаланилади. Психолог олимлар П. Экман, В. Фризен, М. Цукерман ва Б.Де Пауллар профайл методи асосчилари ҳисобланади. Профайлинг усули профилактика инспекторларига фуқаролар билан мулоқотга киришган шахс хақида маълумот олиш, хавфни олдиндан башорат килиш имқониятини беради. Шунингдек, профайлинг усулини профилактика инспекторлари фаолиятида жорий этилиши касбий кузатувчанлик, атроф-муҳитни таҳлил килиш, кишиларнинг ҳулки, шубҳа уйғотувчи аломатларини аниқлаш, хизмат вақтида фуқаролар билан юзага келадиган муаммоларни ҳал килишда самарали ҳисобланади.

Профайлинг билан шуғулланувчи шахсларни одатда профайлерлар деб юритилади. Профайлернинг ўрганиш объекти сифатида қуйидагиларни эътироф этиш мумкин: мимика; жестлар; хатти-ҳаракатларнинг узига хос хусусиятлари; нутқнинг психолингвистик қонуниятлари; вербал мулоқотнинг паралингвистик аломатлари ва бошқалар. Хар қандай ахборот факат белгилар, аниқроғи, белгилар тизими орқали берилади. Ушбу воситаларнинг биринчи гуруҳига имо-ишора ва мимика киради.

Мимика юзнинг мулоқот пайтидаги динамик ифодаси. Жест (имо-ишора) жамиятда ишлаб чиқилган ва руҳий ҳолатни ифодаладиган ҳаракат. Уларга қараб, биз инсоннинг бирор-бир воқеага, шахсга, нарсага муносабати хақида ҳулоса

киламиз. Имо-ишора одамнинг истаклари, унинг ахволидан дарак бериши мумкин. Имо-ишоралар ижтимоий шаклланган ҳаракатлар булиб, шахснинг психик ҳолатини курсатади. Улар асосида инсонни у еки бу ходиса, шахс, предметга булган муносабатини аниклаш мумкин. Инсоннинг имо-ишоралари асосида унинг ҳолатини тушуниб олиш мумкин. Инсон гавдасининг мимика, имо-ишора, интонациялар воситасида унинг психик ҳолатини, айникса, ҳис-туйғуларини ифодаловчи ҳаракатларга пантомимика дейилади.

Ҳозир кунга келиб профайлинг методи психологиянинг Ўзбекистонда энди ўрганилаётган тармоғи ҳисобланади. Бу соҳада илмий изланиш олиб бориш талаб этилади. Ички ишлар тизимида гумон килинувчи, гувоҳ, жабрланувчи ва бошқа тоифадаги шахслар билан сўроқ олиб боришда терговчи учун, шубҳа уйғотувчи шахсларни аниклаш, транспортда хавфсизликни таъминлаш, фуқаролар билан психологик алоқа урнатишда-профилактика инспекторлари, жиноят содир этилган жойни таҳлил килишда эксперт криминалистлар, шубҳали ҳайдовчиларни аниклашда йул ҳаракати хавфсизлиги хизмати ходимлари, маҳкумларни қайта тарбиялаш, уларга психологик таъсир утказишда жазони ижро этиш муассасалари ходимлари ва бошқа хизмат ходимлари учун профайлинг методи жуда ҳам зарурдир.

Профилактика инспекторлари фаолиятида профайлинг усулидан фойдаланишни урганишдан асосий мақсад бу турли тоифадаги фуқаролар билан профилактик ишларни ташкил этишда уларнинг узига хос хусусиятларини вербал ва новербал мулоқот воситаларидан фойдаланган ҳолда аниклаш ва унга қараб психологик таъсир этиш механизмини ишлаб чиқишдан иборат. Ушбу мақсадга эришиш учун қуйидаги билим ва малакаларни эгаллаш вазифаси белгиланади:

визуал (кўриш ва кузатиш асосида) психологик ташҳис ёрдамида шахсларнинг хатги-ҳаракатларини баҳолаш технологияси;

ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил шахсларга рухий таъсири эга олиш тажрибаси;

қалтис, қутилмаган вазиятларда ҳиссий хусусиятларини бошқариш;

жамоат жойларида шахсларга рухий таъсир утказиш борасидаги тажрибаларни такомиллаштириш;

жамиятга зид қарашлари мавжуд ҳамда ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил булган шахсларни оғзаки (сўзда ифодаланган) сурати (портрети) ва ҳулкидаги алоҳида белгилари асосида таниб олиш;

профилактик ҳисоб юритилган шахслар билан ишлаш жараёнида уларни урганиш ва улар ҳақида атрофлича тулик билимга эга булиш;

жамоат жойларида еки оммавий тадбирлар утказиладиган жойлардаги шубҳа уйғотувчи шахсларнинг хатги-ҳаракатларини урганиш;

жамиятга зид ҳамда ҳуқуқбузарлик ҳаракатларини содир этишга мойил шахсларнинг хатги-ҳаракатларини назорат килиш;

хизмат вазифаларини амалга ошириш жараенида оператив аҳамиятга эга маълумотларни олиш ва улардан самарали фойдаланиш борасида малака ва тажрибаларни шакллантириш.

Мулоқот бу доимо уйин. Сухбатдошнинг қизиқувчанлигини ва эмоционал ҳолатини баҳолаш, унинг ўз айтганида туриш, аниқ маълумотлардан қачон фойдаланиш зарурлиги туғрисида аниқ тушунча беради, бундай вазиятдан фойдаланиб, аниқ ҳаракатни амалга оширишни кулдан чиқариш мумкин эмас. Одамлар тупланадиган жойларда (аэропорт, савдо марказлари, тунги клублар ва уоказо) ниятни узғаришини аниқлаш. Агар дукон еки тунги клубларда жанжал чикканида, қуркмасдан урушга кирган ходим, яхши ходим ҳисобланмайди. Малакали профилактика инспектори оломон орасидан нияти бузукларни аниқлашни ва можаронинг асосий манбаини бартараф этишни билиши лозим. Жиноятчини психологик профилини тузиш. Бу усул барча профайлинг йуналишининг бош мёзони ҳисобланади. Унинг вазифаси, профилактика инспектори томонидан маъмурий худуддаги хукукбузар шахс еки профилактик ҳисобдаги шахсларнинг профили туғрисида аниқ тушунчага эга булиш ҳисобланади, бу эса профилактик ишларнинг самарасини оширишга хизмат килади. Кўпчилик эҳтиётсизликка йул куйиб айтган сўзлари билан узини фош килади.

Зигмунд Фрейд бунини тилдаги янглишув сифатида таърифлаган. янглишув, деб ёзган эди у, узига хос «айтишни истамаган, аммо узингни фош этиб куядиган нарсани ифодалаш қуроли»га айланади. Агар сўзлаётган одам била туриб ёлгон гапираётган булса, маъюслик онгли булиши мумкин. У истамаган холда гапириб куйгач, узининг тушкун ҳолатини тушуниши хам, бунга эътибор бермаслиги хам мумкин. Янглишиб айтилган гаплар буйича ёлгонни аниқлашда эҳтиёт булиш зарур, деб ҳисоблайди П. Экман, чунки ана шу янглишувларнинг хаммаси хам ёлгондан далолат беравермайди. Янглишув ёлгонни фош килаётгани еки килмаётганини одатда контекстдан келиб чикиб аниқлаш мумкин. Шу уринда бошка бир кенг тарқалган хатонинг олдини олиш ва янглишиб гапирмайдиган хар бир кишини хакикатгуй деб ҳисобламаслик хам зарур. Кўплар ёлгон гапираётганида янглишувга йул куймайди. Ҳозирча қандайдир ёлгоннинг янглишув билан фош булиши, қайсиларидир бундай бўлмаслигини изоҳловчи хеч бир тадқиқот амалга оширилмаган (хатто тахминлар хам билдирилмаган). Ёлгон психологиясига оид айрим тадқиқотларга кўра, баъзилар ёлгон гапираётганида дангал жавоб бермайди, гапни айлантиради еки керагидан ортик маълумот беради. Бошка тадқиқотларнинг кўрсатишича, бунинг акси хам булади: аксарият одамлар саволга жавоб беришдан буйин товлаш ва аниқ жавоб беришдан кочиш учун ҳаддан ташқари айёрдирлар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Е.Ғозиев. Умумий Психология. Тошкент – 2002 й.
2. Ф.Солиев. Профайлинг. ФарДУ психология кафедраси – 2015 й.
3. А.М. Кадникова. Профайлинг. Москва – 2016 й.
4. ОН Авчинникова. Методы профайлинга. Москва – 2015 й.

ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИДА МУМТОЗ МУСИҚАНИНГ ЎРНИ

Феруза Ражабова

*Республика муסיқа ва санъат коллежи**“Муסיқа назарияси ва тарихи” кафедраси ўқитувчиси, Муסיқашунос*

Илмли, ақлли одамларга яхшилик қилиб, сўзларини тингла. Илмларни, ҳунарларни ўрганиб, амалга ошир.

Маҳмуд Қошғарий

Муסיқа – табиат инъом этган неъматдир. Айнан у инсон қалбидаги энг гўзал туйғуларни мужассамлаштира оладиган, ҳаёлий дунёни кашф эта олиш имкониятини бахш этадиган ҳаёлот олами, бутун борлиқни осмондаги турли юлдузлар каби кашф этувчи мўъжизакор уммондир. Инсон қалби доимо муסיқа оҳангларига эҳтиёжманд, ва муסיқани ҳис этиш бахти кўпчилигимизга насиб. Борлиқнинг ҳар бир нафосатида оҳанг сеҳри мужассамдир. Ошуфта дилларнинг қалбига малҳам бўлувчи, очилмас тилсимнинг олтин калити ҳам - **муסיқадир**.

“Биз ўзи ким эдигу, ким бўлдик” деган шиорни олдимизга мақсад қилиб қўйган ёшлар сифатида шуни айтишимиз мумкинки, бу тинч замин барчамизни ҳаракатда бўлишга, марраларга эришишга чорлайди. Ёш авлод ҳам ўзи тўғри деб билган авлод ортидан эргашишга интилади.

Ўсиб келаётган ёш авлодни руҳий жиҳатдан баркамол қилиб тарбиялашда асосий озуқа вазифасини мумтоз муסיқа эгаллайди.

Шундай қилиб ҳозирги вақтда, айниқса ёшлар эстрада муסיқани тинглашни афзал кўришининг сабаби нимада деган саволга, жавоби сифатида келажак авлод вакилларининг қизиқишлари шунга мойил дейиш мумкинми? Ёки бўлмасам ёшларнинг мумтоз муסיқа ҳақидаги тасаввурларида уни, тушуниб бўлмас муסיқа деб ўйлашларими? Албатта, мақомларимизни тинглаш эстетикаси, уни кўйига, сўзига тушуниб қабул қилиш ёшлар учун бироз мушкулдир. Лекин миллий муסיқамиздан воз кечиш, уни тушунмаслик, охир-оқибатда бу санъатнинг айнан бизнинг замонамизда бегоналашишига яъни ўгайлашишига олиб келмоқда-ку. Тўғри бу санъатни ўрганувчи махсус мутахассислари бор. Лекин уни тобора истеъмолдан чиқариб юбориш натижасида, бизнинг онгимиз енгил-елпиликни қабул қилишга ўрганиб, мазмунийликдан йироқ, тарозини палласини юк босмайдиган ҳавои муסיқаларни онгимиз қабул қилишга ўрганиб қолмоқда. Бу кетишда ёшларнинг диди, савияси, тафаккури, дунёқараши, ҳаётга бўлган интилишлари ўз аксини топиб, орзулари пуч ёнғоққа айланиб қолмаса эди.

Биздаги ич эътимизни тирнайдиган оғриқли нуқсонларимиздан бири шуки, яратилаётган имкониятлардан баъзида унумли фойдалана олиш тўғри тақсимотини топмаяпти. Омманинг эътиборини тортадиган телевидение ва радиода эстрада йўналиш устувор туради. Кошки эстрадамизда булбуллар хониш қилса-ю, зоғлар ўз

ўрнини билса. Ўзбекнинг кимлигини кўрсатадиган миллий мумтоз мусиқа эса бекатда автобусини кутаётган йўловчига ўхшаб қолгандек назаримизда.

Айниқса, кўша-кўша маҳаллий радио тўлқинлари ҳамда теледастурлар мисолида кўпинча савияси паст ҳасваскорона ижрочилик билан чекланиш яққол кузатилади. Мусиқа олими, устоз Файзулла Кароматли бу ҳолатни лўнда таърифлашга уриниб: “... **қалбаки эстрада вакилларининг нафақат концерт заллари, балки радио ва телевидениеда ҳам ўта устуворлиги, очиғини айтганда, қандайдир бир “мусиқий вабо” тусидаги бахтсизликдир, - дея ташхис қўяди. – Холбуки, бу дарднинг олдини олишда энг кучли воситалар радио ва телевидение бўлиши керак”.**

Биз айнан ёш авлодни тарбиясини шакллантиришда мумтоз мусиқамиздан фойдаланиб, ижобий натижаларга эришсак бўлади. Мумтоз мусиқа деганимизда айнан ашула, катта ашула ва мақомларимизни назарда тутган ҳолда, ўсиб келаётган ёшларнинг онгида миллий мусиқани сингдириш лозим. Чунки, мақомларнинг мусиқаси оҳангида улуғворлик ва илоҳийлик умумлашиб кетади. Ҳозирги бизнинг замонамизда бундай мусиқани камолотга етмаган гўдаклардан олдин уларнинг ота – оналари ҳам миллийликнинг негизи нималардан иборатлиги, инсонга ақлий-ахлоқий, руҳан ва маънан таъсир қилувчи сирли илоҳийлик кучи борлигига афсуски ёши бир жойга бориб, оқу-қорани ажрата оладиган ёшда бўла туриб ҳам мумтоз мусиқа нима эканлигини фаҳмламайдиганлар ҳам талайгина. Биз ёшларнинг мусиқа эшитиш савиясини тарбиялашимиз керак. Ундан аввал эса уларнинг ота-оналарини жавонида қандай мусиқалар ўрин олганини гувоҳи бўлиш керак. Улар фарзандларига мерос қилиб қолдираётган куй-қўшиқлар борасида афсуски ачинишдан бошқа иложимиз йўқ. Шундай экан биз уларнинг фонотекасини миллий мазмуний оҳангга эга, эстетик диди юқори ва энг эзгу тафаккурнинг юксак талқини мужассамлашган талқинлар билан тўлдирмоғимиз лозим.

Ўзларининг ижодий изланишлари билан маънан тафаккурга эришган, илоҳий инъом этилган овозларга эга бўлган ҳофизларимиз Левича Бобоҳон, Хожи Абдулазиз Расулов, Сирож Аминов, Мулла Тўйчи Тошмуҳаммедов, Фахриддин Содиков, Жўраҳон Султонов, Очилхон Отахонов, Толибжон Темиров кабилар дастлабки авлод вакиллариандир. Ҳофизлар ашула ва мақомларни ижро этишда асосан ғазаллардан унумли фойдаланади. Ғазалларнинг аксарияти рамзий маънога асосланади. Чунки ғазалларнинг замирида тасаввуф таълимоти қамраб олинади, яъни ҳақиқий ишқ-оллоҳга бўлган умматининг муҳаббатидир деб тасвирланади. Мақомларда кўпроқ Навоий, Лутфий, Бобур, Фузулий, Машраб, Нодира, Зебуннисо, Ҳувайдо, Увайсий, Амирий, Огаҳий, Муқимий, Завқий, Фурқат каби шоирларнинг ижодидан унумли фойдаланилган. Ҳозирда ҳофизларнинг ижодларини давом эттиришиб келишаётган, мумтоз мусиқамизни дунёга тарғиб этаётган Муножат Йўлчиева, Маҳмуджон Тожибоев, Эркин Рўзиметов, Машраб Эрматов, Матназар Ҳудойназаров, Комила Бўриева каби устозлар миллий мумтоз мусиқамизни асраб авайлаб келишмоқда ва шу соҳани ўрганувчи ёш мутахассисларнинг билим олишларига кўмак бериб келишмоқда.

Мақолада кўтарилган муаммонинг ечимини топишга асосий сабаблардан бири шуки, ёш авлод тарбиясини шакллантиришда мумтоз мусиқалардан ҳам фойдаланиш вақти келди назаримизда. Мактабгача таълим муассасаларида ва умутаълим мактабларида ҳам хофизлар талқинидаги энг яхши намуналарни оз-оздан тинглаш кўникмаларини тарбиялаб бориш керак. Биз ёшларни қамраб олаётган иллатлардан қачон қутулишимиз мумкин деган савол туғилади. Қачонки биз бошқа иллатларга нисбатан камол топиб келаётган гўдакларда ташқи оқимларга қарши иммунитетни ҳосил қилсак албатта, бундай салбий оқибатлар бизнинг давлатимизда улғаяётган оммани ўзига жалб қила олмайди.

Миллийлигини йўқотган шахс, ўзлигини ҳам йўқотади. Миллий мумтоз мусиқани янада кўпроқ тарғиб қилмоғимиз даркор. Қайси мусиқа йўналиши бўлишидан қатъий назар инсонлар миллий мумтоз мусиқани тинглаганда қалбига яқин ва таниш бўлган оҳанглар уни жунбушга солади.

Хофизларнинг унитилмас, сара намуналари талайгина. Уларни телевидениеда, интернет сайтларда ва турли миқёсдаги танловларни ташкил қилиб, жуда ҳам кўп оммани жалб қилиш даркор. Истеъдодли мумтоз мусиқани тарғиб қилувчи ёшлар ижодини тарғиб қилиш ва ҳар бир масканларда тарғибот қилиш лозимдир. Ёш авлодни мурғаклигидан мусиқа тинглаш саводини тарбиялаб борсак, уларнинг ўзи қайси мусиқа инсон учун маънавий озуқа бериши ёки бермаслигини ажрата олсагина биз олдимизга қўйган мақсадимизга етган бўламиз. Мумтоз мусиқани тинглаш кўникмаларини ўзимизда тарбияласак, унинг асл моҳиятини тушуна билсак, маънолар хазинаси яширинган сандиқнинг калитини топгандек бўламиз гўё.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, фарзандларимизга мерос қилиб қолдираётган куй-қўшиқлар борасида афсуски ачинишдан бошқа иложимиз йўқ. Шундай экан биз уларнинг фонотекасини миллий мазмуний оҳангга эга, эстетик диди юқори ва энг эзгу тафаккурнинг юксак талқини мужассамлашган талқинлар билан тўлдирмоғимиз лозим.

АДАБИЁТЛАР:

1. О.Матёкубов. Мақомот. Т.2014, 7-бет.
2. Р.Юнусов. Муғом санъати байрами // Жаҳон адабиёти. Июнь-2013, 201-бет.

PEDAGOG-TARBIYACHI FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUV.

Abduraimova Shahlo Abdimannabovna

Toshkent viloyati Angren shahar

25-umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiyasi: *Ushbu maqolada zamonaviy ta'limning barcha turdagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, pedagoglarning ijodkor bo'lishi, dars o'tish jarayonida turli uslubiyotini qo'llash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Pedagogik kreativlik, pedagogik xarakter, kreativ tafakkur, ko'p tomonlama fikrlash.*

Kreativlik (lot., ing. “create ”–yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor)–individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlilikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi, shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qibo'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllanadi.

Zamonaviy ta'lim barcha turdagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, , pedagoglarning ijodkor bo'lishlarini taqozo etmoqda.

“**Kreativlik**” tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil- mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui,

Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yuye, 2000 y.). Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsada, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.).

Ko'pgina pedagog-tarbiyachilar o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat pedagog-tarbiyachilar ham aslida "kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar.

Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, ular o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalga sinashga intilishingizdir.

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi.

Har tomonlama fikrlash ta'lim oluvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Yani, topshiriqni bajarish, masalani yechishda ta'lim oluvchi yechimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri yechimda to'xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda "kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin:

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "ta'lim oluvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. Izdatelsko-poligraficheskiy tvorcheskiy dom im.Chulpana. T.; 2005.
3. Levitan K.M. Lichnost pedagoga: stanovleniye i razvitiye. Izd-vo Saratovskogo universiteta. 1991.
4. Mavlonova R., To'rayeva O. Holiqberdiyev K. Pedagogika. T.O'qituvchi. -2001.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ НА УРОКАХ
МАТЕМАТИКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ**

Бегматова Нилуфар Эргешевна

Город Ташкент, Алмазарский район

Учитель начальных классов школы № 298

Аннотация: *В статье рассматриваются педагогические технологии, используемые на уроках математики в начальной школе.*

Ключевые слова: *педагогическая технология, общеобразовательная школа, начальная школа, ученик, учитель, игра.*

Сегодня накоплен большой опыт использования педагогических технологий, повышающих учебную и творческую активность студентов и обеспечивающих эффективность учебного процесса, а методы, лежащие в основе этого опыта, называются интерактивными методами. Давайте посмотрим на некоторые интерактивные методы, используемые на уроках математики, и на то, как их использовать.

Математическая рыночная игра

Это занятие обычно можно провести в большом разделе или в уроке-повторении в конце главы. В конце главы учитель готовит примеры на карточках материалов, изученных в этой главе. Каждая карточка содержит 2-3 примера разной сложности, и каждый пример помечен как «цена» в зависимости от уровня сложности (например, 50 рублей, 100 рублей, 200 рублей, ...). Количество карточек зависит от количества учеников в классе. Студенты делятся на группы по 4 человека, в среднем по 8-10 групп в классе. Это означает, что вам нужно будет сделать 8-10 карточек из каждой карточки в зависимости от количества групп. Если тип карт 4-5, этого достаточно (итого! 32-40 карт). Каждая группа получает одну из карточек, т.е. в каждой группе будет 4 или 5 разных карточек, «цены» должны быть указаны на карточках для каждого примера (вопроса).

1-variant	
1. Задание	100 с.
2. Задание	150 с.
3. Домашнее задание	200 -х гг.

Если группа сначала выполняет задания по Варианту 1, они показываются учителю, и учитель проверяет решение и записывает деньги, заработанные этой группой, на доске, подготовленной на доске. Этот 1-й вариант будет вычитаться из каждого задания следующей группы в размере 25 сумов. Таким образом, команды

стараятся решить как можно больше задач в каждом варианте и собрать больше денег. Разнообразие и разнообразие заданий в опциях сделают занятия увлекательными.

Через определенное время (например, через 30 минут) «рынок» останавливается, и учитель подсчитывает деньги, собранные группами, с помощью таблицы. Группы могут быть пронумерованы или они могут сами выбрать имя для группы. Группа с наибольшим количеством денег побеждает, а остальные группы получают места. Учитель может наблюдать за работой, выполняемой группами, и продемонстрировать на доске решение групп, выполнивших задание, если они сочли это трудным или невозможным. Если каждая группа не смогла выполнить задание, учитель может показать им, как решить задачу, и увидеть необходимость работы на аналогичных примерах.

Затем учитель оценивает учеников на основе денег, собранных группами. В пятибалльной системе группа с наибольшим количеством денег может получить 5 очков, следующие 2 группы получают 4 очка, следующие 3 группы получают 3 очка и так далее.

Финальный стол

	1-V	2-V	3-V	4-V	5-V	Общий	место	балл
1-G	500	425						
2-G	425	350						
3-G	350	500						

Использование метода «Мозговой штурм» на уроках математики.

Например. Перед тем, как начать обсуждение темы «Размер правильного параллелепипеда» в 5-м классе, ученикам может быть предложено следующее активирующее упражнение для ознакомления с понятием объема.

Активирующее упражнение. Как узнать, сколько кубических метров со стороной 1 м может поместиться в багажнике грузовика длиной 20 метров, шириной 4 метра и высотой 4 метра?

Этот вопрос будет задан, и студентам будет предложено на него ответить. Процесс реагирования на него основан на методе «ментальной атаки».

Идеи группируются, а затем сортируются, чтобы решить проблему или найти ответ на вопрос. Студенты работают вместе, чтобы решить проблему или найти ответ на вопрос. Они выдвигают собственные идеи для поиска лучшего решения. Слушаются презентации различных решений, решения записываются на доске, сравниваются и выбирается из них наиболее подходящее. В итоге вывод сделан.

Метод головоломки на уроках математики.

Пазл (англ. Puzzle - пазл, пазл) - название детской игры, заключающейся в воссоздании картинки с помощью ее частей. Поэтому название этого метода на узбекском языке можно назвать «Посолиить целиком».

Основная информация по теме в виде основного предложения, формулы, теоремы, уравнения, диаграммы и других записывается на листе бумаги, а затем делится на несколько частей и смешивается. Учащиеся находят и извлекают только одну часть информации из этих частей.

Этот метод помогает развить у студентов такие навыки, как интеллект, находчивость, концентрацию, анализ и синтез. Это можно делать индивидуально или в группах.

Например. Тема: Параллельные прямые, 7 класс. После прохождения тем «Признаки параллельности прямых» и «Теоремы об углах, образующихся при пересечении двух прямых линий с третьей прямой» студентам будет предоставлен набор из 24 карточек (карточек) следующего вида. В сборнике 6 теорем, каждая из которых описана на 4 листах.

На карточке 1: письменное изложение теоремы,

На карточке 2: диаграмма, соответствующая теореме,

На карточке 3: краткое математическое изложение условия и заключения теоремы.

На карточке 4: математическое доказательство теоремы.

Задание: 6 студентам (или группам) дается 6 теорем и из заданного набора им дается задание собрать информацию только по своей теореме.

За счет использования интерактивных методов на уроках математики мы повышаем интерес учащихся к естествознанию и позволяем учащимся самостоятельно работать в классе. В отличие от традиционных занятий, нетрадиционные занятия ориентированы на студенческую деятельность. Это позволяет студентам быть более творческими.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1.Фозилжон Анапиев. Интерактивные методы обучения конкретным предметам. Ташкент. 2011 г.

2. Bakhtiyor.uz. Интерактивные методы для учителей.

**QORAQALPOQ XALQ SHOIRI ZABARDAST IJODKORLARIMIZDAN
BO'LGAN BERDAQ IJODINI O'RGANISH JARAYONINING TARBIYAVIY
AXAMIYATI**

Do'smurodova Feruza Xudayberdi qizi

Toshkent pediateriya tibbiyot institutining Tibbiy-pedagogika fakulteti

2-kurs 202-guruh talabasi

Ramazonov Olim Ixtiyor O'g'li

Toshkent pediateriya tibbiyot institutining 1-pediateriya fakulteti

2-kurs 207-guruh talabasi

Annotatsiya: *Berdaqning she'rlari haqiqiy ma'noda nainki qoraqalpoq, balki butun turkiy xalqlarning g'urur va iftixori timsoliga aylangan.*

Аннотация: *Стихи Бердаха стали символом гордости не только каракалпаков, но и всех тюркских народов.*

Annotation: *Berdakh's poems have become a symbol of pride and pride not only of Karakalpakstan, but of all Turkic peoples.*

Kalit so'zlar: *Berdaq shaxsi, insoniylik, adolat uchun kurash, xalqparvarlik.*

Ключевые слова: *личность Бердаха, человечность, борьба за справедливость, патриотизм.*

Keywords: *Berdakh personality, humanity, struggle for justice, patriotism.*

*"Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino, bundan ming yil oldin "Dovyurak va botir insonlar kelajakda sodir bo'ladigan qiyinchiliklardan qo'rqmaydi", deb bejiz aytmagan"*⁷.

Sh.M.Mirziyoyev

Qoraqalpoq shoiri Berdaq o'zining barcha asarlarida ijodiy yondoshib o'ziga ustoz deb bilgan buyuk o'zbek adabiyotining buyuk, zabardas va navqiron adiblari Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli va Qoraqalpoq ijodkorlari hamda shoiri Kunxo'ja Ajiniyoz kabi shoirlarni asarlari tasirida o'zining bir qancha sherlarini yozgan. U o'z davridagi zulumli va qiynoqli jarayonlariga, voqealariga, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga odilona baho bergan shoir sifatida namoyon bo'ladi. Qoraqalpoq klassik adabiyotining asoschisi Berdaq simosi haqiqiy ma'noda Qoraqalpoq, balki butun turkiy xalqlarning g'urur va iftixori timsoliga aylanishining sababi quydagicha talqin qilinadi. Berdaqning asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g'oyalari ilgari surilib xalqparvarlik talqin qilinadi.

Berdaq o'zining barcha sherlarida dostonlarida va butun ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzularidan bo'lgan. Shoir faqat haqiqat uchun, mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchun fidokor kurashchilarni orzu qilib qolmasdan ular simolarini o'zining

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020

asarlarida sherlarida ham gavdalanirgandir. Shoirning quydagi sherini olsak yani o'zining "Xalq uchun" sherlarida xalqning axvolini ochiq yoritib bergan va boshqa mavzularda ham ko'plab muammoli vaziyatlarga o'z fikrlarini bitiklari orqali yozib kuyga solgan.

"1855-1856-yillarda Qoraqalpoq diyorida yashagan barcha xalqlar dardlarini ifoda etib qolmasdan Xiva xonligidagi zulumlar boylarning xalq ustidan zug'umlarini o'zining sherlari orqali ifoda etgan. Qoraqalpoq diyoridagi barcha xalqni ma'naviy ozodlikka chorlab bilimsizlikni bartaraf etishga, adolatsizliklarga qarshi kurashishga chorlab turli sherlar dostonlar yozgan va insonning ozodlik xurlikda yashashiga umid qilib fikr mulohazalarini oddiy tarzda kuylagan baxshidir"⁸. Shoir o'zi yashagan xonlik davridagi turli xil to'ntarilish davrida qoraqalpoq beylarining sotqinlik va yovuzliklarini ko'rib juda kuyingan tarzda ijodida namoyon qilgan. Berdaq ijodida nafaqat ijtimoiy balki muhabbat va vatanparvarlik, xalqning orzu-maqsadi haqida ham yozgan.

Berdag o'zining barcha asarlari biz uchun tarixiy ahamiyatga ega hisoblanib ular quydagilardir: "Avlodlar", "Omongeldi", "Ernazarbiy" asarlarida shoir o'zining xayolotidagi qahramonlarini asarlariga tushirib jamiyatning qahramonlari qay darajada bo'lishini yozib sheriy usul va yozma og'zak ijodi orqali xalq qahramonlarini faxr bilan kuylaydi. Berdaq she'riy mushohadalari va hayotiy qarashlarida mehnatkash xalqni baxtiyor yashashini orzu qilib o'zining barcha asarlarida va sherlarida o'z fikr mulohazalarini asar qahramonlari orqali jonlantiradi. Bugungi kunning so'zi bilan aytadigan bo'lsak vatanparvar shoir xalqni baxtli qilish haqida o'ylar ekan, dinimizning etiqodiga muvofiq Allohdan madad so'rab "Yordam ber" sherini yozgan. Bu she'rida Berdaq ilohiyot va ilimni chambarchas bog'lab baxt haqida fikr yuritadi. Ijodi serqirraligi bilan ajralib turuvchi adib asarlarining g'oyaviy va badiiy yuksakligi bilan Qoraqalpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallab qolmasdan o'zbek sheriyyatida ham yuksak nufuzli mavqeyga erishgan shoir hisoblanadi. Uning ko'pgina asarlari o'zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilinib o'quvchi kitobhnlarni yuksak e'tirofiga ham sazovor bo'lgan. Berdaq shoirlik, baxshichilik, sozandalikda tengi yo'q, is'tedodli shaxslardan hisoblangan.

Iste'dodli shoir, mashhur baxshi sifatida o'sha davrning boylari va boshqa amaldorlari tomonidan taqib ostiga olingan edi. Zamonasining boylari, beklari, amaldorlari Berdaqning ajdodlari va o'zi ham kambag'al bo'lganligi uchun shoirni yo'q qilish payiga tushishadi. Shoir o'zining himoyasizligini va oddiy xalq vakili bo'lgan kambag'al oilada tug'ilganini "Bilgaysiz" degan sherida quydagicha yozadi:

Og'a beklar, yoshim o'rta,
Aytmagayman so'zni jo'rtta,
Baxt izladim o'la-yo'rta,
O'ylab farqni bilgaysiz.
Og'a beklar, shoir bo'ldim,
Gul edim, sarg'aydim, so'ldim,
Dunyoga kelib ne-ko'rdim,

⁸ www.saviya.uz Qoraqalpoq adabiyoti. 2019 yil.

Ohu-zorimni bilgaysiz⁹.

XIX asrning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini haqiqiy tommanodagi siyosiy tomonlari ko'rsatolgan shoir sifatida Berdaq namouon bo'ladi. Shoirning ijod qilgan jamiyatdagi ijtimoiy muhiti quydagicha bo'lgan, yaniy Xiva xonlarining hukmronlik qilgan vaqtlari va yurtning rus imperiyasiga qarshi kurashish jarayonlari Qoraqalpoq xalqining sargardonligi og'ir axvolda qolgan bir davirga to'g'ri keladi. Shoirning ijodiy faoliyatida biylarning, otaliqlarning, eshonlarning, oxunlarning va boshqa kata ma'murlarning, ya'ni boshqalarning fikrlari va dunyoqarashlariga qarshi sherlari barcha boylarni, beklarni g'azablantirgan. Xalq tarafdori bo'lgan Berdaqni ular o'z tomonlariga og'dirmoqchi bo'ldilar va turli xil takliflar ham beradi, ammo bu takliflarni ratd qilgan adib o'z tanlagan yo'lda qatiyat bilan turadi. Shoir o'zi tanlagan yo'l yaniy xalq manfaatlari uchun har qanday harakat qilishga tayyor edilar. Chunki, Berdaqning erkin va taqiqlangan asarlari xalqqa ta'sir qilishi mumkin edi.

Shoir o'z yo'lidan qaytmasdan xalqni deya ko'p jabr stamlar ko'rgan, shu sababli uni izidan taqib etganlar va u haqda Qoraqum eshonning ayg'oqchilari Berdaqni taqib qilib u xaqidagi barcha ma'lumotlarni to'plab Berdaq dushmanlariga yetkazib turganlar. Bu haqda shoir o'zining "Oqibat", "Bilmadim", "Ber endi" degan asaridagi sherlarida yozgan shoirga nisbatan qilingan nohaqliklarni va adolatsizliklarni. U o'zining "Ber endi" degan she'rida quydagilarni aytgan edi.

Chiqar bo'ldi jonim tandan,
So'rasangiz, xalqim, mandan,
Yaratgan, tilagim sandan,
Rahim qilgil zinhor endi¹⁰.

Berdimurod Qarg'abay o'g'li nafaqat demokratik shoir bo'lgan, yana u tabiatan satirik kulgu mutoibaga boy shoir ham edi. Shoirning xazil mutoyibaga boy bo'lgan yo'nalishidagi ijodi qatorida quydagi ijod mahsullarini uchratamiz, Xo'jaz, Odil qalmoq, Qiynalma, Bilasanmi, Terz qaytgan, Ziqna, Qush, To'yda kabi ijod namunalari bor. Bularning hammasi xalq o'tmishi uchun samarali ijodlari hisoblanadi. Berdaq shoir o'zining so'ngi kunlarigacha ijodini oxirigacha davom ettiradi. Xalqni qadrlagan Berdaqni xalq ham uni qadrlab nomini adabiyashtirish maqsadida maktablar, kinoteatrlar, ko'chalar, nomlandi. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq milliy unversitetida va Toshkent pediatriya tibbiyot institutida "Berdaq" stependiyasi tasis etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020
2. Milliy adabiyotimizning iftixori adabiy maqolalari to'plami 2000 yil.
3. Berdaq saylanmalari (Nukus 2003 90-bet)
4. www.saviya.uz Qoraqalpoq adabiyoti. 2019 yil

⁹ Berdaq saylanmalari (Nukus 2003 90-bet)

¹⁰ Berdaq Saylanma sherlari (Nukus 2003 yil)

BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ OG'ZAKI IJODINING TARBIYAVIY AHAMIYATI.**Ro'ziboyeva Farog'at***Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani**31-sonli umumta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga xalq og'zaki ijodini o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *madaniyat, san'at, topishmoq, masal, ertak, doston.*

Ma'naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o'rnini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma'naviy qashshoq kimsa hayotda ro'y berayotgan voqealarga loqayd bo'ladi. Loqaydlik esa tuzatib bo'lmay oqibatlariga olib keladi. Ma'naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning ma'naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlari, maqollari va boshqa o'nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma'naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta'minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan. O'tgan asrgacha bugungi kundagi matbuot, o'quv dargohlari, madaniyat markazlari, radio, televidenie, internet kabi ta'lim, ma'rifat tizimi bo'lmagan. Bu vazifalarni bajarish, asosan, xalq og'zaki ijodi zimmasiga yuklatilgan. Natijada, xalq og'zaki ijodi xalq pedagogikasi zaminini tashkil etgan. To'g'ri, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ham xalq og'zaki ijodidan namunalar beriladi .

Ma'lum bo'ladiki, madaniyat, san'at, til xalqning xalq sifatida ravnaq topishining bosh omili ekan. Xalq ijodi esa madaniyat, san'at, tilning asosini tashkil etuvchi tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da "Ma'naviyaxloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar" alohida bo'lim sifatida tasdiqlanishi bejiz emas.

Unda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniyatarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi ta'kidlanadi. Qadimdan ota-bobolarimiz o'z orzu-umidlarini turmush haqiqatlari bilan uyg'unlashtirgan holda go'zal mo'jizakor manzaraga, sodda va o'ta teran mazmunga ega ertaklarni yaratganlar. Hayot haqiqati va kishilarning ruhi, psixologiyasini o'zida aks ettirgan ertaklarning badiiy kuchi hanuzgacha kattalar va kichiklar uchun ham birday qiziqarli, jozibali xalq kitobi sifatida ta'sir etib kelmoqda.

Ertaklar – yaxshilikka yetaklar, deb xalqimiz bejizga aytishmagan. Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati katta. Ertaklarda voqealar asosan mo'jizali tarzda ifodalanadi. Binobarin, mo'jiza yoki fantaziya voqea va hodisalarni hayot bilan bog'lab, haqiqat, ozodlik, to'g'rilik, odamiylik kabi didaktik g'oyalarni tashviq etadi, syujet rivojiga kuch

bag`ishlaydi, tinglovchi e`tiborini o`ziga jalb qilib, ajoyibotlar olamiga olib kiradi, shirin tuyg`ular dunyosiga g`arq etadi.

Umumlashtirilgan holda ertakka xos quyidagicha ta`rif e`tirof etilgan: “Hayot haqiqati bilan bog`liq bo`lib, fantastik hamda hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g`oya tashuvchi og`zaki hikoyalar ertak deb ataladi.”

Darhaqiqat, ertaklar bolalarga mo`ljallangan ijod turi bo`lib, ularni tuzilishi jihatidan bolalarning yosh xususiyatiga ko`ra quyidagicha tasniflash mumkin:

Kichik yoshdagi bolalar ertaklari (2 yoshdan 6 yoshgacha);

O`rta yoshdagi bolalar ertaklari (7 yoshdan 11 yoshgacha);

O`smir yoshdagi bolalar ertaklari (12 yoshdan 16 yoshgacha).

Xalq maqollari - boyligimiz. Ota-bobolarimizning siz bilan bizga qoldirgan xazinalaridan biridir. Ulardan kerak o`rinlarda foydalanishni odat qilishimiz kerak. Shunda ular butun umrimiz davomida hamrohimiz bo`ladi. Har bir gapirgan gapning salmog`i oshadi. Sermazmun, ta`sirchan, keskir bo`ladi.

Topishmoqlar kishining tasavvuri va tafakkurini o`stiradi, ayniqsa, bolalarni topag`on bo`lishga, hozirjavoblikka o`rgatadi. Topishmoqlar xalq og`zaki ijodining boshqa janrlari, jumladan, doston va ertaklar ichida ham uchraydi. Ular doston va ertaklar mazmunini boyitib, ularning qiziqarliligini, o`qishliligini ta`minlaydi. Xalq og`zaki ijodidagi doston yoki ertak qahramonlari bir-birlarining aqli va farosatini topishmoqlar orqali sinaydilar. Bu hodisa ko`proq ertaklarda uchraydi.

Topishmoqlar mavzu jihatdan rang-barang bo`lib, ular olam va odam bilan bog`liq barcha narsa va hodisalarni qamrab oladi. Maqol va topishmoqlar, o`zlarining o`xshash va farqli jihatlaridan qat`i nazar, inson tarbiyasiga xizmat qiladi, uni ziyraklik va zukkolikka undaydi.

Shunday qilib, o`zbekning butun fazilati, falsafasi, donoligi, dunyoqarashi, oliy himmatliligi, turli hayotiy vaziyatlarga munosabati maqollarda aks etgan.

Insondagi mehnatga muhabbat, ishq tuyg`ulari qo`shiqalarda eng go`zal ichki kechinmalar sifatida ifodalangan. Ertaklarda xalqimizning eng oliy orzu-havaslarini namoyon bo`ladi. Ular bilan tanishgan yosh avlod o`zbek uchun vatan, xalq, oila, mehnat, ilm, g`urur naqadar muqaddas tushunchalar ekanini anglab yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. –Toshkent,” O`qituvchi”, 1990.

2. Jumaboyev M. “Bolalar adabiyoti va folklor”. –T.,O`qituvchi, 1990

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA MUTAXASSISLIK FANLARI
UCHUN ELEKTRON O'QUV MAJMUALARINI YARATISH HAMDA TA'LIM
JARAYONIDA QO'LLASH**

Ziyayev Imomali Nigmatullayevich

Toshkent politexnika texnikumi, direktor o'rinbosari

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash davrida fuqarolar daromadlari, turmush darajasi va Respublikada ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, natijada yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, xalqimiz farovonligini yuksaltirish maqsadida aholi bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat sharoitlarini yaxshilash bilan birgalikda mehnat resurslari intellektual salohiyatini oshirish vazifalari ham bugunning dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalari qatoridan o'rin egallaydi. Hozirgi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi sharoitlarida har qanday tashkilot, korxonalar va muassasaning zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi xodimlarning keng dunyoqarashi va mas'uliyatliligi, eng muhimi, rahbar va jamoadagi yuqori malakali kadrlarning bilimi, ko'nikmasi, iqtidori, ma'naviyati, boshqaruv qobiliyati, ilmiy salohiyati va boshqa xususiyatlariga bevosita bog'liqdir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy iqtisodiy, texnik-texnologik hamda ishlab chiqarishdagi mehnat va kasbga bo'lgan munosabatlarning zamonaviy bozor shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jamiyatda inson mehnatining maqsadi, vazifalari, mazmuni, tuzilishi yoshlarni kelgusi hayotga tayyorgarligi, ta'lim-tarbiya tizimining yangilanishini taqozo etadi.

Bo'lajak pedagog xodimlarning kasbiy malakalarini shakllantirishda ixtisoslik fanlarini o'qitish bilan ishlab chiqarish amaliyotini birgalikda olib borishning ilmiy-metodik asoslarini atroflicha o'rganib chiqish zaruriyatining mavjudligi quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi:

➤ Professional ta'lim muassasalari o'quvchilariga maxsus fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot va innovatsion hamda yangi metodlaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish;

➤ Professional ta'lim muassasalari o'quvchilariga maxsus fanlarni o'qitish;

➤ Professional ta'lim muassasalari o'quvchilariga maxsus fanlarni o'qitish hamda dars jarayonida elektron, multimediali majmualardan foydalanish va yangi ta'lim metodlaridan foydalanishning tashkiliy pedagogik va metodik shart –sharoitlarini yaratish;

Maxsus fanlarni o'qitishda, elektron va multimediyali majmualardan foydalanishda samaradorlik faktorlarini quyidagicha ko'rib chiqishimiz mumkin:

➤ Professional ta'lim muassasalari bilim oluvchilariga axborot texnologiyalari fanini o'qitishda lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalari mazmuni davlat ta'lim standartlari asosida takomillashtirish;

➤ O'qitish jarayonida ta'limning an'anaviy va noan'anaviy shakllari, metodlari va vositalardan hamda yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish;

➤ Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak mutaxasislarga zamonaviy axborot (elektron-multimediyali darslik) texnologiyalari, iqtisodiy bilimlar hamda texnik vositalardan samarali foydalanish ko'nikmalari shakllantirish;

➤ Maxsus fanlarni o'qitishda ta'lim muassasasida zamonaviy elektron komplekslardan keng va samarali foydalanish;

Bu kabi zamonaviy o'qitish texnologiyasida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi;

1. Mashinasozlik texnologiyasi yo'nalishi boyicha bo'lajak mutaxasislarni maxsus fanlar boyicha egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalari mazmunini aniqlash.

2. O'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda ishlab chiqarish va sanoat bilan birgalikda maxsus fanlarni o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlarini o'rganish.

3. O'quvchilarning kasbiy malakalarini va qobiliyatlarini shakllantirishda ishlab chiqarish hamda sanoat bilan bog'lab amalga oshirish metodikasini ishlab chiqish.

4. Maxsus fanlarni yangi pedagogik, axborot va innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi dasturlarini ishlab chiqish.

Hozirgi kunda o'qitishning yangi zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish bilim berish samaradorligini oshirmoqda bu kabi metodlar; ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va umumlashtirish, meyoriy va o'quv-dasturiy hujjatlarni tahlil qilish, suhbat, kuzatish, ekspert baholash, reyting, test, pedagogik tajriba-sinov natijalariga matematik-statistik ishlov berish metodlari.

Professional ta'lim muassasalarida ixtisoslik fanlarini o'qitishda elektron o'quv majmualarini yaratish va qo'llash ilmiy va amaliy ahamiyati: ishidan olingan natijalardan maxsus fan o'qituvchilarini tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarining mazkur yo'nalish boyicha ta'lim dasturlarini tuzishda, bo'lajak mutaxasislarning bilim va ko'nikmalari hamda dunyoqarashini shakllantirishda va kengaytirishda, umumnazariy va metodologik muammolarni jahon standartlari talabiga mos tarzda hal etishda foydalanish mumkin. Maxsus fanlarga oid bilimlarni kengaytirish va chuqur o'rganishga doir ko'rsatma va tavsiyalar tizimi yaratiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoni.

2. Ibraymov A. Masofaviy o'qitish tizimini tashkil etish va ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari. O'zMU xabarlari. – Toshkent, 2016

3. www.lex.uz

**OLIJ TA'LIM PEDAGOGIKASIDA ELEKTRON O'QUV QO'LLANMA VA
ELEKTRON DARSLIK YARATISH MUAMMOLARI****Suyumov J.Yu., assistant,****Madraximov U.Q., talaba,***Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti**Farg'ona filiali*

Zamonamiz jamiyatni axborotlashtirishning yuqori darajasi bilan ham o'ziga xosdir. Axborot texnologiyalari hayotimizning barcha sohaları qatorida ta'lim jarayoniga ham keng joriy etilib borilmoqda. Oliy ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi yangi innovatsion vositalardan foydalanish imkonini beradi. Bu esa yangi imkoniyat hamda jarayonlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish — bu ta'lim jarayonlarini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim sifatining oshishida namoyon bo'ladi hamda talabalarda ta'lim olishga intilishlarining kuchayishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Elektron o'quv qo'llanma arxitekturasi kompyuterlashtirilgan axborot texnologiyalarini egallash xarakteridir. Elektron o'quv qo'llanmaning birinchi shakli matn ko'rinishida ishlab chiqildi. Hozirda esa uning ko'rinishi murakkab holga yetib keldi. Elektron o'quv qo'llanmaga hozirda matn, ovoz, musiqa, video va boshqa internet tarmog'i imkoniyatlari qo'shib borilmoqda. U televizion va radio uzatish imkoniyatiga ega. Elektron o'quv qo'llanma ma'lumotlar fazosining elementi hisoblanadi.

Elektron o'quv qo'llanma yaratish muallifning qobiliyati va ustaligiga bog'liq bo'lib, har qanday murakkab tizimlarni yaratish imkoniyatini beradi. U albatta yaxshi jihozlangan va elementlari tartibli joylashgan bo'lishi kerak.

Elektron o'quv qo'llanma - asosiy elektron o'quv qo'llanma yuqori metodik va ilmiy darajada yaratiladi. U elektron ko'rinishda bo'lib, bunda ilmiy texnika rivoji va yuqori sifat mavjudarslik

Elektron o'quv qo'llanma kitob shakliga almashtirish shart ham, kerak ham emas. Ekranlashtirilgan o'quv adabiyotining bu janri mutloqo yangidir. Kitobni xuddi film tomosha qilgandek tushunish mumkin. Bu janrni yangilash ham oson, ham qulay bo'lib, qidirish tizimiga ega. U o'zida boy ma'lumotlar video, tasvir, ma'lumotnomalar, matnlar jamlagan.

Elektron o'quv qo'llanma maksimal darajada tushunish va tushuntirilishga ega bo'lishi, inson miyasi, ongiga nafaqat eshitish balki ko'rish orqali yetib borishi, kompyuter tushuntirishidan foydalanish kerak.

Darslik — muayyan fanga doir bilim asoslarini ma'lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma'naviy-g'oyaviy, ilmiy uslubiy saviyada yozilgan kitob; o'quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi. Darsliklar ikki asosiy guruhga bo'linadi: o'quvchilar uchun darsliklar va talabalar uchun darsliklar. O'zbekistonda o'quvchilar uchun mo'ljallangan darsliklardan umumiy o'rta ta'lim maktabi, ixtisoslashtirilgan maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, maxsus ta'lim maktablari va maxsus internat maktablarning

o'quvchilari; talabalar uchun nashr etilgan darsliklardan oliy o'quv yurtlari talabalari mustaqil hamda o'qituvchilar rahbarligida foydalanadilar.

Elektron darslik—bu dars o'tish va o'quv materiallarini o'quvchiga yetkazishning boshqa bir vositasidir. Bu shunchaki, darslik emas, balki simbioz-darslik, ma'lumotnoma, masalalar to'plami va amaliyot uyg'unligidir. O'quvchilar bilimlarini nazorat qilish elektron darslikning o'ziga kiritilgan. Elektron darslik yordamida o'quvchi o'z bilimlari darajasini va ushbu mavzuni tushunishini baholashi mumkin. Zarur bo'lgan holatlarda u darhol yordam olishi yoki tushunmagan savollariga qayta tushuntirish olishi mumkin. An'anaviy darslikdan farqli ravishda elektron darslik axborotlarni turli shakllarda taqdim etishi mumkin. Bu yerda o'quv materiallarini vizual taqdim etish uchun dasturli vositalardan keng tanloashhamda grafiklar, animatsiyalar, gipermatn, tovushli olib borish imkoni mavjudarslik

Tadqiqotlardan ayon bo'ldiki, Oliy ta'lim tizimida elektron darslik yaratish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy yondashuv zarurligini asosladi, ya'ni Oliy larni zamonaviy o'quv uskunalar, kompyuter texnikasi, darsliklar hamda o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlash ehtiyojlari bilan belgilandi. ED asoslari va pedagogik shartlari o'rganilmagan bo'lsa, ED yaratish jarayonini samarali deb hisoblash uringinli emas. Chet ellarda xususan, Rossiyada o'qitishga mo'ljallangan multimediyalar vositalarini yaratish tajribalari to'plangan. O'zbekistonda esa Oliy ta'limi uchun bu yo'nalishda ulardan kam emas ammo ancha rivojlantirish lozim.

Oliy ta'lim pedagogikasida elektron darslik yaratish muammolarini o'rganishning nazariy asoslari pedagogika nazariyasida va oliy ta'lim amaliyotida elektron darslik yaratish muammolarining nazariy g'oyalari ilmiy asoslab berilgan. Xorijiy mamlakatlar Oliy ta'limida elektron darsliklardan foydalanish tahlil qilingan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim Oliy lari uchun yaratilgan elektron darsliklar tahlil etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida elektron ta'lim milliy tizimini yaratish investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2012 yil 16 apreldagi PQ-1740-sonli Qarori.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov P., Pardayev A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". – T.: "Istedod" jamg'armasi, 2008.
3. Koh J. H. L., Chai C.S., Benjamin W. Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK) and Design Thinking: A Framework to Support ICT Lesson Design for 21st Century Learning // The Asia-Pacific Education Researcher. – 2015.

MAKTAB PSIXOLOGLARI FAOLIYATI VA UNING MAKTABDAGI MAVQEYI

Karimova Ra'no Ravshanovna*Andijon viloyati Baliqchi tumani**53-umumiy o`rta ta`lim maktabi amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktab psixologlari faoliyati va uning maktabdagi mavqeyi haqida so`z yuritilgan. Maktab psixologi o`quvchilarga ustoz emas, do`st bo`lishi kerak. O`quvchilar o`z sirlarini psixologga qo`rqmay ayta olishlari, unga ishonishlari lozim.*

Kalit so`zlar: *maktab psixologlari, o`quvchi, ta`lim, tarbiya, bilim.*

Ma'lumki, shaxsning sotsializatsiyasi asosan maktab yillariga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham maktab oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri bolaning kamoloti uchun barcha sharoitlarni yaratish, uning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiyaning eng maqbul shakllarini joriy etishdir.

Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ko'rsatmalariga asosan yoshlarning layoqatlarini ilk yoshligidan aniqlash, ular iqtidorini har taraflama o`stirish vazifalari o`quvchiga individual yondashuvning zarurligini, o`qishning differensial bo`lishini talab qilmoqda, shunga yarasha maktab va jamoatchilik oldiga qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Testlar vositasida bilimlarni tekshirish, oliy o`quv yurtlariga va ta'limning barcha tarmoqlariga ham test sinovlari orqali qabulning amalga oshirilishi psixologik xizmatning tezroq yo'lga qo'yilishini talab qilmoqda.

Maktab psixologi – yosh avlodni katta hayotga to'g'ri yo'naltirishda ota-ona va o'qituvchi bilan barobar ahamiyatga ega shaxs. Murakkab davr – o'smirlikka qadam qo'yayotgan bola, shaxs sifatida shakllanayotgan o'smirning o'z olamidagi muammolariga yechim topishi uchun yordam berishda maktab psixologining roli katta.

Bugungi kunda maktablarda psixologning foydasi amalda juda kam. Birinchidan, bu oliy ta'lim tizimida psixolog kadrlarni tayyorlashdagi muammolar bilan bog'liq.

Oliy ta'lim sifatsiz psixologlarni tayyorlayapti, psixologik ta'lim eski manbalarga asoslangan, amaliyot bilan bog'lanmagan. Talaba o'zi mustaqil izlanishga moyil bo'lsagina, nimanidir o'rganib chiqishi mumkin. Hatto o'zimni ham yaxshi malakali kadr deb aytishga xijolat bo'laman.

Ikkinchidan, psixologning maktabdagi mavqeyi achinarli – unga keraksiz shaxs sifatida qaraladi. Jinsiy tarbiya, suitsid, ijtimoiy hayotga moslashuvdagi to'siqlar, kattalar bilan muloqot, kasb tanlashda psixologning o'quvchi hayotidagi roli katta bo'lsa-da, bu amalda ko'rinayotgani yo'q.

Maktabda o'quvchilar bilan ishlash uchun foydalaniladigan testlar zamondan orqada qolgan, deb hisoblayman. Chunki hozirgi o'smirlarning psixologiyasi bu testlar ishlab chiqilgan davrnikidan farqli. Har 20-30-yilda avlod almashadi, bu yangicha qarashlar, yangicha ruh paydo bo'ladi degani. 1996-yildan keyin tug'ilgan avlod – zet avlod, tabiiyki, o'zidan avvalgi avlodlarga nisbatan boshqacha fikrlaydi, ularda psixika boshqa. Ammo ular

bilan ishlashda boshqa avlod vakillari bilan o'tkazilgan tajribalarga asoslangan testlardan foydalanilmoqda. Bu testlar ularning ruhiyatini ochib bera olmaydi, shuning uchun ham qo'llashga yaroqsiz.

Shunday bo'lsa-da, yuqoridan yuborilgani uchun ham shu testlar asosida ishlashga majbur bo'lamiz.

Bitta sinfxonada o'rtacha 30-35 o'quvchi o'tiradi. Savollar soni 50 tagacha boradigan testlar ham bor. Psixolog ularni har bir o'quvchiga ishlatib olgach, bittalab hisoblab chiqishi, tavsiflashi lozim. Bunga juda ko'p vaqt va resurs ketadi. Natijada psixolog nima qiladi? Yoki ishlangan testlarni yolg'ondan «salbiy-ijobiy» qilib belgilaydi, yoki testni o'quvchilarga ko'rsatmasdan, o'zi shunchaki belgilab qo'ya qoladi.

Aslida ilmiy nuqtayi nazardan olganda, psixologiyaning asosiy metodi kuzatish va suhbat hisoblanadi. Bu ikki metod bilan aniqlanmagan jihatlarnigina testdan qo'shimcha metod sifatida foydalangan holda aniqlash mumkin. Shu sababli **testlar sonini qisqartirish, depressiya, suitsidga moyillik kabi eng zarurlarini qoldirib, treninglarga ko'proq vaqt ajratish maqsadga muvofiq.**

Shuningdek, psixologiya mashg'ulotlari davomida o'quvchilarni kasbga tayyorlash degan metodika bor. Bu borada testlar Yevropa modelidan ko'chirilgan holda bizga modifikatsiya qilingan, lekin bu modifikatsiya noto'g'ri qilingan. Testlarni ko'rsangiz, bizda uchramaydigan, Yevropadagina bor bo'lgan kasblardan kelib chiqib berilgan savollar bor. O'quvchilar tugul, psixologlarning o'zi ham ularning mohiyatini tushunmaydi.

Psixologik mashg'ulotlarni o'tkazish uchun alohida soat ajratilmagani psixolog-o'quvchi munosabatlarini tashkillashtirish uchun imkon qoldirmaydi.

Deylik, psixolog o'quvchilardan ruhiy holatni aniqlashda test olishi kerak bo'lsa, qaysidir o'qituvchining darsini buzishiga to'g'ri keladi. **Ham dars buziladi, ham test o'lda-jo'lda o'tkaziladi.** Yoki 20 daqiqaga mo'ljallangan (undan ham yuqorilari bor) testlarni 5 daqiqada nomigagina belgilatib oladi. Bu, albatta, testlarning ishonchligiga, natijaviyligiga ta'sir etadi. Ya'ni o'quvchidagi real ruhiy holatni bilishga to'siq bo'ladi. Alohida soat ajratilmagan bo'lsa, psixolog o'quvchi bilan qaysi paytda shug'ullansin? Olti soat darsdan so'ng ham ruhan, ham jismonan charchagan o'quvchiga psixolog treningi yoqarmidi? Shu nuqtayi nazardan, psixologning o'quvchilar bilan shug'ullanishi uchun dars soatlari jadvalga kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman olganda, maktablarda psixologning mavqeyini oshirish, uning o'z faoliyatini samarali tashkil qila olishi uchun muhit yaratish masalasi, ayniqsa, e'tibor kamroq bo'lgan tuman hududlarida tubdan qayta ko'rib chiqilishi kerak. Chunki psixolog o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni chindan ham uddalay olsa, keyinchalik kattalashib ketishi mumkin bo'lgan ko'plab ijtimoiy muammolarni birinchi bosqichlardayoq profilaktika qilish mumkin bo'ladi.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH
IMKONIYATLARI****Kulmuamedova Malika Miralimovna***Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
298-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich sinf, o'yin, o'qish, tarbiya, didaktik.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh bo'lgani uchun ularga sodda tilda tushunarli holda bilim berish va darslarda o'yin elementlaridan foydalanish lozim. Bola hayotining asosiy qismi o'yin bilan o'tadi. O'yinlar faqat didaktik vosita bo'lmay, bola hayotining asosiy shaklidir. Shuning uchun biz o'yinning nozik tomonlarini egallamay turib, o'yin faoliyatini boshqarishini o'rganmay turib oldimizda turgan mas'uliyatli vositalarni hal qila olmaymiz. Bola o'yin orqali materiallarning ko'rinishi, rangi, tuzilishi turli o'simlik va hayvonot olamidagi o'zgarishlarni anglaydilar.

Boshlang'ich sinflarda turli xil fanlarda qo'llaniladigan didaktik o'yinlarni ko'rib chiqamiz.

“Sonning tarkibini toping”. O'yin mazmuni: magnit doskasida 9 raqami ko'rsatiladi va u qanday sonlardan tuzilganligi so'raladi. O'quvchilar magnit doskasida ko'rsatadilar. $8+1=9$; $6+3=9$; $7+2=9$; $5+4=9$. Bu o'yin orqali o'quvchilar sonning tarkibini aniqlashadi. Albatta, birinchi bo'lib yechgan o'quvchi g'olib hisoblanadi. Yozuv darslarida ta'limiy o'yinlar

“Yarimta harf”. Bir o'quvchi biron-bir harfni boshlanishini doskaga chizib ko'rsatadi, ammo harflarning nomini aytmaydi. Ikkinchi o'quvchi shu harfni nomini aytib, yozishni davom ettiradi.

“To'g'risini tanlab yoz”. Doskada 1 ta harf 3-4 xilda yozib qo'yilgan bo'ladi. Shulardan bittasi husnixatga amal qilgan holda yozilgan bo'ladi. Doskadagi o'quvchilar to'g'ri yozilgan variantni topib, qayta yozib ko'rsatadi.

“Harflar adashib qoldi”. Magnit doskaga kesma harflardan so'zlar tuzadilar. Undagi biror harfni o'rni almashtirib qo'yilgan bo'ladi. Yoniga shu predmetni o'zi yoki rasmi osib qo'yiladi. O'quvchiga shu predmetni nomini bir necha marta talaffuz qilishi, bo'g'inlab aytishi tavsiya qilinadi va shundan so'ng adashib qolgan harf o'rniga qo'yiladi.

Texnologiya darslarida o'yin vositalari. Maqsad: Texnologiya darsi : “Mehmon kutamiz” Bolalarga mehmon haqida tushuncha berish, mehmon kutishda dasturxon bezash, idishlarni yuvishga o'rgatish. Maktab oshxonasida ikkita stol bezatiladi va “mehmon kutamiz” o'yini o'tkaziladi. Bolalar 4 tadan ikki guruhga bo'linadi. Har bir guruh bolalari idishlarni yuvishlari, vazaga salfetkalarini to'g'ri va chiroyli solib qo'yishlari kerak bo'ladi. O'yin bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Mehnat o'z-o'ziga xizmat qila bilish ko'nikmalarini va estetik didni shakllantirishga yordam beradi.

Nafaqat o`qish, yozuv, matematika fanlaridan, balki mehnat, rasm, jismoniy tarbiya fanlaridan ham o`yinlar o`tkazish mumkin. Jismoniy tarbiya Jismoniy tarbiya fanidan darslarda qo`llash mumkin bo`lgan o`yin elementlari jismoniy tarbiya darslarida ko`proq harakatli o`yinlar o`tkaziladi. Bunda xalq o`yinlaridan, milliy o`yinlardan foydalanish mumkin.

Masalan: “podachi” , “otishma” , “durra” , “qirq tosh” , “to`pni aylana ichiga tushir” , “chaqqonlar” , “chavandoz” , “chillak” kabi o`yinlar o`quvchilarni Vatanni himoya qilishga, chidamlilikka o`rgatadi.

“Eng chaqqon”. O`yinda 6-8 bola qatnashadi. Tekis joyga to`nka yoki kursi, yashik qo`yiladi. Uni to`nka deyiladi. Kim birinchi, kim ikkinchiligi chek tashlab belgilab olinadi. Bolalar to`nka ustiga o`z buyumlarini qator qilib qo`yadilar. Sakrashga ruxsat berilgach 1-bola yugurib kelib sakrayotgan bola o`z buyumini olishga harakat qiladi, olib o`tsa u bir ochko oladi. Ololmasa 0 ochko oladi agar olayotganda buyumini tushurib yuborsa oldingi ochkosidan mahrum bo`ladi.

Bolalar bir necha marta sakrashlari mumkin. Eng ko`p ochko olgan bola g`olib bo`ladi va u “eng chaqqon” deb ataladi.

“Shaharlarga sayohat”. Bu o`yinda 8-12 yoshdagi bolalar qatnashishi mumkin. O`yin qoidasi quyidagicha: Masalan 20 ta bola bo`lsa ularni besh guruhga bo`lamiz va ularning oldiga doira chizamiz. Har bir doira ichiga bir shaharning nomini yozamiz. Masalan: Namangan, Buxoro, Andijon kabi shaharlar doira ichiga yozilgach, doirachalarga 1 tadan tosh qo`yib chiqamiz. Guruhlarga shaharlarni ko`rib kelining deb topshiriladi. Shundan so`ng barcha bolalar bittadan tosh olib turli shaharlarni aylanib, yana o`z o`rinlariga kelib, qo`llaridagi toshlarni joyiga qo`yadi. Qaysi guruh bolalari toshlarni tezroq doiraga qo`ysa o`sha guruh yutib chiqadi.

Men “diplom oldi” amaliyotida darslarni o`yin elementlaridan foydalanib o`tishga harakat qildim. Masalan: matematika fanidan “Qarsak”, “Baliq tutish”, “Sehrli xaltacha”, “Mohir hisobchi” kabi didaktik o`yinlardan foydalandim. “Qarsak” o`yini. Doskaga 6 ta o`quvchi chiqadi. O`qituvchi ko`paytirish jadvalidan savollar beradi, ya`ni 4 ga bo`linadigan sonlarga o`quvchilar qarsak chalishlari kerak bo`ladi. G`oliblar rag`batlantiriladi. O`yin orqali o`quvchilarni topqirlik, sezgirlikka, hozirjavoblikka o`rgatiladi.

Shuni ta`kidlash lozimki, o`qituvchi dars jarayonida didaktik o`yinlardan foydalanar ekan, buning uchun albatta o`yin mazmun-mohiyatidan kelib chiqibeng zarur vositalarni tanlay bilishi kerak. Chunki didaktik vositalarning sifati, ko`zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan to`g`ri foydalanish mashg`ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Xulosa o`rnida shuni aytishim lozimki, uzluksiz ta`lim jarayonining barcha bosqichlarida, ayniqsa, boshlang`ich ta`lim jarayoni samaradorligini oshirishda didaktik o`yin darslaridan maqsadli foydalanish o`quvchilarning o`qishga bo`lgan qiziqishi, bilimlarni o`zlashtirishi, hamkorlikdagi faoliyati dinamikasining oshishiga, ijobiy natijalarga erishishini ta`minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahkamova X. Interfaol darslarda didaktik o'yinlardan foydalanish. Kurs ishi. 2010-yil.
2. Yo'ldoshev J.G'. , Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: 2008.

QAVARIQ VA LIPSHTS-GO'LDER SHARTINI QANOATLANTIRUVCHI FUNKSIYALARNI CHEKLI ORALIQLARDA INTEGRAL METRIKADA ENG YAXSHI SPLAYN YAQINLASHTIRISHLARINING QUYI BAHOLARI HAQIDA

Davronova Xafiza Akbar qizi,
Xatamov Axtam
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: *Maqolada hosilasi qavariq va Lipshts-Go'lder shartini qanoatlantiruvchi funksiyalarning splayn yaqinlashtirishlarining aniq quyi baholari chekli oraliqda tekis va integral metrikalarda isborlangan.*

Kalit so'zlar: *Aniq baho, aniq quyi baho, splayn, splayn yaqinlashtirish, qavariq funksiya, Lipshts-Go'lder shartinin qanoatlantiruvchi funksiya, quyi baho, yuqori baho.*

Kirish. Faraz qilaylik, $f(x)$ – son o'qining chekli $\Delta = [a, b]$ oralig'ida haqiqiy qiymatki funksiya bo'lsin, $Mf = \sup f(x)$, $\omega(\delta, f) - f$ funksiyaning uzluksizlik moduli bo'lsin: $[0; +\infty)$ intervalda aniqlangan, $\omega(0) = 0$ bo'lgan uzluksiz kamayuvchi va yarim additive funksiya. Agar barcha $\delta \geq 0$, biror $\alpha, K = \text{const} > 0$ uchun $\omega(\delta, f) \leq K\delta^\alpha$ tengsizlik bajarilsa, u holda f funksiya K o'zgarmasli α tartibli Lipshts-Go'lder shartini qanoatlantiradi deb aytamiz va $f \in Lip_K \alpha$ deb yozamiz.

$s - \Delta$ oraliqda m -tartibli 1 defektli $a = x_0 < x_1 < \dots < x_n = b$ tugunli ko'phadli splayn (yoki oddiy qilib splayn) deb aytamiz, agar

1. $s - \Delta$ har bir $[x_i; x_{i+1}]$, $i = 0, 1, 2, \dots, n - 1$, oraliqda darajasi m dan oshmagan ko'phad;

2. $s - \Delta = [a, b]$ oraliqda $m - 1$ marta uzluksiz differensiallanuvchi bo'lsa;

$S(m, n, \Delta)$ orqali tartibi m , deffekti $1, n + 1$ tugunli barcha splaynlar to'plamini belgilaymiz; $0 < p < \infty$ uchun $S_n^m(f, p, \Delta)$ orqali f funksiyaning $s \in S(m, n, \Delta)$ splayndan $L_p(\Delta)$ metrikada eng kichik chetlanishini

$S_n^m f, p, \Delta = \inf_{\{s\}} \{ \|f - s\|_{L_p \Delta} : s \in S(m, n, \Delta) \}$, bu yerda

$\|f - s\|_{L_p \Delta} = (\int_{\Delta} |f(x) - s(x)|^p dx)^{1/p}$.

Faraz qilaylik, $S_n^m(f, \Delta)$ f funksiyaning $s \in S(m, n, \Delta)$ splayndan eng kichik chetlashishini belgilasin. $A(\alpha_1, \alpha_2, \dots)$, $C(\alpha_1, \alpha_2, \dots)$ lar bilan faqat ko'rsatilgan $\alpha_1, \alpha_2, \dots$ parametrlardan bog'liq va C - absolut o'zgarmasni belgilaymizki, umuman olganda har xil teorema va lemmalarda har xil bo'lgan musbat miqdorlarni belgilaymiz.

Teorema. $f(x) = x^2$ funksiya $\forall p, 1 \leq p < \infty$ va barcha $n = 1, 2, \dots$ uchun

$S_n^1(f, p, [0, 1]) \geq (1/16)^{n-2}$

tengsizlikni qanoatlantiradi.

Isbot. Bu teoremaning isboti quyidagi lemmaga asoslangan.

Lemma. Ixtiyoriy $[a, b]$ oraliq va ixtiyoriy to'g'ri chiziq $L(x) = cx + d$ (c, d – haqiqiy sonlar) uchun

$$abx^2 - L(x)dx \geq 1/16b - a^3$$

tengsizlik o'rinli bo'lib, tenglik esa x_1, x_2 va x_1, x_2 nuqtalardan o'tuvchi $Lx = a + bx - 1/16(3a^2 + 5ab + 3b^2)$ to'g'ri chiziqda erishiladi, bu yerda $x_1 = a + (b - a)/4$, $x_2 = b - (b - a)/4$.

Lemmaning isboti. Oson payqash mumkinki, ushbu $abx^2 - L(x)dx$ integralga eng kichik qiymat beruvchi $L(x)$ to'g'ri chiziqni shunaqa to'g'ri chiziqlar orasida izlash kerakki, uning grafigi x^2 funksiya grafigini ikki x_1, x_2 va x_1, x_2 nuqtalarda kesishib o'tsin, bu yerda $a < x_1 \leq x_2 < b$. Bunday chiziqlar tenglamasi

$$y = x_1^2 + (x_2 - x_1)(x - x_1)$$

dan iboratdir.

Integralni

$$abx^2 - x_1^2 - x_2^2 + x_1x - x_1^2 dx = (1/3)(x_2 - x_1)^3 + b - ax_1x_2 + 12a^2 - b^2x_1 + x_2 + 13b^3 - a^3 = \varphi(x_1, x_2)$$

oson hisoblash mumkin.

Endi quyidagi extremal masalani yechishga urinamiz: $\varphi(x_1, x_2)$ funksiya qachon minimumga erishadi. Statsionar nuqtalarni ushbu

$$\frac{\partial \varphi}{\partial x_1} = 0, \quad \frac{\partial \varphi}{\partial x_2} = 0$$

shartlardan izlaymiz, yani quyidagi sistemani yechamiz

$$-x_2 - x_1^2 + b - ax_2 + 12a^2 - b^2 = 0, \quad x_2 - x_1^2 + b - ax_1 + 12a^2 - b^2 = 0$$

Bu sistemaning yechimi $x_1 = a + (b - a)/4$, $x_2 = b - (b - a)/4$ va $x_1 = x_2 = a + b/2$ dan iborat.

$$d^2\varphi = 12k = 12\frac{\partial^2 \varphi}{\partial x_1 \partial x_2} |_{a+b-a/4, b-b-a/4}$$

$$\Delta x_1 \Delta x_2 = b - a \Delta x_1^2 + \Delta x_2^2 > 0$$

agar Δx_1 va Δx_2 bir vaqtda nolga teng bo'lmasa, yani ikkinchi differensial musbat aniqlangan kvadratik forma, shuning uchun $\varphi(x_1, x_2)$ $a + b - a/4, b - b - a/4$ nuqtada minimumga ega. $a + b/2, a + b/2$ nuqtada $d^2\varphi = 2b - a \Delta x_1 \Delta x_2$. Bu yerdan ko'rinadiki bu nuqtada $d^2\varphi$ aniqlanmas kvadratik forma va shuning uchun unda $\varphi(x_1, x_2)$ funksiya na maksimumga, na minimumga ega emas. Shunday qilib,

$$\min_{a < x_1 \leq x_2 < b} \varphi(x_1, x_2) = \varphi(a + b - a/4, b - b - a/4) = 1/16b - a^3$$

lemma isbot bo'ldi.

Teoremaning isboti. Faraz qilaylik $s \in S_{1, n, 0, 1 - x}^{k, k = 0, n}$ tugunli ixtiyoriy splayn-funksiya bo'lsin. Lemma 4 ni qo'llab

$$0 \leq x_2 - s(x) dx = k = 0, n - 1 \quad x_k x_{k+1} x_2 - s(x) dx \geq 1/16k = 0, n - 1 \quad x_{k+1} - x_k^3, \quad (1)$$

Go'lder tengsizligini qo'llab,

$$1 = k = 0, n - 1 \quad x_{k+1} - x_k \leq k = 0, n - 1 \quad x_{k+1} - x_k^3 \leq 1/16n^2, \quad \text{yani}$$

$$k = 0, n - 1 \quad x_{k+1} - x_k^3 \geq 1/n^2 \quad (2)$$

(1) va (2) tengsizliklarga asosan

$$0 \leq x^2 - s(x) dx \leq 116n - 2, \quad n=1,2,\dots$$

tengsizlikni olamiz.

Teorema isbot bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Фройд Г., Попов В.А. Некоторые вопросы, связанные с аппроксимацией сплайн-функциями и многочленами, *Studia Sci.Math Hungar.*, 5. №1-2 (1970), 161-171
2. Даугавет И.К. Введение в теорию приближения функций. Л., изд-во ЛГУ, 1977.

ҚАДРИЯТЛАР – ЖАМИЯТ МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИ НЕГИЗИ**Байэшанов Абдулла Мустафаевич***Гулистон давлат университети**Ижтимоий-иқтисодий факультет**“Миллий гоё, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими” кафедраси ўқитувчиси*

Марказий Осиё минтақаси дунё ҳамжамиятида илму-фан, маданият, фалсафа, дин, адабиёт ва санъати қадимдан ривожланган, тарихи ниҳоятда бой ўлка сифатида ўз ўрнига эга. Аждодларимиз томонидан бой моддий ва маънавий қадриятлар яратилган. Дунёдаги энг қадимий цивилизациялардан бири мана шу минтақада вужудга келган

Марказий Осиё халқларининг энг юксак маданий муваффақиятларидан бири ёзувни ихтиро этганликларидир. Бу ерда ёзувнинг тарихи жуда қадим замонлардан бошланган. Милоддан аввалги биринчи минг йиллик ўрталарида оромий ёзуви кенг тарқалган. Оромий ёзуви негизда эса, Хоразм кейинчалик эса Суғд, Кушон, Урхун-Энасой, Уйғур ёзувлари вужудга келган. Ёзувнинг ихтиро қилиниши, инсон билим доираси ва дунёқараши кенгайиши ва чуқурлаша боришига хизмат қилган. Мазкур ёзувлар асосида битилган қадимий манбалар бизни олис ўтмишдаги қадриятлар билан таништиришда уларнинг илдизини тўлиқ тушуниб олишимизда яқиндан ёрдам беради. Кўриниб турганидек, Марказий Осиё халқларининг, хусусан, ўзбекларнинг маданияти тарихи илдизлари, ижтимоий, фалсафий, ахлоқий, диний, бадий қарашлари ва фикрлари шакллана ва ривожлана боришининг илк даврлари қадим замонларга бориб тақалади.

Аждодларимизнинг қадим ижтимоий-иқтисодий ҳаёти, урф-одатлари, анъаналари, маданияти, тили, тарихи бадий-фалсафий жиҳатдан ўзига хос тарзда акс эттирадиган оғзаки ижодиёти ҳам ниҳоятда бой ва хилма-хилдир. Мифлар, афсоналар, қаҳрамонлар тўғрисидаги дostonлар, тўй ҳашамларда, халқ йиғинларида, байрамларда, сафарларда айtilган ашула – кўшиқ ва лапарлар, лирик шеърлар, мақол ва маталлар, масала ва топишмоқлар халқ оғзаки ижодиёти маданиятнинг энг қадимги ва узоқ тарихга эга бўлган соҳаларидир. Уларнинг ижодкори, оғиздан-оғизга, авлоддан-авлодга авайлаб-асраб ўтказувчи асосий куч-барча моддий ва маънавий бойликларнинг яратувчиси, битмас-туганмас манбаи бўлган халқдир. Тарих қаъридан, неча-неча ўтмиш даврлардан бизгача эсон-омон етиб келган мифлар, афсона ва ривоятлар, дostonлар, эртақ, мақол ва кўшиқлар, ўтмишнинг шунчаки бир акс-садоси эмас, балки халқ кўнглидаги қайғу-ҳасрат ва шодликнинг йўлдоши, унинг билим қомуси, унинг диний ва фалсафий китоби ҳамдир.

Халқ оғзаки ижодиётининг намуналари бўлган эртақлар, ривоятлар ва дostonлар билан танишар эканмиз, халқда воқеаларни олдиндан кўра билувчи ажойиб қобилият ва истейдод бор эканлигини, у ҳеч қачон орзу-умидсиз яшамаганлигини, ҳар доим келажак томон интилганлигини англаб оламиз. Ҳар қандай миф, эртақ ва афсонанинг, қадимги ривоятнинг замирида халқнинг муайян мақсад ва ниятлари, мавжуд

ижтимоий-иқтисодий вазиятга бўлган муносабатлари, меҳнат машаққатларини енгиллаштириш, меҳнат унумдорлигини ошириш ва турмуш шароитларини яхшилашга бўлган интилишлари яшириниб ётган бўлади. Улар халқ оммасининг даҳоси, унинг талаб ва эҳтиёжлари асосида вужудга келиши билан бир қаторда, ўз навбатида уларнинг ўзи кишиларнинг маънавий, ақлий, ахлоқий, ахлоқий тараққиётига тўртки вазифасини ҳам ўтаган; меҳнатни севишга ўргатган, табиатнинг хатарли кучларига қарши курашиш ва уларни олдини олишдан кишиларга ёрдам берган, оламда рўй бериб турадиган мураккаб ҳодиса ва жараёнлар сир-асрорларини билиб олишга даъват этган, инсон, фикри, тафаккури ва хаёлотини ўтмишдан келажакка томон тортган, ҳаётни севишга чорлаган.

Мифлар, эртак ва ривоятлар, термалар, дostonлар, барча фольклор асарлари ўтмишнинг энг катта тарихий ҳужжати, аجدодларимиздан бизга қолган нодир бойликдир. Жамики санъат асарлари ва маданият ёдгорликларини ҳеч иккиланмай инсон кўнглидаги шодлик ва қувончнинг, ғам ва андуҳнинг ифодаси, инсон ақли-идроки диний қомуси, битмас-туганмас ҳикматлар хазинаси, деб айтиш мумкин.

Марказий Осиё халқлари оғзаки ижодиётининг энг қадимги турларидан бири – мифдир. Бу, айниқса, “Авесто”да ифодаланган яхшилик билан ёмонлик, нур билан зулмат, бахт билан бахтсизлик ўртасидаги кураш ва бу курашда эзгуликнинг ёвузлик устидан ғалаба қозониши ҳақидаги ғоя дунёнинг бошқа халқларида бўлганидек, бизнинг мифлар учун ҳам характерлидир. Қайд этилишича, яхшилик оламига Ахурамазда ёмонлик оламига эса Ахриман бошчилик қилади, бахт ва бахтсизлик, ҳаёт ва мамот шу қарама-қарши кучлар ўртасидаги кураш ва унинг оқибатларига боғлиқ. Яхшилик ва ёмонлик кучлари ўртасидаги жангу жадаллар эзгулик учун курашадиган Митра, Анахита, Каюмарс, Жамшид, образида ва бахтсизлик тимсоли бўлган Ахриман, дев, аждар, жинлар билан боғлиқ мифларда ўз ифодасини топган.

Эзгулик мифларида Митра кишиларга нур, иссиқлик, бахт-саодат бахт этадиган, душманларга даҳшат соладиган, кишиларни офатдан қутқарадиган қуёш худоси сифатида, анахита эса ер, сув ва ҳосил маъбудаси, қаҳрамонларга куч-қувват ва муваффақият бахш этувчи тарзида тасвирланади. Мифларда тасвирланишича, Каюмарс Ахурамазда томонидан яратилган биринчи одам ва инсоният ибтисодир. Жамшид – Йима – адолатли ҳукмрондир. Йиманинг ҳукмронлик даври олтин давр ҳисобланади. У даврда одамлар гўё ўлим ва қарилик нималигини билишмаган. У ер юзини уч баравар кенгайтиради, чорвани ва турли хил қушларни ниҳоятда кўпайтиради.

Кўпчилик Шарқ мамлакатларида бўлгани каби Марказий Осиёда ҳам қадимда ер, осмон, қуёш, юлдуз ва сайёралар ҳақида космогоник мифлар вужудга келган. Уларда инсонларнинг табиий муҳит, коинот, самовий ҳодисалар ҳақидаги ўй-фикрлари, ҳаёлотлари ифодаланган. Инсонлар тақдири, қисматини юлдузларга қараб башорат қилиш мумкинлиги, бахт юлдузи ҳақида қанчадан-қанча афсоналар ва ривоятлар яратилган. Мифологияда инсонларга ризқ берадиган ер, нур ва иссиқлик берадиган осмон бениҳоя эъзозланган, ота Қуёшга, она эса ойга қиёсланган.

Марказий Осиёда бир неча минг йиллар оша юзага келган тарихий тараққиёт жараёнида миф ва афсоналар ижодий қайта ишланган, янги-янги воқеа ва маълумотлар, фикр-тушунчалар ва ғоялар билан бойиб, такомиллашиб инсоният маънавий маданиятига ҳисса бўлиб қўшилган.

Шунингдек, деҳқончилик, Наврўз айёми билан боғлиқ қадриятлар маросимлар тизими сифатида шаклланганки уларда халқимизнинг турмуш-тарзи, орзу-умидлари, оламга ва табиатга бўлган қарашлари ўзининг ифодасини топган.

Хулоса ўрнида қадриятларнинг инсон камолотига таъсирини қуйидаги жиҳатларини қайд этиш мумкин:

Биринчидан, қадриятлар асрлар давомида шаклланган, ўзида шу халқнинг менталитетини ифода этадиган, вақтнинг синовидан ўтган барча ижобий, позитив ахборотлар мажмуидир;

Иккинчидан, қадриятлар халқнинг маънавий бойлигининг негизи, аجدодларнинг бебаҳо мероси, ҳар бир халқнинг ўзига хослиги, миллийлигини кўрсатиб турувчи кўзгудир;

Учинчидан, қадриятлар ёш авлод тарбиясида муҳим ўрин тутадиган, улар руҳияти ва менталитетининг шаклланишига ижобий таъсир кўрсатадиган, ўзликни англашнинг муҳим воситаси;

Тўртинчидан, қадриятлар бугунги глобаллашув шароитида, жамият маънавиятига таҳдидлар кучайган бир даврда ёшларни ватанпарварлик ва инсонпарварлик руҳида тарбиялашда, “оммавий маданият” хуружларидан ҳимоя қилишда унга қарши тура оладиган мустаҳкам ҳимоя куралидир.

Тўртинчидан, ёшларни қадриятлар руҳида тарбиялаш орқали жамиятдаги иллатларга қарши курашиш осонлашади, шахснинг фаоллиги, дахлдорлиги кучаяди, ўзликдан, миллийликдан бегоналашишнинг олди олинади.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MILLIY QADRIYATLAR
HAQIDAGI TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH****Olimjonova Gulshanoy Kosimjon qizi***Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)**1-kurs magistranti, Namangan Davlat Universiteti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolad "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlar haqidagi tushunchalarini shakllantirish" xususida so'z boradi. Chunki, yosh avlodni ma'nan barkamol etib tarbiyalashda shubhasiz, milliy qadriyatlarga asoslanamiz*

Kalit so'zlar: *Vatan, millat, xalq, jamiyat, milliy qadriyat, barkamol avlod, moddiy va ma'naviy meros, mustahkam iroda.*

“Yoshlarimizning haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi”. Shavkat Mirziyoyev. Yosh avlodni komillikka yetaklovchi eng katta kuch – bu kitob va hayotiy saboqlardir. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kelajakni, millatni va milliyligimizni boqiy ozod holda ko‘rishimiz mumkin. Vatanga sadoqat, do‘stlikka ishonch, oilaga mehr – muhabbat, kattalarga hurmatda kichiklarga izzatda bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish milliy qadriyatlarimizni asl ko‘rinishidir.

Dunyoda har bir xalqning asrlar, zamonlar osha yashab kelayotgan milliy qadriyatlari bor. Yosh avlodni ma'nan barkamol etib tarbiyalashda ham shubhasiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanamiz. Jahon ma'naviy madaniyatining xilma-xil jihatlari uyg'onish davrida juda rivojlangan bo'lib bu davrda yashab ijod qilgan sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, al-Xorazmiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Yassaviy kabi allomalar, Alisher Navoiy, Xusayn Bayqaro, Zahiriddin Muxammad Bobur kabi donishmand mutafakkirlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarning chuqur ildizlari sifatida xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlashda va rivojlantirishda muhim o‘rin tutgan va tutib kelmoqda. Shunday ekan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar qadimiy va tarixiy bo‘lib, uning mazmunida jinsidan qat‘iy nazar, o‘zga millat xalqlariga hurmat bilan qarash dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin, insoniyatning tinchligi va totuvligini ta‘minlash, har bir millat xalqlarining o‘z huquqlarini o‘zi belgilash, o‘ziga mustaqil bo‘lib, o‘ziga xos davlat tuzib yashash, o‘z tili, dini, urf-odatlarini o‘ziga xos milliy qadriyatlari bilan bo‘lish natijasida inson kamolotiga erishish, shaxsni ahloqiy shakllantirish kabi yo‘nalishlar muhim o‘rin egallagan. Shu o‘rinda yoshlarga qadriyat, milliy qadriyatlar haqida ilk tushunchalarni berish albatta, boshlang'ich sinf o'qituvchi pedagoglarning zimmasida bo'ladi. Chunki, boshlang'ich ta'lim barcha ta'limning boshlang'ich asosi hisoblanadi. Maktab ta'lim-tarbiya ishlarini har bir shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshiradi, o'quvchilarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib beradi, shu jumladan, o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashlari va qo'shimcha bilim olishlari uchun imkoniyatlar yaratadi. Tabiiyki, yurtimizdagi barcha o'quv muassasalari kabi maktab

ham o'quvchilarida milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni kamol toptirish, ularni haqiqiy inson, Vatanga sadoqatli fuqaro sifatida tarbiyalashga mo'ljallangan.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida jamiyatimiz ozod va erkin istiqbol sari yuz tutdi, ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Chunki, inson, xalq, jamiyat va davlatning kuch-qudrati fuqarolarning ma'naviy-ma'rifiy tarixi, ma'naviyatning milliy-etnik asoslari, milliy qadriyatlar, xalqning salohiyati boshlang'ich asos – maktabdagi ta'lim va tarbiyaning natijasidir. Bola misoli oq qog'ozga o'xshaydi, unga nimani yozsangiz shuni ko'rasiz. Darsliklarda berilgan mavzular axloqiy tarbiya bilan yo'g'rilgan, bolaning har tamonlama mustahkam tarbiya olishi uchun xizmat qiladi. Ularni o'z Vatanining tarixini bilishga, uni asrab-avaylashga, yurti uchun xizmat qilishga, tabiatini, shaharlarini, ko'chasini, mahallasini, oilasini mardonavor himoya qilishga, uzida kuch va iroda topishga undaydi. Chunki, irodali inson muqaddas an'analарimiz, milliy qadriyatlarimiz, moddiy va ma'naviy merosni asrab-avaylashni oliy maqsadiga aylantiradi. Shuning barobarida, tarixni, Vatanining tarixini bilgan yoshlarni chalg'itib bo'lmaydi, ular irodali yoshlardir. Bizning zaminimizda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz, xususan, Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek va boshqa allomalarimizning o'lmas bebaho asarlari, ilmiy merosida insonlarning irodali va kengfe'llik bo'lishi, faqat o'qib-o'rganish orqaligina milliy qadriyatlarning egasi bo'lish mumkin, degan fikrlar qayd etib o'tiladi. Milliy qadriyatlar esa shu millat, shu yurt xalqlari tomonidan tarixdan e'zozlab kelinayotgan, inson ma'naviyatini boyitishga xizmat qiladigan qadriyatlardir. Milliy qadriyatlarda mehnatsevarlik, tarixiy xotiraga sadoqat, e'tiqodga hurmat, muomalada mulozamat, xayvo va andisha muhim o'rin tutadi.

Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda birinchidan, o'zbek milliy mentalitetiga xos bo'lgan g'oyalar va ezgu fazilatlarni, ayniqsa globallashuv sharoitida, mafkuraviy kurashlar keskinlashgan paytda kuchli himoya qilish va ularni zamon, davr, taraqqiyot ruhiga moslashtirib rivojlantirish zarur. Ikkinchidan, mamlakatimizda fikrlar xilma-xilligi, fikrlar rang-barangligi, sog'lom muhitni qaror to'tirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Uchinchidan, yoshlar, xususan, yoshlar tarbiyasida e'tiborli masalalardan biri vatanparvarlik, millatparvarlik, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash va ularni yanada kuchaytirish zarurdir. To'rtinchidan, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalaridan biri yoshlarda iymon-e'tiqodni shakllantirishdir. Chunki, xalqimiz e'tiqodsiz kishini o'zansiz daryoga o'xshatadi.

Xulosa qilib aytganda, inson o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanadigan hayotiy milliy qadriyatlarga, bunyodkor dunyoqarashga, mustahkam irodaga ega bo'lmasa, turli g'araz niyatli mafkuralarning bosimiga, tazyiqiga dosh berishi mushkul bo'ladi. Bu kabi ochiq yoki pinhona xurujlarga nisbatan yuksak ma'naviyatli insonlargina ziyraklik bilan, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurasha oladi. Bu toifa insonlarning butun vujudi, ma'naviy olami o'z xalqining urf-odatlariga, an'alariga, til va madaniyatiga cheksiz mehr va muhabbat tuyg'usi bilan sug'orilgan bo'ladi va aynan yoshlikdan mana shunday tarbiyalangan bo'ladi. Prezidentimiz ta'biri

bilan aytganda, “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baxti Ochilova. Laziz Barakayev Ma’naviyat asoslari fani (madaniy-ma’naviy qadriyatlar mavzusi bo’yicha o’quv-uslubiy qo’llanma). Jizzax-2014.
2. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G’ulomova, Sharofat Yo’ldosheva, Sharofjon Sariev. Ona tili o’qitish metodikasi. Toshkent. 2009.
3. M.Hamdamaova “Ma’naviyat asoslari” (Barkamol avlodni tarbiyalashda uzluksiz ta’limni insonparvarlashtirish texnologiyasi). Toshkent. 2008.
4. S.Yo’ldosheva “Xalq urf-odatlar va an’analar”. “Ijod dunyosi” nashriyoti, Toshkent. 2003 yil.
5. R.G’oyibnazarov “Ta’lim-tarbiya ishlarining mushtarakligi-ma’naviy axloqiy qadriyatlar asosi”. Ta’lim muammolari. Toshkent. 2009. 1-son.

BOSHLANG'ICH SINFLARIDA AKT FAN FOYDALANISH

Radjapova Muhabbat Erkayevna*Xorazm viloyati Urganch tumani**12-son umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda Aktdan foydalanish haqida fikr-mulohazalar bildirildi.*

Kalit so'zlar: *fikrlash, vosita, ta'lim, Akt, kompyuter, mantiqiy fikrlash, axborot.*

Boshlang'ich sinflarda fikrlash operatsion uslubini shakllantirishda informatika kursining roli juda muhim. Informatikaning ushbu roli harakatlari tuzilishini rejalashtirish, axborot izlash, muloqotni rejalashtirish, axborot modellarini qurish, faoliyatni vositalashtirish kabi dastlabki ko'nikma va malakalar to'plami ko'rinishida qaraladi. Kompyuterni o'qishda yordamchisi, ijodkorlik, o'zini ifoda etish va rivojlantirish vositasi sifatida tushunish katta ahamiyatga ega. Katta sinflar o'quvchilarida fikrlash uslubi shakllanib bo'ladi, yangi shakllarini ular qiyinchilik bilan qabul qiladilar. Ushbu kurs o'quvchini axborot bilan amaliy ishlashga o'rgatishi kerak. Boshlang'ich maktabda kompyuterni o'zlashtirib o'quvchilar undan o'z faoliyatlari vositasi sifatida boshqa sinflarda ham foydalanishlari mumkin, kompyuterni qo'llash bilan olib boriladigan darslar ularda qiyinchilik tug'dirmaydi.

Shunday qilib, ushbu kursni boshlang'ich maktabda o'rganish o'quv jarayonini modernizatsiyalash, samaradorligini oshirish bilan birga, har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olib, uni tabaqalashtirishga imkon beradi. Taklif etilayotgan kurs o'qituvchiga ta'limni erkin boshqarish va o'quv axborotlarini taqdim etish turli usullarini qo'llash imkonini beradi.

Kursda loyiha-tadqiqotchilik faoliyatiga alohida o'rin ajratilgan. O'quvchilarning loyihachilik faoliyatlari mustaqil tadqiqotchilik malakalarini, ijodiy qobiliyatlarini va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga yordam beradi; o'quv jarayonida olgan bilimlarini birlashtiradi va o'quvchilarni aniq hayotiy muhim masalalarni hal qilishda ishtirok ettiradi, ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilar va o'quvchilar munosabati uslublarini demokratlashtirishga yordam beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda o'quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, oladilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. Bolani axborot bilan ishlashga, o'qishga o'rgatish zamonaviy boshlang'ich sinflarning muhim vazifasi hisoblanadi. Boshlang'ich sinflar ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish faqat asosiy yo'nalishlari shakllanadi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini tashkil etishda AKT'dan keng foydalanish birinchi navbatda, bu turli hisobotlarni tayyorlash, sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazish va shu kabilardan iborat bo'ladi. Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish vositalaridan biri to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish

turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli o'quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. Bolalar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, harakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab etadilar. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakatlari qaerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarning izchil bayon qilinishiga va o'zaro bog'liqlikni yoritishga yo'naltirilishi lozim. O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalanadi: ayrim faktlarni o'zaro bog'laydi (sintezlaydi), bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi. Ko'pincha boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba'zan noto'g'ri yoki yuzasi tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab etmaydilar. Shuning uchun ham o'qituvchi savolni juda o'ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o'ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog'lanishi yuzasidan muhokama yuritadigan, ularni o'zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo'lishi lozim. O'quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko'z oldigan keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi. O'qilgan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalash uning rejasini tuzishga yordam beradi. Reja tuzishda o'quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo'ladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik ish hisoblanadi. Keyin sintetik ishga o'tiladi, ya'ni bolalar hikoya qismlariga sarlavha topadilar. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida o'qilgan hikoyaning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida o'ylaydilar. Sarlavha topish ustida ishlash, o'quvchilar topgan sarlavhani jamoa bo'lib muhokama qilish, reja tuzish jarayonining o'zi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o'z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Safarova R.G., Abdullayeva B.S . Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi.- Toshkent, 2019.
- 2.O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. (1997-yil 29-avgustda qabul qilingan).

FAN- TA'LIM TARRAQIYOTIDA INOVVATSION YONDASHUV

Shamshiyeva Barno Nigmatxodjayevna*Respublika musiqa va san'at kolleji o'qituvchisi Toshkent shahar*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fan-ta'lim tarraqiyotida innovatsion yondashuv haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Innovatsiya, akademiya, sektor, mexanizm, patent*

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejis emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”.

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakatimiz ilm-fani, yetakchi ilmiy maktablar, birinchi navbatda, eng yirik va muhim ahamiyatga ega tashkilot – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasini yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratishga alohida e‘tibor qaratildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ham qabul qilingan farmon va qarorlar yangi tarixiy voqeliklarga mos keladigan fan-texnika va innovatsiya sohasida davlat siyosatini izchil amalga oshirish uchun o‘ziga xos rag‘bat bo‘ldi. Ana shu rag‘batlarni amaliy qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qator me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo‘layotgan tezkor o‘zgarishlar ta‘lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta‘lim tizimi orqali Respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ta‘limda eng muhim strategik yo‘nalish ta‘lim muassasalarining innovatsion faoliyati hisoblanadi. Bu esa barcha ta‘lim muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi oliy ta‘lim maskanlarida innovatsion texnologiya ko‘rinishida faoliyat olib borish dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan.

Ma‘lumki, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da “...ta‘lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o‘quv-tarbiya jarayonini yangi o‘quv-uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘liq ta‘minlash” vazifalari belgilab qo‘yilgan. Mamlakatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishi uchun aholi ta‘limini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadi ham ilg‘or pedagogik tadbirlardan, texnologiyalardan keng foydalanishimizni talab etmoqda.

Innovatsion texnologiyalar asosida mantiqiy fikrlash uzluksiz ta‘lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Ular ta‘lim jarayonida ma‘lum o‘zgarishlarga, ta‘lim mazmuni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga sabab bo‘ladigan turli tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo‘ladi. Ilm, fan va

texnikaning jadal rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, axborot texnologiyasi vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo'llanilishi o'qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilmoqda. O'qituvchilarning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo'ladi.

Ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta'lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taqozo etmoqda, o'zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko'rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat.

Ta'lim sohasi – mamlakatimizda birinchilardan bo'lib faol innovatsion harakatni boshladi. Ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashtirish, xususiy tadbirkorlar va davlat o'rtasidagi hamkorlik, kichik va o'rta innovatsion biznesning xalqaro aloqalarini qo'llab-quvvatlash innovatsion faoliyatni keng rivojlantirishning muhim shartlaridir. Shuni ta'kidlash kerakki, dunyoning rivojlangan davlatlarida yangiliklarning qariyb yarmi tashkilotlar, kichik va o'rta biznes firmalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Chunonchi, AQSh Milliy ilm-fan fondi ma'lumotlariga ko'ra, kichik firmalarda hayotga tatbiq etilayotgan yangiliklar soni sarf-xarajatlar birligi bo'yicha o'rta va yirik firmalarga qaraganda ancha ko'pdir. Bundan tashqari, kichik firmalar yangiliklarni jadal o'zlashtirish va iste'molchilarga yetkazib berishda ham yirik firmalarga qaraganda taxminan uchdan bir barobar ilgarilab ketgan.

Universitet va texnika institutlari ishlab chiqarish kompaniyalari va firmalar bilan birgalikda patentlangan ishlanmada o'z ishtiroki ulushini belgilab tadqiqot va innovatsion loyihalarni amalga oshirgandagina ilm-fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuv jarayoni katta samara beradi. Yevropa patent idorasi tomonidan berilgan barcha xalqaro patentlarning 85 foizi aynan shunday hamkorlikdagi ishlanmalar ulushiga to'g'ri kelishi ham bejiz emas.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har tomonlama rivojlangan innovatsion tizimga ega mamlakatlardagina innovatsiya jarayonlari samarali amalga oshirilib, texnologiyalar va boshqa ilmtalab mahsulotlar tijoratlashtirilmoqda. Bu jarayonda davlatning ishtiroki, iqtisodiyotning real sektori va yetakchi kompaniyalarning innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga egadir. Zero, ilm-fan davlatning texnik taraqqiyoti va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydigan ushbu integratsiya mexanizmining asosini tashkil qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kun innovatsion texnologiyalarini ilm-fan va ta'lim sohasida muvaffaqiyatli qo'llanilsa, yangi yosh avlod ana shu jahon tajribasi asosida saboq olib, ulg'aysa, davlatimizning ertangi istiqboli, kelajagi yorqin bo'lishiga shak-shubha yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 1.Ozbekiston Respublikasining “Ta`lim tog`risidagi” Qonuni. – “Barkamol avlod – Ozbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – T.: Sharq, 1997.

2.Pedagogika. Q.Qosnazarov, A.Pazilov, A.Tilegenov Nukus, Bilim, 2009y.

3WwW.ziyo.com

**O'QUVCHILARDA KOMPYUTER O'YINLARIGA TOBELIK VA ULARNI
BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK USULLARI.****O'rinboeva Zuhra***Farg'ona tumani 3-sonli maktab amaliyotchi psixologi*

Bugungi kunda davlatimiz sog'lom avlodni tarkib toptirish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Sog'lom avlod deganda jismoniy, ma'naviy, aqliy jihatdan sog'lom avlodni tarkib toptirish nazarda tutiladi.

Taraqqiyot jadal kechayotgan bir paytda kibernetika kishilarning kundalik va ish faoliyati sohasiga jadallik bilan kirib bormoqda. Elektronlashtirish kishi faoliyatida ijobiy samaralarga erishish uchun keng imkoniyatlar, qulayliklar yaratib bermoqda. Bu kishilardan informatsion axborotlardan foydalanish madaniyatini shakllantirishni talab etmoqda. Chunki bu kishi ma'naviyatida o'z aksini topadi.

Keyingi olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim kishilar virtual tizimdan shu darajada foydalanmoqdaki bu ularning shaxsiy va professional hayotiga ziyon etkazmoqda. Kishi psixik sohasida kibernetik tobelik yuzaga kelmoqda. Buning bir ko'rinishi internetga bog'lanib qolishlikdir. Chet el olimi Yang internetga tobelikning 5ta turini ko'rsatib o'tadi.²

1. Kiberseksual tobelik. Bu kattalar bilan bu sohadagi muloqot yoki kiberpornografiyaga tobelikdir.

2. Kibermuloqotga tobelik. Virtual do'stona muloqotga, interaktiv o'yinlar, anjumanlarga ishqibozlik. Bunda real do'stlar va oila o'rnini «virtual sohadagi do'stlar» egallaydi.

3. Tarmoqqa haddan ziyod jalb bo'lmoq. Bu o'z ichiga tarmoqli qizg'in va jo'shqin o'yinlarga berilib ketish, interaktiv kim oshdi o'yinlariga tobelikni oladi.

4. Informatsion ortiqcha yuklanish. Ma'lumotlarni olish borasida vebsaytlarga kirish va manbalardan ma'lumotlar olishga haddan ortiq jalb bo'lish.

5. Kompyuterga tobelik. Kompyuter o'yinlari va programmalashtirishga shunday bog'lanib qolishlikki, bu uning xayolidan ketmaydi, miyasiga o'rtnashib qoladi.

Kishini kibernetik tobelikdan xalos etish borasida psixologik yordam ko'rsatish zarurati tug'iladi. Bu psixologik sohada kiberterapiya, deb yuritiladi. Kiberterapiya o'z ichiga kibernetikaga tobelikni davolash metodlari va usullarini oladi. Bunda psixoterapevt kuzatuvida mizojning o'zi ishga layoqatli sub'ekt hisoblanadi. Ya'ni mizojning o'zi o'zini davolashni amalga oshiradi.

Psixoterapiya sohasidagi nazariyalar tarmoqli qizg'in o'yinlar va kompyuter o'yinlariga tobelikni o'ziga xos talqin etadilar. Tarmoqli qizg'in o'yinlar va kompyuter o'yinlariga tobelikni bartaraf etish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi.

Birinchidan; mijozning kognitiv(bilish), emotsional, xulq-atvor sohasida yuzaga kelgan o'zgarish va buzilishlarni bartaraf etish, psixologik davolash.

Ikkinchidan; tarmoqli qizg'in o'yinlar va kompyuter o'yinlaridan o'zini tiyishga olib kelish.

Tarmoqli qizg'in o'yinlar va kompyuter o'yinlariga tobelikni bartaraf etish quyidagi bosqichda amalga oshiriladi:

- 1) samara beruvchi muloqot o'rnatish, mijozni hamkorlikka jalb etish, davolanish motivatsiyasini vujudga keltirish;
- 2) tobelik alomatlarini shakllatish mexanizm iva sabablarini sharhlash;
- 3) davolash va bartaraf etish ishlarini mo'ljallash;
- 4) tobelik alomatlarini yo'qotishga qaratilgan jarayonda o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi metod va texnikalardan foydalanish;
- 5) erishilgan ijobiy natijalarni mustahkamlash.

Tarmoqli qizg'in o'yinlar va kompyuter o'yinlariga tobelikni bartaraf etishda qo'yidagi metodlardan foydalaniladi.

Qarama-qarshi shartlantirish. Bu tipdagi metodlardan biri sistematik desensibilizatsiya bo'lib, u noto'g'ri javob reaksiyasiga nisbatan qarama-qarshi reaksiya hissini ishlab chiqishga qaratilgan. Masalan, xavotirlanish (bezovtalanish) hissini yo'qotish uchun psixoterapevt mijozini qarama-qarshi reaksiya holatidan bo'shshga o'rgatadi. Keyinchalik ijtimoiy turmushda odam bunday vaziyatdan bo'shashi orqali muammoni echish yo'lini topishi mumkin.

Operant metodlar. Bu metodlar Skinnerning kerakli xulq-atvor turiga asta-sekinlik bilan yaqinlashtirish printsipiga asoslangan.

Xulq-atvorni vujudga keltirish metodi. Mijozning ko'nikmalarini har tomonlama o'rganib chiqish orqali uning uchun ahamiyatli sovg'a hadya qilish mumkin.

O'z-o'zini nazorat qilish metodi. Maqsadga mos harakat uchun tashqaridan emas, balki shaxsning o'zi tomonidan mukofotlash yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.I.Karimov. Milliy istiqlool mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.Toshkent-“O'zbekiston”-2000y, -31bet.7,10 betlar.

2.B.D Karvasarskiy. Meditsinskaya psixologiya. Izdanie vtoroe, pererabotannoe i dopolnennoe. Izdatelstvo «Meditsina».-Moskva 2001.317ctr. 226,227 str

3.Toshimov R. G'oziev E. G'. “Zamonaviy individual va guruhiiy psixologiya”.- Toshkent, ”Universitet” 1999y.

ЁШЛАРДА ХУЛҚ ОҒИШИ ВА ТАРБИЯ БУЗИЛИШИНING ОЛДИНИ ОЛИШ БЎЙИЧА ПРОФИЛАКТИК ТАРДБИРЛАРNING АЙРИМ ИЖТИМОЙ- ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Абдурахимов Анвар Абдувахоб ўғли

Ўзбекистон Республикаси ИИБ

Академияси 3 курс курсанти

Маълумки, болалар ва ўсмирлар ўртасида хулқ оғишининг олдини олиш тадбирлари энг аввало, хулқ оғишини келтириб чиқарадиган шарт-шароит ва сабабларни бартараф қилишни тақоза қилади. Масаланинг долзарблигидан келиб чиққан ҳолда бугунги кунда бутун дунё миқёсида, шу жумладан Республикамизда вояга етмаганлар ўртасида хулқ оғишининг олдини олиш борасида бир қатор илмий ва амалий жиҳатдан асосланган чора-тадбирлар ишлаб чиқилмоқда. Республикамизда бу йўналишда олиб борилаётган амалий ишлардан бири сифатида Тошкент шаҳри, вилоятлар ва туманларда вояга етмаганлар билан ишлаш комиссияларининг тузилиши ва уларнинг фаолиятини белгилаш тўғрисида Вазирлар Маҳкамаси томонидан қабул қилинган ҳужжатнинг қабул қилиниши ва ушбу ҳужжатда “вояга етмаганлар ўртасида қонунбузарликларга барҳам бериш ва уларнинг олдини олиш” га қаратилган профилактик чора-тадбирлар болалар ва ўсмирлар ёш ва индивидуал-психологик хусусиятларини ҳисобга олган ва ҳар томонлама илмий асосланган ҳолда ишлаб чиқилиши ва уларнинг таъсирчанлик даражасини оширишга алоҳида эътибор қаратилсин”, деб таъкидланишини кўрсатиш мумкин. Ҳақиқатдан ҳам ўсиб келаётган ёш авлоднинг эртанги кунимиз, келажагимизнинг давомчилари эканлигини ҳисобга оладиган бўлсак, болалар ва ўсмирлар ўртасидаги турли хил ғайриқонуний, шу жумладан жиноятчиликнинг олдини олишга қаратилган профилактик чора-тадбирларни ишлаб чиқиш, ҳар қачонгидан ҳам долзарб муаммо сифатида намоён бўлади. Кузатишларимиздан маълум бўлишича, вояга етмаганлар жиноятчилигини олдини олишда энг аввало, жиноятчилик хулқининг ижтимоий-психологик, индивидуал-психологик, социологик, ҳудудий ва криминологик хусусиятларини ҳисобга олиш талаб этилади. Шунингдек, вояга етмаганлар ўртасида юзага келаётган қонунбузарликларнинг олдини олиш ишлари умумий ва махсус-индивидуал тарзда олиб борилиши билан характерланади. Умумий ижтимоий чора-тадбирларга жамиятни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан ривожлантириш, сиёсий барқарорликни таъминлаш, халқнинг турмуш тарзи ва микро муҳит муносабатларини яхшилаш, фуқароларнинг маданий-маънавий ва маърифий салоҳиятини ўстириш ва бошқалар кирди. Махсус-индивидуал характердаги тадбирлар сифатида эса болалар ва ўсмирларнинг шахс хусусиятлари, уларнинг психологияси, дунёқараши, қадриятлар ориентацияси, ҳаётий позицияси, онглилик даражаси ва ижтимоийлашув хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва қўллаш тушунилади. Профилактик чора тадбирларни ишлаб чиқишда вояга етмаганлар ўртасида хулқ оғишининг келиб чиқишигача бўлган даврга, бу даврда олиб

бориладиган умумий тарбиявий тадбирларга, уларни такомиллаштиришга, таъсирчанлик даражасини оширишга алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлади. Шунинг учун ҳам вояга етмаганлар ўртасида юзага келаётган хулқ оғишининг олдини олишда ушбу оралик даври муҳим аҳамият касб этишлигини унутмаслигимиз керак. Вояга етмаганлар ўртасида хулқ оғишининг олдини олишга қаратилган профилактик чора-тадбирлар табиатини тушуниш учун аввало уларнинг бошланиш даврини, унинг объектини ҳамда хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирлар шахсига қандай таъсир кўрсатиш хусусиятини билиб олиш талаб этилади. Ушбу масалани ечиш учун табиий равишда шахснинг мотивацион соҳасига алоқадор бўлган маълумотлардан фойдаланишга тўғри келади. Жиноятчилик хулқи мотивацияси қайсидир маънода шахснинг умумий йўналиши ва вазият ўртасидаги ўзаро алоқасига боғлиқ бўлади. Бундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, жиноятчилик хулқи мотивацияси криминоген вазиятга нисбатан шахснинг ижобий йўналиши ва фазилатларининг сусайишига, фаол криминоген вазиятларга нисбатан шахснинг ижобий йўналиши ва фазилатлари беқарорлигига, криминоген вазиятлар билан шахснинг салбий хислатлари ўртасидаги ўзаро алоқадорликка ҳамда шахснинг криминоген йўналиши каби жуда кўплаб бошқа омиллар асосида намоён бўлади. Вояга етмаган жиноятчилар шахсининг умумий йўналиши таҳлили жиноятчиликнинг олдини олишга қаратилган профилактик чора-тадбирларни нафақат жиноятчилик хулқи ва салбий иллатларга эга бўлган болалар ва ўсмирлар ўртасида олиб бориш, балки соғлом хулқли болалар ва ўсмирлар ўртасида ҳам уларни олиб бориш заруриятини кўрсатади. Ушбу фикрдан кўринадики, ўсмир томонидан содир этилган жиноий ҳаракат-унинг хулқига эмас, балки ситуацион вазиятларга кўра содир этилганда ўсмир шахсининг ижобий сифатлари ва жиноятчиликнинг содир этилишига сабаб бўлувчи омиллар тўғрисидаги маълумотларни бермайди. Шунингдек, бундай вазиятларда ўсмирда тарбиявий профилактик тадбирлар олиб борилганда ҳам жиноий ҳаракатнинг олдини олишга ёрдам бериб бўлмайди. Шунинг учун ҳам ситуацион вазиятларга боғлиқ бўлган жиноятларнинг олдини олишда ўсмир шахсининг хусусиятларини, унинг ижобий ёки салбий фазилатларни ҳамда уларнинг характер хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда иш тутиш мақсадга мувофиқлигини унутмаслик керак. Шунингдек, ўсмир шахсидаги эмоционал беқарорлик, кўзгалувчанлик хусусиятларига барҳам беришга эришиш ҳамда уларда ўз ҳаттиҳаракатларини бошқара олиш ва фикрлаш қобилиятларини ривожлантириш ситуацион вазиятларга боғлиқ бўлган болалар ва ўсмирлар жиноятчилигининг олдини олишда муҳим ҳисобланади. Вояга етмаганларда хулқ оғиши жараёни шахс хусусиятлари билан ташқи муҳит воқеа-ҳодисалари ўртасидаги мураккаб боғланишли жараён бўлиб ҳисобланади. Бу жараёнда ўсмир шахси субъект сифатида ташқи муҳит ахборотларини қабул қилади ва қайта ишлайди. Объект сифатида эса ташқи муҳит элементлари шахсга таъсир этувчи элемент сифатида ифодаланади. Ўсмир шахсининг ижтимоий-психологик хусусиятлари шундай ўзига хос имкониятларга эгаки, у баъзан шахснинг соғлом муносабатлари ва соғлом турмуш тарзини белгиласа, баъзан эса носоғлом хулқ-атворнинг келиб чиқиши учун имконият яратади. Ушбу хусусиятлар ўсмирларда ғайри қонуний хулқ-атворнинг

келиб чиққининг олдини олишга қаратилган психологик-педагогик жиҳатдан таъсирчан тадбирларни ишлаб чиқиш заруриятини кўрсатади. Вояга етмаганлар ўртасида жиноятчиликнинг олдини олиш тадбирлари самарадорлиги ва уларнинг таъсирчанлиги энг аввало, ўсмир шахсидаги ижобий фазилатлар, ижтимоий фойдали эҳтиёж ва қизиқишларнинг шаклланганлигига боғлиқ бўлади. Шу маънода ўқув-тарбиявий тадбирлар ва машғулотлар вояга етмаганлар жиноятчилигини олдини олишнинг дастлабки профилактикаси сифатида хизмат қилиши керак.

**ИНСТИТУЦИОНАЛ ВА СПОНТАН ДИСКУРСДА МУРОЖААТНИНГ
СТАНДАРТ УСУЛЛАРИ****Равшанова Раъно Хандамовна***“Бошлангич таълим” кафедраси ўқитувчиси
Навоий давлат педагогика институти*

Аннотация: *Мақолада институционал ва спонтан дискурсда мурожаатнинг стандарт усуллари, нутқий мулоқот этикет бирликлари бир вақтнинг ўзида ҳам тил, ҳам нутқ ҳодисалари сифатида намоён бўлиши кенг таҳлил қилинган. Шунингдек, тил таълувчилари томонидан бевосита ва билвосита саломлашиш, диалогик нутқ матни синтактик қоидаларга қатъий амал қилинган ҳолда шаклланиши ҳақида фикр юритилган.*

Калит сўзлар: *Коммуникант, нутқий этикет қоидалар, институционал дискурс, диалогик нутқ, бевосита ва билвосита саломлашиш.*

**STANDARD METHODS OF APPEAL IN INSTITUTIONAL AND SPONTANEOUS
DISCOURSE**

Annotation: *The article comprehensively analyzes the standard methods of addressing in institutional and spontaneous discourse, the manifestations of speech communication etiquette units as both language and speech phenomena at the same time. It is also thought that direct and indirect greetings by linguists, the text of dialogic speech is formed in strict accordance with the syntactic rules.*

Key words: *communicative, speech etiquette rules, institutional discourse, dialogic speech, direct and indirect greetings*

**СТАНДАРТНЫЕ МЕТОДЫ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ И
СПОНТАНСКОМ ДИСКУРСЕ**

Аннотация: *В статье всесторонне проанализированы стандартные методы обращения в институциональном и спонтанном дискурсе к проявлению единиц речевого коммуникационного этикета как языкового и речевого феномена одновременно. Также считается, что при прямом и косвенном приветствии лингвистов текст диалогической речи формируется в строгом соответствии с синтаксическими правилами.*

Ключевые слова: *коммуникатив, правила речевого этикета, институциональный дискурс, диалогическая речь, прямое и косвенное приветствие.*

Жамият кишиси ўз тажрибасига таянган ҳолда хатти-ҳаракатларни саралаш, устунлари ёки етакчиларини ривожлантириш ҳақида азалдан қайғуриб келган. Натижада уларнинг барқарорлари жамиятнинг одоб-ахлоқ қоидаларида хатти-

ҳаракатлар меъёрлари сифатида муҳрланиб қолган. Ҳозирга келиб ушбу қоидаларга риоя қилиш жамият кишисининг бурч ва вазифаларига айланган. Шундай хатти-ҳаракатлар қаторига нутқ вазияти ҳам киради. Жамият кишиси маданий алоқа кўникмаларини муваффақиятли тараққий эттириш мақсадида нутқий этикет формулалари, шакллари мунтазам равишда эҳтиёж сезиб келади. Жамият кишилари томонидан ишлаб чиқилган ва мустаҳкамланган нутқий этикет қоидалари аниқ нутқ momentiда вазиятга шартланган, тематик жиҳатдан бирлашган, коммуникатив йўналтирилган ҳамда диалогик бирликлар доирасида ўзаро боғланган ва ўзаро муносабатларнинг кўп қиррали лисоний микро системасидир.

Коммуникантлар мавқега йўналтирилган мулоқотда ўзини танитиш, мулоқотда устунликка эришиш мақсадида нутқий мулоқот этикетига тобора сингишиб кетган муружаат усуллари оғли ва оқилона фойдаланишга ҳаракат қилади. Мулоқот этикети жамиятнинг кўҳна ўзига хос барқарор мулоқот қолипларини ташкил қилувчи лисоний бирликлар макросистемасидир. Мулоқот қолиплари сифатида намоён бўладиган лисоний бирликлар жамият кишилари ўртасида уларнинг ижтимоий мавқеи ва эгаллаган ўрнига қараб расмий ва норасмий вазиятларда ўзаро нутқий муносабатларни амалга ошириш учун хизмат қилади.

Соссюрнинг “Умумий тилшунослик” асаридаги схемаси шахслараро мулоқотни тавсифлаш учун асосий манбадир. Ушбу вазиятда иштирок этаётган мулоқот эгаларининг ҳаракати фаол ва суст бўлиб, улар ўртасидаги ўзаро таъсир, муносабатлар алоҳида лисоний системани вужудга келтиради. Тил “...нутқдан худди ижтимоий хусусийликдан, иккинчи даражали сатҳдан фарқ қилгани сингари фарқланади; нутқий фаолиятнинг ижтимоий сатҳи жамоалар ўртасида тузилган келишув туфайли мавжуддир” [Блинов, Богатырева, Мурат, Рапова, 2015:24].

Институционал дискурс — одамлар ўртасидаги мулоқотнинг махсус клишеланган тури. Улар бир-бирларини танимади, бироқ ушбу социум меъёрларига мос тарзда мулоқотга киришадилар. Кўпинча шахсий мулоқот маиший мулоқот билан бирлашади. Ўзаро таниш одамлар ўртасида, номаиший тарзда ҳам мулоқот амалга ошади. Ҳар қандай мулоқот кўп ўлчовли хусусиятга эга. Аниқ нутқ мулоқот жараёнида мулоқот типларини ажратиш шартли ва тадқиқотчилик мақсадида амалга оширилади. Институционал мулоқотни амалга ошириш жараёнида иштирокчилар манекенлардек ҳаракат қилади”. [Карасик, 2000: 5-6]

Нутқий мулоқот этикет бирликлари бир вақтнинг ўзида ҳам тил, ҳам нутқ ҳодисалари сифатида намоён бўлиши уларнинг ўзига хос хусусият – икки томонлама табиатга эга эканлигини тасдиқлайди. Изоҳли луғатларга киритилган кўплаб шундай нутқий мулоқот этикет бирликлари бизга улар ҳақидаги маълум бир масалаларга ойдинлик киритишга имкон беради. Инглизча изоҳли луғатларда бирликлар ёнида қавс ичига олинган *соллог* белгиси уларнинг сўзлашув нутқига мансуб эканлигига ишорадир. Мазкур мақолада таҳлилга тортилган тил ташувчилари томонидан бевосита ва билвосита саломлашиш, қутлаш, олқишлаш, хайрлашиш, табриклаш, узр сўраш, тилак билдириш каби урф бўлиб бораётган одат ва расм-русумларни амалга

ошириш учун хизмат қилаётган нутқий этикет бирликлари истеъмол доирасининг ўта кенглиги уларнинг тилга мансуб эканлигидан ҳам далолат беради.

Мулоқотнинг ҳар қандай кўриниши ва турлари — мулоқот назариясининг ўрганиш объекти ҳисобланади. Ҳозирда унга нисбатан икки хил ёндашув вужудга келган: “механик парадигма учун *мулоқот* — бу ахборотнинг асосий манбадан код ёрдамида бир томонлама йўналтирилган ҳолда узатилиши ва унинг мулоқот эгаси томонидан қабул қилинишидир.

Амалиётда эса мулоқот суҳбатдошларнинг ҳамкорликдаги фаолиятидир. Ҳамкорлик асосида маълум бир чегарагача шаклланган умумий қарашлар, албатта, мавжуд нарса, буюм ва воқеаларга бўлган ўзаро муносабатлардан иборатдир” [Кашкин, 2010: 8]

Тилнинг асосий қисмларидан бири бўлган нутқий мулоқот этикет бирликлари ва мурожаатнинг турли шакллари синтактик сатҳга тўғридан-тўғри алоқадордир. Нутқий мулоқот этикетининг исталган бирлиги гапдир.

Диалогик нутқ матнини ёзувда бериш ҳеч қандай қийинчилик туғдирмайди. Монологик нутқ матни сингари диалогик нутқ матни ҳам синтактик қоидаларга қатъий амал қилинган ҳолда шакллантирилади. Диалогик нутқ бирликлари ёзма матнда содда гап – муайян тил қонуниятлари асосида ҳам грамматик, ҳам товуший шаклланган тўлақонли нутқ бирлиги сифатида намоён бўлади. Нутқий мулоқот этикет бирликлари ичида гапларнинг мақсадни қандай ифодалашига қараб 3 тоифаси: дарак гап, сўроқ гап ва буйруқ гапларни; эмоционалликка кўра: эмоционал, эмоционал бўлмаган гаплар; гапларнинг воқеликка муносабати жиҳатидан: тасдиқ гап, инкор гап; тузилишига кўра содда; гапларнинг грамматик асосига кўра бир бош бўлакли ва икки бош бўлакли; гап мучалари табиатига кўра бўлақларга ажратиладиган ва ажратилмайдиган; гапнинг коммуникатив вазиятига кўра тўлиқ ва тўлиқсиз гапларни учратиш мумкин.

Диалогик нутқни ёзувда тўғри муҳрлашда тиниш белгиларининг ўрни бениҳоя катта. “Саломлашиш” мавзусидаги гуруҳга доир ҳамма учун умумий бўлган диалогни мисол тариқасида ҳавола этамиз:

А. Салом! Аҳволлар қалай?

В. Яхши. Раҳмат! Ўзингиз қандай?

Ушбу гаплар грамматик асослар иштирокига кўра бир бош бўлакли ёки икки бош бўлакли, тўлиқ ёки тўлиқсиз бўлиши ҳам мумкин. Ушбу гапларда бош бўлақлар – эга ва кесимнинг тўлиқ иштироки, ҳар иккаласидан бирининг ёки иккаласининг иштироки умуман таъминланмаслиги ҳам мумкин. Бироқ матн мазмуни уларни осон аниқлашга имкон беради. Масалан, бир-бирларига таниш бўлган суҳбатдошларнинг “танишиш” вазиятидаги мулоқотига эътибор қаратадиган бўлсак, улар нутқида икки бош бўлакли тўлиқ ва тўлиқсиз ҳамда умуман бош бўлақлар иштирок этмаган гапларни кузатишимиз мумкин. Бироқ контекст мазмуни бизга бош бўлақларни осон аниқлашга кўмаклашади.

Реал ҳаётини нутқий мулоқот вазиятларида суҳбатдошларнинг тўлиқ ва тўлиқсиз гаплардан унумли фойдаланганликларининг гувоҳи бўламиз. Қиёсланг:

А. Салом!, Менинг исмим Анора (ёки Мен Анораман.)

Б. Танишганимдан мамнунман.

А. Салом, Мен Ёрқиной...

Б. Мен ҳам танишганимдан хурсандман.

Нутқий мулоқот этикет бирликлари мурожаат матнининг шаклланишида бир бош бўлакли гап шаклида бўлиши мумкин. Ушбу бош бўлакнинг эга ёки кесимлигини аниқлаш қийинчилик туғдиради. Бундай ҳолатларда бошқа гап бўлаklarининг иштироки таъминланмаганлигининг боиси уларга эҳтиёжнинг бўлмаганлигидадир. Гап таркибидаги мавжуд бўлак бутун бир бошли контекст мазмунини бера олади.

Бир бош бўлакли гап таркибидаги “бош бўлак” от билан ифодаланганда номинатив гапга айланади. Кўп ҳолларда отга аниқловчи вазифасини ўтаётган сифат мазмунан сингиб кетади. Кун вақтлари акс этган “саломлашиш” мавзусидаги вазиятга алоқадор нутқий мулоқот этикет бирликлари мисол келтирамиз:

А. Хайрли тонг.

Б. Хайрли тонг.

Кесимлик – гап учун энг муҳим белги. Ушбу белгининг миқдор жиҳатдан иштироки гапларнинг содда ва мураккаблигини белгилаб беради. Демак гап содда бўлиши учун унга битта кесимнинг иштироки етарли. Гапнинг мазмунини ёйиш, кенгайтиришда иккинчи даражали бўлаklarнинг иштироки ҳам муҳимдир. Шунга кўра гап таркибида бош бўлаklar билан бир қаторда иккинчи даражали бўлаklarнинг ҳам иштирок этиши уларнинг содда ёйиқ эканлигини асослайди. Айнан шундай содда йиғиқ ҳамда содда ёйиқ гаплар нутқий мулоқот этикет бирликлари ташкил этади. “Розилик - норозилик” мавзуси остидаги гуруҳ таркибига киритилган бир неча бирликларни мисол тариқасида келтирамиз:

Дониёр. Розиман. Мен ҳам.

Нурбек: Унчалик рози эмасман.

Инглиз тилидаги мавжуд нутқий мулоқот этикет бирликлари – содда йиғиқ ёки ёйиқ, икки бош бўлакли тўлиқ ёки тўлиқсиз, бир бош бўлакли, дарак, сўроқ ва буйруқ гаплардир. Улар ҳозирги замон инглиз амалий грамматикаси қонуниятларига қатъий амал қилинган ҳолда шакллангандир.

Кўриниб тургани каби ўзбек тилида инглиз ва рус тилларидан фарқли равишда эга ҳар доим иштирок этавермайди. Кесим таркибидаги морфологик кўрсаткич – шахс-сон қўшимчаси гапнинг эгаси кимлигини кўрсатиб туради. Аксарият тилларда кесимлар эгасиз гап ҳосил қила олмайди.

Ўзбек халқи мулоқот этикети бошқа миллатлар, хусусан, ғарб мурожаат шаклларида сезиларли фарқ қилади. Рус ва инглиз жамиятида ёшидан қатъий назар асосий нутқ вазиятларида исм билан мурожаат қилинади. Расмий давраларда исми ва отасининг исми доимий қўлланилади. Ўзбекларда аёл кишининг ўз эри ва унинг қариндошларига мурожаати бутунлай ўзига хос, яъни келин ўзининг эри томонидаги қариндошларининг исмини айтиб мурожаат қилмайди, муҳим жиҳати шуки, эрининг исмини айтиб чақирмайди, баъзи ҳудудларда бош фарзанднинг исми билан эр-хотин

бир-бирларига мурожаат қилиши ўзбек тилининг, ўзбек нутқ маданиятининг бой эканлигини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Блинов А.В., Богатырева И.И., Мурат В.П., Рапова Г.И. Хрестоматия по курсу “Введение в языкознание” для студентов филологического факультета. – М.: Филологический факультет МГУ, 2015. – Б. 24.

2.Карасик В.И. О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. тр. – Волгоград: Перемена, 2000. – Б. 5-6.

3.Кашкин В.Б. Введение в теорию коммуникации. – Воронеж: Изд-во ВГТУ, 2010. – Б. 8.

**БОЛА ШАХСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ САМАРАЛИ ЖИХАТЛАРИ****Юлдашева Шохиста Тожалиевна***Фаргона шаҳар 36 давлат мактабгача таълим ташкилоти тарбиячи,*

Глобаллашув даврида Ўзбекистон Республикаси олдида халқаро тажриба, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ҳамда маданий-маънавий хусусиятлар ва анъаналарни ҳисобга олган миллий инновацион тизимни шакллантиришдек мураккаб ижтимоий, иқтисодий вазифалар турибди. Маълумки, бугунги кунда жаҳонда барча соҳаларда рақобат кучайган даврда мамлакатларнинг худудларини катталиги, табиий бойликларини ва молиявий капиталини ҳажмини кўплиги эмас, балки инсон капиталини сифати, фуқароларининг билим ва кўникмаларини юқори даражада бўлиши давлатларни инновацион ривожланишида ҳал қилувчи омил сифатида ўзини намоён қилмоқда.

Маълумки, таълимдан асосий мақсад болаларга билим беришгина эмас, балки билим олиш йўллариини ўргатиш, уларни таълим жараёнининг фаол иштирокчисига айлантириш демакдир. Янгича ижтимоий, иқтисодий шароитда мактабгача таълимда ўқитиш тизимини такомиллаштириш, машғулотларни жаҳон андозаларига мос равишда ташкил қилиш бола фаоллигини оширадиган муҳим омиллардан ҳисобланади.

Илм-фан ва замонавий технологияларни ривожлантириш Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётини амалга ошириш борасида ҳал этиш лозим бўлган устувор вазифалардан бири саналади, Ўзбекистон Республикасининг жаҳон бозорларига чиқиши ва уерда ўзига муносиб ўринни эгаллаши учун илм-фан ютуқларидан кенг кўламда фойдаланиладиган, рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқара оладиган иқтисодий тизимни шакллантириш шарт. Бундай масъулиятли вазифани мукамал даражада бажариш учун эса миллий илм-фанни ҳамда кадрлар тайёрлаш тизимини жадал ривожлантиришга катта аҳамият бериб келинмоқда.

Маълумки, инсон ақлини нақадар ишлатганлигининг белгиси, унинг эгаллаган билимининг ҳажми билан аниқланади. Киши қанча ақлини кўп ишлатса, билими шунча кўп ва ижтимоий моҳияти юқори бўлади. Ундан ташқари инсон бошқа мавжудотлардан кўпгина иккиламчи хусусиятлари билан ҳам ажралиб туради. Инсоннинг бошқа мавжудотлардан иккиламчи фарқларидан бири, унинг маълум бир мақсад сари ҳаракат қилишидадир.

“Жаҳолатга қарши маърифат” ғояси асосида жамиятда узлуксиз маънавий-маърифий тарбия ва тарғибот-ташвиқот ишларини ташкил этишнинг стратегик йўналишлари, таъсирчан, креатив ва инновацион услубларини ишлаб чиқиш, тинчлик ва осойишталикка, мамлакатимизнинг барқарор тараққиётига, кадрият ва урф-одатларга ҳамда инсонпарварлик ғояларига хавф солувчи турли ички ва ташқи таҳдидларга қарши самарали тарғибот ишларини олиб бориш мақсадга мувофиқдир.

Таълим-тарбиянинг янгича модели янги, яъни ҳозирги замонда таълим-тарбия соҳасида дунёда эришилган ютуқларга, ахборот коммуникация тизими, педагогик технологияларни жорий этган ҳолда таълимни амалга оширишга, таълим соҳасига янги инновацияларни жорий этиш давлат сиёсати даражасида эътибор берилмоқда. Таълим тизимида ёки ўқув фаолиятида инновацияларни қўллашда сарфланган маблағ ва кучдан имкон қадар энг юқори натижани олиш мақсади кўзланади. Инновацияларнинг ҳар қандай янгиликдан фарқи шундаки, у бошқариш ва назорат қилишга имкон берадиган ўзгарувчан механизмга эга бўлиши зарур.

Замонавий таълимга хос муҳим жиҳатлардан бири – педагог фаолиятининг инновацион характер касб этишига эришиш саналади. Ривожланган хорижий мамлакатларда педагог фаолиятининг инновацион характер касб этишига эришиш масаласи ўтган асрнинг 60-йилларидан бошлаб жиддий ўрганила бошлаган. Ўз-ўзидан тизим сифатида янгилик киритириш муносабат ёки жараённинг, биринчидан, ички мантиғини, иккинчидан, киритилаётган янгиликнинг муайян вақт оралиғида изчил ривожланиши ва атроф-муҳитга кўрсатадиган ўзаро таъсирини ифодалайди. Зеро, Педагогик инновациялар тегишли соҳада ижобий ўзгаришларни содир этиш, сифат жиҳатдан юқори натижаларга эришиш мақсадида қўлланилади.

Инновацион фаолият – мактабгача таълим муассасаси ва мактаб педагогининг ўз касбини такомиллаштиришдаги мавжуд шакл ва воситаларни эгаллашга ижодий ёндашувини назарда тутаяди. Инновацион фаолият педагогнинг руҳий, ақлий, жисмоний кучини маълум мақсадга йўналтириш асосида назарий билим, амалий кўникма ва малакаларни эгаллаш, амалий фаолиятни назарий билимлар билан тўлдириб бориш, билиш, лойиҳалаш, коммуникатив нутқ ва ташкилотчилик маҳоратини ривожлантиришни талаб этади. Таълимдаги инновациялар ва инновацион педагогик фаолият ҳақида барқарор ва ҳаммага маъқул бўлган илмий тасаввурлар ва таснифлар шу пайтгача мукамал таркиб топган эмаслигини ҳам эътироф этиш лозим.

Хулоса қилиб айтганда, ҳар қандай тарбиячи педагогик фаолиятининг якуний мақсади – ўқувчиларга замонавий жамиятда талаб этиладиган ижодий тафаккурга эга етук шахс бўлиб шаклланишларига ёрдам беришдир. Шунингдек, педагогик инновациялар педагогик фаолиятга янгиликларнинг изчил олиб кирилишини тавсифлайди. Педагогик инновацияларнинг дидактик имкониятларига кўра таълим тизими ва жараёни ривожланиб боради. Тарбиячининг инновацион фаолияти педагогик жамоани ҳаракатга келтирувчи, олға ундовчи, бунёдкорликка рағбатлантирувчи куч сифатида намоён бўлиб, таълим жараёнининг сифатини кафолатлайди. Шу сабабли ҳар бир тарбиячи инновацияларнинг моҳиятини тўла тушунган ҳолда ўз фаолиятига изчил татбиқ эта олиши зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. М.Жумаев ва бошқ. Бошланғич таълимни ўқитишда замонавий ёндашувлар ва инновациялар модули бўйича ЎУМ. Тошкент, 2018 й.
2. Б.Зиёмуҳаммадов. Педагогика. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2006 й.

ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В СИСТЕМЕ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ**Азиза Шаюсупова***«Педагогика и психология» ТашГУВ доц. кафедры***Севара Мирсамадова***студентка ТашГУВ*

В условиях кардинальных социально-экономических перемен в Узбекистане существенно возрастает значимость образовательной системы, которая становится ресурсом, способным обеспечить устойчивое развитие всех сфер жизнедеятельности общества. Модернизация высшей школы выдвигает новые требования к качеству профессионально-педагогической подготовки преподавателей. Наряду с высоким уровнем предметно-отраслевой компетентности преподавателей вузов предполагается их готовность к реализации учебной, воспитательной и методической функций в условиях перехода образования на общеевропейские стандарты качества. Изменение парадигмы результата отечественного профессионального образования требует высокой профессиональной компетентности и самих преподавателей.

Специалист XXI века – высокопрофессиональная личность, способная творчески мыслить, принимать нестандартные решения и нести за них ответственность. Развитие экономики, науки и информационных технологий предъявляет высокие требования к начинающим специалистам. Таким образом, современное состояние рынка труда нашей республики диктует необходимость дополнительного качества специалиста – компетентность и конкурентоспособность.

Именно на педагогов возложена функция реализации образовательных программ нового поколения на основе передовых педагогических технологий, им определена миссия подготовки подрастающего поколения к жизни в будущем и воспитания человека с современным мышлением, способного успешно реализовать себя в жизни.

Внимание к проблеме подготовки специалистов объясняется многими факторами:

- нарастающим объемом научной информации;
- прогрессом в области техники и технологии;
- интеграцией образования, наук и производства;
- углубляющимися глобальными (демографическими, экономическими, энергетическими и экономическими) проблемами.

Управленческое содействие в подготовке специалистов педагогов сводится к созданию в образовательной системе комплекса условий: Социально-правовых

1. Перспективно-целевых
2. Потребностно-стимулирующих
3. Коммуникативно- информационных

4. «Повышение квалификации имеет объектом своего воздействия профессиональную компетентность работника сферы образования и состоит из пяти основных компонентов:

- специальные законодательно - профессиональные знания;
- научно-познавательные потребности;
- коммуникативные способности, умения и навыки;
- организаторские способности и навыки управленческой деятельности;
- лично-гуманные качества.

Изучение накопленного в педагогической науке обширного теоретического и фактического материала позволяет констатировать обострившееся противоречие между объективной потребностью вуза в преподавателях с развитой психолого-педагогической компетенцией и недостаточной разработанностью теории и методики ее формирования. Проблемой исследования стал поиск и научное обоснование процесса формирования психолого-педагогической компетенции преподавателя вуза в системе повышения квалификации. Решение этой проблемы и составляет цель исследования.

Объектом исследования выступает психолого-педагогическая компетенция преподавателя в целом, процесс ее формирования в системе подготовке специалиста. В соответствии с проблемой, были поставлены следующие задачи: уточнить понятие «психолого-педагогическая компетенция», выявить ее сущность и структуру; определить критерии и уровни развития психолого-педагогической компетенции преподавателя вуза; разработать и экспериментально апробировать теоретическую модель процесса формирования психолого-педагогической компетенции преподавателя вуза в системе повышения квалификации; выявить и обосновать педагогические условия формирования психолого-педагогической компетенции преподавателя высшей школы.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиққан ҳолда енгил атлетика дарсларида қўлланиладиган ҳаракатли ўйинлар ҳақида тўхталиб ўтамиз.

“Нина, ип ва тугунча” – ўйинчилар қўл ушлашиб, айлана ҳосил қилиб турадилар. Учта ўйинчи айланадан ташқарида кетма-кет туради. Улардан биринчиси “нинача”, иккинчиси “ип”, учинчиси “тугунча” бўлади. Нина ҳар томонда югуриб юради.

Ип билан тугунча ҳам унинг кетидан эргашиб юришади. Агар ип чигаллашиб (бошқа томонга кетиб) қолса ёки уни тугунча ушласа, ўйин қайтадан бошланади ва янги нина, ип ҳамда тугунча тайинланади.

Ўйинчилар ўйин давомида қўлларини кўтариб, нина, ип ва тугунчага йўл очиб туришлари лозим. Ўйин болаларда интизомни, диққатни, сезгирликни ривожлантиришга ёрдам беради.

Биз қуйидагиларни тавсия қиламиз: Ўйинларни енгил атлетика дарслари ва ўқув машғулотларида қўлласак, ўқувчиларнинг жисмонан ривожланишида катта ўрин эгаллайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Миллий ва ҳаракатли ўйинлар. Тошкент. 2009-йил
2. Каримжон Раҳимқулов. Миллий ҳаракатли ўйинлар. “Тафаккур бўstonи” Т 2012.
Т.Усмонхўжаев, Ф.Хўжаев. 1001 ўйин Т.,1990
3. А.В.Кенеман, Д.В.Хўхлаева Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни жисмоний тарбиялаш назарияси ва методикаси. Т.,1988
4. В.Г.Фролов. Сайрда жисмоний тарбия машғулотлар, ўйинлари ва машқлари. Т., Ўқитувчи 1990 й.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАТЕМАТИК САВОДХОНЛИГИНИ ОШИРИШ УСУЛЛАРИ

Сайдуллаева Саидахон Рахмоновна

*Андижон иқтисодиёт ва қурилиш институти
математика ва информатика кафедраси ассистенти*

Атабаева Гулсорохон Расулжановна

Андижон шаҳар 15- мактаби математика фани ўқитувчиси

Парпиева(Позилова)Мухаёхон Султановна

Олтинкўл тумани 28- ДИМИ физика фани ўқитувчиси


Аннотация: Мақолада бошланғич синф ўқитувчилари, “Қасрлар ҳақида тушунча” мавзусини тушунтиришда “Қаиғиёт”, “Ўйлаб топ”, “Айиқвойға ёрдам”, каби, турли хил интерфаол усулларидан фойдаланиш жихатлари ёритилди.

Калит сўзлар : Қаиғиёт ,қаср , айиқвойға ёрдам, ўқувчи болалар, математика, мантиқ, Фикрлаш малакалари


Математикани ўқитишда ўқувчи-ёшларга замонавий йўналишлар асосида, ўзига хос хусусиятларини ўрганиш ва тушунтиришга эътиборни бериш зарур.

Қасрлар мавзусини ўргатишда табиий деталлар: саримсоқпиёз, апельсин, турли хил мевалар орқали тушунтириш мумкин. “Қаранг, болалар, мана бу бир бош саримсоқ пиёз.

Агар унинг устки пўстини олиб ташласак, бир неча улушлар ҳосил бўлади. Табиатда бутун нарса кўпинча бир неча бўлакларга бўлинади. Инсон меҳнат давомида, дурадгор тахталарни, боғбон дарахтларни тенг бўлакларга, улушларга бўлиши мумкин” каби. Қасрлар мавзусини тушунтиришда кўрсатмалилик ва кўргазмалалардан, турли фигуралардан фойдаланиш мумкин.



Ўқувчиларга берилган шаклнинг бо`линишини қасрда ифодалаш топшириғи берилди.




“ I



ифодаловчи рангли бўлаклар берилиб, ундан маълум бир шаклни ҳосил қилади.

зда
нни

Бўлақларини касрда ифодалайди. Ушбу усул ўқувчилар фаоллигини ошириб, бутун ва қисм муносабатларини англашга, бўлақ орқали бутунни ҳосил қилишга, бўлақларни касрда ифодалашга ўргатади.



Мавзуни мустаҳкамлашда компьютер дастурлари асосида тузилган тестлар ва “Айиқвойга ёрдам” каби топшириқлар ўқувчиларнинг фанга бўлган қизиқишини орттириб, тезкор, аниқ ва изчил фикрлашга, топқирликка ўргатади.



Ушбу АКТ асосида тайёрланган ҳаракатли ўйин дастурлари орқали дарсларни ташкил қилиш ўқувчиларнинг математика фанига бўлган қизиқишини орттиради. Ўқувчиларнинг математик саводхонлиги ошади, мантиқий фикрлаш малакалари ривожланади, мавзуни янада тушунишда, англаб етишда ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Н. У. Бикбаева, Э. Янгабаева, К.М.Гирфанова 4-синф Математика
“Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент - 2017
2. Жумаев М.Е . ”Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикасидан
лаборатория машғулоти” Т. ”Янги аср авлоди” 2006 й.

ЧОЛГУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАЪЛИМИ РИВОЖЛАНИШИДАГИ АЙРИМ МУАММО ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ HAҚИДА.**Мирсолихова Хуршида***Республика мусиқа ва санъат коллежи
бош ўқитувчиси.*

Аннотация: *Чолғу ижрочилиги таълими ривожланишидаги айрим муаммо ва уларнинг ечимлари хақида маълумот берилган.*

Калит сўзлар: *мотивация, энержайзерлар.*

Мамлакатимизнинг барча жабҳаларида кундан –кунга шиддат билан амалга оширилаётган ислохотлар, ҳар – бир соҳага ўзининг ижобий таъсирини ўтказаяпти. Мусиқа санъати ҳам бундан мустасно эмас. Ҳозирги кунда малакали мутахассис кадрларни тайёрлашга яна ҳам катта эътибор қаратилаяпти. Ўсиб келаётган ёш авлодни мусиқага жалб қилиш, аниқроғи халқ чолғулари ижрочилигига кизиқтириш-уларнинг дунёқарашини шакллантириш, ижодий салоҳиятини мустаҳкамлаш, фикрлаш доирасини кенгайтириш, ўйлайманки, кўпчилигимизни олдимизга қўйган мақсадларимиздан биридир.

Ҳар – бир халқнинг мусиқа санъатида чолғу ижрочилиги алоҳида аҳамият касб этади. Ҳозирда керак - нокерак мусиқий қарашларни, йўналишларни қўпайиб бораётгани ёшларимизни чалғитмаслиги учун уларни ўзи мансуб бўлган халқнинг анъаналарини, бой мусиқий тарихини, ижрочилигини йўқотмасликка ўргатишимиз керак. Улардан мавжуд ижрочилик мактабини янада мукамаллаштириб, ривожлантириб, камчилик ва хатоларини тўғирлаб, кейинги авлодларга етказувчи билимли, салоҳиятли мутахассислар тайёрлашимиз зарур. Бу ҳаракатларнинг барчаси болаларга кичиклигидан, аниқроқ қилиб айтсак, мусиқа мактабларидан бошланиши керак. Бирок, дарс ўтиш жараёнларидаги бир –хиллик, ўқувчиларни ўз машғулотларимизга кизиқтира олмаётганимиз, дарс ўтиш замонавий технологияларини ўз йўналишимизга мослаштира олмаётганимиз ачинарлидир.

Ижрочилик таълими, уч босқичда амалга оширилади. Булар- бошланғич таълим (БМСМ лар), ўрта таълим (Мусиқий коллеж ва лицейлар) ва юқори таълим (Мусиқа олий ўқув юртлири) даргоҳларидир. Уларда маълум таълим дастурлари, ўқув режалари асосида иш олиб борилмоқда. Лекин, бу тизимда учраётган бир қатор муаммо ва камчиликлар чолғу ижрочиларини замон талабларига жавоб берадиган мутахассислар бўлиб етишларига исталганчалик ёрдам бермаяпти. Йилдан йилга назарий ва амалий жиҳатдан билимли ўқувчилар сонининг сезиларли даражада камайиб бораётгани кишини ўйлантиради. Бу ҳол нафақат чекка қишлоқларимиздан келаётган ўқувчиларда, балки шаҳар мусиқа таълими ўқувчиларида ҳам сезилаяпти. Шу ўринда савол туғилади: Нима учун? Иш жараёнида қандай камчиликларга йўл қўймоқдамиз? Таълим жараёнининг қайси поғонасида бўшлиқ мавжуд? Ва бу бўшлиқни қайси муаммолар келтириб чиқармоқда? Бу каби саволлар жуда кўп....

Бунга ўқув жараёнини нотўғри тузилганлиги, кўп холларда ўқувчига берилаётган билимнинг сифати, дарсларни енгил–елпи, “енг учуда” ўтишимиз, жон куйдирмаслигимиз, бирор–бир янгиликка интилмаслигимиздир.

Ўқувчини танлаган соҳасига ишонтира олиш ўқитувчи олдида турган энг долзарб масаладир. Бераётган таълимимизнинг жамиятда қанчалик даражада кераклиги, унинг қандай баҳоланиши масаланинг энг аҳамиятли жihatларидан . Янги услубий ва амалий ишланмалардан фойдаланишимиз, улар бўлмаса ишлаб чиқишга ҳаракат қилишимиз керак. Шунга қарамай маълум соҳадаги таназзул ўзи билан фақат салбий эмас, яна ижобий натижаларни шакллантиради. Ўзимиз билмаган холда салбий натижаларни бартараф этиш учун янги йўлларни излай бошлаймиз.

Замонавий мусиқа таълимида ўқувчини таълимга қизиқтиришнинг икки тури мавжуд бўлиб: **ташқи** ва **ички** мотивациядир. Кўпчилик ота –оналар томонидан ташқи мотивация тури ишлатилади, яъни болани моддий рағбатлантириш. Ташқи мотивацияга яна компьютер технологиялардан, кўрғазмали курулларлардан ва энерджайзерлардан фойдаланиш каби усулларни киритишимиз мумкин.

Ташқи мотивациянинг энг самарали тури ўқувчилар орасида соғлом рақобат руҳини тарбиялашдир. Таълим даргоҳларида бўлим ўқувчилари орасида кичик танловлар, концертларни кўпроқ ўтказиш, улар орасида мусобақалашишни, ижро маҳорати зўрлигини исботлашни, ўзи устида мустақил меҳнат қилишни кучайтиради. Бу тизимнинг қай даражада кенг ва адолатли бўлиши ўқувчиларда ўз ижро имкониятларидан тўғри фойдаланиб омадга эришиш ҳиссини шакллантиради. Хатто, унча иқтидорли бўлмаган ўқувчи ҳам ўз устида ишлаб маҳоратини оширишга ҳаракат қилади деб ўйлайман. Ҳаммамизга сеvimли “ишонтираш” усули замонавий ўқувчини қизиқтиришимизда биз ҳоҳлаган даражада ёрдам бермайди. Ўқувчи билан омадга эришишнинг энг максимал мақсад режасини тузиб ва унга эришиш йўлларини кўрсатишимиз лозим. Ўқувчига ички рағбат ҳиссини ва ўзига бўлган ишонч туйғусини сингдириш учун, унинг муваффақият ва муваффақиятсизликларига беъэтибор бўлмаслигимиз керак. Биргаликда қайси ҳаракат ва омиллар бунга сабаб бўлганини таҳлил қилиб, уларни бартараф этиш йўларини топишига ундай олишимиз зарур.

Замонавий дарс жараёнини малакали олиб борилиши учун, ўқитувчига нафақат ўз чолғусида ижро этиш ва ўргатишни, балки психология, мусиқий психология, социология, анатомия, эстетика, физиология фанларидан фундаментал билимларга эга бўлиш талабларини қўймоқда. Ўқувчи билан якка тартибда дарс ўтиш -ўқитувчи учун ҳар сафар ижодий топшириқдир. Замонавий, илмий ютуқлардан беҳабар бўлиш ва уларга таянмасдан, дарснинг муваффақиятли ечимини топиш мушкул.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Қодиров Р.Г., Мусиқа психологияси: Ўқув қўлланма. - М., 2014.
2. Ильин Е. Н., Мастерство учителя: идеи, советы, предложения.- П., 1988.

МУЗЫКА КАК КАРТИНА МИРА И ФЕНОМЕН КУЛЬТУРЫ

Мирсолихова Хуршида Мирзафаровна*Республиканский колледж музыки и искусства*

Аннотация: *Целью данной статьи является изучение музыки как картина и феномен мировой культуры. Благодаря системной организации, богатым выразительным средствам музыка отражает разнообразие мира в его сложных, тонких и глубоких проявлениях, являющихся художественной ценностью, ключевым элементом моделирования мира. Музыка может удовлетворить эстетические потребности народа. Музыка, представляющая картину мира, непосредственно в ней присутствует, определяет ее характеристики.*

Ключевые слова: *музыка, развитие культуры, культурный феномен, «маком», семиотическая система*

Музыка – универсальный язык человечества***Л.Г.Уодсворт***

Музыка составляет структурно-семантическую основу картины мира, это духовно-эмоциональный опыт, вид человеческой деятельности, создающий целостную картину мира в единстве чувств и мыслей. Специфика музыки проявляется в ее способности апеллировать к чувствам и создавать модель Вселенной в системе эмоциональных образов [1] Вот почему «музыка очень ценна, поскольку поддерживает связь времен, «которая является самой Вечностью». Музыка не только представляет мир, но и влияет на него вездесущностью, растворяет как внешние, так и внутренние границы мира и человека, раскрывающее чувство связи со Вселенной и ее тайной» [2]

Если рассматривать культуру как разветвленную семиотическую систему, то музыкальную и музыкальную культуру можно интерпретировать как определенную музыкальную концептуальную сферу, отражающую особенности сознания, восприятия, воспроизведения и передачи музыкальной информации в культуре. Процесс развития культуры и ее музыкальный феномен формирует определенную музыкальную концепцию в сфере с установленными этническими элементами, порождая представление о социально-культурных особенностях музыкального языка эпохи или культуры. Музыкальная культура является уникальным отражением культурных, психологических, философских, эстетических, социально-политических и других аспектов социальных организаций и духовной жизни, поскольку этапы ее развития определяются основными вехами этнической истории [3]

Мы рассматриваем музыку как космическое явление, как звуковую модель мира, непротиворечивый образец музыкальной гармонии, звука, ритма и законов вселенной, отраженных в мифологических образах. Музыка - это миф, ритуал, исторический документ, свидетельствующий об эволюции мира и сознания. «По словам Пифагора, космос не молчит, во вселенной семь планет, и каждая из них настроена на определенный музыкальный звук. Исследуя гармонию сфер, он вывел соотношение Солнечной системы, соответствующее музыкальной шкале». Мир музыкальных форм

- это идеальный мир, в котором синтезируются ритмические движения космической жизни. Именно музыка закладывает первоначальную основу творчества, гармонизацию всего, основную творческую силу.

Музыка может: выполнять функцию культурных знаков и служить средством представления основных единиц культуры; отражать культурно-национальный менталитет своих носителей; опосредует процессы отражения музыкальной реальности и способ передачи музыкальной традиции; раскрывает культурную значимость концептуальных единиц музыкального знания; это основная форма объективации музыкального сознания многих поколений людей. К примеру, музыкальное искусство узбекского народа сложилось в начале I тыс. н.э. Музыканты славились высоким исполнительским мастерством в самых различных жанрах. В средние века сложился классический традиционный музыкально-вокальный жанр «маком», который по праву считается вершиной узбекской профессиональной музыки устной традиции. Маком своеобразный феномен духовной культуры Узбекистана, и залог их сохранности, развитие и популяризации. Узбекский маком представляет собой живую традицию, благодаря носителям старшего и среднего поколения музыкантов-певцов, которые сохраняют и продолжают развивать это бесценное достояние народа[4]. С 2018 года в соответствии с постановлением Президента нашей страны «О проведении Международного форума искусства макама»[5] в Шахризабде раз в два года проводится Международный форум искусства макама. Форум организован по инициативе главы нашего государства Ш.М.Мирзиёева в целях широкой пропаганды узбекского национального искусства макама, утверждения среди молодого поколения уважения и повышения его интереса к национальной музыке. В рамках форума была проведена научно-практическая конференция «Искусство макама и его роль в мировой цивилизации». Во всех этих произведениях сохранились дух, нравы, ценности и своеобразная красота народа. Традиции национальной музыкальной культуры, народные мелодии и ритмы изучает и исполняет сегодняшнее поколение.

Подводя итог вышесказанному, мы даем определение музыки: это динамическое явление, которое является непостоянной эволюцией, творческим процессом, продуктом деятельности, сотканный из духовной идентичности народа; продукт национальной творческой интеллектуальной силы; метод выражения мира звуков; способ понимания культуры; потенциальная модель культурного действия. Сложность этно-исторических процессов на пути становления и развития народа породила самобытность ее культуры. Музыка, представляющая картину мира, непосредственно присутствует в ней, определяет ее характер. Невозможно оценить глубину и понимание смысла картины мира традиционной музыки без знания истории наших предков, их стиля мышления. Она является отражением философских, этических, психологических, культурных, политических и социальных аспектов духовной жизни народа.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Blades, J. & Montag, J. «The base philosophy of music» Oxford: Oxford University Press, 2007
2. Kepler J. «Stimme des Planeten in der Harmonie der Welt» Berlin, 1990

USING MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

Qosimova Dildora Khayriddinovna

*Bukhara school is a non-governmental
educational institution in Tashkent
English and Russian language teacher*

Abstract: *Various software and modern technologies are being introduced to make students to get access with their subjects easily. This study aims to discuss the availability of various technologies, their impact, their practical uses and the problems associated with the application of modern technological tools.*

Key words: *Modern technologies, available, tools, multiple intelligence, teaching method.*

In the fast developing 21st century various innovative technologies are being introduced to teach English in the classrooms. Knowledge base is fast doubling and tripling in so short a time. To cope up with this trend, we have to use modern technologies to teach English to the technical students. Students have to update their knowledge by using modern technologies. Otherwise they will be relegated in the job market. Maggie Sokolik observes:

Machines are now used as tools for communication rather than simply as ways of delivering automated drills or exercises. Vast amount of reading on any topic and in many languages are now available on the web, and the chance to participate in discussions with people from all walks of life is motivating for many learners. Modern technologies available for teachers of English today are:

- Communication lab
- Video conferencing
- CALL (Computer Assisted Language Learning)
- TELL (Technology Enhanced Language Learning)
- Pod casting
- Quick Link Pen
- Quicktionary
- Programmes through educational satellites
- Blogging

The integration of technology was started in the early 1960s and 1970s. In the preliminary stage, people used tape recorders as a technological device to instruct the students, which later evolved as communication laboratory. Every day people are getting access to some new technologies, which join hand with English teaching. As the conventional teaching method such as the chalk and talk method seems to be outdated, these technologies can be used as a supplement to the classroom teaching method to have a lively atmosphere in the classroom. It is the need of the hour to integrate modern technologies to upgrade the level of English teaching. The modern technologies relax the mind of the

students to get into the subject with full involvement rather than a difficult task to do. Indumathi observes:

New technologies in language learning by multiple intelligence and mixed abilities replace with old methods of teaching. In the multi-cultured community, the four basic skills are imparted in the teaching with a variety and novelty. Hence they are enthusiastic in learning the language. Language can be learnt by imitation. So one should hear more to develop his/her listening skills. Naturally they try to speak in the same styles as we learnt our mother tongue. The usage of Internet has brought tremendous change in the field of teaching and enhancing English learning. It is believed that people tend to forget everything within three days after they hear. How to Use these Technologies

1. Video Tapes

Scenes from popular English films can be screened first without any running script on the scene. Then the students are asked to identify the words, script etc., Again the scene will be repeated with the scripts on the scene.

2. Communication Labs

Software's are available to develop LSRW skills. By incorporating suitable software through computers the students will play it again and again with their own interest and try to improve their LSRW skills, which are most essential in this modernized IT world.

3. Video Library

Video Libraries are most essential in our fast and modernized world. This is helpful for the students to those who miss some interesting session. In this process the teaching of the faculty will be recorded and made available to the students. The students can view the tapes in their leisure hours. The advantage in this method is that students can replay it when there is a necessity.

4. Internet

Internet is a commonly acknowledged term and widely used by people throughout the world. Students now use Internet in the class to learn English. Online teaching inside the classroom seems to be interesting and makes the students to find out the suitable materials for them. Students are instructed to do the grammar exercises which are available online. Through Internet we can collect data from various sources for any instruction.

In conclusion, the modern tools are in addition to the inputs given by the teachers in the classrooms. The magic is real in that it helps the students to enhance their language learning in a fruitful way.

REFERENCES:

1. Indumathi, M.R. "New Trends in Exploring the Unexplored in ELT-A Study". Proceedings of the fifth National Conference, March 24-25, 2010.
2. Enhancement and Excellence in English for Employability and Empowerment. Ed. Anbazhagan, K. SRM University: Department of English and Foreign Languages 2010. 102.
3. Krashen, S. (1989). "We acquire vocabulary and spelling by reading: Additional evidence for the input hypothesis." *The Modern Language Journal*, 73, 440-464.

**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA
ZAMONAVIY TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH****Qutliyeva Inobat Xushnudovna***Xorazm viloyati, Bog'ot tumani**28-umumiy o'rta ta'lim maktabi**Kasbiy ta'lim (Informatika va axborot texnologiyalari) o'qituvchisi*

Axborotlar miqdorining keng ko'lamda ortib borayotganligi ta'lim jarayonida yangidan-yangi talablar qo'ymoqda. Axborotlarni o'zlashtirish va ulardan ta'lim jarayonida yetarlicha hamda samarali foydalanish uchun qulay vositalardan foydalanishga zarurat tug'ilmoqda. Bugungi texnologiyada yuz berayotgan inqilobiy o'zgarishlar aynan axborotlardan ta'lim jarayonida yetarlicha foydalanishni ta'minlashda kompyuter va texnik vositalarni qo'llanishga olib keldi. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga kompyuter va texnik vositalarning jadal kirib kelayotganligi, biroq ulardan foydalanuvchilarning tayyorgarlik darajasi hali lozim darajada emasligi tabiiy holdir. Mutaxassislarining islohotlar bilan mutanosibligi ta'minlanishini inobatga olish lozim.

Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu borada, ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish masalasi ommalashmoqda. Hozirda barcha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Bu esa, pedagoglarning o'z mehnat faoliyatiga yangicha yondashuvni talab etadi. Mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifalardan kelib chiqib, davlat ta'lim standartlari hayotga tadbiiq qilinilayotgan bir paytda, talim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish uchun o'qitishning texnik vositalarini yangi avlodini qo'llash o'qitish texnologiyasini yanada tezroq rivojlanishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Kompyuter-axborot texnologiyalari modelidan foydalanish masalasi o'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda dars jarayonida namoyish qilinishi kerak bo'lgan obyektning ichki, tashqi hossalarni ko'rsata olishdek muhim vazifani amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'z navbatida axborot-pedagogik texnologiyalar asosida multimediali elektron darsliklar (MED) yaratish mumkin ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda Respublikamiz ta'lim muassasalari o'quv jarayonida asosiy talablardan biri zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirish, ularni mustaqil ta'limga o'rgatish, berilayotgan bilimlarni tushunishlarini ta'minlash yo'llarini yaxshilashdan iborat. O'quv jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy texnik vositalaridan biri - interfaol elektron doskalari hisoblanadi. Ular oddiy markerli doskalar kabi ko'rinishga ega bo'lib, ularda yozilayotgan har bir matn, grafik ko'rinish, chizma, jadval kabilar daqiqalarda tez doska displeyida paydo bo'ladi. Elektron doskalarining ta'limda asosiy afzalliklari quyidagilar:

- Auditoriya talabalarni diqqat-e'tiborlarini bir obyektga yo'naltirish;

- Dars mavzusiga oid natijalardan nusxa olish, elektron pochta orqali jo‘natish, saqlash imkoniyatlarining mavjudligi;

- Dars jarayonida matn, tovush, animatsiya, grafiklardan birgalikda foydalanish imkoniyatining kengligi;

- Mavzuni tushuntirish jarayonida ma’lumotlarni tahrirlash uchun elektron qalamdan foydalanishning mavjudligi;

Hozirgi kunda Respublikamizdagi ta’lim muassasalari o‘quv auditoriyalarida Prometneon LTD firmasi ishlab chiqargan Activboard interfaol elektron doskalaridan keng foydalanib kelinmoqda. Activboard interfaol elektron doskalari konferensiya prezentatsiyalarini namoyish etish uchun mo‘ljallangan qulay texnika vositasi hisoblanadi. Interfaol elektron doska ACTIVboard dasturiy ta’minotlarda ishlash imkoniyatini beradi va bu orqali sizni tinglab turuvchi auditoriya a’zolariga ma’lumotlarni yetkazish sifatini oshiradi.

Activboard interfaol elektron doskalaridan foydalanish auditoriyadagi har bir qatnashuvchining faol ishtirokiga imkon yaratadi. Elektron qalam orqali kompyuterni sichqoncha kabi boshqarish mumkin.

ACTIV board - interfaol elektron doska 1,25 m, 1,62 m, 1,99 m yoki 2,45 m diagonalli bo‘lib, kompyuter va proyektor bilan birgalikda ishlaydi. elektron qalam faol ekran orqali kompyuterni boshqarib, qalam kontekst menyu va bajaruvchi ikkita tugmachadan iborat. ACTIVboard - interfaol elektron doskaning Windows tizimining istalgan ilovasida ishlay oladi . Infraqizil portli panel yordamida faol ekranni auditoriyaning istalgan joyidan turib boshqarish mumkin.

Bu kabi yangi texnika vositalari va texnologiyalari yordamida ta’limda dars samaradorligini oshirish hozirgi kunda oldimizga qo‘yilgan maqsad bo‘lishi lozim.

KIMYO FANINI O'QITISHDA KREATIV METODLARDAN FOYDALANISH

Safarova Kimyoxon Boqijanovna*Namangan viloyati Chortoq tumani**26- umumta'lim maktabi**kimyo fani o'qituvchisi*

Kimyo ta'limiga mos ta'lim tizimida kreativ metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarni muloqatga kirishish ko'nikma va malakasini shakllantirib, o'zaro yordam berish odatlarini rivojlantiradi hamda o'quvchilarni bilim saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunning vazifalarini amalga oshirishda o'qitishning chuqur ijtimoiy e'tiqodlilik bilan uyg'un ilmiyligiga qo'yilayotgan talablar g'oyatda muhimdir. Ma'lumki, maktab ta'limi mazmuniga kirgan barcha bilimlar voqelik qanday bo'lsa uni shundayligicha, hech bir qo'shimchalarsiz aks ettiradi. Pedagogni vazifasi o'quvchilarga ilmiy, haqqoniy bilimlarni asli holicha tushuntirishdan, ularni bilimlarini mustaqil o'rganishlarida o'zlashtirilgan haqiqatlar borliqdagi – inson ongidan tashqari ob'ektiv mavjud narsalarga muvofiqligini kafolatlaydigan yo'lga solishdan iboratdir. Biz faqat ana shunga asoslanib, bolalarni mustaqil o'ylashga o'rgatishimiz, ularda o'zlarining qarashlari va nuqtai nazari tizimini tarkib toptirishimiz mumkin. Agar bilimlarni bayon etish, ishning usullarini ko'rsatishi mumkin bo'lsa, ijodiy faoliyatini o'rgatish uchun o'quvchilarni xuddi ana shu faoliyat jarayoniga bevosita jalb etish shart.

Mana shu muammo bo'yicha ayrim mulohazalarni ifodalashga harakat qilamiz. Avvalo, har qanday ijodkorlik, xususan o'quvchilarning ijodkorligi maxsus tayyorlangan sharoitlarda amalga oshishi mumkin. Bunda bilimlar, ko'nikmalar va malakalar tizimi hal qiluvchi omil bo'ladi. Ijodni, ijodkorlikni qanday tushunish kerak? Odatdagi tushunchaga ko'ra, ijod ozchilik kishilarning, buyuk sanat asarlarini, yangi mashinalar, dastgohlar va boshqalarni yaratadigan iste'dotli odamlarning qismatidir. Lekin ijod buyuk asarlar yaratishdangina iborat emas, balki kishining fikr yuritishi, biror tadbirni o'ylab topishi, ozgina bo'lsada, qandaydir yangilik yaratishi ham ijoddir. Ijod jarayoniga tasodif sifatida emas, balki qoida sifatida qarash lozim.

Kimyoni o'qitishda krossvord va rebuslardan foydalanish o'quvchilarni zeriktirmaslikka, kimyo atamalaridan so'z boyligini oshirish va tez fikrlashga o'rgatadi. Kimyoga oid rebursni tuz olishda turmushda uchraydigan va o'quvchilarga ma'lum bo'lgan obyektlar, shakllar yoki tajribalarni tanlash

maqsadga muvofiq. Rebusda berilgan turli xil obyektlar, shakllar va tasvirlar o'quvchilarga ma'lum bo'lgani uni o'qitishning hamma bosqichida qo'llash mumkin. O'quvchilarni fanga qiziqtirish, darsda qiziqarli masalalar va didaktik o'yinlardan unumli foydalanib faol o'quv – biluv jarayonini vujudga keltirish orqali o'quvchilarning grafik tayyorgarligi darajasini oshirish va kasbiy shakllantirish mumkin.

Kimyoga oid qiziqarli mavzularga krossvord, rebus va ijodiy izlanishga undaydigan masalalarni kiritish mumkin. Bunday qiziqarli masalalar quyidagi didaktik talablarga javob berish kerak.

1. Qiziqarli masalalar tezkor va obrazli fikrlashni rivojlantirib, ularni yechish jarayonida ijodiy motivatsiya hosil qilishi.

2. Taqdim etilayotgan materialning o`quvchilar uchun yangi va qiziqarli bo`lishi.

3. O`quvchilarning o`quv-biluv faoliyati darajasini oshirish maqsadida topshiriqlarning mazmunida uni turli usullar bilan yechilishi ko`zda tutilishi.

4. Qiziqarli masalalarning yechish jarayonida bosqichma-bosqich o`quvchilarning ijodkorligini yuzaga chiqarishga yo`naltirilishi.

5. O`quvchilarning mustaqil ishlashini taminlash uchun topshiriqlarning variativ bo`lishi.

6. Topshiriqlarni o`quvchilarning fazoviy tasavvur va tafakkurini rivojlantirishga qaratilishi.

Yuqoridagi fikrlar asosida kimyo fanidan didaktik o`yinlar ishlab chiqish va imkon qadar kompyuter o`yinlari tarzida yaratib, dars jarayonida foydalanish o`quvchilarning qiziqishini orttiradi. Kimyo fanidan yaratilgan o`yin dasturlari o`quvchilarda o`quv motivatsiyasini shakllantirishga, ijodiy fikrlashga, mustaqil ishlash va bilim boyligini oshirishga xizmat qiladi .

PROBLEMS OF TEACHING ENGLISH AND WAYS TO SOLVE THEM**Yuldashev Gayratjon Zokirjonovich***Namangan region, Chartak district**School № 26, English teacher*

The relevance of this topic is due to the fact that today more and more teachers note certain problems in learning English and mastering the material. Students often cite language inability in such situations. But there are times when a person knows one or even two languages, however, is not able to master the third. In this case, the cause may be the teaching methodology or the incompatibility of the student and teacher at the psychological level. This situation can be a serious obstacle to learning a language. English, although it is a simple language for learning, is actually not always easy to learn.

First mistake. Thinking in the native language. It is found in almost everyone who begins to learn a language, and even those who have been teaching it for a long time. The bottom line is that a person thinks in his native language, translating it into a foreign language.

The second mistake. Teacher incompetence. This may include inefficient presentation of the material, incorrect pronunciation and accent. Often, English teachers at schools and universities know the language at the level of a linguist-scientist, but speak with an emphasis that students adopt from the very first lessons. Learning / talking with native speakers will help to avoid this error.

The third mistake. Criticism towards oneself. Setting the bar high and striving to achieve results as soon as possible is the right way to failure. Subsequently, the student's desire to learn a language disappears, and he considers himself one of those to whom languages are not given. Setting the goal of learning to speak fluently and competently is the right goal, but you need to understand that the results will not be instant.

The fourth mistake. Extreme emphasis on grammar. Such an approach can be either a teacher's mistake or a student's mistake, who decided that language learning is based on grammar. In fact, memorizing the rules will do little if a person is not able to perceive speech by ear, does not know how to speak a foreign language at all. The process of learning grammar should not be isolated from other processes of learning a language, since exclusively "technical" knowledge of a subject does not contribute to speaking in a foreign language, overcoming the barrier.

The fifth mistake. Weak motivation. If a person undertakes to learn a language under the threat of dismissal or in connection with possible job privileges, this is not the strongest motivation, since certain circumstances prompt him to study, and not his own desire. In this case, there is no involvement in the learning process, it is uninteresting and the brain subconsciously resists receiving new information.

Sixth mistake. Neglect of self-study. Many people are sure that it is enough to turn to a good professional, and he will teach them how to speak. For their part, they consider it quite sufficient to attend classes and be diligent students. But in practice this is not enough.

Without constant self-education (and this includes watching films in English, reading literature, and studying various features of the language, slang, etc.), knowledge of English does not rise to the proper level. Again — without interest and full devotion to the subject, the result will be minimal.

In conclusion — popular methods of teaching English:

1. Standard. Most common in schools and universities, despite the fact that it shows low efficiency in comparison with other teaching methods. This technique is a program that is crammed with mostly grammar work. The basis of training is the implementation of exercises based on learned rules. As a rule, it is not easy for pupils to speak and understand by ear.

2. The methodology of studying with native speakers. As noted above, this technique helps students avoid typical pronunciation errors and not adopt the accent of a non-native language teacher. But when communicating with a person of a different language environment, attention is concentrated on establishing contact with him, mental activity is aimed at listening to the words of the teacher, trying to understand him (which at first can be very difficult).

3. Matrix method. To date, the most effective teaching methodology. The essence of this approach is that, first of all, a person must learn to perceive a foreign language by ear (just like children learn a language without knowing the rules of grammar). To this end, the program includes listening to dialogues and texts in English, which the creator called the matrix. Experts call the matrix teaching method revolutionary in learning English, as it is based on the subconscious abilities of a person and the learning process is easy and interesting.

Based on the foregoing, we can conclude that very many people face difficulties in learning English, the main thing is to continue training, not to throw halfway and the result will not be long in coming.

REFERENCES:

1. President Decree 4947 «On Uzbekistan's development Strategy " February 7, 2017.
2. The Decree 1875 «On measures to further improvement of foreign language learning system» December 10, 2012
3. Alexenoamen. (2010, September). Way of motivating EFL/ESL students in the classroom.
4. Holenšinská, A. (2006). Teaching English as a foreign language to students with learning challenges (Unpublished diploma thesis). Masaryk University, Brno
5. Derakhshan, A. (2015). The challenges of teaching English language: The relationship between research and teaching. International Journal of Linguistics Vol.7(1), 102-110.
6. Mukattash, L. (1983). The problem of difficulty in foreign language learning. Amman, Jordan: University of Jordan.

ABDULLA ORIPOVGA O`XSHASAM DEYMAN!**Shirinboyev Xudoynazarbek Tolib o`g`li***Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini**Mexanizatsiyalash muhandislari**Instituti Qarshi filiali talabasi*

Annonatsiya: *O`zbek she`riyatida o`z o`rni va o`z so`ziga ega taniqli adib Abdulla Oripov she`riyatining o`ziga xos xususiyatlari, takrorlanmas misralar yaralishi, shoirning o`zgacha jihatlarini hamda hayot yo`li haqida.*

Kalit so`zlar: *yilboshi, go`zal, qoq, sevaman, muhabbat, vatanim.*

Abdulla Oripov ijodi ham hayoti ham hayot yo`llaridek chiroyli bo`lgan adib. 1941-yilning 21-mart sanasida ya`ni yil boshi bayram kunida Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko`z qishlog`ida tug`ildi. Yosh ijodkor O`zbek xalqiga, ona yurtiga, oilasiga, tengdoshlariga ham ishqiy baland bo`lgan. Qo`ng`irtov qishloq bag`rida ulg`aygan shoir yoshlikda bu dargohni o`zgacha tarannum etardi. Xususan Abdulla Oripov bu maskan haqida quyidagi ta`rifni keltirgani bejizga emas. “Ayniqsa, bahor paytlarida bu yerlarga yog`in ko`p tushar, Qo`ng`irtov etaklari ming xil o`t-o`lan, chuchmoma-yu qizg`aldoqlar bilan, quyon to`pig`-u ismaloq bilan, karrag-u hazorisfand bilan, qo`zigullar bilan qoplanar, tevarak-atrof jannatiy bir manzara kasb etardi. Selsuvlari to`planib qolgan kichik-kichik ko`llarni “qoq”deyishardi. Uning toza suvini odamlar tashib ichishar, bola-baqra chuchmomay-u ismaloq, zamburug` terib, Qo`ng`irtov etaklarida kunlarini kech qilar edi”.

Ana shunday go`zal maskanda tug`ilib o`sgan Abdulla Oripovning otasi Orifboy Ubaydulla o`g`li ishbiarmon dehqonlardan bo`lib, jamoa xo`jaligi raisi edi. Onasi Turdixol momo ko`pchilik o`zbek ayollari singari sarishta, mehnatkash, mehribon, g`oyat ta`sirchan va ezgulikka tashna ayol bo`lgan. Oilada to`rt o`g`il, to`rt qiz bo`lib, Abdulla o`g`illarning kenjasi edi. O`zbekiston Xalq Shoiri baxtiga erishish ko`pchilikga nasib etmaydi. Shoir 1958-yil o`rta maktabni a`lo ba`holari evaziga oltin medal bilan tamomladi. Keyinchalik esa Toshkent Davlat dorilfunning (hozirgi O`zMU) jurnalistika bo`limiga o`qishga kiradi. Shu vaqtlardan Toshkent va uning muhitiga mehr bergan ijodkor Toshkent u uchun qadrdon maskanga aylanib qoladi. Birinchi marotaba respublika matbuotida “Qushcha” deb atalgan she`ri chiqqan paytda Abdulla Oripov talaba edi. Shoirning birinchi she`rlar to`plami “Mitti yulduz” esa 1965-yilda chop etilgan. Undan keyin “Ko`zlarim yo`lingda” (1967), “Onajon” (1969), “Ruhim” (1971), “O`zbekiston”, “Qasida” (1972), “Xotirot” (1974), “Yurtim shamoli” (1974), “Jannatga yo`l” (1978), “Hayrat” (1979), “Hakim va ajal” (1980), “Najot qal`asi” (1981), “Yillar armoni” (1983), “Haj daftari” (1992), “Saylanma” (1996), “Sohibqiron (sheri drama)” (1996), to`rt tomlik “Tanlangan asarlar” (2000-2001) singari qator kitoblari bosilib chiqdi. Abdulla Oripov – noyob iste`dod egasi hisoblanib. Uning she`rlari borliqdagi jamiki holat va unsurlar bilan birdek. Har bir she`ridagi so`zni marjondek tizilib safda turishi ham yorqin isbot erur. Abdulla Oripovning “Saylanma” (1996) nashr etilgan kitobi O`zbek hayoti, kechinmalari va turmush tarzini ta`svirlagandek.

Istiqlol g'oyasi, el-yurt mustaqilligi, ona vatanni madh etuvchi uni ko'klarga ko'taruvchi she'rlari dunyo miqiyosida bong urmoqda. "Men nechun sevaman O'zbekistonni", "Kuz" she'ri kirib bormagan uy balki yod olmagan O'zbek bo'lmasa kerak. Vatan va xalq mehr-muhabbat, tabiatni sevish, ardoqlash, iymonli, vijdonli insonlarga madhiyalar o'qish, goh yig'lab, goh quvonib kuylash shoir tuyg'ulari ummonini tashkil etadi.

Shoir ijodi mustaqillik yillarida nihoyatda tuyg'ularga boy, fayzli va sermahsul bo'ldi. "Haj daftari" (1992) turkumiga kirgan she'rlarida shoir ma'naviyatimiz manbalarini kashf etish yo'lidan boradi. Inson yoshlik chog'idan ona, ona-yurt, vatan, ota-makon singari so'zlarga o'z nuqta-i, nazari bilan tasavvur etadi balki xayolan his etadi, unga ta'rif va baytlar bitadi. O'zbekiston Xalq Shoiri Abdulla Oripov ham o'z go'shasini shunday bot-bot yot etadi. "O'zbekiston-bunyodkorlik, ilm-ma'rifat, mehr-oqibat, himmat va muruvvat ustuvor bo'lgan, o'z farzandlarining barkamol avlod bo'lib voyaga yetishga qat'iy ishongan, shunga mustahkam zamin yaratgan bag'ri keng mamlakatdir. Uning yigirma yillik zalvori odimlari kelajagi buyuk ekanligining tasdig'idir". Abdulla Oripov-ardoqli shoir va jamoat arbobi inson qalbidagi dilxashlik hamda undan vos kechish, sh'eriya bilan ham nafas yashashni o'z satrlarida keltirib o'tgan. U Alisher Navoiy va Bobur singari allomalarimiz singari xalq dardini barralla kuyladi. Shoir O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi she'ri muallifidir.

Shoir 75 yil umrida bir qancha mukofot va unvonlarga erishdi. Yuksak salohiyat egasi erishgan yutuqlarni sanash biz yoshlarga ko'taringki ruhhiyat baxsh etadi. Bulari bir nechtasini keltirib o'tishga qaror qildim "O'zbekiston qahramoni" (1998), "O'zbekiston xalq shoiri" (1983), "Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti" (1983), "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti" (1994), 2007 -yil Oripov Jahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan hissasi uchun "Oltin medal" ni qo'lga kiritdi. Bahor tugab yoz kelgandek shoirning hayot kunlari so'ngisini quchib 2016-yil 5-noyabr kuni ko'z yumdi. Bizga adibning cheksiz ilm-u , urfoni qoldi xolos. Qani O'zbekning Qahramoni yana bir qancha muddat yashaganida edi bizning adabiyot o'n yillab ilgari qadam bosardi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yilda O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov va xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash bo'yicha topshiriqlar berganliklari va bu o'z aksini yorqin ko'z o'ngimizda namoyon bolgani qanchalik fahrli. Keng ko'lamlis islohotlar amalga oshirganligi, ushbu ishlar yozuvchi va shoirning ruhini shod etkani quvonarli hol.

O'ZBEKISTON

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,

Qiyosingni topmadim aslo.

Shoirilar bor, o'z yurtin butun -

Olam aro atagan tanho.

Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,

Qanotida kumush diyori,

Bir o'lka bor dunyoda, biroq

Bitilmagan dostonidir bori:

Faqat ojiz qalamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Biz yosh ijod ahli ham ko`nglimizga qani Abdulla Oripovning sehrli qalbidan kuch olsak. Biz ham Abdulla Oripovdek she`riy hayotda barhayot qolsak. Kimdir borliqdan o`tib dostonga aylansa Abdulla Oripov esa dostonga aylanib borliqda mudom qolish baxtiga erishdi. Menga Abdulla Oripovning ijod ma`hsulidan foydalanish va o`qish oily baxtlar safida.

ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Qahramoni va xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Toshkent shahri 2020-yil
2. Ma`rifat.uz

PRAGMATIK XUSUSIYATLARNING TARJIMADAGI AHAMIYATI VA RO'LI

Eshtayeva Dildora Kaxarovna*JIZPI xorijiy tillar kafedrasi assistent o'qituvchisi*

Tarjima lingvistika, madaniyatshunoslik, qiyosiy etimologiya, informatika, qiyosiy sotsiologiya va boshqa shu kabi turli xil fanlar bilan uzviy bog'liq fandır. Ayniqsa uning tilshunoslik bilan aloqasi beqiyosdir. Haqiqatda ham tarjimaning tilshunoslik bilan chambarchas bog'liqligi ba'zilar tarjima borasidagi noto'g'ri bahs-munozaralarga, masalan, uni tilshunoslikning bir qismi deb talqin etishga olib kelgan. Bunday fikr tarafdorlari tarjimoni amaliy yoki qiyosiy tilshunoslikning bir qismi deb hisoblashadi. Strukturalistlar ta'siri ostidagi bu qarash tarafdorlari tilshunoslar tomonidan keltiriladigan kontekstdan tashqari misollarga mos kelmaydigan muloqotning rolini rad etishga urinadilar.

Har bir tarjima jarayonida ma'no kasb etuvchi gaplar va tagma'noga ega so'zlar sifatida ikki bosqichdan o'tadi. Shunday bo'lsada toki nutq faoliyatining madaniyatlararo shakli mavjud emas ekan tarjimon uchun tarjimaning pragmatik muammolari ham mavjud bo'ladi.

Shunga ko'ra tarjimon ma'lumotni tarjimada hech qanday xatoliksiz to'g'ri yetkazib berish uchun umummadaniy pragmatik bilimlaridan foydalanishiga to'g'ri keladi. Nutq hodisasi va emotsional ta'sirni yaqindan o'rganish tabiiyki, tarjimaning bir nechta nazariyalarini keltirib chiqaradi, ayniqsa ekvivalent ta'sir yoki harakat prinsipiga va boshqa tilda qanday bo'lsa shunday aytish kerakligini ta'kidlovchi «yolg'on talqin»ga asoslangan dinamik ekvivalentlik. Har ikkala nazariya ham nutq faoliyati va hodisasi madaniyatlararo farq qilishini tan olgan holda tarjimonlarni madaniyatlararo pragmatik muvoffaqiyatga erishishga undaydi.

Ammo tarjimada pragmatik ekvivalentlikka erishishda asliyatdagi matn tilining semantik xususiyatlari, so'zlarning ma'nolari, ularning qo'llanilishi va boshqa so'zlar bilan bog'lanishibir qancha to'sqinliklarni keltirib chiqaradi.

Tarjimaning asliyatga shaklan va mazmunan monand tarzda yaratilishining birdan-bir sharti tarjimonning o'z tilida asliy monand lisoniy vositalar tanlab ishlata olishidir. Bu ma'suliyat uning zimmasiga avvalo asliyat ma'no vazifasini bekamu-ko'st ado etish, so'ngra xotirasida shakllangan fikrni o'z tili madaniyati va me'yori asosida to'la-to'kis ifoda etish vazifasini yuklaydi.

Tarjimaning pragmatik muammolari ko'pincha va bevosita original matn janri va retseptorlar tipiga bog'liq bo'ladi. Bunday matnlar ko'pincha ma'lum [bir soha](#), fan tarmoqlari o'quv asoslari uchun tarjima qilinadi.

Asliyatdagi badiiy asarning pragmatikasini o'girishda tarjimonlar ko'proq qiyinchiliklarga uchraydilar. Badiiy asarlar ma'lum tilda, bu til ona tili bo'lgan, odamlar uchun yaratildi. Ular boshqa tillarga tarjima qilinganda tarjimonlar xalq tarixi bilan bog'liq voqea, narsalarga duch keladilar, turli badiiy mushohadalar, hayot tarzi, urf – odatlar, realiyalarni uchratadilar. Retseptor matnni adekvat tarzda tushunishi uchun tarjimon bu jarayonda pragmatik farqlarga o'z to'g'rilashlarini kiritadi.

Pragmatik ma'no u yoki bu fan – texnika sohasi vakillari uchun yaratilgan matnlarda kam o'zgarishga uchraydi. Chunki ular fan bo'yicha fan ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bunday ma'lumotlar turli tillarda so'zlashuvchi olimlar tomonidan bir xil tushuniladi. Matnlarda asosan o'lchov birliklari, maxsus nomlash nomenklaturasi va firmalar nomlariga e'tibor qaratiladi.

Asliyatdagi matnning janr va stilistik xususiyatlariga ko'ra, tarjimaning ikkita funksional turlari farqlanadi:

- 1) badiiy tarjima
- 2) informativ (maxsus) tarjima.

Badiiy tarjimaning vazifasi badiiy estetik va yoki poetik vazifa bo'lib, uning maqsadi, o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatishdir. Informativ tarjimadan farqli o'laroq badiiy tarjimada erkinlik, mazmuni maksimal darajada ifoda etishdan chekinish holatlari mavjud bo'ladi.

He fell off the ladder

U norvondan yiqilib tushdi.

U shotidan tushib ketdi.

Janrlariga ko'ra badiiy tarjimanning quyidagi ost turlari mavjud: she'riy tarjima, pesalar tarjimasi, satirik asarlar tarjimasi, proza asarlari tarjimasi, qo'shiq matnlari tarjimasi. She'riyat tarjimasida tarjimon muallifning raqibiga aylanadi, degan naql bor. Professor M.Xolbekov ta'biri bilan aytganda. Tarjimon ona tilida asl nusxa matniga hamohang she'r yozsa bo'ldida qabilidagi tushunchani bermaydi".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, muayyan so'z tarjimasi uning kontekstdagi tahlilidan boshlanadi va bu tarjimada tegishli va muqobil so'zni tanlash imkonini beradi. Turli kontekstlar manba til, ya'ni asliyatdagi qo'llangan so'z ma'nosini ochishda qo'l kelishi mumkin. So'z tanlashda muammo, asosan. tarjima tilida asliyatda qo'llangan so'zga qisman muqobil bo'ladigan so'z to'g'ri kelganda hamda muqobil so'zning o'zi yo'q bo'lganda yuzaga chiqadi. Muqobili yo'q so'zlarni tarjima qilish bir qator muammo yaratadi. Bu muammolarni ijobiy hal etish tarjimondan chuqur bilim, mahorat, hamda tarjima usullarini yaxshi bilishni taqazo etadi.

PRAGMATIK MA'NO TURLARI

Eshtayeva Dildora Kaxarovna*JIZPI xorijiy tillar kafedrasi assistent o'qituvchisi*

Pragmatika (yun. pragma, pragmatos — ish, harakat) — semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi. Boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi subyektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'i. Pragmatika haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Ch. Pirs tomonidan o'rta tashlangan. Yana bir amerikalik olim Ch. Morris ushbu g'oyani rivojlantirgan va "Pragmatika" terminini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan.

Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayo-ni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik Pragmatika aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas, uning doirasiga so'zlovchi subyekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab masalalar kiradi. Nutq subyektini bilan bog'liq holda quyidagi masalalar o'rganiladi:

- bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat, va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va b.);
- nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so'zlashish qoidalari; so'zlovchining maqsadiv;
- so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va b. xislatlariga baho berilishi;
- so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar.

Pragmatikada nutq adresati, o'zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar b-n bog'liq holda ham ko'plab masalalar o'rganiladi. Pragmatika g'oyalari evristik (yo'naltiruvchi) dasturlash, mashina tarjimasini, informatsion-qidiruv tizimlari va boshqalarni ishlab chiqishda qo'llanadi.

Biz bilamizki, tarjima pragmatikasi, pragmatik xususiyatlarning tarjimada berilishi kabi masalalarga bag'ishlangan ilmiy ishlar soni talaygina. Ammo aslyatdagi pragmatik xususiyatlarning tarjimada berilishi borasidagi o'zbek tilidagi ilmiy adabiyotlar sanoqlidir. Shuning uchun ham mazkur bitiruv malakaviy ishida ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda tarjima pragmatikasining o'ziga xos xususiyatlari o'zbek tiliga qilingan tarjima misolida bayon qilinadi. Xususan, Fattoh Abdullayev tomonidan tarjima qilingan "Hayotga muhabbat" hikoyasi misolida pragmatik xususiyatlarning tarjimada qayta yaratilishi tahlil qilinadi.

Demak, pragmatika nutqiy muloqotni yaxlit bir tizim sifatida - bu jarayonning barcha lisoniy va nolisoniy omillari bilan uzviy bog'liqlikda, hamkorlikda o'rganuvchi fan hamda tarjima, etika,estetika, stilistika, tilshunoslik, psixolingvistika, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bog'liq ekan, ishning predmeti va obyektini nutqiy jarayon, badiiy asarlar hamda turli tillardagi tarjima asarlari hisoblanadi.

Pragmatik ma'no Til belgisi va nutq jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni, ya'ni. gapirish yoki yozish va tinglash yoki o'qish. (Boshqa so'zlar "konnotativ ma'no", "hissiy ma'no", "uslubiy" yoki "hissiy" rang berish).

Til belgilaridan foydalanadigan odamlar hech qachon ularga befarq bo'lmaydilar - ular o'zlarining ushbu belgilarga va ular orqali - ushbu belgilar bilan belgilanadigan referentlarning o'zlariga bo'lgan sub'ektiv munosabatlarini yaratdilar. Shunday qilib, ruscha "ko'zlar", "ko'zlar" va "peepers" so'zlari; "Dam olish", "uxlash" va "uxlash" bir xil yo'naltiruvchi ma'nolarga ega, ammo ushbu belgilar bilan ushbu belgilar yordamida odamlar o'rtasida mavjud bo'lgan sub'ektiv munosabatlarda farq qiladi. Belgilar orqali referentlarga o'tkaziladigan ushbu sub'ektiv munosabatlar (emotsional, ekspressiv, uslubiy va boshqalar) pragmatik munosabatlar deb ataladi.

Odatda, til belgilarining pragmatik ma'nolari ma'lum bir tilda so'zlashadigan odamlarning butun guruhi uchun bir xildir.

Referentsial ma'nolarga qaraganda kamroq darajada pragmatik ma'nolar tarjima qilishda o'zlarini uzatishga imkon beradi. Haqiqat shundaki, turli xil inson guruhlarning ushbu ob'ektlarga, tushunchalar va vaziyatlarga munosabati har xil bo'lishi mumkin.

Badiiy adabiyot uchun, ayniqsa lirik she'riyat uchun pragmatik munosabatlar ko'pincha etakchi va asosiy aloqalar hisoblanadi. Buning sababi shundaki, tarjimon ma'lum bir matn turi uchun beqiyos muhimroq ma'lumotni saqlab qolish uchun unda ifodalangan pragmatik (hissiy va h.k.) ma'nolarni saqlab qolish uchun havola qilingan ma'nolarning uzatilishini qurbon qilishga majbur bo'lmoqda

**JEK LONDONNING "HAYOTGA MUHABBAT" ASARININIG MAKTAB
DARSLIGIDA O'RGANILISHI****Hamroqulova Dilshoda***Andijon viloyati Asaka tumani**28-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Jek London «Hayotga muhabbat» hikoyasida insonni tabiat kuchlari bilan yonma-yon, unga basma-bas tarzda tasvirlaydi. Insonning kurashuvchanligi va umidiga urg'u beradi. Hikoya qahramonining hayotga bo'lgan muhabbati o'lim ustidan g'alaba qozonadi.

Hikoya o'ziga xos syujet qurilishiga ega. Boshida yo'lga chiqqan, aniqrog'i borgan yo'lidan iziga qaytayotgan ikki yo'lovchining holati tavsirlanadi. Ulardan biri – Bill oyog'I cho'loqlanib qolgan sherigini tashlab ketadi. Shundan keyin bepoyon kengliklarda bittagina qahramonning o'zi qoladi.

Yo'lda boshidan kechirgan mashaqqatlari, ochlikdan sillasi qurib, tabiatning turli ne'matlaridan tatib ko'rishlari, atrofidagi hayvon va qushlarni tutib yeyishga urinish va boshqalari juda ta'sirli va aniq tasvirlanadi.

Ortda qolgan yo'lovchini Jek London negadir nomlamaydi. Oddiygina qilib «odam» deb qo'ya qoladi. Bu bilan adib nima demoqchi bo'lgan? Balki muallif mana shu birgina obraz misolida butun insoniyatning matonatini, sabr-bardoshini aks ettirib bermoqchi ham bo'lgandir?

Odatda, Jek London asarlarida oltin izlovchilar, oltinni qo'lga kiritish yo'lida turli mashaqqat va sarguzashtlarga duch kelgan insonlar taqdiridan hikoya qiladi.

«Hayotga muhabbat» hikoyasining ikki qahramoni ham kerak manzilga yetib borib, xaltalariga keraklicha – o'zlari ko'tarishga kuchi yetguncha oltin solib olgan ikki kimsa. Shu ikki inson oltin bilan sinaladi.

Hikoya mazmunida inson uchun bu olamda oltindan ko'ra muhimroq narsa, ya'ni tirik qolish, halovatda yashash va o'z maqsadiga erishish yo'lida tinimsiz intilish muhimligiga doir fikrlar mujassam topgan.

O'zi istamagan holda Billdan ajralib qolgan yo'lovchi olib kelayotgan zil-zambildek oltinlardan avval yarmini, keyingi safar hammasini tashlab yuboradi. Kimsasiz joyda yeyishga bir burda noni, yordamga cho'ziladigan birorta qo'l bo'lmagan odam uchun oltinning aslo qadr-qiymati yo'q. Och qolgan va hayot uchun kurashayotgan kimsaga oltin foyda bermaydi.

Yo'lovchi bir manzilga yetganida uni tashlab ketgan sherigi Billning oltin solingan xaltasi va bo'rilar ship-shiydam qilib tozalagan suyaklariga duch keladi. Hamrohini yolg'iz tashlab ketgan, oltinga muhabbat qo'ygan odamni qanday ayanchli oqibatlar kutib turganini kitobxon ko'rib, to'g'rilik, sadoqat, insof kabi bebaho insoniy tuyg'ular ustida mulohaza yuritadi.

Yozuvchi tiriklik qadriga urg'u berish uchun «o'lim changaliga tushib qolgan» qahramonini turli to'siqlarga ro'baro' qiladi; kimsasiz sahro, suv, ko'lmak, ayiq, bo'ri – bular yo'lovchiga hayotga muhabbatini oshirish uchun vosita vazifasini bajaradi. Yo'lovchi

yo'lida davom etib, to'siqlarga duch kelganida siz ham o'zingizni go'yoki u bilan birga his etasiz.

Ba'zida yonginangizdan bug'ular yugurib o'tganida, noiloj o'kinasiz, gohida esa bahaybat targ'il ayiq qarshisida turgandek kalovlanasiz; yo'lovchining taxir, nordon botqoq mevalarini yeb afti burishgani ham beixtiyor sizga ta'sir ko'rsatadi.

Bu esa jahon adabiyotining betakror adibi Jek Londonning o'ziga xos qalam tebratish uslubidan darak beradi.«U juda charchagan, lekin sira o'lgisi kelmas edi. Shuning uchun ham u chalchiqzordan meva terib yer, tanga baliq ovlar, suv qayna tib ichar va olazarak bo'lib kasal bo'rini kuzatar edi». U o'z yo'lida davom etar ekan, butun o'y-xayoli tirik qolish bilan band. Hayoti so'nib borayotgan tinimsiz aksa urib, yo'talgan kasal bo'ri odamga ergashib yuribdi. Kasal bo'rining quvvati ketgan, hujum qilishga madori yo'q. Bo'ri odamning harakatsiz qolishini, o'limini kutadi.

Adib o'quvchiga o'lim va hayot chegarasida yurgan odam bilan bo'rini qiyoslashga imkon beradi. Odam bo'rini, bo'ri esa odamni yeyishga tayyor. Biroq har ikkovida ham mador yo'q. Odamda esa yashashga umid bor. Shuning uchun uncha uzoq bo'lmagan masofadan ko'ziga ko'rinib turgan dengiz va undagi kemaga yetib olish uchun harakat qiladi. Bir mahal ko'zi ilinganda och, kasal bo'ri tishlarini uning qo'lga botira boshlaydi. Odam bo'rining jag'iga yopishadi, kuchi yetmasligini bilgach, u tishi bilan bo'rining tomog'iga yopishadi.

Odam g'olib keladi. Hikoya tugashida «g'alati maxluq»ni kit ovlovchi ilmiy ekspeditsiya a'zolari o'limdan qutqargani bayon etiladi.

Siz hikoya qahramonining o'limdan qutulgani uchun mamnun bo'lasiz, kemadagilarga o'z boshidan o'tganlarini so'zlab bergan, pokiza taomdek ne'mat qadrini bilgan bu kimsaning kelgusida saodatli hayot kechirishiga ishonasiz. Jek Londonning mahorati shundaki, hikoyadagi harakatlanayotgan qahramon tegrasidagi har bir narsa-predmatni, jonli va jonsiz narsalarni, yemish uchun turli o'simlik, mayda baliqchalar va hasharotlarni tatib ko'rayotgan odam holini juda real-aniiq tasvirleydi.

VATAN VA MILLATNI MADH ETGAN BUYUK IJODKOR

Seralieva Gulmery Salametovna*Qoraqalpog'iston Respublikasi, Muynoq tumani**6-sonli umumta'lim maktabining**qozoq tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

O'zbek adabiyotining mashhur namoyandalardan biri, Ittifoq Davlat va Lenin mukofotlarining laureati G'afur G'ulom 1903 yil 1 mayda Toshkent shahrining Qo'rgontegi mahallasida mehnatkash oilasida tug'ildi. To'qqiz yoshida otasidan yetim qolgan G'afur avval eski maktabda, so'ngra rus-tuzem maktabida ta'lim oldi. U Oktyabr to'ntarishidan keyingi yillarda muallimlar tayyorlov kursini bitirib, yangi usuldagi maktablarda o'qituvchilik qildi. 1923 yildan bolalar uyida mudir va tarbiyachi, so'ng «Kambag'al dehqon», «Qizil O'zbekiston», «Sharq haqiqati» ro'znoma muharririyatlarida ishladi. Ro'znoma uning uchun dorilfunun rolini o'ynadi, xalq hayotini o'rganish, unda faol aralashish yo'lida muhim vosita bo'ldi. Uning mamlakatni himoya qilish haqidagi tantanavor qasidalari, o'tmish sarqitlarini qoralovchi hajviy she'rlari va xalqning kundalik ijodiy mehnatini olqishlovchi asarlaridan jamlangan «Dinamo» va «Tirik qo'shiqlar» nomli dastlabki she'riy to'plamlari 1931-1932 yillarda chop etildi. Shoir liro-epik janrlarida (1930-1935) «Ko'kan» poemasini, «To'y», «Ikki vasiqa» balladalarini yaratdi. Biroq, shoirning bir qator she'rlarida, xususan, biz ko'p yillar kollektivlashtirish mavzuidagi eng yirik liroepik janrdagi asar deb maqtab kelgan «Ko'kan» poemasi hozirgi kun talablari darajasida emasligi sezilib qoldi. Jumladan, poemada boshdan oyoq maqtalgan kollektivlashtirish siyosati ma'lum ijobiy natijalari qatorida cheksiz zulm — fojealarga ham sabab bo'lganligi bor bo'yicha realistik ifodalanmagan edi. Mustaqillik davri o'tmish tarixiga yaqindan haqiqat ko'zguisida boqishni taqozo etgach, bunday nuqsonlar ma'lum bo'lib qoldi. Xuddi shunday hol uni partiya, ona Vatan, V.I.Lenin, Oktyabr haqidagi she'rlarida ham seziladi. Shu tufayli shoir ijodini zarracha kamsitmagan holda unga tanqidiy yondashishni taqozo etadi. 30-yillar G'afur G'ulom hikoya, ocherk, fel'etonlar qatori «Netay», «Yodgor», «Tirilgan murda» kabi qissalarini ham o'z kitobxoniga taqdim etdi. Ulug' Vatan urushi yillarida shoir o'z ijodining butun haroratini fashist bosqinchilariga qarshi kurashayotgan xalqqa, uning muqarrar g'alabasiga bag'ishladi. U «Sen yetim emassan», «Oltin medal», «Kuzatish», «Vaqt», «Sog'inish» kabi she'rlarini ijod qildi, publitsistik ocherk va maqolalar yozib, xalqni jang va mehnat g'alabasiga otlantirdi. So'nggi yillarda G'afur G'ulomning 20 ga yaqin she'riy to'plamlari chop etildi. Ayniqsa, shoirning «Kuzatish», «Sen yetim emassan», «Qish», «Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak», «Vaqt», «Onalar» singari asarlarida dunyo xalqlarini fashizm vabosidan xalos etgan jangchilarimning mardona kurashlari tasvirlangan. G'afur G'ulom urush yillarida yozilgan she'rlaridan jamlangan «Sharqdan kelayotirman» to'plami uchun 1946 yili Ittifoq Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

G'afur G'ulomning ijodida bolalarning o'ziga xos orzu-umidlari, yuksak ma'naviy olamlari, odob va axloqlari, o'qish va intilishlari asosiy mavzuga aylandi. Jumladan, shoir

“Oltin medal” she’rida o’rta maktabni bitirayotgan o’g’il va qizlarga ishonch va umid ko’zi bilan qaraydi. Ularni kelajagimizning ishongan kishilari – “zamonlar tongining chiroqlari” deb tasvirlaydi:

Sizsiz kelajak yo‘q, siz axir xalqning

Ming yilni ko‘rajak qarog‘larisiz.

Sizsiz yorimaydi osmonda Zuhra,

Zamonlar tongining charog‘larisiz.

Shoir o‘lkamizning kelgusida yanada gullab-yashnashini, jahonda tengi yo‘q diyorga aylanishini orzu qiladi va yoshlarni ana shunday Vatanga munosib farzand bo‘lishga, ilm-fanni egallashga undaydi. U yoshlarning ilm-fanda kamol topishiga zo‘r ishonch bilan qaraydi.

G‘afur G‘ulom bolalar va yoshlarni kattalarga, ayniqsa, otaonaga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash mavzusida ko‘plab she’rlar yaratdi. Shulardan biri “Ona” she’ridir. Shoir bu she’rida bag‘ri ufqlardan ham keng onaning lirik obrazini yaratib, bolaning unga bo‘lgan mehr-muhabbatini ifoda etadi.

Shoir bolani chaqaloqligidanoq mehr-muhabbat bilan asrab, avaylab tarbiyalab kelgan onani ta’riflab, bu mo‘tabar zotni e’zozlaydi.

Shoir she’rda onaga murojaat etib, uni qoya, yuksak tog‘, chaman bog‘ hamda quyoshga qiyoslaydi va onani ulardan yuqori qo‘yadi. Darhaqiqat dunyoda onadan ulug‘ zot yo‘q! U borliqqa jon baxsh etuvchi, olamni nurga burkovchi oftob misol qadrlil, hatto undan ham azizdir. She’r bolalarda onalarga chuqur muhabbat hissini uyg‘otishda katta xizmat qiladi.

Adibga vafotidan so‘ng «Lenin va Sharq» mavzusidagi asarlari uchun Lenin mukofoti (1973) berildi. G‘afur G‘ulom o‘z davrida «Hurmat belgisi» (1944), uch marta «Mehnat Qizil Bayroq» ordeni (1937, 1951, 1961), Lenin ordeni (1949), medallar va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. U O‘zbekiston Fanlar akademiyasining a‘zosi (1943) edi. 60 yillik yubileyi munosabati bilan unga O‘zbekiston xalq shoiri faxriy unvoni berildi. Shoirning ko‘pgina asarlari qardosh xalqlar, Osiyo va Yevropa tillariga tarjima qilingan. O‘zbek she’riyatining otashin jarchisi, ulkan san’atkori G‘afur G‘ulom milliy adabiyotimizning rivojiga katta hissa qo‘shgan adibdir. Adib 1966 yilda xastalikdan so‘ng vafot etdi.

**BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGI****Xonjonova Muxabbat Faxritdinovna****Mo'minova Gulbahor Mahmudovna***Toshkent shahar, Yangi hayot tumani**3-umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchilari*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi- barkamol va sog'lom avlodni voyaga yetkazishga qaratilgandir. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o'tgan taraqqiyot yo'li asrlarga arzigulik mazmun va mohiyat kasb etmoqda. Har bir davlatning kelajagi ta'limning rivojlanishi bilan bog'lanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning boshlang'ich ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini njoiriy qilish hamda ta'lim samaradorligiga oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Respublikamizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari yangi ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda. Pedagoglarga qo'yilayotgan talablar asosida o'z faoliyatlariga yangiliklar kiritib bormoqdalar. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonida fan, texnika va ilg'or tajribalardan foydalanish bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Bu jarayon o'qituvchilarning mas'uliyatini yanada oshirmoqda. Pedagogik texnologiya nima? Biz uni qanday va qayerda samarali qo'llay olamiz? Bu kabi savollarga javob berish uchun biz avvalo boshlang'ich ta'limdagi dars jarayoni, undagi o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini keng o'rganishimiz kerak? Boshlang'ich ta'lim- umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Shu bois hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'qituvchilar dars jarayonida zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda o'qitishning interfaol usullaridan keng foydalanmoqda. Boshlang'ich ta'lim jarayonini ijobiy tashkil etish, vaqtdan unumli foydalanish, dars maqsadlarini to'g'ri tanlash, metodlarni o'z o'rnida qo'llay olish, o'quvchilar bilan hamkorlik o'rnatib, sinfda ijobiy-emotsional muhitni yuzaga olib chiqish o'qituvchining asosiy faoliyati hisoblanadi. O'quvchilarni o'qishga o'rgatish, bilim berishdan o'quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashlariga ko'maklashish hamda dasrda ijobiy natijaga erishish uchun turli usullar bilan birgalikda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tushunib qo'llay olish pedagogdan mahoratni talab etadi.

Hozirgi vaqtda zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- muntazam tahlil qilib borish;
- loyihalashtiruvchi vositalarning eng zarurini tanlash;
- metod va usullarning maqsadga muvofiqligini aniqlay bilish;

- olinishi zarur bo'lgan natijasini oldindan taxmin qilish, ya'ni maqsadlarning amalga oshishiga erishish;

- ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlash.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar va elementlarga asoslangan holda zamonaviy pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga joriy qilish, xorijiy hamda hamdo'stlik davlatlaridagi pedagogik texnologiyadan foydalanib, o'zimizning zamonaviy pedagogik texnologiya tizimini vujudga keltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni umumlashtirish va amalda qo'llash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Ta'lim jarayonining ishtirokchilari pedagog va o'quvchi o'rtasida o'quv mehnati rejasini ishlab chiqish, ya'ni pedagog bo'lim yoki bobni o'rganish rejasini tuzar ekan, ushbu rejada talaba faoliyati o'z aksini topishi lozim.

2. Fanning ichki bog'lanishi yoki fanlararo bog'lanish imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish. Ma'lumki, har bir o'rganiladigan kichik yoki yirik o'quv birliklari oldin o'rganilganlariga tayanadi. Demak, o'quvchini yangi bo'lim, bobni o'rganishga olib kirishda undagi mavjud bilimlarga tayanish, agar mavjud bilimlar yangi bobni, bo'limni o'rganishga yetarli bo'lmasa, oraliq tayyorgarlik olib borish va shundan keyingina o'quvchini bilimlarni o'rganishning navbatdagi bosqichiga olib kirish lozim. Bunday ishlash zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosiy elementlaridan biri diaqnoz (tashxis) hisoblanib, o'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishga qanchalik darajada tayyor ekanliklarini aniqlashdan iborat.

3. O'quv birliklari mezonlarini belgilash. O'quv birliklari o'quvchi tomonidan o'rganilishi lozim bo'lgan tushuncha, ta'rif, qoida, qonunlar, hodisa va voqealardan iborat bo'lib, ular orasidagi mantiqiy bog'lanishning ta'minlanishini shu bob yoki bo'limning o'zlashtirilishiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki bugungi dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa soxalar qatorida ta'lim jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi ehtiyojidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olish va yangilik yaratish darajasida bilimli va mahoratli bo'lishi juda muhim. Buning uchun o'qituvchi darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli va oson qiziq bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОЦЕССА НАЧАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ**

Ильясова Гулнора Сабиrowна
Атаджанова Наргиза Султанбаевна
Школа №28 города Ургенча
Учитель начальных классов

Аннотация: *Молодежь - это наше будущее, образование и воспитание, которые они получают сегодня, определяют будущее.*

Ключевые слова: *образование, методические комплексы, учебные заведения, педагог, реформа образования, идеология независимости, этика.*

После обретения независимости Узбекистан претерпел большие изменения и развитие в социальной, экономической, культурной и особенно образовательной сферах. Сегодня Национальная программа обучения - единственная система образования, охватывающая весь процесс непрерывного образования и воспитания подрастающего поколения. В требования программы входит «формирование учебного процесса, определение содержания обучения, разработка дидактических законов и принципов учебного процесса, совершенствование государственных образовательных стандартов, учебных планов, учебников нового поколения, преподавание». создание методических комплексов ».

Изучение способностей и талантов студентов на научной и практической основе, дальнейшее развитие их психологических способностей, воспитание их духовного мира в духе национальной идеи и идеологии независимости через положительный опыт, полученный в сфере образования. Сегодня стоит задача повысить способность студентов соответствовать требованиям международных образовательных стандартов. Это, в свою очередь, приведет к созданию комплексной системы образования в образовательных учреждениях, дальнейшему углублению образовательных реформ, развитию новых педагогических технологий, их внедрению для формирования способностей и талантов маленьких школьников, создаст возможности для педагогический коллектив в воспитании и полноценное использование научного потенциала каждого учителя.

Сегодня одним из важнейших вопросов является новый подход к образовательному процессу, особенно его дидактическое обеспечение, обогащение содержания образования отечественной историей и культурой других народов.

Практика науки не только формирует память и мышление, но и дает материал для непрерывной систематической работы по воспитанию труда и потребности в труде, требует дисциплины мысли и четкой организации труда, концентрации мысли, ясности. Для этого, прежде всего, необходимо развивать самостоятельность детей, постепенно повышать востребованность их самостоятельной работы в процессе обучения.

В семье родители должны учитывать воспитание ребенка, прежде всего, с учетом личных особенностей ребенка, характера, способностей. Потому что образование - это теплые отношения и общение.

Родители должны учить своих детей хорошим манерам с раннего возраста, развивать их мыслительные способности и сосредоточиться на том, чтобы воспитывать их чистыми, умеренными и дисциплинированными. Если они будут уделять внимание росту и развитию подрастающего поколения, воплощая в себе все положительные, человеческие качества, такие дети вырастут людьми, которые в будущем смогут достичь высших вершин науки и культуры.

Чтобы ребенок рос, родители должны учитывать способности и интересы своего ребенка, направлять его в эту сферу и поддерживать связь со своими учителями, учить и готовить его к хорошей карьере в будущем. Они должны создавать возможности для изучения науки и профессии и не позволять им тратить свое драгоценное время.

Пословицы, мудрые поговорки и поучения, сказки, доставшиеся в наследство от предков, также играют важную роль в воспитании детей, поэтому родителям желательно использовать книги с таким содержанием. Об образовании мудрецы говорили следующее:

Если человек не осветит свой путь светом знания, он останется на пути тьмы и невежества. Свет человеческого сердца силен знанием и просветлением. Ценность человечества формируется наукой. Наука еще никому не причинила вреда. Приобретение знаний - это искусство. Какое бы зло ни случилось в мире, все это из-за невежества. Величайшее разрушение - это невежество, а конец человечества - невежество. Хорошо образованная женщина, которая улучшила свой характер с помощью света знаний, пользуется уважением во всем. Знания - украшение женщины. Каждая женщина, спасающая свой ум от невежества, понимает честь, достоинство и женственность. Такая женщина не заблудится ни в одной работе. Невежественная женщина допускает различные ошибки в воспитании ребенка.

Короче говоря, родителям важно учитывать совместимость образования и воспитания для полноценного развития своих детей как физически, так и духовно. Чтобы достичь уровня совершенного человека, каждый должен хорошо разбираться в тайнах науки с раннего возраста, иметь хорошее воспитание, хорошие манеры и высокие человеческие качества.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Каримов И.А. «Пусть у нас будет свободная и процветающая Родина. -Т.: Узбекистан, 1996.
2. С.Хамидова «В любви растет ребенок» -Т. «Сано-стандарт», 2011.

АНАЛИЗ РЕГИОНАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ И ИХ ПОСЛЕДСТВИЙ**Тухтаназарова Насиба Абдурасуловна***Магистр 1-го курса прикладной математики**Национальный университет Узбекистана***Абдурахимов Бахтиер Файзиевич***Научный руководитель: д.ф.м.н. проф*

Климат в мире изменился за последние годы. В одних странах необычно жарко, в других становится холоднее. Экологи предупреждают о глобальном изменении климата, таянии ледников и повышении уровня мирового океана. Глобальное потепление вызывает беспрецедентные явления - наводнения, штормы, засухи. Мы видим это в засухе и голоде в Африке, потеплении погоды в Южной Азии, лесных пожарах, наводнениях и штормах в Северной Америке.

Если правительства не будут серьезно относиться к защите окружающей среды, к 2100 году температура на нашей планете может подняться до 3,7-4,8 градусов по Цельсию. Климатологи предупредили, что температура может подняться выше 2 градусов по Цельсию, что поставит под угрозу окружающую среду. Чтобы сосредоточить внимание на вопросах климата, ООН решила привлечь не только политиков и ученых, но и знаменитостей, в том числе звезд кино и искусства.

Связь между изменением климата и стихийными бедствиями была доказана американскими учеными, изучавшими такие явления, как необычные осадки, ураганы и лесные пожары в разных частях планеты.

Эксперты ООН предупреждают, что изменение климата негативно сказывается на урожайности. Это особенно актуально в Африке, Азии и Латинской Америке. Не секрет, что снижение урожайности может привести к проблемам с питанием. Если такая ситуация сохранится, к 2080 году около 600 миллионов человек могут столкнуться с голодом.

Чтобы уменьшить ущерб, наносимый изменением климата, человечество должно систематически работать во всех сферах своей деятельности, включая здравоохранение, сельское хозяйство и другую инфраструктуру.

Каждая страна борется с изменением климата изо всех сил. Например, Нидерланды и Бангладеш сталкиваются с аналогичными проблемами. Обе страны испытывают регулярные штормы и ураганы из-за повышения уровня моря. Нидерланды борются с угрозой, строя плотину. Бангладеш не может этого сделать, потому что у него нет денег. Около 100 миллионов человек проживают в опасных районах страны.

По мнению ученых, чтобы к 2050 году поддерживать температуру воздуха на уровне 2 ° С, странам необходимо снизить выбросы парниковых газов до уровня 1990 года. К концу 21 века это число должно упасть до нуля.

Чтобы использовать чистую энергию, нужны деньги. Развитые страны заявили, что все страны, участвующие в переговорах, должны вносить равный вклад. Говорят, что ответственность за изменение климата несут развивающиеся страны, а виноваты страны с развитой экономикой. Потому что это развитые страны загрязняют атмосферу парниковыми газами.

По мнению экспертов, солнечные лучи, проходя через атмосферу, используют четверть своей энергии для нагрева газов в воздухе. Он в основном поглощает длинноволновые лучи. Та часть, которая достигает поверхности Земли, отражает свет Солнца и снова возвращается во Вселенную. Остальное используется для обогрева поверхности Земли. Земля, нагретая до определенной степени, также начинает излучать тепло. Однако длина волны этих лучей сильно отличается от длины волны лучей, исходящих от Солнца. Такие лучи непроницаемы для слоя углекислого газа в воздухе и полностью поглощаются. Таким образом поддерживается умеренный и относительно благоприятный для жизни климат на Земле.

Беднейшие люди в развивающихся странах больше всего страдают от изменения климата. Речь идет о потребности в еде, одежде и жилье. Сельчане направляются в города. Это, в свою очередь, приводит к увеличению количества бедняков в городских районах и сокращению производства в сельских районах.

Есть явные доказательства того, что глобальное изменение климата является результатом деятельности человека. Серьезность ситуации признана международным сообществом. На данный момент правительства стараются минимизировать потери.

Есть опасения, что весна и осень могут войти в историю 22 века. Но самая серьезная проблема - это нехватка продовольствия. К 2050 году урожайность зерна упадет на 25 процентов. Изменение климата вызывает вооруженный конфликт между странами. В таких конфликтах страдают в основном бедные. Но засухи и наводнения наносят ущерб экономике развитых стран. Все это потребовало немедленных действий по защите окружающей среды и проявлений солидарности со всеми правительствами.

САЛМЕН ЭШОН КАМАЛ ЎҒЛИ
(1884-1952)**Якупов Ахмет Айтмуратович***Бердах номидаги қорақалпоқ давлат университети**Магистратура бўлими «Ўзбекистон тарихи»**мутахассислиги 2-курс магистранти*

Аннотация: Ушбу мақолада Қорақалпоқ уламоларидан Салмен эшон Камал ўғли ҳақида қисқача маълумот берилган. Унинг қаерда туғилиб усгани ва вафотлари ҳақида ишончли манбалардан фойдаланилган ҳолда маълумот берилган.

Таянч сўзлар: Эшон, репрессия, қатогон, уламо, қорақум, мадраса, масжид, уламолар қўрилтойи.

Юртимизда шўролар ҳукумати зулмидан азият чеккан, дин учун хизмат қилган уламолар жуда кўп бўлган. Шулардан бири биз сўз юртимокчи бўлган Салмен эшондир. Тўлиқ исми Салмен эшон Камал ўғли. Аслида Салман бўлган бўлиши керак, чунки тарихда Салман номли машҳур саҳоба ўтган, асли Аҳмад бўлган исмининг она тилимизда Аҳмед бўлиб ўзгаргани каби Салмен бўлиб қолган¹¹.

Салмен эшон Камал ўғли 1884 йилда Чимбой уезди, Қораўзакнинг Шахаман қишлоғида, эшон оиласида дунёга келган. Отаси Камал эшон илмли киши бўлган. Онаси Зейнеп нафақат эл орасида балки кўшни юртларда ҳам машҳур Қорақум эшоннинг қизи бўлган. Насл насаби хўжалардан бўлиб, Камал эшондан тепада ҳам эшонлар силсиласи боғланган.

Салмен эшон дастлаб ўша пайтда машҳур бўлган Қорақум эшон мадрасасида таълим олади, кейин Хивадаги Шерғозихон мадрасасида ўқийди. Талабалик даврида илмга тиришқоқлиги, одоб-ахлоқли ва ўткир зеҳнли бўлиб, кўзга тушади. Ўқишни муваффақиятли битириб, Чимбойдаги «Хан» масжидида имомлик қилади. 1943 йилда Ўрта Осиё ва Қозоғистон диний назоратининг Қорақалпоғистондаги вакили этиб тайинланади. Салмен эшон дин ва халқ хизматидаги жонқуярлардан эди. 50-йилларда Раҳматуллаҳ Идрисов, Кеўнимжай Жамалов, Увайс Алаутдинов, Латиф Бекполатовнинг Бухородаги Мир Араб мадрасасида келиб ўқишида ўзи бош бўлган. Бироқ унинг бундай ишлари шўролар ҳукуматига маъқул келмай, ёшларни давлатга қарши тарбиялапти, деган айблов билан 1951 йилда ҳибсга олинади. Ўша давр тақозаси билан, теран тушуниб ўтирмасдан «соч ол деса бош оладиган» айрим «фаоллар»нинг айби билан халқимизнинг ҳурматидаги улуғ зиёли инсонлар бегуноҳ нобит бўлди. Мана шундай беайб жазоланганлардан бири Салмен эшон Камал ўғли бўлди. Унинг биринчи очик суди Чимбой шаҳрида халқ орасида ўтказилади. Судда қатнашган, ҳозирги пайтда Чимбой тумани П. Сейитов қишлоқ фуқаролари йиғинида

¹¹ Т. Абдимуратов репрессияга ушыраган уламалар: Салмен ийшан Камал улы, Пурхан ийшан Қайыпназар улы, Алланазар ахун Қосназар улы, Қалимбет ахун Өтемурат улы. Нөкис. «Қарақалпақстан» 1992 йил.

яшовчи Жақсилиқ ота шундай хотирлайди: “Салмен эшонни Чимбойда очик суд қилишди, судда кўп одам тўпланди. Унга ёшларни давлатга қарши тарбиялапти, деб айб қўйишган эди. Қорақум эшоннинг асл исми Шайх Қутлуғхўжадир. У қорақалпоқларнинг Болғали уруғидан бўлиб, 1878 йилларда яшаган. Диний илмларни мукамал эгаллаган бу тариқат пешвоси Қўнғирот шаҳрига бориб талабаларга дарс берган. Кўчманчи қорақалпоқлар уни ўз қавмларига олиб келадилар. Уруғлар бийлари унинг қаерда яшаши хусусида баҳслашиб қолишади. Шунда Шайх қутлуғ хўжа уруғлар яшаётган жойнинг ўртаси бўлган қорақум деган (ҳозирги Чимбой тумани) жойни танлайди. Шу ерга мадраса қурилиб, халқ бу кишини қорақум эшон деб атади. 1930 йилгача фаолият кўрсатган ушбу мадраса шўролар тарафидан бузиб ташланган. - деди.

1943 йили куз ойларида уруш туфайли Сталин томонидан динга айниқса мусулмон дин вакиллариغا енгилликлар берилади. Мана шу енгилликдан сўнг Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари идораси расман очилади. Салмен эшон Қорақалпоғистон Республикаси номидан мана шу идоранинг очилиш қурултойига қатнашади ва диний бошқарманинг Қорақалпоғистондаги вакили бўлиб тайинланади. Шунинг билан бирга Қорақалпоғистоннинг шимолий туманлари бўйича масжиди – Чимбойдаги «Хан» жомеъ масжидига имом хатиб қилиб ҳам тайинланади.

«Салмен эшонни мана шу иккита ўта маъсулиятли вазифага тайинлашда уломалар ўртасида қўйидагиша фикр мулоҳазалар, гап-сўзлар бўлиб ўтгани айтилади», дейди Қорақалпоғистон Мусулмонлари қозийети собиқ қозиси, раҳматли Қидирнияз хожи Алимбет ўғли:

– Бошлиқлар Салмен эшонни бу лавозимга тайинлашдан олдин унинг илмини, ундан ташқари ташқи кўриниши, сийрати, бўйи-басти ҳаттоки тишларигача текшириб кўришган, дейди. У баланд бўйли, чиройли, сарвқомат, кўзларининг ранглари ўта тиниқ бўлиб, гапирганда юзларидан нур ёғилиб турар экан.

Ёлғон ва бўҳтонлардан, тухматлардан қанчадан қанча бегуноҳ одамлар, уларнинг бол-чақалари, яқинлари жуда кўп азият чекишди. Шундай тухмат балосига Салмен эшон ҳам грифдор бўлган эди.

Икки киши ёлғондан Салмен эшонга қарши гувоҳлик беришди. Шунда эшон уларга: “Сизлар ҳақиқатда уларни давлатга қарши тарбиялаётганимни кўрдингизми?” – деб сўради. Улар: “Ҳа, кўрдик”, - дейишди. Суд тугаганидан кейин бояги икки кишининг кўзи кўр бўлиб қолди”. 1952 йилда Салмен эшон қамоқда вафот этганидан кейин чиқариб кўмиб ташлашга буйруқ берилади. ИЙХК ходимларидан бири Раҳматуллоҳ Идрисовни чақириб, унинг жасадини яширинча бериб юборади. Салмен эшон Нукус шаҳри чеккасидаги қабристонга дафн этилган. Ҳозирда бу қабристон Салмен эшон номи билан юритилади.

Туркистон ҳарбий округи ҳарбий трибунали бошлиғи, полковник Лысенконинг 1958 йил 22-сентябрьдаги ишчилар депутатлари Чимбой шаҳар Кенгаши ижро қўмитаси раисига ёзган хатида шундай дейилади:

«Туркистон ҳарбий округи ҳарбий трибуналининг 1952 йил 10-апрельдаги ҳукми билан Салмен Камалов ҳибсга олинган ва мол-мулки мусодара этилиб, чимбой тумани коммунал хўжалигига топширилган.

СССР олий судининг ҳарбий ҳайъати 1958 йил 1-апрельда бу ишни қайта кўриб чиқиб, Салмен Камаловни айбсиз деб топган, иш эса асоссиз деб бекор қилинган. Унинг қизи бийбисора Салменова Чимбой туманида истиқомаъ қилади. Уй-жой ва мол-мулки Салмен Камаловнинг зурёдларига қайтариб беришингизни сўрайман».

Ҳақиқат ҳамийша ғолиб чиқа беради. Асоссиз айбдор қилиниб, сургун қилинганларни халқ тўп-тўп бўлиб, кўзларида шашқатор ёшлар билан кўзатиб кўйишди. Салмен эшонни халқ шундай эъзозлар эдилар.

Фойдаланилган манбалар:

1. Т.Абдимуратов репрессияга ушыраган уламалар: Салмен ийшан Камал улы, Пурхан ийшан Қайыпназар улы, Алланазар ахун Қосназар улы, Қалимбет ахун Өтемурат улы. Нөкис. “Қарақалпақстан” 1992 йил.
2. А.Дәўлетмуратов Салмен ийшан. Нөкис. “Қарақалпақстан” 1992 йил.
3. Қ.Наимов, Ғ.Хожаниязов. Имам ийшан-қарақалпақ халқының уллы уламасы ҳам ағартыўшы тулғасы. Нөкис. “Қарақалпақстан” 2005 йил.
4. М.Қуғынбаев Әйимбет ийшан. Нөкис. “Қарақалпақстан” 1995 йил.
5. А.Дәўлетмуратов Нурымбет ахун. Нөкис. “Қарақалпақстан” 2015 йил.
6. Я. Абдуллаева. Қарақалпақстан ҳаял-қызлары: кеше ҳам бүгин XIX әсирдин ақыры ҳам XX әсир басы. Нөкис. “Қарақалпақстан” 2010 йил.
7. Б. Алланиязов Аллаяр Досназаров. Нөкис. “Қарақалпақстан” 2019 йил.
8. Қ.Байниязов Аллаяр Досназаров. Нөкис. “Қарақалпақстан” 1987 йил.
9. Ш.Бабашев Қарақалпақстанлы зиялылар үстинен сиясый процесс. Нөкис. “Билим” 2012 йил.
10. Ш.Бабашев Репрессии. Депортация. Преступления против человечества. Нөкис. “Қарақалпақстан” 2014 йил.
11. Ш.Бабашев Жазықсыз жазаланған репрессия қурбанлары. Нөкис. “Қарақалпақстан” 2007 йил.
12. Ш.Бабашев Дөхмет дегиши. Нөкис. “Қарақалпақстан” 2009 йил.

OILADA SOG‘LOM MUHIT VA UNI BOLA TARBIYASIGA TA’SIRI □ □

Tursunaliyeva Muxlisaxon Dilmurodjon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti I bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oilada sog‘lom muhit va uni bola tarbiyasiga ta’siri haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, ushbu mavzuni olimlar tomonidan dolzarb masala sifatida o‘rganilganligi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Avesto, oila, tarbiya, vorisiylik, yangicha ta’lim.*

Barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta’lim olish masalalari, davlat siyosati maqomi darajasida jamiyat uchun eng dolzarb masalalardandir. Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda uning ma’lim bir yosh davridagi psixologik xususiyatlari eng muhim hisoblanadi.

Milliy g‘oyamizni yoshlar ongiga singdirish kattalarning burchidir. Buning uchun ularni komil inson qilib tarbiyalashimiz zarur. Komil inson shundaki, unda to‘rtta xususiyat ya’ni yaxshi so‘z, yaxshi fe’l, yaxshi axloq, maorif va madaniyat kamolga yetishi lozim.

Prezidentimiz Sh.M.Miromonovichning: *“Farzandlarimiz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb hunarni egallagan, sog‘lom hayotiy pozitsiyalarga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hech qachon o‘zining dolzarbligini yo‘qotmaydigan masala hisoblanadi”, [1] deb takidlaganlari bejiz emas.*

Yurtimizning rivojlangan davlatlar darajasiga ko‘tarilishi, pedagoglar ta’lim-tarbiya berayotgan yoshlarimizning dunyoqarashi, saloxiyati, iqtidori hamda mustaqil fikrlashiga bog‘liq. Mustaqilligimizning nashidasi o‘laroq jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga o‘tildi. Jamiyatning yangilanishi ta’lim sohasida islohotlar qilinishi, o‘zgartirishlar kiritishni, yangicha ta’lim berish usullarini, yangicha yondashuvni taqazo etadi. Shuning uchun kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijtimoiylashuviga ota-ona shaxsining ta’sirini psixologik xususiyatlari mavzusini o‘rganish bugungi kunning dolzarb ahamiyatga ega masalalaridan biri desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Oilada sog‘lom muhitni va komil insonni tarbiyalash muammosi turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi “Avesto”, “O‘rxun-Enasoy bitiklarida shuningdek, Abu Nasr Frobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojibdan tortib hozirgi zamon pedagoglarining o‘ziga xos fikr mulohazalar bildirilgani diqqatga sazovordir. Bolaning axloqi yaxshi yoki yomon bo‘lishi aynan oiladagi muhitga, tarbiyaga, ota-onaga bog‘liq ekanligini Yusuf Xos Hojib quyidagicha ta’kidlagan: “Agar bolaning xulqi yomon bo‘lsa, bunda bolaning aybi yo‘q, hamma ayb otasida” [2]. Bu fikr o‘z zamonasida nechog‘liq ahamiyatli bo‘lsa, hozirgi kunda ham bola tarbiyasi jamiyat uchun asosiy dolzarb masala hisoblanadi.

Kaykovus, Sa’diy Sheroziy, Jomiy, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarimizning ilmiy nazariy asarlarida oila munosabatlari tarbiya tarixiylik va

vorisilylik nuqta'iy nazaridan bayon etilganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Abdurauf Fitrat o'zining "Oila" asarida farzand tarbiyasiga alohida urg'u beradi va quydagi fikrlarni keltiradi: "Oiladagi eng og'ir vazifa bola tug'ilgandan keyingi farzand tarbiyasidir. Farzand tarbiyasi aslida ikki kalimadan iborat. Shuning uchun ham nazaringizda juda mayda muammodek ko'rinadi. Lekin dono odamlar biladilarki, Bani odamning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asosi ana shu ikki so'z - "bola tarbiyasi" dan iborat birikmaga bog'liq. Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib, e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq". [3] Darhaqiqat, o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar bo'lishi, uning dovrug'ini dunyolarga yoyishi, vatanga munosib bo'lib yetishishi ham aynan bolalikdan ota-onasidan olgan tarbiyalariga bog'liq ekanligi barchamizga ma'lum. Shunday ekan bola tarbiyasiga alohida e'tibor berish, ota-ona tomonidan ularga oilada sog'lom muhit yaratish asosiy vazifalarimizdan biri, desak adashmagan bo'lamiz.

Oila, oilaviy munosabatlar muammosi bilan respublikamiz, MDH mamalakatlari hamda xorijiy mamlakatlari olimlari shug'ullanib kelmoqdalar. Jumladan, A.K.Munavvarov "Oila pedagogikasi", Sharipova D.J, Sodiqov K. "Oilaviy hayot bo'sag'asida", Xasanboyeva O. va boshqalar "Oila pedagogikasi", Musurmonova O., "Oila ma'naviyati-milliy g'urur", M.X. Xolmatova "Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi", M. Inomova "Oilaning turmush tarzi, er-xotin va farzandlar munosabati, ziddiyatlari masalalari", bo'yicha shug'ullanib kelmoqdalar. Niyozmetoa G. "O'zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy psixologik xususiyatlari", G'.B. Shoumarov "Oila psixologiyasi", Najmiddinova U.K. "Ma'naviy meros va komil inson tarbiyasi", Yusupov E. "Oilaning ma'naviy asoslari", Maxmudov M. "Oila ma'naviyati", Azarov A. "Oila pedagogikasi", Anzarg L. "Bolalar va oilaviy nizolar"da o'zbek oilalari, ularda bola tarbiyasi, er-xotin munosabatlarining oilaga salbiy va ijobiy ta'sirlari o'rganilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M. Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" T-2017.
2. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig "T.:Cho'lpon" 2007.
3. Abdurauf Fitrat "Oila" T.:Ma'naviyat 2000.

WORD FORMATION IN THE MODERN ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES: COMPOUNDING AS A MAIN TYPE.

Fozilova Madina Shokirovna

Student of Master's degree at Uzbek State World Languages University

Annotation : *Word formation has always been amongst actual themes for linguistic researches, as any language is in need of constant renovation, enrichment and adaptation due to changes in many spheres that take place during the time period in which a language exists. There are many types of word formation and compounding needs to be researched more thoroughly, as it is considered to be the main type of word formation.*

Key words: *word formation, compounding, native compounds, borrowed compounds, type, compound noun, category, Russian, English*

Introduction:

Each language undergoes thousands of changes during hundreds of years of its existence, starting from lexis and ending with grammar. These changes are dictated by the social tendencies, revolutions and development experienced by the native speakers of a language in different periods of history. In particular, technological, scientific and industrial development play crucial role in shaping a language, making it more flexible, modern and simpler. These changes influence the lexis of a language too, as new inventions, changes and social development require a language to be on the same pace with the time, inflicting derivation of new words, phrases and terms.

There are many ways of word formation varying slightly from language to language, enriching the lexis with neologisms. The most common types are compounding, rhyming compounds, derivation, roots, affixation, blending, clipping, acronyms, reanalysis.

Of these categorise the most common and prevalent one is compounding and formation of a word out of two and more root morphemes is understood under this type. Generally, compounds might be either native or borrowed from linguistic point of view.

In most cases, native English roots are generally free morphemes, meaning native compounds are formed out of independent words that might occur by themselves. For instance:

Mail carrier

Dog house

Fireplace

Sunflower

Laptop

Cheesecake

Pick-up

The lexicons of English and Russian comprise simple and complex words. The complex words focused on in this article are the compound nouns. They are built from already existing and independently occurring morphemes which are joined together according to given word-formation rules. Usually, the type of elements and the way they are combined provide the basis for a definition and description of compounds while helping to distinguish compounds from the other complex lexemes in the two languages.

Given the fact that in English as well as in Russian, there are several different classes of words, it is expected to find most of them in combination with nouns. Structurally, therefore, there are distinct types of compound nouns. However, for an indepth analysis of compound nouns, one additionally has to take into consideration their semantic and grammatical aspects. They need to be included into any discussion of compound nouns because a construction such as truck driver is more than just the concatenation of truck and driver. Knowing that it is „someone who drives a truck habitually“, i.e. does this as a profession, makes it different from morphologically similar compounds such as bottle opener and night watcher. That is why, in the English and Russian linguistics compounds are traditionally organised into morphological categories and semantic-syntactic types. Yet, such a division is not an absolute. There are combinations which seem to stand in-between. This is so for as there are borderline cases between compounding and the other word-formation processes, there is also overlapping between the products of these processes.

Classifying a compound into one or the other category depends on how a compound is defined, what is considered as its general characteristics, and how much deviation from this core definition is normally accepted.

Complex lexeme and word- formation are used synonymously. As a process, compounding is part of the branch word-formation. In Russian, the term „compound“ has

no direct equivalent. It is more generally understood as „proizvodnoe slovo“, i.e. „derived word“, as „slozhnoe slovo“, i.e. „complex word“, and as a product of „slozhenie“,

i.e. „compounding“. Whenever an actual compound is meant, it is usually referred to as a word made by this and that word-formation process. For instance, *sneg~o~pad* „snow fall“ is not called „compound“ but „complex lexeme built by the complex morphological process compounding-zero derivation“.

Both in English and Russian, a compound is built from already existing lexemes or some smaller building units. The intersection of a compound into morphemes is the starting point in any analysis of its building. It is accompanied by establishing the immediate constituents and their hierarchical order of combining. Yet, according to the type and status of these compositional units, a compound in English is seen as a combination of at least two bases which are in most cases words, whereas in Russian two stems are joined together. On their own, they may or may not be independent words. Then, on the basis of these definitions, compounds are usually distinguished from suffixations and affixations. However, as it has been demonstrated and discussed above, this is not always easily achieved and borderline cases seem to exist.

BIBLIOGRAPHY:

- Adams, Valerie. 2001. *Complex words in English*. Harlow: Pearson Education.
- Kastovsky, Dieter. 1989. „Word-formation.“ In Dirven, René; Zydatiņ, Wolfgang; Edmondson, Willis J. (eds.). *A user’s grammar of English: word, sentence, text, interaction*. Frankfurt am Main: Peter Lang, 171-214.
- Kastovsky, Dieter. 1992. „The formats change - the problems remain: word-formation theory between 1960 and 1990“. In Pütz, Martin (ed.). *Thirty years of linguistic evolution: studies in honour of René Dirven on the occasion of his sixtieth birthday*. Amsterdam: Benjamins, 285-311.
- Matthews, P. H. 1974. *Morphology: an introduction to the theory of word- structure*. Cambridge: Cambridge University Press.

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIIYASIDA ILM-FAN VA
TABIAT MARKAZINING AHAMIYATI****Hamroqulov Oxunjon***Buxoro viloyati G'ijduvon Pedagogika kolleji**Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun ilm-fan va tabiat markazining ahamiyati, ilm-fan va tabiat markazining jihozlanishi haqida batafsil ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *markaz, ilm-fan va tabiat, tadqiqot, amaliy tajriba, kuzatish, sayr.*

Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o'zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma'lumotlar bolalarning o'z qo'llari bilan urug'larni tuvaklarga sepish orqali unga suv qo'yishi va urug' unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi.

Yuqorida izohi keltirib o'tilgan markazlar faoliyati bolani maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhit vazifasini bajarib, shu o'rinda 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik xaritasini ilova qilib o'tishni joiz deb bildik. Zero, mazkur yoshdagi bolaning rivojlanish xaritasi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatliligi va samaradorligini aniqlaydi.

Ekologik ta'lim-tarbiya tizimi asoslariga tabiat yaxlitligi hamda atrof muhitning inson tomonidan o'zgartirilishi haqidagi tasavvurlar qo'yilgan. Bunda tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni oliy o'quv yurtlarida hozirgi zamon ommaviy axborot vositalaridagi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. U umumiy vazifalar bilan uyg'unlashadi hamda mutaxassislik tayyorgarligi bilan bog'liq holda tabaqalashtiriladi. Uning umumiy nazariy ko'rsatmalari o'quv rejasining turli qismlarida aks etgan bo'lib, ma'ruza matnlari, elektron darsliklar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmunida o'z ifodasini topadi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning jarayoni har tomonlama rivojlangan shaxs ma'naviy qiyofasini kamol topish jarayonining muhim va tarkibiy qismidir. U Bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida tabiatga ongli munosabat, tabiat zaxiralarini saqlash va ko'paytirishga oid mas'uliyat tuyg'usi, ekologik muammolarni amaliy hal qilishdagi ko'nikmalarning rivojlantirilishini o'zida qamrab oladi. Sayyoramizda jumladan, respublika hududida vujudga kelgan ekologik vaziyat ta'lim-tarbiya tizimi oldiga quyidagilarni hal etishni muhim vazifa etib qo'yadi, ular:

1. Bolalarning tabiatga ongli munosabatlari, tabiat komponent-larini yaxlitlikda va o'zaro aloqadiligini his etish;

2.Tabiatning Bolalar ekologik madaniyatini belgilab beradigan vosita sifatida namoyon bo'lishi;

3.Atrof muhitga munosabatni ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi ekanligini anglash;

4.Tabiat talabani ekologik madaniyatini shakllantirishi uchun asosiy omil ekanligini tushunish;

5.Atrof muhitga nisbatan bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishda Bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida atrof muhitni muhofaza qilishni ekologik qadriyat sifatida anglab etishlariga ilmiy-amaliy jihatdan sharoit yaratish;

6.Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishning maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish, uning amaliyotga yo'naltirilganligini tushunish;

7.Ekologik muammoga umummilliy, umuminsoniy, ijtimoiy muammo sifatida yondashish kabilar.

Shular asosida talabani ekologik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini didaktik jihatdan ta'minlanishiga erishamiz. Buning uchun ekologiyaga oid o'quv materiallarini tanlash, tabiatni muhofaza qilishga oid faoliyat turlari va ular mohiyatini Bolalar ongiga singdirish, insonning tabiat hodisalarini anglashi, mazkur hodisalarning hayotiyliigi, mukammalliligini tushunish lozimligining ustuvorligini anglashi zarur.Bizning fikrimizcha Bolalarga o'rgatiladigan ekologik bilim mazmuni o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi lozim:

-Bolalar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish;

-Tabiat va jamiyat o'rtasidagi ma'lum bo'lgan ekologik bilim berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1."Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.

2."Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari.

3."Ilk qadam" jurnali.

**ONA TILI VA ADABIYOT FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH****Kamolova Gulnoz Muzaffarovna***Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
28-maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili va adabiyotni o'quvchilar tomonidan qiziqarli innovatsion texnologik uslublardan foydalangan holda qiziqishini ortirish va nutqida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan qayta o'zlashtirish takroriy darslarni o'tqazish uchun multimedion usullardan foydalanishning texnologik yondashuvlari to'g'risida fikrlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ona tili va adabiyot fani, multimediya, texnologiyalar, takroriy darslar, leksikon.*

Zamonaviy maktab ta'limining asosiy vazifalaridan biri ona tilini atrof-muhit bilan aloqa va bilish vositasi sifatida o'rganishdir. Bunday holda, ijtimoiy ahamiyat nutqining buzilishi bo'lgan bolaga nutqning leksik tomonining boyligini o'zlashtirishda yordam berish uchun imkoniyat yaratishdir.

Boshlang'ich maktab o'quvchilarining so'z boyligini oshirishda, ona tili va adabiyot fani bilimlarini o'zlashtirishda, an'anaviy vositalar bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalar ham muhim o'rin egallaydi va bu hozirgi davrga kelib ta'lim standartiga qo'yilayotgan talablardan biri desak aslo adshmaymiz.

Ushbu texnologiyalarning afzalliklarining eng maqbulini yaratishda quyidagilar inobatga olinadi:

- o'quv materiallarini multimedion ko'rgazmali shaklda taqdim etish;
- harakat, ovoz effektlarini qo'shish, diqqatni jalb qilish;
- o'quvchilarning o'quv materiallariga qiziqishini kuchaytiradigan o'yin topshiriqlarini ishlab chiqish va ulardan faol foydalanish;
- o'quvchilarda motivatsiyani saqlab qolish, kognitiv rag'batlantiruvchi o'rinli musobaqalar tashkil etish.
- ish sur'atini mustaqil ravishda tartibga solish imkoniyati;
- natijalarni baholashda xolislik;
- xatolarni tuzatish (boshqa variantni taklif qilish, ko'rsatma);
- ta'limga individual-tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish.

Ta'limda qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar orasida, kreativ uslublarni qo'llash, nutqida nuqsoni bo'lgan, o'zlashtirish saviyasi boshqa o'quvchilarga nisbatan past bo'lgan maktab o'quvchilarining so'z boyligini kengaytirishda, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga samarali usul bo'la oladi.

Ushbu texnologik uslubning afzal tomonlaridan yana biri bu leksik materialni o'zlashtirish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadigan onlayn-ilovalar yaratilishi va har

bir mavzuga doir materiallarning yuklanishi va keyinchalik o'zlashtirishdan orqada qolgan o'quvchining mavzularni takroriy ravishda o'rganib chiqishga imkoniyat yaratadi.

Ona tili adabiyot fanini puxta o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liq ravishda maktab o'quvchilariga mavzu yuzasidan ham an'anaviy ham online o'qitish uslublarida jami informatsion ma'lumotlarni taqdimotlar rasmlar, video roliklar, slaydlar tag'dimoti bilan taminlanishi, o'quvchilarda dars davomida zerikishdan va fanga nisbatan qiziqishining pasayib borishini oldini oladi desak xato bo'lmaydi.

Prezentatsiyalarning mazmuni va ularda o'rganilgan materialni taqdim etish uslubiyati nutq terapiyasi darslarining maqsadi va vazifalariga qarab tanlandi (yangi narsalarni o'rganish, qoplangan materialni mustahkamlash, o'rganilganni takrorlash yoki umumlashtirishda bilimlarni yangilash va boshqalar).

Boshlang'ich maktabda taqdimotlardan foydalanadigan darslar ayniqsa dolzarbdir, chunki ular rasmi materiallarni o'z ichiga oladi, ushbu bosqichda yosh o'quvchilarda eng rivojlangan vizual-majoziy fikrlashni hisobga oladi va eshitish, hissiyot va xayolotni faollashtiradi.

Masalan, yilning har fasli bilan tanishish jarayonida "Qish", "Bahor", "Yoz", "Kuz" leksik mavzularidagi taqdimotlarimiz nafaqat bolalarning so'z boyligini oshirishga yordam beradi, shu bilan birga vizual-majoziy va og'zaki-mantiqiy fikrlashning rivojlanishi, matn, grafik, audio-video ma'lumotlari, animatsiyalardan foydalanish orqali ta'minlanadi, ta'limiy ma'lumotlarning sifati va umuman o'qitishning muvaffaqiyati sezilarli darajada yaxshilandi.

O'tmishni birlashtirish bosqichida "Fasllar" taqdimotida o'rganilgan so'z boyligini umumlashtirish amalga oshirildi. Jumboq, maqollar, didaktik o'yinlar, mashqlar ushbu lug'atning ishlashini ko'rsatadigan o'quv va uslubiy materiallar sifatida ishlatilgan. Elektron tematik prezentatsiyalar yordamida tanlangan so'z birikmalarini faollashtirish samaradorligi, mustaqil ishlarni tashkil qilishda, o'quvchilarning bilim faolligini oshirishda ham ta'kidlandi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib xulosa qiladigan bo'lsak, innovatsion va kreativ texnologik yondashuvlardan foydalanish va ular orqali ona tili va adabiyot faniga o'quvchilarning qiziqishini ortirish, dars sifatini oshirish, so'zlarni talaffuz qilishda nutqida nuxsono bo'lgan va qolgan o'quvchilarga nisbatan o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan ushbu yondashuvlar asosida qayta takroriy darslar o'tqazish(tayyor multimedion tag'dimotlarni kiritish va uni yuklab ilish imkoniyatini yaratilish asosida) imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Emelyanova O. A. Ta'limda bulutli texnologiyalardan foydalanish // Yosh olim. - 2014. - № 3. - S. 907-909.

2.Sunagatullina I. I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq faolligining xususiyatlari yumshoq tarzda ifodalangan nutqning umumiy rivojlanishi // Boshlang'ich maktab. - 2009. - № 2. - S. 78 - 81.

3. “INNOVATIONS AND MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM” Materials of the VIII international scientific conference on February 20–21, 2018 (99p)

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQIY TA'LIM
SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK-INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Maxmudhodjayeva Feruza Abdujalilovna

Toshkent shahar Yangihayot tumanidagi

584- Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining

musiqqa fani o'qituvchisi

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama mukammal inson qilib tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Har bir bola musiqaning qaysi yo'nalishini o'rganishidan qat'iy nazar uning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojini musiqa rahbari nazarda tutishi lozim. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqiy ta'lim tizimi bir necha bosqichlardan iborat. Musiqa ta'limi boshqa fanlar kabi maktabdan emas, balki maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanadi va ta'lim tizimining barcha jabhalarida davom etadi. Shuning uchun biz kelajak avlodni musiqiy bilimga ega bo'lishlariga zamin yaratar ekanmiz, pedagogik texnologiyalar orqali ularning musiqiy-estetik tarbiyalariga alohida e'tiborimizni qaratmog'imiz zarur

Musiqa madaniyati darslarida pedagogik texnologiyalar usulini qo'llashning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunday mashg'ulotning rejalashtirilgan ta'limiy maqsadiga erishish kafolatlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir musiqa darsining o'ziga xos murakkab texnologiyasi bor. Buning uchun musiqa o'qituvchisi har bir darsni undagi faoliyat turlarini yaxlit holda ko'ra olish kerak. Uni tasavvur eta olish uchun o'tilajak mashg'ulotni oldindan loyihalashtirish zarur. Bunda mashg'ulot rahbariga bo'lajak mashg'ulotning texnologik haritasini to'zish katta yordam beradi. Darsning texnologik haritasi har bir mashg'ulotning xususiyati mashg'ulot rahbari va bolalarning qobiliyati, qiziqishi, imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqib to'ziladi. Buning uchun mashg'ulot rahbari pedagogika, psixologiya, musiqa tarbiyasi metodikasi, pedagogik va axborot texnologiyalardan yaxshi xabardor bo'lishi, ko'plab metod va interaktiv usullarni yaxshi bilishi kerak.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning juda ko'p usullari mavjud. Bu usullardan o'quvchining yoshi, psixologik xususiyati, bilim darajasiga qarab foydalanish mumkin.

Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda o'tkazilishi mumkin bo'lgan dars jarayoni metodikasini har bir o'qituvchi o'z fani (o'quv predmeti) sharoitidan hamda o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'zgartirishi yoki shular asosida o'qitish jarayonida o'zining mualliflik texnologiyalarini yaratishi mumkin.

Tavsiya etilgan qator yangi pedtexnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishda o'qituvchi dastlab, bu texnologiyalarning maqsadi, mazmuni, qo'llashning yo'llari, sharoitlari bilan atroflicha tanishib chiqishi, o'z fani xususiyatlaridan kelib chiqib, to'liq, qisman yoki faqat prinsiplaridan foydalanishni o'ylab rejalashtirishi zarur. Aks holda, dars samaradorligini oshirishda deyarli biror natijaga erisha olmasligi mumkin.

Agar kichik yoshlarimizdagi shijoatni, kuch-qudratni, bilimdonlikni hamda vatanparvarlikni musiqa yordamida uyg'unlashtira olsak, bundanda ziyoda qudratni topa olmaymiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish uchun bo'ladi. Binobarin, bu jarayonlarda guruhlarga bo'linib ishlashning imkoni oz bo'ladi. Musiqa savodi, ya'ni nota yozuvi elementlari, yakkanavozlik, yakkaxonlik, jo'rnavozlik, cholg'u ansambli kabi mavzularni tushuntirishda guruhlarga bo'linib, «Bumerang» texnologiyasi, «Blis-o'yin», «Tarmoqlar» metodi (Klaster), «Skarabey» texnologiyasi («Aqliy hujum») va boshqa interfaol metodlarning prinsiplaridan foydalanish mumkin.

O'qituvchi darsning maqsadi va turli musiqiy faoliyatlar bo'yicha rejalashtirilgan vazifalarni bajarish uchun qulay (optimal) bo'lgan yo'l, usul va vositalarni izlaydi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan noan'anaviy va an'anaviy darslar tashkil qilish jarayonida to'plangan tajribalarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida ulardan foydalanishning soddalashtirilgan tartibini quyidagicha izohlash mumkin.

O'quvchilarning musiqiy xotirasini mustahkamlash maqsadida, ular tinglagan asarlarga oid rasmlarni ko'rsatish va rasimga muvofiq qaysi musiqa asari tinglanganligini so'rash mumkin. O'quvchi tinglangan musiqa asarlarini eslash va ulardan rasm mazmuniga mosini tanlab aytishga harakat qiladi. Bu jarayonda o'quvchi mantiqiy fikrlash, taqqoslash, olgan musiqiy axborotlari (musiqiy taassurotlari)ni xayolida takrorlash, shuningdek, tasviriy san'at asari bilan tanishish kabi foydali amaliyotlarni bajaradi.

Shuning uchun darsning har bir faoliyat turida ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin. Darsda olib boriladigan o'qituvchini turli faoliyat shakllari tushuntirish, namoyish qilish, ko'rsatish, tinglantirish, suhbat, savol – javob, jamoa bo'lib kuylash ovoz sozlash mashqlari kabilarni har birini mazmun va mohiyati mavjud shart – sharoit, o'qituvchi va o'quvchilar imkoniyatiga muvofiq tarzda texnologiyalarni tadbiq etish mumkin. Bunda musiqa o'qituvchisining ham o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Musiqa san'atiga muhabbat, qiziqish, darsni emosional ko'tarinki ruhda o'tkazish, o'zida artistlik, rejissyorlik, dramaturglik, mahoratlarini rivojlantirib borish, bolalarni sevish, ulardagi musiqiy qobiliyat va qiziqishlarni e'tiborga olish ularni ro'yobga chiqarishga intilish, yaxshi xonandalik, cholg'uchilik mahoratiga ega bo'lishlik shular jumlasidandir. Chunki, o'qituvchining ta'kidlab o'tilgan xususiyatlarning o'zi ham darsda o'quvchilar uchun texnologik ibrat xizmat qilishi mumkin. Musiqa ta'limining o'ziga xosligi tashkiliy tuzilishi, amaliy ijrochilik faoliyatlari, shuningdek o'qitish usullari, ularning samaradorligini ta'minlovchi omillar, vositalar tahlili va ularni umumiy ijodiy – ijobiy jihatlarini umumlashtirish musiqa ta'limini o'zigagina xos bo'lgan yangi turlarini ishlab chiqish imkonini berdi. Bular ham o'z maqsadi va bajaradigan vazifasi mazmun va mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya bo'lib, ularni musiqa mashg'ulotlariga tadbiq etish yaxshi natija bermoqda. Bunday darslar o'quvchilarda yaxshi kayfiyat, jo'shqinlik, ko'tarinki ruh va intilishni kuchaytirmoqda. Ular qatoriga hozirgi kunda ilg'or, tashabbuskor o'qituvchilar tomonidan keng qo'llanilayotgan quyidagi texnologik darslarni alohida ko'rsatishimiz mumkin:

- bolalarni quvnoq, g'amgin, yengil va vazmin musiqani tinglashga past va yuqori registrni eshita olishga, musiqa tilini tushunishga, past ovozli va baland ovozli musiqaga mos chapak chalish orqali musiqa dinamikasini ajratishni o'rgatish;

- musiqiy rahbar boshchiligida raqs harakatlarini bajarish;

- kompozitorlar, musiqiy cholg'u asboblari haqida gapirib berish orqali

-bolalarda musiqa san'atiga muhabbat uyg'otish;

- bolalarni musiqani diqqat bilan tinglashga o'rgatish, yengil va oson xalq qo'shiq hamda kuylarini musiqasiga mos ritmik harakatlar bajarib ijro etishga o'rgatish. Musiqa sur'atiga mos chapak chalish yoki oyoq bilan jo'r bo'lish orqali qo'shiqni ijro eta olish.

Bolalar ijrochiligi — kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijro etish va hokazo masalalari hozirgi kunda o'zining dolzarbligi bilan ko'pgina pedagog-olimlarning diqqat markazidadir.

Mavjud tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim mazmuni qanchalik yangilanmasin, mukammal o'quv dasturlari, darsliklar yaratilmasin, o'quv – tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining pedagogik mahorati, yangi ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirishi va ulardan ta'lim jarayonida unumli va o'rinli foydalana olishiga bog'liq bo'ladi.

INKLYUZIV TA'LIM TAMOYILLARI

Qosimov G'affor

Buxoro viloyati G'ijduvon Pedagogika kolleji o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim tamoyillari haqida kerakli ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, individual ta'lim, tamoyil, pedagogik yondashuv.*

Inklyuziv ta'lim - ta'lim tashkilotlari uchun barcha bolalarga ta'lim berish imkoniyatidir. Ushbu ta'lim insonning asosiy huquqi sifatida tushunishga asoslanadi. Inklyuziya keng ma'noda ham, tor ma'noda ham qo'llaniladi. Keng ma'noda-u urush qurboni bo'lgan alohida ehtiyojli bolalar, qochoq bo'lgan bolalar, kam ta'minlangan oilalarning farzandlari, ijtimoiy zaif oilalarning bolalari, iste'dodli bolalar, sog'lig'ida muammolari bo'lgan bolalar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Inklyuziv ta'lim g'oyalari ijtimoiy-madaniy nazariyalarga asoslanadi. Psixolog L.Vigotiskiy (1896-1934) Inklyuziv ta'lim g'oyasining asoschisi bo'lib, uning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi orqali bolalar ijtimoiy muhitda eng samarali bilim oladilar. L.Vigotiskiy oliy aqliy funksiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hamkorlikdan boshlanadi va keyin shaxsiy bo'ladi deb aytib o'tgan.

Ko'pgina mamlakatlarda Inklyuziv ta'lim amaliyoti bu nazariyaning to'g'riligini ko'rsatib berdi. Tadqiqotlarga ko'ra, alohida ehtiyojli bolalar o'z tengdoshlari bilan birga o'qisalar o'rganishda ijtimoiy muloqotda ancha yaxshi natijalarni ko'rsatishga moyildir.

Barcha bolalar Inklyuziv ta'lim amaliyotidan yaxshi foyda oladilar. Odatda, alohida ehtiyoji bor bola rivojlanayotgan tengdosh bolalar bilan bir guruhda bo'lishi ularga taqlid qilishga, ular bilan muloqot qilishga, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xarakat qiladi. Rivojlanayotgan bolalar alohida ehtiyojlari bor odamlar duch keladigan muammolarni tushunib boradilar. Ular boshqalarning ehtiyojlariga sezgir bo'lib, farqlarni yaxshiroq anglaydilar. Ular barcha odamlar muhim muammolarni bartaraf eta olishlariga va muvaffaqiyatga erishishlari mumkinligini bilib oladilar.

Inklyuziv ta'lim tamoyillari

Inklyuziv ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Individual yondashuv tamoyili- guruh bolalarining har birining individual tarbiyaviy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiyaning shakl, metod va vositalarini tanlashni o'z ichiga oladi. Bolalarni individual rivojlantirish dasturlari bolaning funksional holatini tashxislashga asoslanadi va muayyan bolani rivojlantirish bo'yicha individual strategiyani ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Individual yondashuv nafaqat bolaning ehtiyojlariga tashqi e'tibotni o'z ichiga oladi, balki bolaga ularning individualligini amalga oshirish imkoniyatlarini ham beradi.

Bolaning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash tamoyili- Inklyuziv ta'lim muvaffaqiyatining muhim sharti bolaning mustaqil faoliyati uchun shart-sharoit yaratishdir. Bu tamoyilni amalga oshirish ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish muammosini hal etadi.

Ko'pincha faoliyat bolaning o'z xususiyatlari, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishga imkon bermasligini hisobga olib, kattalar tamonidan ularga g'amxo'rlik ko'rsatiladi. bunday holda bola tashqi tabassumni kutadigan bo'lib, sust harakat qiladigan bo'lib qoldi. Xuddi shu narsa alohida ehtiyoji bor bolalar ota-onalari bilan ham sodir bo'lishi mumkin. Ota-onalar ijtimoiy hayot va ta'limda bola rivojlanishida ishtirok etish uchun o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmay davlatdan yordam va imtiyozlar kutishlari mumkin.

Inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatlari

alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning umumiy ta'lim bilan muntazam

guruhlarda pedagoglar bilan birgalikda mutaxassislar jamoasi shug'ullanadilar;

alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning qanchasini bir guruhga muvaffaqiyatli kiritish mumkinligini aniqlab olish zarur. Odatda bu miqdor har bir bolaning xususiyatlari turiga va pedagogning o'z maktabgacha ta'lim tashkilotidan oladigan yordamiga bog'liq. Masalan, boshqa mutaxassislar yordami bilan pedagog faqat bitta og'ir kasallikka chalingan bolani yoki yengil tashxis qo'yilgan bir necha bolani o'z guruhiga olishi mumkin. Guruhdagi bolalar umumiy sonining 5-10% dan ko'p bo'lmagan shtadi bo'yicha alohida ehtiyojga muhtoj bolalarni ham o'z ichiga olishi amaliyoti mavjud. Agar guruhda 20 nafar bola bo'lsa alohida ehtiyojga muhtoj 1-2nafar bolani qabul qilish;

- farzandlarining ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishiga doir qaror qabul qilishda ota-onalar va boshqa oila a'zolari faol ishtirok etishi;

barcha pedagoglar (guruh tarbiyachisi, maktabgacha ta'lim psixologi va defektologi, musika rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi) jamoa bo'lib ishlaydi va ularning say – harakatlarini muvofiqlashtiradi. Qarorlar bir-biri bilan samarali xamkorlik qiladigan jamoa a'zolari tomonidan qabul qilinadi.

- strategiyalar va ta'lim berish butun bolalarning rivojlanishini ta'minlaydi va har bir alohida bolaning maxsus rivojlanish ehtiyojlarini hisobga oladi.

-maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash individual bolaning rivojlanish xaritasi bolalarning kuchli tomoni va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tuzilgan.

Inklyuziv ta'limni erta kirishish bola o'z tengdoshlari xattii harakatlari bilan tanishish imkonini beradi. Inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar o'z tengdoshlari bilan maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan va bo'lmagan holda o'zaro muloqot qilish uchun kundalik imkoniyatlarga ega bo'ladilar...

Inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalar:

odamlar o'rtasidagi farqlardan qo'rqmaslik;

yaxshi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

**ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR DIQQATINI JALB QILISHNING
AHAMIYATI****Sotvoldiyeva Sevara Jakbaraliyevna***Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani**42-umumiy o'rta ta'lim maktabi**ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

Ma'lumki, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, o'quvchilarga chuqur bilim berish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa, o'quvchilarga aniq yo'nalish berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to'g'ri xulosani aytadi, natijada o'quvchi o'z xatosini tushunib, fikrlashdan to'xtamaydi va ular o'rtasidagi doimiy faollik ta'minlanadi.

Kichik yoshdagi bolalar diqqati beqaror bo'lib, o'quvchi uchun biroz muammolar yuzaga kelishiga olib keladi. Ana shu vaziyatda o'quvchilar diqqatini jamlashda qiziqarli interaktiv metodlarning ahamiyati katta. O'quvchilarga rasmi topshiriqlarni bajartirish, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va og'zaki nutqini o'stirib, lug'at boyligini oshiradi. O'quvchilarining topqirligini, harflarni eslab qolish qobiliyatini o'stirishda quyidagi metodlar samarali natijalar beradi:

“Kungaboqar” metodi. Kungaboqar rasmi o'rtasida o va u unlilari, uning atrofida esa, undosh harflar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar undosh va bitta unli harflarni qo'shib, bir necha so'zlar tuzishadi. O'yin davomida o'rtadagi unlilarni almashtirish ham mumkin. O'quvchilar mustaqil ravishda daftarlariga tuzgan so'zlarini yozadilar. Bu jarayonda hamma o'quvchilar baravar ishtirok etishadi. O'qituvchi esa mashg'ulot davomida eng faol qatnashganlarni rag'batlantirib, baholab boradi. Birinchi va ikkinchi kungaboqarda berilgan harflardan shunday so'zlar yasashimiz mumkin

“Sinkveyn” metodi. Sinkveyn so'zining ma'nosi “beshlik” bo'lib, “Qofiyalanmagan besh qatorlik she'r” degan ma'noni anglatadi. O'quvchilar “Sinkveyn” metodidan foydalanib, qofiyalanmagan besh qatordan iborat she'r yozadilar. Bunga ko'ra birinchi qator bitta so'zdan iborat bo'lishi va bu ot so'z turkumiga oid so'z bo'lishi, ikkinchi qator ikkita so'zdan iborat bo'lishi va bu sifat so'z turkumiga oid so'zlar bo'lishi, uchinchi qator uchta so'zdan iborat bo'lishi va bu fe'l so'z turkumiga oid so'zlar bo'lishi, to'rtinchi qatorda to'liq bir maqol keltirilishi va beshinchi qatorda birinchi qatordagi so'zga sinonim bo'lgan bir so'z qo'yilishi mumkin. Ushbu metoddan o'quvchilar so'z turkumlari haqida tushunchalarga ega

bo'lganlaridan so'ng foydalanishi mumkin. Ona tili darsligida so'z bo'limida shaxs va narsaning nomini, harakatini, belgisini, sanoq va tartibini bildirgan so'zlar haqida ilk morfologik tushunchalar berilgan. O'qituvchi o'quvchining fikrini tinglaydi va shu bilan birga, o'quvchilarni ham bir birlarining so'zlariga e'tibor bilan qarashga o'rgatadi. E'tiroz yoki qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizlarning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Ma'lumki, ona tili darsida ham lug'at ishlarini o'tkazish o'quvchilarda o'zi uchun notanish bo'lgan so'zni izohi haqida qiziqish paydo bo'ladi. Bu so'zlarning izohini topishda o'quvchining o'zi mustaqil izlanishi maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi metod o'quvchilarning so'z boyligini oshirish bilan bir qatorda lug'at bilan ishlashga ham o'rgatadi.

ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002. № 4.
2. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2005.

**TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISH VA O'QUVCHILAR BILIMINI
ZAMON TALABI ASOSIDA BAHOLASH****To'raqulova Feruza Safarovna***Sirdaryo viloyati GulDU qoshidagi akademik litseyi**ijtimoiy gumanitar kafedrası**tarix fani oqituvchisi*

“O‘zbekiston Respublikasining ustuvor siyosati, ta‘lim tizimi ish mazmunini demokratlashtirish, XXI asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk, dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli, barkamol shaxslarni jahon ta‘lim standartlariga mos ravishda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir”. Barkamol shaxs hamisha o‘z Vatani kamolotini rivojlantiradi, uning ravnaqi yo‘lida umrini baxshida etishni o‘z burchi deb biladi. Barkamol avlod tushunchasi tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘z davrining komil insoni hisoblanadi. Demak, sog‘lom yoshlar har qachon, har yerda o‘z fikriga, sog‘lom mulohazasiga ega bo‘ladi, xalq va davlat manfaatini himoya qiladi. Uning aql-zakovati, intellekti, teran dunyoqarashi orqali o‘z maqsadiga erishish yo‘llarini qidirib topadi.

Mashhur o‘zbek taraqqiyparvari, jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Abdurauf Fitrat 1917-yilda tarixdan saboq chiqarish to‘g‘risida shunday yozgan edi: “Tarix millatlarning o‘tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o‘rganaturg‘on ilmdir”. Darhaqiqat, tarix xalqqa saboq va ma‘rifat beradi. Tarixni o‘rganmasdan turib kelajakni anglab bo‘lmaydi. Tarix inson aql-idroki va tafakkurining shunday bir nodir va mo‘jizakor mahsuli, inson tarixdan ta‘lim-tarbiya oladi, tarix katta saboq beradi. Tarix saboqlaridan o‘ziga tegishli xulosa chiqara olmagan, kechagi kunini yaxshi bilmagan millatning kelgusi qismati o‘z-o‘zidan ravshan. Axborotkommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan davrda yashayotganimizga qaramasdan, avvalambor tarixni bilish –bu hayotiy zaruratdir.

Jumladan, Vatanimiz O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi ham inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farovonligini ta‘minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, yoshlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish-ta‘limtarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim. Ta‘limning bugungi kundagi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta‘lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga albatta dars jarayonlarida turli pedagogik texnologiyalar yordamida mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Innovatsion ta‘lim texnologiyalarini pedagogik amaliyotga tatbiq etish uchun o‘qituvchiga quyidagi komponentlar-bilim, ko‘nikma va malakalar zarur bo‘ladi:

- O‘z fanining asoslarini chuqur egallagan, ilmiy salohiyat va ma‘naviy barkamollikka ega bo‘lishi;
- O‘z fanining ilg‘or targ‘ibotchisi, fidoiysi bo‘lishi;

- Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashirish, o'zlari ham yangicha o'qitish uslublarini ishlab chiqishi;

- O'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan keng foydalanish;

- Internet tarmog'i to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi va undan o'z bilimni oshirishda foydalana olishi;

- Innovatsion ta'lim texnologiyalarining turlari, qoidalari va tamoyillari haqida tushunchaga ega bo'lishi;

- O'quvchilarning faolligini o'stirish, ularning mustaqil ta'lim olish jarayonlarini o'rganish, o'qitish jarayonini mazmunli, qiziqarli, ijodiy, samarali bo'lishi uchun ta'limning interfaol metodlarini qo'llay bilish;

- O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va ularning monitoringini olib borish;

Zamon talablariga hamohang bo'lgan o'qituvchi o'quvchilarning bilim darajalariga qarab vazifalarni belgilashi lozim. Sababi darslardagi bir xillik, faqat kitobdagi ma'lumotlar bilan cheklanib qolish bugungi kun intellektual salohiyati yuqori bo'lgan yoshlarning darsga bo'lgan qiziqishlarini susaytirishi mumkin. Bugungi kun o'qituvchisi pedagogik va axborot texnologiyalar, interfaol uslublar bilan qurollansagina o'quvtarbiya jarayonini qiziqarli tashkil eta oladi. O'qituvchi o'zi o'qitayotgan o'quvchilarning bilim salohiyatiga mos ravishda vazifalarni belgilashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan.-T.: 2017-yil

2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" -Ma'naviyat:2008-yil

3. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar"-T.:2017-yil

4. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova "O'zbekiston tarixi"-T.:2006-yil

ИНТЕРФАОЛ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Икромова Санобар Икром қизи*Тошкент шаҳар Бектемир тумани**580-давлат мактабгача таълим ташкилоти**ўқитувчи логопеди*

Халқ таълими тизимини бошқаришнинг самарали механизмларини жорий этиш ўсиб келаётган ёш авлодни маънавий-ахлоқий ва интеллектуал ривожлантиришни сифат жиҳатдан янга даражага кўтаришнинг энг муҳим шарти ҳисобланади, шунингдек ўқув-тарбия жараёнида таълимнинг инновацион шакллари ва усулларини қўллашга кўмаклашади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги “2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2707-сонли, 2017 йил 30 сентябрдаги “Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5198-сонли Фармони, 2017 йил 9 сентябрдаги «Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3261-сонли қарори, шунингдек Мактабгача таълим вазирлигининг 2018 йил 18 июндаги 1-мх сонли “Илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари” ҳамда “Илк қадам” мактабгача таълим муассасасининг ривожланишининг учун таълим сифатини яхшилаш мақсадида замонавий таълим сифатини оширишда интерфаол методларнинг ўрни катта аҳамиятга эга. Қуйида кўрсатиладиган методлар Мактабгача таълим ташкилоти тарбияланувчи машғулот давомида тарбияланувчиларнинг ақлий, жисмоний, ахлоқий ҳамда ривожланишида нуқсон бор тарбияланувчиларга катта ёрдам беради.

“Чорраха” методи

Методнинг мақсади: Бу метод мураккаб, кўптармоқли, мумкин қадар, муаммоли характеридаги мавзуларни ўрганишга қаратилган. Методнинг моҳияти шундан иборатки, бунда мавзунинг турли тармоқлари бўйича бир хил ахборот берилади ва айни пайтда, уларнинг ҳар бири алоҳида аспектларда муҳокама этилади. Масалан, муаммо ижобий ва салбий томонлари, афзаллик, фазилат ва камчиликлари, фойда ва зарарлари бўйича ўрганилади. Бу интерфаол метод танқидий, таҳлилий, аниқ мантикий фикрлашни муваффақиятли ривожлантиришга ҳамда тингловчиларнинг мустақил ғоялари, фикрларини ёзма ва оғзаки шаклда тизимли баён этиш, ҳимоя қилишга имконият яратади

Методни амалга ошириш тартиби:

Тарбияланувчиларни 3-4 та кичик гуруҳларга бўлиб, чорраханинг туташган марказида, яъний ўртасида мавзуга оид топшириқ олинади. Топшириқларни тўрт тарафдаги йўлларга муҳокамаси ёзилади.

“Коллаж” методи

Коллеж сўзи инглиз тилидан олинган бўлиб, қирқиб ёпиштириш маъносини билдиради. Педогоглар бирор мавзу бўйича таълим олувчилар билан маслахатлашиб, ўз фикрларини турли хил шакллар ёки расмларни қирқиб ёпиштириш орқали баён этадилар.

Ҳар қандай мавзу ва муаммолар мавжуд билимлар ва тажрибалар асосида муҳокама қилиниши назарда тутилган ҳолда ушбу метод қўлланилади. Топшириқларни қирқиб ёпиштириш орқали фикрини етқазиб бериш вазифасини таълим олувчиларнинг бирига топшириши ёки таълим берувчининг ўзи олиб бориши мумкин.

“Ғоялар ғилдираги” технологияси

Технологиянинг методи: Мазкур технология иштирокчилардаги ўз ғояларидан умумий ғоялар, хусусий хулосалар чиқариш, таққослаш, қиёслаш орқали ахборотни ўзлаштириш, хулосалаш, шунингдек, мустақил ижодий фикрлаш кўникмаларини шакллантиришга хизмат қилади. Мазкур технологиядан маъруза машғулотларида, мустаҳкамлашда, ўтилган мавзунини сўрашда, уйга вазифа беришда ҳамда амалий машғулот натижаларини таҳлил этишда фойдаланиш тавсия этилади.

Технологияни амалга ошириш тартиби:

Ҳар бир тингловчи ўз ғояларини “Ғоялар ғилдираги” га битта мавзу асосида баён қиладилар. Барча ғоялар умумлаштириб, муҳокама қилиниб, умумий ғоялар мажмуаси яратилади.

“Чархпалак” методи “Чархпалак” методи бу-педагогик стратегия бўлиб, у тингловчиларни бирон бир мазмунни чуқур ўрганишларига ёрдам бериб, тингловчиларни мавзуга тааллуқли тушунча ёки аниқ фикрни эркин ва очиқ равишда кетма-кетлик билан узвий боғланган ҳолда тармоқлашларига ўргатади.

Бу метод бирон мавзунини чуқур ўрганишдан аввал тингловчиларни фикрлаш фаолиятини жадаллаштириш ҳамда кенгайтириш учун хизмат қилиши мумкин. Шунингдек, ўтилган мавзунини мустаҳкамлаш, яхши ўзлаштириш, умумлаштириш ҳамда ўқувчиларни шу мавзу бўйича тасаввурларини чизма шаклида ифодалашга ундайди. Бу эса тингловчиларга ўз билимлари, тушунишлари ва тасаввурлари даражасини аниқлашга ёрдам беради.

Ушбу метод яққа, кичик гуруҳ, жамоа билан ишлашда қўлланиши мумкин. Гуруҳ ҳолатида қўлланилиши гуруҳлар фикрини тўплаш ва уларни бир тизмдаги қурилмага келтириш мумкин.

“ЮМАЛОҚЛАНГАН ҚОР” МЕТОДИ- бу метод ҳар қандай тушунчага мумкин қадар аниқроқ таъриф топишга имкон беради, тингловчиларга гуруҳларда ишлашни, бошқалар фикрига қулоқ солишни ва умумий нуқтаи назарни ишлаб чиқишни ўргатади. Гуруҳлардаги иш тугашига кўра, ҳар бир гуруҳ вакиллари навбати билан ўз плакатларини хона тахтасига илиб қўяди ва ўқийди. Берилган саволларга жавоб беради.

**ШУКУР ХОЛМИРЗАЕВ ҲИКОЯЛАРИДА ИНСОН
РУҲИЯТИ ТАСВИРИ****Мамараҳмонова Дилбархон***Андижон вилояти, Шаҳрихон тумани**28 умумий ўрта таълим мактаби**Она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси*

XX аср тарих мулкига айланиб бўлди. Энди ўтмиш ўз хулосалари билан эртанги куннинг қандай бўлишига хизмат қилади. Адабиётшунос, ёзувчи ва шоир Улуғбек Ҳамдам таъбири билан айтганда, «Бугун ва эртанинг илдизлари ҳаммиша айнан Кечанинг бағрида қоимдир». Эртанги куннинг қандайлиги кечага боғлиқ экан, табиийки, ўтмишга холис кўз билан боқиш, унинг қандай кечганини, хусусан, адабиётдаги ифодасини изчиллик билан ўрганиш алоҳида аҳамият касб этади.

Бугунги кунда адабиётимизда инсон руҳиятини тадқиқ этиш ҳам устувор масалалардан биридир. Президентимиз таъкидлаганларидек “Ҳар бир илмий янгилик, яратилган кашфиёт бу янгича фикрлаш ва дунёқарашга туртки беради, маънавиятнинг шаклланишига ўзига хос таъсир кўрсатади”

«Республикаимизнинг мустақилликни қўлга киритиши, ижтимоий-сиёсий соҳада бўлганидек, маънавий-маданий ҳаётимизда ҳам бутунлай янги саҳифа очди. Биз ўз мулкимизга ва ўз меҳнатимиз натижасига ўзимиз эга бўлдик.

Тарихимизга тегишли факт ва ҳодисаларни, катта-кичик шахсиятларни ўзгаларнинг кўзи ва ақли билан баҳолаш барҳам топа бошлади. Миллат ва Ватан манфаати ҳамма нарсадан муқаддас тутилди. Шу аснода «Туркистон (Кўқон) мухторияти» номи билан тарихга кирган, жаҳидларимизнинг сиёсий мустақиллик учун олиб борган курашларининг илк намунаси бўлган, лекин шўролар томонидан хоинона қонга ботирилган ҳодисани, «Босмачилик» номи билан бадном қилинган, аслида халқимизнинг ўз эрки, маънавияти йўлидаги кураши – миллий озодлик ҳаракатла қайта баҳолаш бошланди», – деб ёзади олим Бегали Қосимов. Дарҳақиқат,

истиклолга эришувимиз билан оламга муносабат ҳам ўзгарди. Янгича нигоҳ ижодкорларнинг фаолиятида ҳам акс эта бошлади. Ёзувчи Шукур Холмирзаевнинг «...элу ватаннинг мустақиллигу озодликка чиқиши улуг бир шодиёналиқдир. Сен эса – Туронзамин номли бир маданий мамлакатнинг маданий фуқароси санайсан ўзингни. Энди сен айтгин-чи, бир адиб сифатида, аввало, нималар қилдинг, нималарга эришдинг-етишдинг?» деган саволга жавобда таъкидлаганидек, «Ана шундан кейин дунёга кўзим қайта очилгандек – инсониятни янгитдан кўраётгандек бўлдим: инсоният бу эътиқодларсиз яшолмас экан, бу эътиқодлар – унинг тадрижий тақомиланинг маънавий ҳосилалари эканки, бунга ақлим етгунига қадар шаккоқлар сафида эканман.

Миллий руҳият – муайян миллат вакилларининг ўзаро бир-бири билан муносабатида, феъл-атворида, турмуш-тарзида ва ҳоказо жиҳатларда акс этадиган ўзига хос сифатлар мажмуидир.

Бадиий асарда миллий руҳиятнинг акс этиши муҳим аҳамият касб этиб, у асарда тасвирланаётган воқеалар, қаҳрамонларнинг ишонарли чиқишида асосий омил вазифасини ўтайди. Адабиётшунослик илмининг бу жиҳатни аниқлаши эса миллатнинг ўзлигини англаши учун ҳам зарурдир. Зотан, ўзликни англа ҳақиқатни танишнинг асосий шarti саналади. Адабиётшунослигимизда қаҳрамонлар руҳиятини ўрганиш асносида миллий руҳият тадқиқ этилган бир қанча тадқиқотлар мавжуд. Жумладан, адабиётшунос М.Абдурахмонова «Руҳий дунё тасвири» рисоласида Абдулла Қодирий, Ойбек, Абдулла Қаҳҳор каби ёзувчиларимизнинг таҳлилга тортилган асарларидаги қаҳрамонлар руҳиятини психологик жиҳатдан асослаш тамойилларини аниқлар экан, айна чоғда ўзбек кишиси руҳияти акс этган ўринларга ҳам алоҳида тўхталиб ўтади. Олим Ҳ. Умуровнинг «Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги» номли монографиясида ҳам ўзбекна руҳиятга эътибор қаратилади. Шунингдек, филология фанлари номзоди Ш. Дониёрова «Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадиий-услубий ўзига хослиги» деб номланган диссертациясида, жумладан, ёзувчининг маҳаллий колоритни кўрсатиш маҳорати, миллий ва умуминсоний руҳиятни тасвирлаш тамойилларини белгилашга ҳаракат қилади.

Шунингдек, Шукур Холмирзаев ижодида миллий ва маҳаллий руҳиятнинг ифода этилиши Г. Тавалдиева, М.Ҳамидова каби адабиётшуносларнинг тадқиқотларида, М. Қўшжонов, У. Норматов, С. Мамажонов, Қ. Йўлдошев, Ҳ. Болтабоев, О. Отахонов, Р. Қўчқоров сингари танқидчи олимларнинг мақолаларида ҳам таъкидлаб ўтилади. Шу билан бирга ёзувчи Ш. Холмирзаевнинг эгаманлик даврида яратилган ҳикояларида ўзбек кишисининг руҳияти, ўй-кечинмалари, таъсирланиш йўсини қандай тасвирланганлиги, бунда қайси бадиий тамойилларга амал қилинганлиги алоҳида муаммо сифатида ўрганилмаган. Ҳолбуки, ижтимоий ҳаётда содир бўладиган ўзгаришлар аксар ҳолларда кишилар онгида бошланади ва ўша ўзгаришлар нималардан иборат эканини билиш муҳим аҳамият касб этади.

Адибнинг «Бир гузар одамлари» ҳикоясида миллатдошларимизнинг фавқулодда вазиятларда ички дунёсидаги ўзига хос, шу билан бирга миллатнинг умумий жипслигини таъминловчи меҳр-оқибат, ўзаро ҳурмат, покдомонлик, ваъдага вафо қилиш сингари хислатларнинг ёрқинроқ акс этиши ифодаланса, «Арпали қишлоғида», «Бир кўрган таниш...» сингари асарларда эса ичидаги кечинмаларини ошкор этишдан кўра мавжуд маънавий мезонларга амал қилишни афзал кўрадиган андишали, ор-номусли кишиларнинг руҳияти ишонарли тарзда кўрсатилади.

**BIOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIKA VA AXBORAT
TEXNOLORGIYALARIDAN FOYDALANISH**

Boltaboyeva Xurramoy Xikmatillayevna

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani

XTB ga qarashli 42-sonli maktabning

Biologiya fani o'qituvchisi

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amaldagi ikkinchi sifat bosqichi ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha o'quv fanlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashni ko'zda tutadi. Shu sababli barcha o'quv fanlari kabi biologiyani o'qitishda ham pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamon talabi sanaladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'ldi va turli rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda.

Pedagogik texnologiya o'qitish shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Bu yerda, inson salohiyati deyilganda, o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyati, texnik resurslar deganda o'qitish metodlari va vositalari nazarda tutilmoqda.

Pedagogik texnologiyalarning uchta darajasi mavjud:

1. Umumiy metodik daraja. Umumiy pedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) darajada pedagogik texnologiyaning umumiy qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari ishlab chiqiladi.

2. Xususiy metodik darajada muayyan bir o'quv fani, kursni o'qitish jarayonining maqsadi va vazifalarini amalga oshirish maqsadida ta'lim mazmunini o'quvchilar ongiga singdirishda foydalaniladigan o'qitish metodlari, vositalari va shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. Lokal (modul) darajada ta'lim tarbiya jarayonining ma'lum bir qismida mazkur qismning xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi.

Biz pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, mohiyati va mazmuniga ko'ra ikki guruhga ajratdik:

1. Pedagogik jarayonning harakteri, borishi va mazmunini o'zgartirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar,

2. Biologiya darslarida foydalaniladigan texnologiyalar.

Biologiya darslarida didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishga imkon beradi. Ma'lumki, o'quvchilarning bilish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deyiladi.

Didaktik o'yinli darslarning syujetli rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiyalar va o'yin mashqlar kabi turlari bor. Mazkur metodik ko'rsatmada biologiya darslarida konferensiyasidan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi.

Modulli ta'lim texnologiyalari. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyati darsda o'rganiladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli modullarga ajratiladi va modul dasturi tuziladi. Modul dasturi bu o'quvchining mazkur darsda o'quv bilish faoliyatini boshqarish dasturi bo'lib, u modul dasturining didaktik maqsadi, o'quvchilarning bajarishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari, topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi.

Biologiyani o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining komandada o'qitish, kichik guruhlarda o'qitish, «arra» yoki «zigzag», «Birgalikda o'qiyamiz» metodlaridan foydalanish imkoniyati mavjud:

Ta'lim jarayonida salmokli o'rin egallagan muammoli (akliy hujum) dars, munozarali (ilmiy munozarali va erkin fikrlash) darslari muammoli ta'lim texnologiyasiga asoslanadi.

Mazkur darslarning o'ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

Muammoli ta'lim deb, o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng mo'qobil varianti yordamida, fikr yuritish qonuniyatlariga tayangan holda, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilish ehtiyojini qondirish maqsadiga yo'naltirilgan, shaxsning umumiy va maxsus rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayonga aytiladi.

Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirishi va akliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi.

Loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati - ma'lum bir muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish; ularning tegishli bilimlarni egallashlari, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish kerak.

Biologiyani o'qitishda o'qituvchi loyihalash texnologiyasidan o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda nafaqat darsda muammolarni hal etishda, balki darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ijodiy muammolarni hal etishda foydalanishi zarur.

FIZIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI

Mamajonova Gulida Voxobjonovna

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani

42-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

Fizika fani o'qituvchisi

Bugungi kunda mamlakatimizda innovatsion va ilmiy salohiyatni rivojlantirish yo'lida harakat shiddat bilan ortib borayotgan bir davrda yosh avlodning tarbiyaviy, ma'naviy-axloqiy, innovatsion, ilmiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, o'quv jarayonlariga yangi-yangi o'qitish metodlari, texnologiyalari va innovatsiyalarni tatbiq qilish asosiy burchimizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi famonida ham O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy –axloqiy va intellektual rivojlantirish sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsad qilingan.

Ta'lim, bir so'z bilan aytganda, mamlakatning kelajakdagi istiqbolini ta'minlaydigan yosh avlodni tarbiyalash, savodli qilishdir. Turli ilmiy tadqiqot metodlarini fizika fanini o'qitish jarayonida qo'llash ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, olingan bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Ta'limda interfaol metodlarni qo'llashning asosiy maqsadi o'quvchilarni faol ta'lim olish jarayoniga jalb qilish, ularga bilish hamda izlanish malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, umumta'lim maktablari fizika fani bo'yicha o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishda faoliyatni oshirishdan iboratdir.

Interfaol metodlar o'qituvchi bilan o'quvchining faol munosabati, bir-birini to'liq tushunishga asoslanadi. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo'lmasin, qaerda o'qitilmasin darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. O'qituvchi darsida tegishli muammolarga o'quvchilarni jalb etish, ularning harakatini faollashtirish va natijada o'zlashtirishlarini ta'minlash lozim.

Ta'lim jarayoniga bilish vazifasini qo'yilishida muammoli savollar asosiy o'rinni egallaydi. Ular muammoli vaziyatlar yaratishning har qanday usullariga tegishli ravishda qo'yiladi. Bilishga doir savol o'quvchilar uchun muayyan darajada qiyin bo'lishi, ulardagi mavjud bilimlarning cheklanganligini ko'rsatish va ayni vaqtda, ular bajara oladigan bo'lishi, ya'ni idrokning hayotiy tajribaga va nazariy bilimlarning qay darajada egallaganliklariga bog'liqligini hisobga olish zarur.

Fizika darslarida o'quvchilarning erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda "Muammoli vaziyat" texnologiyasidan fodalanish yaxshi samara berishini biz o'z tajribamizda juda ko'p bora kuzatganmiz. Chunki fizika fanining har bir mavzusi hoh u nazariy bo'lsin, xoh u amaliy bo'lsin, muammoli savollarga duch kelasiz.

"Muammoli ta'lim " texnologiyasining maqsadi: o'quvchilarga o'quv fanining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarini shakllantirish, muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. Ishmuhamedov R.J., Yo'ldoshev M. Ta'lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: - Nihol nashriyoti, 2016
3. Berdiyeva O.B., Mirsaburov M. Matematika fanini o'qitish metodikasi moduli bo'yicha o'quv uslubiy majmua. – Termiz-2020.
4. <https://pm.piima.uz/steam-ta'lim/>

**ILK O'SPIRINLIK DAVRIDAGI YOSHLARNING SHAXSIY
XUSUSIYATLARI VA MUAMMOLARI****Nurmuhammadiyeva Vasila Vafuqul qizi***Navoiy viloyati Navbahor tumani**1-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

Ilk o'spirinlik eng muhim psixologik xususiyati – o'z ichki dunyosini kashf etadilar. Ular o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini anglaydilar, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini qiyosiy baholay oladilar. Ularning yana bir xususiyati murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch vijdon hissi, o'z qadr-qimmatini sezish kabi xislatlardir. Umuman, o'z-o'zini anglash - quvonchli, hayajonli hodisadir. Ayni vaqtda bu his dramatik xavotirli kechinmalarga ham sabab bo'lishi mumkin. O'spirin kechinmalarida asosiy o'rinni kelajak haqidagi o'ylar egallaydi.

O'spirinlar uchun yana bir muhim kechinma o'zining tashqi ko'rinishi haqidagi o'ylardir. Juda ko'pchilik o'spirinlar o'z tashqi ko'rinishini o'zgartirishni xohlagan bo'ladilar. Tashqi ko'rinishlaridagi ozgina kamchilik ular uchun “fojia” darajasiga ko'tariladi.

Umuman, refleksiyaning o'sishi, o'z “men”iga qiziqishning ortishi barcha o'spirinlarga xos xususiyat. Lekin bu kechinmalar shaxs rivojlanishining qiyinchiliklari bo'lib, o'tkinchi xarakterga ega, umuman olganda o'spirinlik juda baxtli davr sifatida esda qoladi. O'spirinlarda refleksiyaning kechishi ko'pgina ijtimoiy, individual-tipologik, biografik omillarga bog'liqdir.

O'spirinlar aql-idrokining xususiyatlari. Bu yoshda o'quvchilarda bilish jarayonlari kichik yoshdagilar kabi intensiv o'smasa-da, lekin mustahkamlanib, stabillashib boradi. O'spirinlarda barcha faoliyat turlarida mustaqil fikr yurita olmaslik ularning jiddiy kamchiligidir. Fan o'qituvchilari har bir predmetdan o'spirinlarni original fikr yuritishga o'rgatishlari zarur. Tafakkur bilan birga o'quvchining nutq faoliyati ham o'sadi.

O'spirinlik qobiliyati va layoqatlari o'qish faoliyati davomida namoyon bo'la boshlaydi. O'spirinlarda maxsus qobiliyatlar ko'zga tashlanadi.

Kasb tanlash muammosi. Albatta, kasb tanlash muammosi o'spirin hal qilishi kerak bo'lgan eng muhim muammolardan biridir. Maktabni bitirguncha hamma o'quvchilar ham bo'lajak kasbni aniq tanlaydi deb bo'lmaydi. O'spirinlarning ba'zilar kasblari haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar, rejalarini oldindan tuzadilar. Ba'zilar esa kasblarni ota-ona yoki boshqa kattalarning ta'risida tanlaydilar. Ba'zi o'spirinlar esa bo'lajak kasblarini tasodifiy sabablarga ko'ra tanlaydilar. (o'quv yurti uyiga yaqin bo'lgani uchun, o'rtog'i shu o'qishga kirgani uchun va h.k.) Bu esa keyinchalik tanlagan kasbidan ko'ngli sovishi, o'z kasbidan norozi bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'spirinlarning o'zaro munosabatlari. O'spirinlar do'stlik tuyg'usini insoniy munosabatlarning eng muhimi deb hisoblaydilar. Ular do'stlikka juda katta talablar qo'yadilar. O'spirinlar do'stlikning eng muhim funkciyalaridan biri uning o'ziga xos “psixoteropiya” rolini o'ynashidir. O'spirin o'z “men”ining hurmat qilinishi, qo'llab-

quvvatlanishini do'stidan kutadi. O'spirinlar odatda o'z jinsidan, tengdoshlaridan do'st tanlaydi. Qizlarning va yigitlarning do'stligi orasidagi tafovutlar hali to'liq o'rganilmagan. Bu yoshda yigit va qizlar o'rtasida ilk romantik munosabatlar paydo bo'ladi. Shunisi qiziqarliki, bu munosabatlar "epidemiya" xarakteriga ega. Ba'zi guruhlarda hamma shu "kasallik" bilan og'risa, ba'zilarida umuman bunday munosabatlar bo'lmaydi.

PROBLEMS IN TEACHING ENGLISH AND THEIR SOLUTIONS

Otaboyev Olloyor Sobirjon oqli

Namangan region, Turakurgan district

School № 28, English teacher

English teacher Teachers instructing students in learning English as another language often face with a variety of common and pupils-specific problems. Instructing pupils in the English language involves building a pupil's reading and speaking vocabulary and understanding of written and spoken English language. To facilitate a positive learning atmosphere for pupils and encourage them to practice and continue to learn the language, teachers should find ways to correct these common problems and reinforce the core information pupils need to effectively communicate in English. In following we are going to depict about the difficulties and the way to overcome related to English language.

Teachers of foreign languages may first notice that their lesson plans change over the course of the class. Classes may progress slowly despite your efforts. Pupils learning a second language often learn at different paces and generally learn material differently. Encouraging pupils to practice the skills learned in class and incorporating listening exercises, such as learning poems or parts of a favorite story in the new language out of class, pupils may be able to stay on track with your plan of instruction at a slightly slower rate. Tutoring or other supplemental activities can allow you to assist those pupils who need extra instruction on some material and maintain a close pace to the schedule you have set.

Using Other Languages

Another noticeable issue for English language teachers is having pupils fall back on their native language for conversation. It is often easier for pupils to communicate in their native language instead of English. It is usually frustrating for pupils to rethink and reword their thoughts into the new language clearly. Diversifying your pupils groups so that not all of the pupils in one group speak the same native language will discourage pupils from reverting to their native language to communicate and encourage them to use the one they have in common.

Real-World Application and Dry, Outdated Text Lessons

Differentiating between in-class speech and real-world speech application can be tricky. Textbooks and in-class material instructing pupils on the fundamental aspects of the English language and proper grammar can be stilted and very unrealistic in terms of dialogue examples. When pupils are taught English as a second language, they may assume in-class speech patterns will be the same outside the classroom. Often, textbook language uses more uncommon or outdated terms and phrases, which can confuse and contradict what a textbook shows.

Written Versus Spoken English Confusion

Pupils may be able hear and understand spoken English but confuse sentence structure and grammar when writing the same thing. Grammatical problems in writing is another problem teachers face in teaching English language. It can be difficult for pupils to write clearly in a second language, as their native language may have different requirements for tenses and placement for sentence structure. Teachers often face problems with sentence formatting and grammatical requirements needed for writing to be coherent.

Speaking motivation

Many pupils equate being able to speak a language as knowing the language and therefore view learning the language as learning how to speak the language, or as Nunan (1991) wrote, "success is measured in terms of the ability to carry out a conversation in the (target) language." Therefore, if pupils do not learn how to speak or do not get any opportunity to speak in the language classroom they may soon get de-motivated and lose interest in learning. On the other hand, if the right activities are taught in the right way, speaking in class can be a lot of fun, raising general learner motivation and making the English language classroom a fun and dynamic place to be.

Listening motivation

We know ,pupils' difficulties toward listening comprehension showed that listening is very difficult skill for pupils who study foreign language. It was based on three factors influencing their listening; they were listening material, listener factor, and physical setting. Therefore, accents, pronunciation, speed of speech, insufficient vocabulary, different accent of the speakers, lack of concentration, and bad quality of recording were the major problems encountered by pupils' English Education

Department. Understanding pupils difficulties enable the lecturer to help the pupils developing the effective learning strategies and ultimately improve their listening.

Solutions to overcome the problems were: the teacher should adapt and improve listening material, activate pupils vocabulary, give the pupils variety of accent while practice listening in language laboratory, improve their pronunciation by training from native speakers, building pupils knowledge about the topic, give some strategy in listening, and always motivate pupils. The solutions were made as a suggestion for the lecturers.

In conclusion, If this method is done in groups, the children are more interested in the material learn quickly.

INSON QADRINING TURLARI

Bahromov Sunnatilla Hamidjon o'g'li*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi**magistranti*

Alloh taolo insonni boshqa maxluqotlardan ajratib, uning qadrini ko'tarib qo'ydi. Bu qadr-qimmat, shon-sharaf, ulamo ta'kidlab aytgani kabi, bir necha bosqichga bo'linadi.

Bular:

- Ma'sumlik hamda yaratguvchi tomonidan himoyalanganlik bosqichi;
- Izzat-hurmat hamda ustunlik bosqichi;
- Afzallik bosqichi.

Quyida birma-bir mana shu bosqichlarga to'xtalib o'tamiz.

1. Insonning ma'sumlik va himoyalanganlik bosqichi.

Bu bosqich inson qadrining eng keng, umumiy hamda bardavomidir. Bu tabiiy va har bir insonga tegishli izzat-hurmat hisoblanadi. Inson zoti bu sharafni tug'ilishidan, aniqroq qilib aytganda, onaning qornida embrion bo'lib shakllangandan boshlab qo'lga kiritadi. Islom dini mana shu hurmatni, istisnosiz, butun insoniyatga taalluqli ekanligini tushuntirib keladi. Mana shu sababdan insonlar o'zlarining qonlari, mollari, jonlari, nasablari hamda hurriyatlarini himoya qila oladilar. Modomiki, inson zoti katta gunoh, ma'siyatlar qilib o'zining mana shu qadrini tushirib yubormas ekan, har bir inson insoniylik hurmatiga sazovor bo'ladi. Islom shu qadr-qimmatini bilan barcha insonlarni hayotlarida ham, vafot topganlaridan so'ng ham himoya qiladi va ularni tajovuz, zulmdan himoya qiladi. Shariatning zulmni oldini olishligiga dalil qilib quyidagi oyatni keltirishimiz mumkin:

«Va tajovuzkor bo'lmang. Albatta, Alloh tajovuzkor bandalarini xush ko'rmas».
(Baqara surasi 190-oyat).

Agar urush bo'layotgan joyda zulm, qiynoq vujudga kelsa, islom dini hatto jang maydonida ham insonlarni o'z himoyasiga oladi. Bunga payg'ambar alayhissalomning jihadga chiqayotgan sahobalariga insoniylik hurmatini saqlagan holda o'liklarni hurmatini joyiga qo'yish, urush vaqtida dushmanga nisbatan zulmga yo'l qo'ymaslik haqida aytgan hadislarini dalil bo'ladi: «Allohning nomi bilan hamda Allohning roziligi uchun g'azot qilinglar, kufr keltirganlarni o'ldiringlar, g'azot qilinglar xiyonat qilmanglar, Xusumatlashmanglar, azoblamanglar, bolalarni o'ldirmanglar ...».

Islom dini inson haq-huquqini himoya qilish yo'llarini belgilab berishlik bilan kifoyalanmadi, balki, uni amalga oshirishga qiziqirdi, undadi va rag'batlantirdi. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam o'zlarining muborak hadislarida shunday marhamat qiladilar: «Kim moli himoyasida vafot topsa shahiddir, kim jonini himoyasida vafot topsa shahiddir, kim oila a'zosi himoyasida vafot topsa shahiddir».

Insonni qadrlashlikning birinchi bosqichi o'z ichiga bir qator sabab va holatlarni oladi.
Bular:

- Inson zotining boshqa maxluqotlardan afzal ekanligi. Bunga quyidagi oyat dalil bo'ladi: «Batahqiq, Biz Bani Odamni aziz-u mukarram qilib qo'ydik va ularni quruqlig-u

dengizda (ulov-la) ko'tardik hamda ularni pok narsalar ila rizqlantirdik va uni O'zimiz yaratgan ko'p narsalardan mutlaqo afzal qilib qo'ydik». (Isro surasi 70-oyat).

•Yaratilishining ulug'ligi. Qur'on va Hadislarning ko'pgina matnlarida insonning ilohiy ijod mahsuli ekanligi tasvirlangan. Insonning Alloh taolo tomonidan qadri baland qilib qo'yilganligi, uning yaratilishi, unga surat berilishidan boshlangan. Alloh taolo «Sod» surasida quyidagicha marhamat qiladi: «U zot: «Ey, iblis, O'z qo'lim bilan yaratgan narsaga sajda qilishingdan seni nima man qildi?! Mutakabbirlik qildingmi?! Yoki oliy darajalilardan bo'ldingmi?!» dedi.» (Sod surasi 75-oyat). Bu oyati karimadagi insonning alloh taoloning qo'li bilan yaratilgan ekanligi, uning sharafi va qadri baland ekanligiga ishora qiladi. Alloh taolo insonni o'z qo'li bilan yaratganidan tashqari insonga o'z ruhidan pufladi hamda farishtalarni odamga sajda qilishlarini buyurdi. Alloh taolo oyati karimasida shunday marhamat qiladi: «Esla! O'shanda Robbing farishtalarga: «Albatta, men loydan bashar yartguvchidirman. Bas, qachonki uni rostlab, ichiga ruhimdan puflaganimda, unga sajda qilib yiqilinglar!»-degan edi», «So'ngra uni rostladi va uning ichiga O'z ruhidan pufladi. U sizlarga quloq, ko'zlar va dillar paydo qildi. Kamdan-kam shukur qilursizlar». (Sod surasi 71-72-oyatlar, Sajda surasi 9-oyat).

•Chiroyli hamda hushbichim qilib yaratilganligi. Alloh taolo Qur'oni karimda shunday marhamat qiladi: «Va qiyofangizni chiroyli suratda qildi». (Tag'obun surasi 3-oyat). Rosululloh sollallohu alayhi va sallam qachon sajda qilganlarida alloh taologa quyidagicha duo qilar edilar: «Yuzim (vujudim) uni yaratgan, unga surat bergan, undan ko'z va quloqni chiqargan, Yaratuvchilarning eng yaxshisi, barokatli bo'lgan Alloh taologa sajda qiladi». Alloh taolo kalomi ilohiyda insonni go'zal ko'rinishda yaratganligi xabarini berib, aytadiki: «Batahqiq, Biz insonni eng yaxshi suratda yaratdik». (Tin surasi 4-oyat). Bu oyatdagi go'zal ko'rinish to'g'ri, o'lchovlari joy joyida ekanligidir. Oyatning xulosasi shuki, inson mukammal, yuqori aniqlik bilan yaratilganidir. Yaratilishligining to'g'ri, kelishgan, o'lchovlari joy-joyida bo'lishligi, bu uning yaratilishidagi darajalarining eng ulug'idir. Natijada inson ilohiy sharafning eng yuqori darajalariga sazovor bo'ldi.

•Aql, nutq, fikr yurita olishlik kabi imtiyozlar belgilanganligi.

Inson boshqa hayvonlardan aql, nutq, fikr yurita olish qobiliyatlari bilan afzal qilib qo'yildi. Alloh taolo Ar-Rohman surasida shunday marhamat qiladi: «Rohman. Qur'onni o'rgatdi. Insonni yaratdi. Unga bayonni o'rgatdi». (Ar-Rohman surasi 1-4-oyatlar).

•Sa'diy bu oyat borasida quyidagicha fikr bildiradi. «Qalbidagi, zehnidagi bor narsalarni tushuntirish uchun bayonni ta'lim berdi. Bu bayon qilishlik og'zaki ta'limni ham, yozma ta'limni ham o'z ichiga oladi. Alloh taolo odamni boshqa maxluqotlardan ajralib turishligi uchun bergan bayon qilishlik sifati Allohning ne'matlarining eng oliysi hamda buyugidir»

•Insonga omonatni yuklanishi va hurriyat bilan ulug'lanishi.

Alloh taolo qur'oni karimda aytadiki: «Albatta, Biz bu omonatni osmonlarga, yerga va tog'larga taklif qildik. Bas, ular uni ko'tarishdan bosh tortdilar va undan qo'rqdilar. Uni inson ko'tardi. Darhaqiqat, u o'ta zolim va o'ta johildir». Boshqa bir oyatda esa: «Har bir insonga o'z qilganidan boshqa narsa yo'q». (Ahzob surasi 72-oyat, Najm surasi 39-oyat).

Bir qarashda insonga omonat yuklanilishligi, undan kelib chiqadigan mashaqqat, mushkulotni yechishlik uchun unga imkon berilishi, imkondan to'g'ri foydalanilmaganda jazoga tushirilishida insonni ulug'lashlik, qadrini ko'tarishlik manosi yo'qdek ko'rinadi. Lekin fikr yuritib ko'rilsa, bundayin mas'uliyatni insondan boshqasi ko'tara olmaganligi sababli insonning o'ziga yuklashlik insonni ulug'lashlik, uning qadrini yuksaltirishlikning eng buyugi va insonni e'zozlashlikka olib boradigan eng katta sabablardan biridir.

2. Izzat-hurmat va ustunlik bosqichi.

Inson qadr-qimmatining bu bosqichi insonning fitratida bo'lgan, inson bilan birga dunyoga keladigan, lekin faqat mo'min insonda bilinadigan bosqich hisoblanadi. Bunga alloh taoloning quyidagi oyati dalil bo'ladi: «Holbuki, azizlik Allohga, Uning Rasuliga va mo'minlarga xosdir. Ammo munofiqlar bilmaslar» (Munafiqun surasi 8-oyat). Alloh taolo boshqa bir oyatida quyidagicha marhamat qiladi: «Har kimga qilganlariga yarasha daraja bordir. Va Robbing ularning qilayotgan amallaridan g'ofil emasdir». (An'om surasi 132-oyat). Bu sohibining hurmati, qadrini insonlarning sharmandaligidan yoki huquqini poymol qilishlaridan yoki hurmatini tokishlaridan himoya qilishlikdir. Shuning uchun bu mo'minlik sharaf va aslzodalik tojidir. Inson mo'min-musulmon bo'lar ekan, boshqa insonlardan ajralib, ustun bo'lib qoladi, hamda qolgan mavjudotlarga bosh bo'ladi va ular unga bo'yinsunadi. Natijada u olamga ustun bo'lib, «hukmronlik» qiladi. Boshqa bir jihatdan bu hukmronlik har bir insonga tegishlidir. Uning ko'rinishlaridan:

- Yaratilgan narsalarning insonga bo'yinsundirilganligi. Bu borada Alloh taolo Qur'oni Karimda shunday marhamat qiladi: «U sizlarga yerni to'shab, osmonni bino qilgan va osmondan suv tushirib, u bilan sizlarga mevalarni rizq qilib chiqargan Zotdir. Bilib turib Allohga boshqalarni tenglashtirmang» (Baqara surasi 22-oyat).

Alloh taolo insonlarga osmonlardagi quyosh, oy, yulduzlar va bulutlarni, yer yuzidagi hayvonlar, daraxtlar, quruqlik va dengizdagi narsalar va insonga manfaat keltiradigan boshqa narsalarni bo'yinsundirib qo'ydi. Bularning barchasi insonning manfaatlari, rizqi, vaqtni o'lchashligi va boshpana qilishligi uchun joriy qilingan. Inson bularning bazasidan zavq barchasidan esa foyda oladi.

3. Afzallik bosqichi.

Inson qadrining bu bosqichi avval o'tgan ikki bosqichdan farqli o'laroq, inson o'z hayoti davomida egallaydigan, erishadigan, insonning turmush tarziga bog'liq bo'lgan qadr-qimmat bosqichidir. Bu bosqichga quyidagicha amal qilishlik bilan yetiladi:

- Ibodot va Allohning toatida bo'lishlik. Inson o'z nafsini ibodat qilishlik bilan poklaydi va u bilan darajasi yuksaladi. Natijada Alloh taologa muqarrab banda bo'ladi va taqvosi ziyoda bo'ladi. Alloh taolo kalomi ilohiyda bandalarning eng qadri ulug'i taqvodorrog'i ekanligini ochiq-oydin aytadi. Taqvo faqatgina buyurilgan ishlarni bajarish, qaytarilganlaridan qaytishlik bilan bo'ladi. «Albatta, Allohning huzurida eng hurmatligingiz eng taqvodoringizdir» (Hujurot surasi 13-oyat). Imom Zuhayli bu oyat borasida quyidagi fikrni bildiradilar: «Insonlar orasidagi afzaliyat faqatgina taqvo bilan bo'ladi. Kimda-kim mana shu sifat bilan sifatlangan bo'lsa, u eng qadri baland, eng sharafli va eng afzal kishidir. Albatta Alloh taolo sizlarni va amallaringizni biluvchi, qalbingiz, ahvolingiz va ishlaringizdan xabardordir.

•Ilm olishlik va bilishlik. Alloh taolo rasuliga buyurgan ilk buyrug'i ilm olishlik bo'lgan: «Yaratgan Robbing nomi bilan o'qi» (Alaq surasi 1-oyat), so'ngra ilm va ulamo fazlini bayon qilgan: «Alloh sizlardan iymon keltirganlarning va ilm berilganlarning darajalarini ko'taradir», «Sen: «Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'larmidi?!»-deb ayt» (Mujodala surasi 11-oyat, Zumar surasi 9-oyat).

“АРБАИН”ЛАРДА КЎТАРИЛГАН ОДОБ-АХЛОҚ МАВЗУСИ

Мирзаниёз Ражабий Хамидзода

Ўзбекистон халқаро ислом академияси

магистранти

“Арбаин” асарлари ҳадислардан ташкил топгани учун ҳар бирида одоб-ахлоқ мавзуларига алоҳида эътибор қаратирилган. Мисол учун, Алишер Навоийнинг *«Арбаин»* идаги *тўртинчи ҳадис: “Икки хислат мўминда жам бўлмайди: бахиллик ва ёмон хулқ»*¹² (Имом Абу Довуд ва Имом Термизий ривояти).

Шунингдек, бошқа – 26, 28, 30, 31, 35, 36-ҳадисларда¹³ бевосита одоб-ахлоққа оид ҳадислар келтирилган бўлса-да, қолганлари ҳам хулқ ва юксак маънавиятни ифодалайди.

Одоб масаласи Исломда ўта муҳим ўрин тутди. Чунки Аллоҳ таолога қурбат ҳосил қилишда одобнинг ўрни жуда муҳим. Беодоблик барча нарсани, жумладан, амални ҳам, қалбни ҳам, тилни ҳам, бошқа барча уринишларни ҳам бузади. Одобсиз одам бирор нарсага эришиши, жамиятда яхши ўрин топиши мумкин эмас. Одобсиз киши ҳатто бошқалар билан алоқаси, муносабатларини ҳам яхшилаёт олмайди.

Шу боис тасаввуф аҳлининг қоидаларидан бирида: “Одоб бўлмагунча, Ҳақ ва халқ билан сайри сулук бўлмас”, дейилган. Шунинг учун ҳам машойихлар: “Ким нимага эришса, фақат одоб билан эришади. Ким нима билан қуласса, фақат беодоблик билан қулайди”, деганлар¹⁴.

Улуғ маърифатпарвар аллома Маҳмудхўжа Беҳбудий ёшларга мурожаатномасида, жумладан, бундай ёзади: “...Ушбу тараққий этган замонда илмсиз, маърифатсиз, қуруқ таассуб билан яшаёт бўлмайди. Ҳозирги замонавий тараққиёт ва ривожланиш шундай кучли бўлмоқдаки, озгина фурсат ўтар-ўтмас қуруқ ва чириган таассубларимизни илдизи билан қўпориёт ташлайди. Шунинг учун барча ёшларимиз бу борада бир нарсага таянишлари мумкин. Бу нарса илму маърифатдир”¹⁵.

Бошқа бир аллома эса: “Фарзанд тарбиясига лоқайд қараган миллат инқирозга маҳкумдир. Уларни бегона қўллар ва бегона маданиятга таслим этганлар ўзини йўқотишга маҳкумдир. Бугунги кунда тузумнинг юзи қоралари ҳисобланган золимлар, ароқхўрлар, бузуқлар, бангилар, исёнкорлар кечаги кунда тарбиясига бепарво қаралган болалардир”, деган.

Бу сатрлар бугун ҳам долзарблигини йўқотмаган!

¹² Алишер Навоий. Навоийдан чу топқайлар навое. Нашрга тайёрловчилар, таржима ва изоҳлар муаллифлари: Ҳ. Абдулмажид, Ҳ. Абдулмажид. – Т.: “Ҳилол нашр” нашриёти, 2014. – Б 58.

¹³ Алишер Навоий. Навоийдан чу топқайлар навое. Нашрга тайёрловчилар, таржима ва изоҳлар муаллифлари: Ҳ. Абдулмажид, Ҳ. Абдулмажид. – Т.: “Ҳилол нашр” нашриёти, 2014. – Б 98–112.

¹⁴ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ижтимоий одоблар. – Т.: “Ҳилол-нашр” нашриёти, 2014. – Б. 73.

¹⁵ “Ойна” журнали, 1914 йил, 41-сон.

Яхши одоб аслида нафсинг камолотга етгани, унинг интизомлилиги, жиловлангани ва яхшилиқда эканининг аломатидир. Аксинча, беодоблик нафсинг покланмагани, жиловланмагани ва интизомда эмаслиги аломатидир.

Одоб иккига: назарий ва амалий жиҳатга бўлинади. Одоб олдин назарий жиҳатдан ўрганилади ва кейин унга амал қилинади. Одобнинг доираси шу даражада кенги, оддий нарсаларга нисбатан бўлган одобдан бошлаб, то барча нарсаларнинг Раббига нисбатан бўладиган одобгача бор.

Исломда одобнинг яхшилиқка чақириш маъноси инсонга боғланган барча нарсаларда намоён бўлади, яъни мусулмон инсоннинг ўзи билан боғлиқ барча нарсага одоб билан – яхшилиқ юзасидан муомала қилиши йўлга қўйилган. Бу муомалалар жамодот – жонсиз нарсалардан бошланади. Кейин наботот оламига, сўнгра ҳайвонот оламига ўтади, сўнгра эса инсоният, фаришталар олами ва ҳоказо оламларни қамраб олади. Исломдаги одоблар мусулмон инсоннинг ўз Набийси ва Раббига кўрсатадиган одоби ила тож кияди, камолга етади.

Инсон тарбия жараёнида яхши хулқ-атворга, одатларга ва ақл-фаросат омилларига эга бўлса, ҳаёт сабоқларини шунчалик яхши англайди ва яхши ишларни амалга оширади ва аксинча, қанчалик тарбияси кам, ҳаётини кўникмалари оз бўлса, бундай шахс баъзан билиб ёки билмай ёмон ишларга қўл уради.

Ҳеч қачон болаларни тарбиялашда йўл қўйилган хато-камчиликлардан кўз юммаслигимиз керак. Ҳозирги турмушимизда баъзи бир одобсиз, билимсиз, ақлсиз, гиёҳванд, ота-онасига қўл кўтарадиган ва ўз болаларининг бахтсиз яшашига сабабчи бўлаётган кишилар учрайди. Бундайларнинг пайдо бўлишига асосий сабабчи ота-оналари-ку? Боласининг инсоний хатти-ҳаракатларига уларнинг тарбияга лоқайдликлари сабаб бўлган.

Яхши тарбия, баъзилар ўйлаганидек, бир соатлик ёки бир кунлик иш эмас. Мақсадли тарбия тарбиячидан чидам, матонат, катта билим ва тажриба талаб қилади. Демак, ҳар бир ота-она ва ўқитувчи тарбияга оид билим ва малакага эга бўлиши шарт.

Болалар тарбиясида қисқа фурсатда ижобий натижаларга эришиш учун уларга билим бериш билан бирга, маълум меҳнат жараёнларига жалб этиш, касб ва мутахассислик сир-синоатларини қўшиб ўргатиш мақсадга мувофиқдир. Тарбия ишининг баъзан самарасиз бўлишига асосий сабаблардан бири тарбия жараёнида тартиб-интизомнинг бўлмаслигидир. Шахс қанчалик меҳр-муҳаббат ва тартиб-интизом асосида тарбияланса, ёмон хатти-ҳаракатлардан шунчалик узоқ бўлади.

Тарбиянинг асосий мақсади ёшларни бахтли-саодатли, ўз замонининг азиз, ҳурматли ва фидойи кишиси қилиб тарбиялашдан иборат.

Тарбиянинг мураккаблиги шундаки, у ҳеч қачон тугамайди, яъни киши туғилганидан то ўлгунига қадар зарур бўлади. Бундан ташқари, тарбия кўрган авлод ўрнига келган фарзандларни яна қайта бошдан тарбия қилиш даркор бўлади. Бу эса тарбиянинг тинимсиз даврийлигини ва абадийлигини кўрсатади.

Ислом таълимотига кўра, фарзанд ота-она зиммасидаги омонат бўлиб, улар бу омонат ҳақида масъулдирлар. Фарзандлар тарбиясига эътиборсизлик улкан хато,

омонатга хиёнат ва киши динининг нуқсонидир. Ота-она фарзандининг биринчи мураббийидирлар.

Ҳар қандай тарбия, хусусан, насихат оилада бошланади. Тарбиянинг бош мақсади – бир-бирига меҳр-оқибатли инсонларни вояга етказишдир. Ота ва оналар яна унутмасинларки, бугун фарзандлари тарбиясига эътибор бермаган киши орадан йиллар ўтгач, уйсиз, оиласиз қолади.

Абу Ҳомид Ғаззолий фарзанд тарбияси ҳақида дейди: “Билгин! Бола тарбияси энг муҳим ишлардандир. Фарзанд ота ва онага омонат. Бола қалби пок, нозик, содда ва ҳар қандай нақш ва суратдан холи гавҳардир. Унга қандай нақш солинса, шунга кўра шаклланади, эгган томонга эгилади. Агар бола яхшиликка ўрганиб, яхшилик ичида вояга етса, дунё ва охират саодатини топади. Албатта, бу савобга унинг ота-онаси, муаллими ва унга тарбия берган ҳар бир киши шерикдир. Агар бола эътиборсиз ташлаб қўйилса, ёмонлик ичида ўсса, бадбахтликка юз тутуди ва ҳалок бўлади. Бунда гуноҳ юки шу кўйга солганларнинг, ота-онанинг зиммасига юкланади”¹⁶ дейди.

Тарбиянинг икки асоси бор: фазилатни кўриқлайдиган гўзал ахлоқ ва ярамас йўлдан, ёмон аҳволга тушишдан сақлайдиган хушёрлик. Ота фарзандини дунё оловидан қанчалик ҳимоя қилса, охират оловидан ундан-да кўпроқ ҳимоя қилмоғи керак. Одобу тарбия воситасида яхши хулқларни ўргатиш, ёмонликлардан қайтариш, тўкин-сочинликка одатлантирмаслик, зийнатга муҳаббат уйғотмаслик билан ота фарзандини охират оловидан асрайди.

Фарзанд тарбияси қанчалик эрта бошланса, тарбия натижаси шунчалик самарали бўлади. Чунки эрта ёшда уларни яхшилик томон буриш осонлик билан кечади. Тарбиясизликдан вужудга келган ёмон хулқ ва одатларни кейинчалик қайта тарбиялаш йўли билан тузатиш мумкин. Аммо бунинг учун кўп меҳнат сарф қилишга тўғри келади.

Мовароуннаҳр билан бир қаторда бошқа ислом ўлкаларида ҳам “Арбаин” ёзган олимларнинг асарларида ахлоқ-одоб масаласи алоҳида ўрин тутган. Мисол учун, Муҳаммад ибн Аслам Тусий (ваф. 242 ҳижрий); Абу Аббос Ҳасан ибн Суфён Насавий (ваф. 303 ҳижрий); Абу Бақр Муҳаммад ибн Ҳусайн Ожирий (ваф. 360 ҳижрий); Муҳаммад ибн Иброҳим ибн Али ибн Муқрий (ваф. 381 ҳижрий); Абу Ҳасан Али ибн Умр Дорақутний (ваф. 385 ҳижрий); Абу Бақр Аҳмад ибн Ҳусайн Байҳақий (ваф. 458 ҳижрий); Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Абдуллоҳ Ҳоким (Ваф. 405 ҳижрий); Абу Саъд Аҳмад ибн Муҳаммад Молиний (ваф. 412 ҳижрий); Ҳофиз ибн Асокир (ваф. 571 ҳижрий) каби олимларнинг асарларида ҳам турли йўналишдаги ҳадислар танлаб олинган.

¹⁶ Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафатул қулуб. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2001. – Б 83.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алишер Навоий. Навоийдан чу топқайлар навое. Нашрга тайёрловчилар, таржима ва изоҳлар муаллифлари: Ҳ. Абдулмажид, Ҳ. Абдулмажид. – Т.: “Ҳилол нашр” нашриёти, 2014. – Б 58.
2. Алишер Навоий. Навоийдан чу топқайлар навое. Нашрга тайёрловчилар, таржима ва изоҳлар муаллифлари: Ҳ. Абдулмажид, Ҳ. Абдулмажид. – Т.: “Ҳилол нашр” нашриёти, 2014. – Б 98–112.
3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ижтимоий одоблар. – Т.: “Ҳилол-нашр” нашриёти, 2014. – Б. 73.
4. “Ойна” журнали, 1914 йил, 41-сон.
5. Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафатул қулуб. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2001. – Б 83.

**УЛАМОЛАРНИНГ ҚУВҒИНГА УЧРАШИ ВА МАСЖИД
МАДРАСАЛАРНИНГ ЁПИЛИШИ**

Илмий раҳбар т.и.н. доц.: Жумашев Асқар

Якупов Ахмет Айтмуратович

«Ўзбекистон тарихи» мутахассислиги 2-курс магистранти

Наўбетов Айтбай Темирбаевич

«Ўзбекистон тарихи» мутахассислиги 2-курс магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада қатагон қурбонларининг аянчли оқибатлари, дин уламоларининг аёвсиз хўрлангани, ҳаттоки қатл қилингани, масжид мадрасаларнинг ёпиб, аҳолини ўз динидан жудо қилишга ҳаракатлар қилингани ҳамда ўша давр аҳволи ҳақида ишончли манбалардан фойдаланилган ҳолда маълумот берилган.

Таянч сўзлар: Эшон, репрессия, қатагон, уламо, қорақум, мадраса, масжид, уламолар қўрилтойи.

Қорақалпоғистоннинг 1920-1940-йиллар оралиғида сиёсий ва ижтимоий тарихида репрессияларнинг бир неча тўлқини бўлиб ўтди. Бу тўлқинлар қорақалпоқ халқи тарихида қайғули излар қолдириб, халқнинг энг илмли, довюрак фарзандларини нобут қилди.

Академик С. Камаловнинг изланиши буйича кенгач ҳукуматининг юргизган репрессияларини етти даврга бўлиб қарайди. Шунинг иккинчи даври 1928-1930-йиллар бўлиб, бу йиллари мажбурий услуб билан коллективлаштирилиб, қишлоқларни советлаштириб, масжид-мадрасаларни ёпиб, имомлар қамокқа олинди.

Учинчи репрессия бу халқимизнинг рухий бойлигин йўқ қилишга қаратилади. 1928-1930-йиллари элимизда лотин алифбосига ўтишга боғлиқ болшевиклар барча араб алифбосидаги ёзилган китоб ва қўлёзмаларни йўқ қилиш сиёсатини амалга оширишди. Уламо ва эшонлар қамокқа олинди. Мисол тарийқасида Иноят эшон Баховуддинов, Қалийла охун Отовлиев, Пахратдин эшон Мунайдаров, Тансиқ хўжа Ўринбоев, Каримберди охун Нуриллаевлар РСФСР жиноят кодексининг 58-статьяси 2-бўлимининг жиноят белгилари билан айбланиб энг оғир –отиб ўлдириш жазосига ҳукм этилди.

Мана шу сиёсатнинг натийжасида халқимизнинг жуда кўп мэрослари йўқ бўлиб кетди. Мактабларда ва уйларда араб алифбосида ўқиш ман этилди.

Еттинчи репрессия иккинчи жаҳон уруши ва урушдан кейинги йилларда бўлганлиги маълум. Бунда уламолардан Салмон эшон Камолов, Баир эшон Разов, Пурхон охун Қайипназаров, Ниёзимбет охун Мамутов, Қалимбет охун Ўтамуродов, Алланазар охун Қўшназаровлар “Германия фашистлари ва Япония жосуслари” дея айбланиб сургун азобларини бошларидан кечирдилар.

Тарихчилар Ғ.Хожаниязов, О.Юсуповларнинг “Қорақалпоғистондаги муқаддас жойлар” китобида, 1929-йили кузда Қорақалпоғистон ерларида Кенгаш ҳукумати ва партия ташкилотларининг нотўғри сиёсатига норозилик билдирган Тахтакупир,

Чимбой, Кегайли туманларининг кўп зиёлилари ОГПУ тарафидан қувғинга учради, камалди ва отилиб кетти деб ёзишлик билан 51 та одамнинг номларин келтириб ўтади. Шу тизим орасида халқимизнинг тарийҳида номи машхур уламоларнинг номи келтирилади. Мисол тарийҳида Баховуддин ўғли Иноят эшон 45 ёшда, Мавлотдин ўғли Нажим эшон 53 ёшда, Отаулло ўғли Қалийла охун эшон 74 ёшда ва бошқалар.

Шунинг билан бирга, 1930-йили Қорақалпоғистон ўлкасидаги ярим феодал ва қурғин хўжаликларни аниқлаш ва уларни бартараф этиш бўйича кескин кураш олиб борилди. Ушбу фаолият партия ва кенгаш ташкилотлари тарафидан тўзилган учталиқ иттифоқи орқали иш бошлади. Шу йиллари қувғинга учраганларнинг баъзиларининг архивдан олинган номларини келтириб, унда 83 та одам бўлган. Уларнинг орасида Садатдин махсум Абдуллаев, Саркопли эшон, Исметуллаев Мадрайим эшон, Абдурашид эшон, Қўнғиротли, Шамамбетов Маткарим эшон, ва бошқалар. Охун, эшон ва муллаларнинг қувғинга учраганликлари билан масжид-мадрасалар ёпилган, таълим билан шуғилланувчи мудррислар ер чоптирилган. Мана шу қийин вазиятларда улгира олганлар китобларини қабристонларга олиб бориб қўмишган, улгира олмаганларнинг китоблари эса чала савот аҳмоқлар қўлида ўтда ёндирилган. Яна шуни айтиш керакки, олимларнинг мана шу китобида 1930-1937-йилларда ёпилган масжид-мадрасаларнинг архив қўлёзмаларида бир қанча инсонларнинг номлари зикр қилинади. Унда уламо, эшонларнинг бошқарган масжид-мадрасалари, жойлашган ўрни, қувғинга олинган йиллари ва бошқа бир қанча маълумотлар келтирилган.

Устозимиз, А.Қудяровнинг ёзишича эски мэъросларимизни йўқ қилиш, ва уларни тарбияловчи олимларни қувғин қилиш фақатгина Кенгаш хокимияти давридагина бўлмасдан ундан олдинги даврдаги халқимизга қилинган босқинчилик даврларида юз берган. Улар бой мэъросимизни ва эски қўлёзмаларни, китобларни ёқотишга ҳаракат қилганлар. Асосан, руслар босқинчилиги оқибатида олимлар қувғинларга дучор бўлиб, китоблар, адабиётлар ва шажаралар ёқиб юборилган. Ўша пайтларда масжид-мадрасалар ёнида катта-катта кутубхоналар бўлган. Афсуски, 30-йиллардаги қувғин қилиш сиёсати даврида жуда кўп китоблар йўқ қилинган. Буларнинг баъзилари бугунги кундаги мустақиллигимиз шарофати билан, халқ орасидан топилиб ўрганилмоқта. Мисол тариқасида тадқиқотчилар тарафидан Қорақум эшон мадрасасида улкан кутубхонанинг бўлганлиги айтилади. Бу жойга Москва давлат университетининг талабалари этнографик таёргарликка келишган. Улардан Н.А Баскаков, А.Давлетов ва бошқалар алоҳида холда кутубхонадаги қўлёзма ва китобларни кўриш учун мадрасага келган. Лекин, номаълум сабабларга кўра бу талабалар кутубхонани кўра олишмаган. Қорақалпоқлар орасида Чимбойда Хон масжиди, Ойимбет эшон мадрасаси ва бошқада масжид-мадрасаларда бир-қанча минг томлик табаррук китоблар сақланган.

1928-йили 17-августта Қозоғистон Марказий Бошқариш Комитети тарафидан “Мулкдор уламоларнинг ер-мулкларин конфискатциялаш бўйича” декрет ва бу бўйича Қорақалпоғистон вилоятлик партия комитетининг III конфеференциясининг кўриб чиқганлиги мулкдор уламоларга бўлган эътиборни чалкаштириб ташлади.

Масжид, мадрасалар ёпилди. Кенгаш ҳукуматига қарши кўпоровчилик ҳаракати учун эшон, уламолар бирин-кетин қамоқга олиниб сургун қилинди. Ҳалқимиз орасидаги мана шундай таниқли инсонлардан Салмон эшон Камалов ҳисобланади. У киши ҳақида адабий ва илмий меҳнатлари бор.

Шулардан бири журналист Ў. Ўтевлиевнинг «Виждон ва ҳукм» номли китоби бўлиб, унда муъаллиф тегишли ҳужжатлар асосида Салмон эшон Камалов, Пурхан охун Қайыпназаров ва бошқа уламоларнинг қувғин қилинишлари тўғрисида маълумотлар келтиради. Айниқса, 1928-йилдан бошлаб масжид-мадрасаларнинг ёпилиши, уламоларни қувғин қилиш ҳаракатини кўчайтириб юборди. Шунинг учун ҳам мана шундай ҳаракатларга чидамаган, уларнинг маълум бир қисми иттифок давлатига қарши 1929-йилда қўзғолонга чиққан эди. Қўзғолон бостирилганидан кейин, уларнинг бир қисми қўлга олиниб, зиндонга ташланган бўлса, бошқа бир қисми қувғинликдан қўтилиш мақсадида хориж давлатларига қочиб кетишга мажбур бўлди.

Яҳё ва Бекбосин Низамаддин ўғли ҳақида бошқа маълумотлар уруш ва меҳнат ветерани Т. Абдимуратовнинг китобида келтирилади. Нурсейитнинг бобоси Ўте қози деган одам бўлиб, у ўз даврида қозиликни одил юритган. Шунинг учун бўлса керак, уларнинг авлодлари ҳам билимли ва одобли бўлиб етилишган. Яҳё, Бекбосин дастлаб Чимбой шаҳридаги Ҳожи эшон масжидида, ундан кейин Мақтум охуннинг масжидида ўқиб таълим олди. Шу даврнинг савотли одами бўлди. Илмсиз одамларни ўқитди, савотини очди.

Республикамиздаги репрессия қурбонлари ҳақида китоблар ва мақолалар ёзаётган профессор Ш. Бабашев ҳисобланади. У ўзининг бир мақоласида бундай деб ёзади: Қорақалпоғистон Ички Ишлар Халқ Комиссари обрўли уламолардан ўч олиш мақсадида ўйишмаларга жўнатган баёнотида бундай деб ёзади: «1937-йилнинг январь-апрел ойларида мусулмон мўлласларининг Қорақалпоғистон ҳудудида иттифок ҳукуматига қарши ҳаракатлари аниқланмоқда. Улар кўпчилик деҳқонлар қатламини ҳалиям ўзларининг таъсири остида сақлаб, капиталистик давлатлар томонидан интервенция қилиш орқали иттифок давлатини қулатишни ўз олдига мақсад қилиб қўйган. Қорақалпоғистоннинг бир неча мўлласлари ўз мақсадларини амалга ошириш учун чет эл жосуслари билан алоқада бўлган. Ерон ва Афғонистон мусулмон мўлласлари билан алоқа қилиш орқали Қорақалпоғистон ҳудудида «контрреволюциялик миллатпарас ўйишма» ташкиллаштириб фаол ҳаракат қилмоқда». Шундай қилиб, ИИХК ва туман бўлими бошлиқлари асоссиз турли бўҳтон билан айблаб мўлла, эшон, охунларни оммабий тарзда қамоққа олишни давом этди.

1960-йилларга келиб ҳар ҳил босқичдаги суд инстанциялари репрессия ишларини қайта кўриб чиқиб, оқлай бошлади. Масъул ташкилотларнинг Тошкент, Олма-ота каби шаҳарлардаги давлат ва ёпиқ архивларида республикамиз жамиятчилигининг ҳар ҳил даврларидаги репрессия қурбонларининг ҳаёти тарихини берувчи қимматли ҳужжатлари ҳали ҳам сақланмоқда. Ўша тарихий манбаларини

Ўрганиш ўз халқимизнинг тарихин чуқурроқ ўрганиш бўлажак тарихчиларнинг ва бошқа соҳа вакилларининг халқ олдидаги бурчи.

ФЙДАЛАНИЛГАН МАНБАЛАР:

1. Т.Абдимуратов репрессияга ушыраган уламалар: Салмен ийшан Камал улы, Пурхан ийшан Қайыпназар улы, Алланазар ахун Қосназар улы, Қалимбет ахун Өтемурат улы. Нөкис. “Қарақалпақстан” 1992 йил.
2. Джумашев, С.Нуржанов, Л. Уразова, Р. Таджиева. Қарақалпақстан тарийхи (1991-2015 жыллар). Нөкис. “Илим” 2018 жыл.
3. Р.Базарбаев. История кадровой политики советской власти в Каракалпастане. Нөкис. “Билим” 2012 жыл.
4. Игор Бунич. Партиянинг олтинлары. Тошкент. ”Манавият” 2016 й.
5. Ө.Қарлыбаев. Орай жиберген жалладлар ҳам бийгүна қурбанлар. Нөкис. “Қарақалпақстан” 1992 жыл.
6. Ө.Пахратдинов. Шейитлер тағдири. Нөкис. “Қарақалпақстан” 2008 жыл
7. А.Султанов. Наҳақтан төгилген қан. Тошкент. “Янги китоб” 2020 йил.
8. К.Нуржонов. Ғ. Хожаниязов. Амударё. Тошкент. “Меридус” 2009 йил.
9. С. Камалов. РСФСР ҳам Қарақалпақстан. Нөкис. “Қарақалпақстан” 1978 жыл.
10. М.Қарлибаев. Медресе в каракалпакии ХИХ-начала ХХ веков. Нөкис. “Билим” 2002 жыл.
11. История Каракалпакской АССР. ИИ том. Ташкент. “Фан” 1974 жыл.
12. С.Нуржанов. Периодическая Каракалпакстана в системе общественных отношений. Нөкис. “Илим” 1992 жыл.
13. Ш.Бабашев Репрессии. Депортация. Преступления против человечества. Нөкис. “Қарақалпақстан” 2014 йил.
14. Ш.Бабашев Жазықсыз жазаланған репрессия қурбанлары. Нөкис. “Қарақалпақстан” 2007 йил.
15. Ш.Бабашев Дөхмет дегизи. Нөкис. “Қарақалпақстан” 2009 йил.